

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**4-son (aprel 2024)**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal  
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

**Urganch – 2024**

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

**TAHRIR HAY‘ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ABDULLAYEV O‘tkir**, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ATADJANOV Ilxam**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**ATAYEV Shokir**, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),  
**AHMEDOV Oybek Saporbayevich**, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DO‘SCHONOV Tangribergan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ERMETOVA Jamila**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),  
**JUMANAZAROV Doniyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, (Ma‘mun universiteti),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich**, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OTAMURODOV Sa‘dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RUZMETOV Surojbek**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**RO‘ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),  
**Sadullayeva Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),  
**SALAYEV San‘atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SATIPOV G‘oipnazar**, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),  
**O‘ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**O‘ROZBOYEV G‘ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),  
**G‘AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, professor (mas‘ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 4-son (aprel 2024)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti •Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

Daliyev Sherzod Karshiyevich (SamDU Kattaqo'rg'on filiali dotsenti; [daliyev.sherzod@mail.ru](mailto:daliyev.sherzod@mail.ru)),  
Qurbonboyeva Shohida Otabek qizi (SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabasi)  
**YEROSTI SUVLARI HARAKATINING GIDRODINAMIK JARAYONLARINI MATEMATIK  
MODELLASHTIRISH**

**Annatsiya.** Ushbu maqolada yerosti suvlari sathi o'zgarishini monitoring va bashorat qilish jarayonini ifodalovchi matematik model ishlab chiqilgan. Qaralayotgan muammoga oid ilmiy tadqiqot ishlari-ning sifatli tahlili keltirilgan. Jarayon nochiziqli differensial tenglama bilan ifodalanganligi sababli, uni yechishda chekli-ayirmali sxemalariga asoslangan sonli algoritm ishlab chiqilgan. Ikki qatlamli plastlarda aktiv g'ovaklik, debitni hisobga olib, yerosti suvlari sathi o'zgarishi masalasini hisoblash sonli algoritmi ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** matematik modellashtirish, sonli usul, hisoblash tajribasi, dasturiy vosita, yer osti suvlari, filtrlashning matematik modeli.

### **МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ГИДРОДИНАМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ДВИЖЕНИЯ ПОДЗЕМНЫХ ВОД**

**Аннотация.** В данной статье разрабатывается математическая модель, которая представляет процесс мониторинга и прогнозирования изменений уровня подземных вод в них. Представлен качественный анализ исследовательской работы по рассматриваемой проблеме. Поскольку процесс представлен нелинейным дифференциальным уравнением, для его решения был разработан численный алгоритм, основанный на конечно-разностных схемах. Разработан численный алгоритм для расчета проблемы изменения уровня подземных вод с учетом активной пористости, расхода в двухслойных пластах.

**Ключевые слова:** математическое моделирование, численный метод, вычислительный эксперимент, программное средство, подземных вод, математическая модель фильтрации.

### **MATHEMATICAL MODELING OF HYDRODYNAMIC PROCESSES OF GROUNDWATER MOVEMENT**

**Annotation.** This article develops a mathematical model that represents the process of monitoring and predicting changes in the groundwater level in them. A qualitative analysis of the research work on this issue is presented. Since the process is represented by a nonlinear differential equation, a numerical algorithm based on finite-difference schemes was developed to solve it. A numerical algorithm has been developed to calculate the problem of changing groundwater levels, taking into account active porosity, flow rate in two-layer formations.

**Key words:** mathematical modeling, numerical method, computational experiment, software, groundwater, mathematical model of filtration.

**Kirish.** Qishloq xo'jaligi sektori rivojlanishida energiya va mehnat sarfini kamaytirish, atrof-muhit himoyasi talablarini bajargan holda, hosil samaradorligini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati yaxshilash asosiy masalasida sifatida qaraladi. Bu o'z o'rnida agrolandshaftlarda suvni qayta tiklash (melioratsiya) intensivligi, qishloq xo'jaligi drenajlari hisoblashlari va yerlarning sug'orish muammosi bilan bog'liqdir. Shuni ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyo, Kavkaz va boshqa regionlar qishloq xo'jaligi yerlari sug'orilishida drenaj suvlarini hisobidan sug'orish 30% ulushgacha yetadi.

Bu muammolar yerosti suvlari sathining o'zgarishi bo'yicha monitoring va bashoratlash, keyinchalik, qaror qabul qiluvchi «model – algoritm – dasturiy ta'minot – hisoblash eksperimenti» effektiv matematik instrumenti yordamida o'rganish imkonini beradi. Bunday turdagi matematik instrumentni murakkab tabiat sharoitida shartli filtratsiya miqdorini baholash uchun mintaqaviy shakllanish qonun qoidalari, yerosti suvlarining harakati va tarqalishi, gidrogeologik izlanilishlar hajmlarini belgilash va qo'llanilayotgan usullarning ilmiy asoslanishi uchun effektiv qo'llash mumkin.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 24-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda yerosti suvi resurslari va yerosti suvlari sathining keskin pasayishi ekologik vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidladi. Prezidentimizning so'zlariga ko'ra, Toshkent shahrida yerosti suvlari sathi 7 metrga, Jizax va G'allaorol tumanida esa 4 metr gacha pasaygan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/10/drilling-of-the-wells/>

Umuman olganda, yerosti suvlari monitoringi va kadastrini yuritishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda «Onlayn» rejimda interaktiv xaritografik ma'lumotlar bazasini shakllantirish matematik modellashtirish va dasturiy majmuyi joriy qilinib, ma'lumotlar bilan to'ldirib borilishi zarurligi, hozirda 2667 ta mavjud kuzatuv quduqlaridan 250 tasi masofaviy avtomatik o'lchov uskunalari bilan jihozlanildi, 2022-yil noyabr oyida ularning soni 400 taga yetdi.

Mavjud matematik modellashtirish vositalari keng qamrovli tadqiqotlarni ta'minlashga qodir, uning maqsadi sanoat mintaqalarining gidrogeologik, muhandis geologik va ekologik holatini bashorat qilish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yetarlicha yuqori darajadagi ishonchlilik bilan qarorlar qabul qilish masalalarida avtomatlashtirish uchun adekvat modellar, samarali hisoblash algoritmlari va dasturiy majmuylarni ishlab chiqishdir [1;2-b.].

Shuni ta'kidlash kerakki, kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minotining hozirgi rivojlanish darajasi o'rganilayotgan jarayonlarni murakkab kompyuter modellari asosida deyarli har qanday murakkablik va turli o'lchamdagi muammolar bo'yicha hisoblash tajribalarini o'tkazishga imkon beradi, ular ko'p sonli turli omillarni hisobga oladi.

Ichimlik suvi va geoeologik holat masalalarining dolzarblashuviga javoban, hozirgi vaqtda yerosti suvlarining areatsiya chegara qatlamida zararli moddalarning o'tishi va tarqalishi jarayonlarini matematik modellashtirish masalalari dunyoda ko'plab olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Suv olish inshootlari hududida yerosti va yerusti suvlarining o'zaro aloqasi jarayonini kompyuterli modellashtirish vositalaridan foydalangan holda, amaliy va fundamental xarakterdagi ko'plab tadqiqotlar bajarilgan va amalga oshirilmoqda.

To'yinmagan va to'yingan tog' jinslari va tuproqlarda harorat va massa almashish jarayonlarining ishonchli miqdoriy bahosini matematik modellashtirish va hisoblash tajribasi orqali olish mumkin. Matematik modellashtirishning mohiyati o'rganilayotgan obyektning tegishli matematik model bilan almashtirish va uni kompyuter yordamida o'rganishdan iborat bo'lib, model bilan ishlash obyektning ichki aloqalarini uning sifat xususiyatlari, miqdoriy parametrlarini ochib beruvchi batafsil va vizual ma'lumotlarni tezkor olish va an'anaviy eksperimental yondashuvlarga xos bo'lgan moddiy hamda mehnat xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Bu obyektga sodir bo'layotgan jarayonlarga ta'sir qiluvchi ko'plab bog'lanishlar va omillarni hisobga olish, obyektning real va ekstremal sharoitlarda o'rganish va shu bilan ekologik xavfsizlik bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Albatta, matematik modellashtirishning o'zi o'rganilayotgan obyektning fizik va geologik xususiyatlarini tahlil qilish, raqamli algoritmlarni ishlab chiqish, muammoga modernizatsiyalantirilgan dasturiy ta'minotni yaratish va yakuniy hisob natijalarini tahlil qilish va sharhlagacha bo'lgan kabi, butun bir qator sinov-hisoblash tajribasi bilan bog'liq masalalarni keltirib chiqaradi. Yuqori quvvatli kompyuterlarning paydo bo'lishi munosabati bilan, turli xil raqamli usullar va algoritmlarga qiziqish sezilarli darajada oshdi, ularning amalga oshirilishi hisoblash tajribasini o'tkazish bilan chegaralanib qolmasdan, xalq xo'jaligidagi muhim obyektlarda joriy qilinib, foydalanishni asoslash va qaror qabul qilish uchun asosiy ko'makchi bo'lib xizmat qilmoqda [3;4-b.].

Yerosti suvlarini filtrlanish jarayoni bilan bog'liq muammolar elliptik yoki parabolik tipdagi differensial tenglamalar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalar bilan bog'liq holda qoida tariqasida, turli xil adabiyotlarda ko'rib chiqilgan geofiltratsiya masalalari ikki o'lchovli (ko'pincha, tekislikka rejalashtirilgan, vaqti-vaqti bilan profilli) bo'lib, bu gidrogeologik sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Yerosti suvi oqimini tashkil etuvchi omillarning tabiiy xilma-xilligini qo'pol buzilishlarsiz bir o'lchovli modelda aks ettirib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan, tog' jinslari va tuproqlarda sivilish jarayonlarini aks ettiruvchi ko'p o'lchovli modellarni qurish zarurati tug'iladi. Biroq, eksperimental-filtratsion dala tadqiqotlarining hozirgi darajasi, ko'pincha, fazoviy uch o'lchovli modelni yaratish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishga imkon bermaydi, shuning uchun suv qatlamining murakkab tuzilishi (rejalashtirilgan-fazoviy oqim) holatida hisoblash sxemasi qatlamlar to'plami sifatida ifodalanadi, ularning matematik modeli ikki o'lchovli va uch o'lchovli tenglamalar tizimidir, chunki ustma-ustli qatlamdagi suvli yotqizmalar odatda o'zaro bog'langan bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, ya'ni farqlangan xususiyatlarga egadir.

Axborot kommunikatsiya tizimlari va zamonaviy texnologiyalarning tatbiqi hamda amaliy matematika va modellashtirish usullarini qo'llash asosida geofiltratsiya jarayonlarining quyidagi bir necha asosiy amaliy masalalarini yechishni o'z ichiga oladi: 1) yerosti suvlarini olish hududlarida suv resurslarini baholash – yerosti suv konlari zaxiralarining turlari va yerosti suvlari tarkibini baholashning har xil shartlar asosida o'rganish; 2) yerosti va yerusti suvlari oqimining o'zaro bog'liklik munosabatlarini aniqlash; 3) meliorativ gidrogeologiyasida – melioratsiya tizimlarini loyihalashda gidrogeologik tadqiqotlar, qayta tiklan-

gan yerlarning suv va tuz rejimini o'zgarishini aniqlash; 4) muhandislik gidrogeologiyasida – turli xil muhandislik inshootlarini loyihalash va qurishda muhandislik tadqiqotlarda; 5) ekologik gidrogeologiyada – yer osti suvlarini ifloslanishdan muhofaza qilish, tabiiy (geoekologik) muhitni muhofaza qilishning gidrogeologik jihatlari; 6) yer osti gidrosferasi rejim tashkil etuvchi xususiyatlarining monitoringida – umumiy holatini va rejimdagi o'zgarishlarni hamda yerosti suvlarining balansini, tarkibi va sifatini tizimli (uzoq muddatli) monitoringini amalga oshirish tadqiqotlarida va h.k.

Harakatlanuvchi suyuqlik holatini matematik ifodalarida tavsiflash  $v(x, y, z, t)$ ,  $\rho(x, y, z, t)$ ,  $p(x, y, z, t)$  funksiyalari yordamida amalga oshirilib, mos ravishda, tezligi, zichligi, bosimi va hokazo suyuqliklarning hajmiga ko'ra taqsimlanishi olingan. Ularning barchasi, umuman olganda,  $x, y, z$  koordinatalari va  $t$  vaqtining funksiyalaridir. Bunda  $v(x, y, z, t)$  suyuqlikning har bir berilgan  $x, y, z$  nuqtadagi  $t$  vaqtidagi suyuqlik tezligi ekanligini, ya'ni, u sohaning ma'lum zarralarini emas, balki qatlamning ma'lum nuqtalarida harakat borligini bildirishi ta'kidlanadi. Suyuqlik gidrosferada vaqt o'tishi bilan harakat qiladi,  $\rho$  – zichlik,  $p$  – bosim va hokazo miqdorlarga ham xuddi shunday ta'sir doirasida bo'ladi [5].

Yerosti suvlarining geofiltratsiya jarayonlarini fransuz muhandis-gidravligi A.Darsi tomonidan 1856-yillari birinchi bo'lib matematik ifodalar asosida tasvirlash laboratoriya sharoitlarida suvning sizilishini tajriba natijalari asosida amalga oshirilgandir (geofiltratsiya qonuni  $Q = kF \frac{\Delta H}{L}$ ,  $Q$  – suv sarfi,  $k$  – suv o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $F$  – hududning ko'ndalang kesimi,  $\Delta H = H_1 - H_2$  – suv sathlari farqi,  $L$  – kesmalar orasidagi masofalar) [6]. Darsi qonuni suyuqliklardagi siljish kuchlanishlari ta'sirida impulsning o'zgarishi ahamiyatsiz bo'lishi sharti bilan, bosim gradiyentining ta'siri tufayli to'liq to'yingan g'ovakli muhitning sizilish bo'shlig'idan suyuqlik oqimini tavsiflaydi. Darsi qonuni ifodasi suv sathi va tezlik maydonini hisoblash imkonini beradi, bu holda suv sathi gradiyenti, suyuqlikning yopishqoqligi va g'ovakli muhitning o'tkazuvchanligi bilan belgilanadi, suv olish inshootlarini debiti, resursi va ta'sir doirasi kabi xususiyatlarni aniqlashda juda muhimdir. Qum, qum aralash shag'altosh yoki tuproq kabi g'ovakli materiallar qatlamlari orasidagi yoriqlar yoki qatlam bo'shliqlarda suyuqlik oqimini modellashtirish uchun Darsi qonuni formulasi foydalanishimiz mumkin.

**Masalaning qo'yilishi.** Yerosti suvlari harakatining gidrogeologik va gidrodinamik tahlili shuni ko'rsatdiki, geofiltratsiya jarayonini matematik modellashtirishda eng kamida gruntli (past o'tkazuvchanlik xususiyatli) va suv bo'lgan 2 qatlamli muhitni ko'rish kerak.

Suv sathini ixtiyoriy o'zgarishlari yerosti suvlarining 2 qatlamli gidrodinamik va shidrokimyoviy rejimlarining o'zaro ta'siriga olib keladi. Bunday sharoitlarda, qatlamlarda suv sathlari chegaralaridan mineralangan suvlarning qatlamlar bilan o'zaro ta'siri kuchlarini himoya qilishga e'tibor qaratish kerak.

Yerosti suvlarining bunday sharoitlar harakatlanishini xususiy hosilalari differensial tenglamalar sistemasi yordamida tasvirlash (izohlash) mumkin [7;12-b.]:

$$\left. \begin{aligned} \mu \frac{\partial h}{\partial t} &= -k_b \frac{h - H}{m} + f - \omega; \\ \mu^* \frac{\partial H}{\partial t} &= -k \frac{H - h}{m} + \frac{\partial}{\partial x} \left( T \frac{\partial H}{\partial x} \right), \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

bu yerda  $h(x, t)$ ,  $H(x, t)$  – sizot va bomimli (napor) li suvlarning sathlari;  $\mu$  – suv bilan ta'minlash yoki yetishmovchilik koeffitsiyenti;  $\mu^*$  – elastik suv oqimi koeffitsiyenti;  $m$  – qatlamlarni ajratib turuvchi kuch;  $k_b, k$  – yuqori va qo'yi plastlarning filtratsiya koeffitsiyenti,  $T$  – asosiy gorizontning filtratsiya o'tkazuvchanligi,  $f$  – tashqi manbaa,  $\omega$  – bug'lanish.

(1) Sistema quyidagi boshlang'ich va chegaraviy shartlar yordamida yechiladi:

$$\begin{aligned} h(x, 0) &= h_0(x), \quad H(x, 0) = H_0(x), \\ h(L, t) &= H(L, t), \end{aligned} \quad (2)$$

$$T \frac{\partial H}{\partial x} \Big|_{x=0} = \lambda(H - H_A), \quad T \frac{\partial H}{\partial x} \Big|_{x=L} = \lambda(H - H_B), \quad (3)$$

bu yerda  $h_0(x)$ ,  $H_0(x)$  – bosimli va sizot suvlarining sathlari boshlang‘ich shartlari,  $\lambda$  – chegaraviy shartni o‘lchamli ko‘rinishga keltirish koeffitsiyenti  $H_A, H_B$  – bosimli suvlarning chegaraviy qiymatlari.

**Yechish usuli.** Masala kvazechizikli differensial tenglamalar sisitemasi bilan ifodalanganligi sabali uni analitik usulda yechish murakkab (qiyin) bo‘ladi. (1) – (3) masalalarni sonli yechish uchun chekli ayirmalar usulini qo‘llaymiz, ya’ni, (1)-(3) masalaning differensial operatorlarini chekli ayirmalarga almashtiramiz. Buning uchun  $D = \{0 \leq x < L_x, 0 \leq t \leq M\}$  sohaga setka kiratamiz, bu yerda izlanayotgan jarayon oralig‘idagi  $T$  maksimal vaqt,  $[0, L_x]$  intervalini  $h$  qadam,  $[0, M]$  ni  $\tau$  qadam bilan bo‘lib chiqamiz va quyidagi setkaga ega bo‘lamiz [12-17]:

$$\omega_{xt} = \{(x_i, t_j), i = 0, 1, 2, \dots, N; x_i = i\Delta x; t_j = j\tau; \tau = M / J, h = L_x / N\}.$$

(1) Tenglamani  $\omega_{xt}$  setkada chiziqsiz sxemani qo‘llab, quyidagi ko‘rinishda approksimisiyalaymiz

$$\left. \begin{aligned} \frac{h_i^{j+1} - h_i^j}{\tau} &= -\frac{k_b}{\mu \cdot m} (h_i^j - H_i^j) + \frac{f_i^j - \omega_i^j}{\mu}; \\ \frac{H_i^{j+1} - H_i^j}{\tau} &= -\frac{k}{\mu^* \cdot m} (H_i^{j+1} - h_i^{j+1}) + \\ &+ \frac{T_{i+0.5}}{\mu^* \cdot \Delta x^2} (H_{i+1}^{j+1} - H_i^{j+1}) - \frac{T_{i-0.5}}{\mu^* \cdot \Delta x^2} (H_i^{j+1} - H_{i-1}^{j+1}); \\ T_0 \cdot \frac{H_1^{j+1} - H_0^{j+1}}{\Delta x} &= \lambda (H_1^0 - H_A); T_N \cdot \frac{H_N^{j+1} - H_{N-1}^{j+1}}{\Delta x} = \lambda (H_N^0 - H_B). \end{aligned} \right\} \quad (4)$$

(4) – ayirmali sxema chiziqli algebraik tengmalar sistemaga keltirilgan:

$$h_i^{j+1} = \xi \cdot h_i^j - \xi_1 \cdot H_i^j + \xi_2, \quad (5)$$

$$a_i \cdot H_{i-1}^{j+1} - b_i \cdot H_i^{j+1} + c_i \cdot H_{i+1}^{j+1} = -d_i^j. \quad (6)$$

Bu yerda,

$$\begin{aligned} \xi &= 1 - \frac{\tau \cdot k_b}{\mu \cdot m}, \quad \xi_1 = -\frac{\tau \cdot k_b}{\mu \cdot m}, \quad \xi_2 = \frac{\tau \cdot (f_i^j - \omega_i^j)}{\mu}, \\ a_i &= \frac{\tau \cdot T_{i-0.5}}{\mu^* \cdot \Delta x^2}, \quad b_i = \frac{\tau \cdot T_{i+0.5}}{\mu^* \cdot m \cdot \Delta x^2} + \frac{k \cdot \tau}{\mu^* \cdot m} + 1, \quad c_i = \frac{\tau \cdot T_{i-0.5}}{\mu^* \cdot \Delta x^2}, \\ d_i^j &= -\frac{k \cdot \tau}{\mu^* \cdot m} \cdot h_i^{j+1} - H_i^j. \end{aligned}$$

(6) tenglamalar sistemasining yechimi quyidagi aniqlanadi:

$$H_i^{j+1} = \alpha_{i+1} H_{i+1}^{j+1} + \beta_{i+1}, \quad (7)$$

Bu yerda progonka koeffitsiyentlari rekurrent munosabatlar yordamida topiladi:

$$\alpha_{i+1} = \frac{a_i}{b_i - a_i \cdot \alpha_i}; \quad \beta_{i+1} = \frac{F_i^j + a_i \cdot \beta_i}{b_i - a_i \cdot \alpha_i}; \quad i = 1, 2, 3, \dots, N.$$

**Hisoblash jarayonini mashina (EHM)da yechish algoritmi.** Mashina algoritmi quyidagi ko‘rinishda bajariladi:

1-qadam. Boshlang‘ich ma’lumotlarni kiritish (konstanlarni kiritish).

2-qadam. Chegaraviy shartlardagi izlanayotgan o‘zgaruvchilarning chegaradi qiymatlarini hisoblash.


3-qadam. Differensial operatorni chekli ayirmalarga aproksimasiya qilingan uch diagonalli matritsa elementlarini hisoblash.

4-qadam. (6) Progonka koeffitsiyentlarini hisoblash.


5-qadam. Qo'yilgan masalaning izlanayotgan o'zgaruvchilarning qiymatlarini aniqlash.

6-qadam. Qo'yilgan masalaning adekvatligini tekshirish.

**Olingan natijalarning tahlili.** Ishlab chiqilgan (1)-(3) matematik model va uning sonli algoritmi asosida EHM sonli tajribalar natijalari quyida keltirildi:



1-rasm. Yerosti sizot suvlarining  $\mu^* = 0.3$ ,  $\mu = 0.4$ ,  $m = 4m$ ,  $k_b = 0.9m / cym$ ,  $k = 0.8m / cym$ ,  $T = 0.2m^2 / cym$ ,  $\Delta x = 0.5km$ ,  $t = 1; 3; 5; 7$  mec,  $f_i^j - \omega_i^j = 1\%$  holatida o'zgarishi



2-rasm. Oqim suvlari sathining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi.

O'tkazilgan sonli tajribalarning natijalariga ko'ra (1-rasm) vaqt o'tishi bilan yer osti sizot suvlarining sathi tushib boradi va uzunligi bo'yicha bir xil qoladi. O'tkazilgan tajrilar asosida bu jarayon filtratsiya koeffitsiyenti va suv bilan ta'minlanishga, ajratib turuvchi qatlamning kuchi va taqi manbalarga muhim darajada bog'liq bo'lar ekan.

Bunday holat bosimli suvlari sathining uzunligi va vaqt bo'yicha ko'tarilishida kuzatiladi (2-rasm). 2-rasmdagi grafiklardan ko'rinib turibdiki, o'zgarishlar suv bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, ajratib turuvchi qatlam kuchi, asosiy gorizontning filtratsiya o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti va filtratsiya koeffitsiyentiga bog'liq bo'ladi. Suv bilan ta'minlanish va filtratsiya koeffitsiyenti oshishi bilan bosimli suvlar sathi qatlam uzunligi bo'yicha barcha nuqtalarda tenglashib qoladi.

**Xulosa.** O'tkazilgan sonli tajribalar natijasi yerosti sizot suvlarining sathi vaqt o'tishi bilan chiziqli qonun asosida o'sishini, bosimli suvlar sathining o'zgari biroz o'zgarishi ekanligini ko'rsatdi.

O'tkazilgan sonli hisoblash yordamida yerosti sizot suvlarining sathining o'zgarishi filtratsiya koeffitsiyenti va suv yetkazib berilishi, tashqi manbalar va ularni ajratib turuvchi qatlam kuchi bosim suvlari-

ning sathi suv yetkazib berilishining silliqqligi ko'effitsiyentiga bog'liqligi, shuningdek, filtratsiya ko'effitsiyentini va asosiy gorizontning kuchining filtratsiya o'zgaruvchanligiga muhim ahamiyatga ega ekanligi o'rganildi.

O'tkazilgan filtratsion o'tkazuvchanlik sonli tajribalari natijalari shuni ko'rsatadiki, bu parametrining o'sishi bilan sizot suvlarining sathi uzunligi bo'yicha pastga tushadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Бочеввер Ф.М., Гармонов И.В., Лебедев А.В., Шестаков В.М. Основы гидрогеологических расчетов. М., "Недра", 1969, 368 с.
- (2). Умаров У.У., Хабибуллаев И.Х., Грачева И.Н., Усманов Р.Н., Джуманов Ж.Х. Перспективы развития методологии моделирования гидрогеологических систем на базе современных информационных технологий. Геология и минеральные ресурсы. Т., 2006, № 2, с. 52 – 55.
- (3). Черепанский М.М. Теоретические основы гидрогеологических прогнозов влияния отбора подземных вод на речной сток. М., "НИИ-Природа", 2005, 260 с.
- (4). Шестаков В.М., Кравченко И.П., Пашковский И.С. Практикум по динамике подземных вод. Изд. 2-е, изд-во МГУ, 1975, 270 с.
- (5). Гриневский С.О. Гидрогеодинамическое моделирование взаимодействия подземных и поверхностных вод. М., "Инфра-М", 2012, 152 с.
- (6). Шестаков В.М., Кравченко И.П., Пашковский И.С. Практикум по динамике подземных вод. Изд. 2-е, изд-во МГУ, 1975, 270 с.
- (7). Daliyev Sh.K. Suvli qatlamda suv parametrlarini aniqlash uchun Simulink model. Mathematical analysis and ITS application to mathematical physics. Международн.научно-практическая конференция, 2018, Samarkand, с. 119 – 121
- (8). Usmanov R.N., Daliyev Sh.K. Цимулинк модель для определения параметров линейного водазабора для условий полуограниченного пласта. "Muhammad al-Xorazmiy avlodlari" ilmiy-amaliy va axborot-tahlilii jurnali, Tashkent. 2018, № 2 (4), с. 19 – 21.
- (9). Равшанов Н., Далиев Ш.К. Математическая модель для прогнозирования уровня подземных вод в двухслойных пластах. Научно-технический журнал "Информационные технологии моделирования и управления».
- (10). N.Ravshanov, Sh.Daliev Ground and confined underground waters and their salt content. 2020, J. Materials Science and Engineering 896 (2020) 012047 IOP Publishing doi:10.1088/1757-899X/896/1/012047
- (11). N.Ravshanov, Sh.Daliev. Non-linear mathematical model to predict the changes in underground water level and salt concentration, "2020, J.Phys. Conf. Ser. 1441 012163. doi:10.1088/1742-6596/1441/1/012163.
- (12). Sh.Daliev, B.Abdullaeva, K.Kubyasev. Numerical study of filtration process of ground and pressure waters in multilayer porous media, 2020, J.Materials Science and Engineering 896 (2020) 012069 IOP Publishing doi: 10. 1088/1757-899X/896/1/012069
- (13). Ravshanov N., Daliyev Sh.K., Absalomova G.B. Yerosti suvlari sathi o'zgarish jarayonini matematik va sonli modellashtirish. "Muxammad al-Xorazmiy avlodlari", № 1 (19), 2022, 37 – 45-betlar.
- (14). Ravshanov N., Khurramov I., Aminov S.M. Mathematical modeling of the process of water-soline transport in soils. Journal of Physics, Conference Series. 2019, Vol. 1210, p. 012118. doi:10.1088/1742-6596/1210/ 1/ 012118
- (15). Daliyev Sh.K., Bozorov B., Xotamov O. Numerical modeling to change the groundwater level the water area. "Academicia". An International Multidisciplinary Research Journal (2022), № .6, p. 933 – 941.
- (16). Daliyev Sh.K., Bozorov B., Xotamov O. Mathematical model for prediction of groundwater levels in twolayer formations. ACADEMICIA, An International Multidisciplinary Research Journal (2022), №.6, p. 941–950.
- (17). Daliyev Sh.K., Turakulov T. D., Ashurov M. B. Mathematical Model for Monitoring and Prediction of Changes in Groundwater Level and Salt Concentration in the Water Area of the Aral Sea Region. Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES) Volume, 01 Issue, 04, 2022, p. 19 – 26.

**Rahimboyev Rahmatjon Shavkat o'g'li (Urganch tumanidagi 7-maktab,  
ilmiy loyihada kichik ilmiy xodim; rahimboyev19rahmatjon92@gmail.com),**

**Yakubov Komiljon Ruzmetovich (UrDU dotsenti, f.-m.f.n.),**

**Qurbanov Davron Shavkatovich (UrDU), Bozorboyev Rustam Bahromboyevich (UrDU),**

**Qurbonov Olloshukur Otajanovich (UrDU magistranti)**

**O'ZBEKISTONDA BIOGAZ OLIISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

*Аннотация. Ushbu maqolada O'zbekistonda biogaz texnologiyasidan foydalanish tahlilii o'rganildi. Qayta tiklanadigan energiya manbai bo'lgan, organik chiqindilarni tabiiy aylanma siklida ajralib chiqadigan biogaz mamlakat oldida turgan ko'plab muammolarni, jumladan, aholining tabiiy gazga bo'lgan*



talabini qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tabiiy gaz zaxirasini tejalishiga, organik chiqindilarni qayta ishlashni joriy qilinishiga va ekologik barqarorlikga erishish imkoniyatini yaratadi.

Maqolada biogaz texnologiyasining asosiy afzalliklari, biogaz texnologiyasi bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalari va O'zbekistonning biogaz ishlab chiqarish bo'yicha salohiyati tahliliy o'rganildi. Bundan tashqari, mamlakatimizda biogaz texnologiyasini keng joriy qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar o'rganildi. O'zbekistonda biogaz texnologiyasining to'liq imkoniyatlarini ochishda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va aholining shu sohada bilimlarini oshirish muhimligi to'g'risida ma'lumotlar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** biogaz, biogaz texnologiyasi, qayta tiklanuvchi energiya, metan, karbonat angidrid, yirik shoxli qoramol, reaktorlar, organik chiqindilar, elektr energiya potentsiali, ekologik barqarorlik, metan qazib olish.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПОЛУЧЕНИЯ БИОГАЗА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В данной статье обсуждаются перспективы использования биогазовой технологии в Узбекистане. Биогаз, возобновляемый источник энергии, который производит органические отходы в естественном цикле, может решить многие проблемы, стоящие перед страной, включая удовлетворение спроса населения на природный газ, сохранение запасов природного газа, внедрение переработки органических отходов и достижение экологической устойчивости.

В статье рассматриваются основные преимущества биогазовой технологии, опыт зарубежных стран в области биогазовой технологии, потенциал Узбекистана в биогазовой отрасли, вопросы сохранения запасов природного газа в Узбекистане с использованием биогазовой технологии. Кроме того, он исследует препятствия и проблемы, которые могут возникнуть в связи с широким использованием биогазовых технологий в стране. В статье подчеркивается важность государственной поддержки, технологического прогресса и повышения осведомленности населения в раскрытии полного потенциала биогазовой технологии в Узбекистане.

**Ключевые слова:** биогаз, биогазовая технология, возобновляемые источники энергии, метан, углекислый газ, крупный рогатый скот, реакторы, органических отходы, потенциал электроэнергии, экологическая устойчивость, добыча метана.

## USE OF BIOGAS PRODUCTION TECHNOLOGIES IN UZBEKISTAN

**Annotation.** This article examined the prospects for the use of biogas technology in Uzbekistan. Biogas, a renewable energy source that releases organic waste in natural circulation, has the potential to meet many of the problems that the country faces, including the population's demand for natural gas, conserve natural gas reserves, introduce organic waste recycling, and achieve environmental sustainability.

The article will study the main advantages of biogas technology, the experiences of foreign countries on biogas technology, the potential of Uzbekistan on biogas, the saving of natural gas reserves in Uzbekistan using biogas technology. In addition, he studies the obstacles and problems that may be associated with the widespread introduction of biogas technology in the country. Following the article, the importance of state support, technological progress and increased awareness of the population is emphasized in opening up the full potential of biogas technology in Uzbekistan.

**Key words:** biogas, biogas technology, renewable energy, methane, carbon dioxide, cattle, reactors, organic waste, electricity potential, environmental sustainability, methane production.

**Kirish.** Mamlakatimiz biogaz, quyosh, shamol, vodorod va shu asosdagi gibrid tizimlarga asoslangan energiyadan foydalanish borasida tabiiy qulay shart-sharoit va imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyat qayta tiklanuvchi manbalar orqali iqtisodiyot tarmoqlarini, hududlarimizni, aholini uzluksiz energiya bilan ta'minlash, atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Bunday turdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan hisoblangan biogaz ishlab chiqarish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.


O'zbekiston qishloq xo'jaligining organik tabiiy resurslari va chiqindilariga boy mamlakat bo'lganligi uchun biogaz texnologiyasidan foydalanishda katta salohiyatga ega. Qayta tiklanadigan energiya manbai bo'lgan biogaz organik chiqindilarni anaerobik fermentatsiya orqali ishlab chiqariladi. Ushbu texnologiya chiqindilarni qayta ishlash muammolarini hal qilishda yashil energiya ishlab chiqarish imkoniyati bilan butun dunyoda e'tirof etilgan.

O'zbekiston serquyosh mamlakat bo'lib, yil davomida o'rtacha 280–300 kuni quyoshli bo'ladi. Bu biogaz qurilmasining potentsialini oshishida katta imkoniyat hisoblanadi. Ushbu maqola O'zbekistonda biogazdan foydalanishning hozirgi holati, sohani rivojlantirishdagi muammolar va mamlakatda biogaz texnologiyasidan foydalanishning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun tahliliy o'rganishga asoslangan.

**Natijalar va muhokama.** Biogaz bu anaerobik muhitda organik chiqindilarning chirishi natijasida ajralib chiqadigan asosi metan va karbonat angidrididan iborat gazlar aralashmasidir. Gaz tarkibining 5% dan 85% gacha ulushi metanga to'g'ri keladi [1]. Organik chiqindilardan anaerobik sharoitda biogaz ajralib chiqishi 3 xil rejimda amalga oshiriladi.

1. Psixrofill – 15 – 20° C.
2. Mezofill – 30 – 40° C.
3. Termofill – 50 – 70° C.

Bu rejimlarning kvalifikatsiya qilishi jadvaldagi temperatura oralig'ida ajralib chiqayotgan biogaz tabiati, tarkibi, metan bakteriyalar faolligiga asoslangan [2]. Biogaz ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha hozirda Germaniya Federatsiyasi keng tajribaga va energetik salohiyatga ega. Yevropada 1970-yildagi neft inqirozidan so'ng Germaniyada biogazga qiziqish ortib borgan va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha ko'plab imtiyozli qonunlar qabul qilingan. Hozirga kelib bu islohotlar o'z natijasini berdi. Quyidagi diagrammada dunyo hududlari kesimida biogazdan foydalanish salohiyati namoyish qilingan.



1-rasm. Dunyo bo'yicha biogazdan elektr energiya ajratib olish bo'yicha diagrammasi.

Diagrammadan ko'rinadiki, bu sohada Yevropa Ittifoqi yaqqol yetakchi hisoblanadi. Quyidagi grafik orqali Yevropa mamlakatlarining biogaz salohiyati haqida ma'lumot olishimiz mumkin [3].


	Biogaz energiyasi yalpi qiymati	Biogaz ishlab chiqarish	Tabiiy gazdan foydalanish	Tabiiy gazdan foydalanishda biogaz ulushi
	TeraJoul	mln m <sup>3</sup>	mln m <sup>3</sup>	%
Belgiya	9492	264	16244	1,6
Bolgariya	820	23	3018	0,8
Chex Respublikasi	25 681	715	7539	9,5
Daniya	6347	177	3317	5,3
Germaniya	328 840	9160	75 775	12,1
Estoniya	550	15	454	3,4
Irlandiya	2287	64	4364	1,5
Gretsiya	3826	107	3113	3,4
Ispaniya	10 954	305	28 538	1,1
Fransiya	22 549	628	40 759	1,5
Xorvatiya	1507	42	2421	1,7
Italiya	78 355	2183	64,316	3,4
Kipr	471	13	0	Yo'q
Latviya	3674	102	1277	8,0
Litva	981	27	2404	1,1
Lyuksemburg	739	21	900	2,3

Vengriya	3335	93	8712	1.1
Malta	69	2	0	Yo'q
Niderlandiya	13 693	381	33 932	1.1
Avstriya	12 563	350	7998	4.4
Polsha	9581	267	16 021	1.7
Portugaliya	3457	96	4738	2.0
Ruminiya	767	21	10 380	0.2
Sloveniya	1242	35	773	4.5
Slovakiya	6223	173	4512	3.8
Finlyandiya	4321	120	2608	4.6
Shvetsiya	7009	195	842	23.2
Buyuk Britaniy	94 303	2627	71 268	3.7
Shveysariya	4591	128	3341	3.8
Islandiya	69	2	0	Yo'q
Norvegiya	1866	52	6268	0.8
Serbiya	242	7	2036	0.3
Moldova	401	11	855	1.3
Ukraina	600	17	30.311	0.1
<b>Jami:</b>	<b>661405</b>	<b>18421</b>	<b>459065</b>	<b>4.0</b>

1-jadval. 2015-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida biogaz ishlab chiqarish va undan foydalanish ko'rsatkichlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Yevropada ajratib olingan biogazning 50%dan ko'proq qismi Germaniya ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa biogaz ajratib olish bo'yicha Germaniya tajribasi yetakchi o'rinda ekanligini bildiradi. Biogaz texnologiyasi bo'yicha Zorg Biogas GmbH energetika kompaniyasi hozirda ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotlar borasida dunyoda yetakchi va dunyoning 12 ta mamlakatida o'z filliallariga ega.

Quyidagi diagrammada Germaniyada 1999-yildan 2019-yilgacha (2020–2021-yilgi prognoz bilan) bo'lgan vaqt oralig'idagi biogaz reaktorlari soni, biogaz qurilmalaridan ajralib chiqqan biogaz yordamida ajratib olingan elektr quvvati va energiyasi qiymatlari keltirilgan [4].



2-rasm. 1999–2019-yillarda Germaniyadagi mavjud biogaz qurilmalari soni, ularning umumiy ishlab chiqarilgan elektr quvvati va energiyasining yillar kesimidagi diagrammasi.

**O‘zbekistonda biogaz texnologiyasining hozirgi holati.** O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi O‘RQ 539-sonli “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan. O‘zbekistonda biogaz olish texnologiyasini joriy etishda hozirgi kungacha ko‘pgina yutuqlarga erishilgan. Qishloq joylarda, birinchi navbatda, mahalliy energiya ehtiyojlarini ta‘minlash maqsadida bir nechta tajriba loyihalari va kichik biogaz qurilmalari tashkil etilgan. Ushbu tashabbuslar mamlakatda biogaz texnologiyasining texnik imkoniyatlari va potensial afzalliklarini namoyish etdi [5]. Jumladan Toshkent viloyati Zangiota tumani hududidagi “Milk-Agro” naslchilik fermer xo‘jaligida ishga tushirilgan biogaz ishlab chiqarish qurilmasining umumiy hajmi 120 m<sup>3</sup>ni tashkil etadi (2 ta 60 m<sup>3</sup> hajmli bioreaktor). Hosil qilingan biogaz 60 m<sup>3</sup> hajmli gazgolderda saqlanadi. Uskunadan foydalanish natijasida kuniga 300 m<sup>3</sup> biogaz va 10 tonna suyuq bioo‘g‘it olinmoqda. Hozirda mamlakat hududlarida turli xil quvvatga ega bo‘lgan 8 dona biogaz qurilmalari ishlab turibdi [4], [5]. Hozirgi kunda O‘zbekistonimizda biogaz olish bo‘yicha bor bo‘lgan resurs imkoniyatlar o‘rganildi va tahlil qilindi.

**O‘zbekistonning hozirgi kundagi biogaz ajratib olish potentsiali.** O‘zbekistonning biogaz ajratib olish imkoniyatlarini holatini taxminiy hisob-kitob qilib ko‘raylik. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida O‘zbekistonning 2018–2023-yillar oralig‘idagi yirik shoxli qoramol chiqindilaridan biogaz ajratib olish sohasidagi salohiyatlarini o‘rganib chiqaylik. Germaniyada o‘tkazilgan ko‘plab biogaz olish tajribalarini umumlashtirish natijasida yirik shoxli qoramoldan ajralib chiqadigan kunlik chiqindisi uning tirik vaznining o‘rtacha 6–8%ni tashkil qilarkan. Yirik shoxli qoramol chiqindisining har kilogramidan o‘rtacha 0,3 m<sup>3</sup> biogaz ajralib chiqishi mumkin. Biogaz tarkibidagi metanning foiz ulushi o‘rtacha hisobda 60% bo‘lishi haqida xulosaga kelingan [6]. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston hududidagi yirik shoxli qoramollar soni va ularning umumiy tirik vazni, o‘rtacha vazni, kunlik qoramol chiqindisi ajralishi, ulardan ajralib chiqadigan yillik yalpi biogaz va metan miqdori haqida ma‘lumot keltirilgan [7].

	Yirik shoxli qoramollar bosh soni	Respublika bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy og‘irligi	Yirik shoxli qoramollarning o‘rtacha og‘irliklari	Har bir yirik shoxli qoramoldan ajralib chiqadigan kunlik chiqindi og‘irligi	Har bir yirik shoxli qoramol chiqindidan ajralib chiqadigan kunlik gaz miqdori	Respublika bo‘yicha har kunlik ajratib olinadigan biogaz miqdori	Kunlik ajralib chiqqan biogaz tarkibidagi metanning ulushi	Respublika bo‘yicha har kunlik ajratib olinadigan metan miqdori	Respublika bo‘yicha yillik ajratib olinadigan biogaz miqdori	Respublika bo‘yicha yillik ajratib olinadigan metan miqdori
Yil	ming bosh	mln .kg	Kg	kg/kun	m <sup>3</sup> / kg*kun	m <sup>3</sup> / kg*kun	m <sup>3</sup> / kg*kun	m <sup>3</sup> / kg*kun	ming m <sup>3</sup> / kg*yil	ming m <sup>3</sup> /kg * yil
2018	12282	1829,5	148,958	11,917	0,3575	4390800	0,2145	2634480	1317240	<b>790344</b>
2019	12814	1869,5	145,895	11,672	0,3501	4486800	0,2101	2692080	1346040	<b>807624</b>
2020	12968	1925,9	148,512	11,881	0,3564	4622160	0,2139	2773296	1386648	<b>831988,8</b>
2021	12953	1987,5	153,439	12,275	0,3683	4770000	0,2210	2862000	1431000	<b>858600</b>
2022	13300	2025,7	152,308	12,185	0,3655	4861680	0,2193	2917008	1458504	<b>875102,4</b>
2023	13900	2106,4	151,54	12,123	0,3637	5055360	0,2182	3033216	1516608	<b>909964,8</b>

**2-jadval. O‘zbekiston Respublikasining biogaz texnologiyasi energiya salohiyati bo‘yicha taxminiy hisob-kitob jadvali.**

Bu jadvaldan ko‘rinadiki, yillik yirik shoxli qoramollarning chiqindisidan ajralib chiqadigan metan miqdori 790–910 mln m<sup>3</sup>ga teng bo‘lgan. Metan yoqilg‘isining har bir m<sup>3</sup> yoqilg‘isi yonganda 36 MJga teng issiqlik energiyasi ajralgan deb hisoblasak, 2023-yilgi barcha yirik shoxli qoramol chiqindisidan ajratib olingan biogaz tarkibidagi metanni to‘la yoqishimiz natijasida biz taxminan 32·10<sup>15</sup> joulga teng energiyaga ega bo‘lamiz [8]. Bu energiyani kW·soatda hisoblasak, 8,8 mlrd kW·soat energiyaga teng bo‘ladi. Zamonaviy gazogeneratorlarning foydali ish koeffitsiyenti o‘rtacha 40% deb olsak, bu ko‘rsatkich 3,5 mlrd kW·soat elektr energiyani beradi [9]. Bu natijalardan ko‘rinadiki, O‘zbekiston bo‘ylab yirik shoxli qoramollar chiqindisidan ajratib olingan biogaz tarkibidagi metan gazi 2023-yildagi O‘zbekistonda qazib olingan yillik tabiiy gazning 20% miqdoriga teng ulushga ega. Biogazni yoqish orqali ajratib olinadigan elektr ener-

giyasi 2023-yilgi energiya ishlab chiqarilishining 4–5% miqdorini qoplashi tahlil qilindi [10]. Bu jadvalda faqat yirik shoxli qoramol chiqindisidan ajralib chiqqan biogaz va metan miqdorlari hisoblandi. Aslida, biogaz har qanday chiriydigan organik moddalarning barchasidan ajralib chiqadi. Bunday organik moddalarga barcha chorva hayvonlari, parrandalarning chiqindilari, qushxona chiqindilari, barcha o‘simliklarning poyalari va barglari, o‘simlik va makkajo‘xori siloslari, pivo ishlab chiqarish korxonasi chiqindilari, don chiqindilari, kanalizatsiya oqavalari, uy xo‘jalik oshxona chiqindilari misol bo‘ladi. Bu esa O‘zbekiston hududida biogaz ajratib olish imkoniyatining hali o‘rganilmagan tomonlari mavjud ekanligini ko‘rsatadi [11].

**Biogaz texnologiyasining potensial afzalliklari va hozirgi kundagi muammolarni bartaraf etish choralari.** Biogaz texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston bir qancha asosiy afzalliklarga ega:

- Energiya ishlab chiqarish erkinligi va xavfsizligi. Biogaz O‘zbekistonning energiya majmuasini diversifikatsiya qilishga, qazib olinadigan yoqilg‘iga qaramlikni kamaytirishga va energiya xavfsizligini oshirishga hissa qo‘shishi mumkin.

- Organik chiqindilarni qayta ishlash. Biogaz ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan anaerob fermentatsiya jarayonida organik chiqindilardan samarali foydalanish, ochiq havoda ajralib chiqayotgan metan gazidan havo ifloslanishini kamaytirish.

- Qishloq hududlarida energetik salohiyatni oshirish va erkinlashtirish. Biogaz qurilmalari yordamida fermer xo‘jaliklari va chorva egalari shaxsiy energiya ehtiyojlarini qondirishi, xususiy energetika manbalarini yaratilishi, iqtisodiy rivojlanishga yordam berishi va turmush sharoitini yaxshilashi mumkin [12].

**Muammo va yechimlar.** Energetik potensialning yuqoriligiga qaramay, O‘zbekistonda biogaz texnologiyasini keng joriy etishga bir qancha muammolar mavjud:

- aholining biogaz texnologiyasi haqida yetarlicha axborotga ega emasligi, ya‘ni;
- chorva egalari, fermerlar, ishlab chiqaruvchilar, xususiy investorlar va ilmiy tadqiqotlarda biogaz energiyasi afzalliklari hamda ulardan foydalanish texnologiyalari borasida amaliy loyihalarning kamligi;

- ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda qurilmalarini loyihalash, qurish va ishlatishda malakali kadrlar va texnik tajribalar va qurilmalarning yetishmasligi yoki mavjud emasligi;

- biogaz qurilmalaridan foydalanish ba‘zi tavadakkalchilikka asoslangan faktorlarga, masalan, qurilma shaklining tanlanilishi, qurilmadagi termik, biologik va mezofil jarayonlarning doimiy nazorati, substrat turi, uni unumdorligi, qayta ishlanilish tezligi va gaz sifati kabi ko‘plab omillariga bog‘liqligi [13], [14].

**Xulosa.** O‘zbekistonda mahsulotning asosiy qismi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi, bu mamlakatimizda biogaz texnologiyasi bo‘yicha salohiyatning yuqori ekanligini bildiradi. Biroq, biogaz texnologiyasining to‘liq imkoniyatlarini amalda qo‘llash, avvalambor, bu sohadagi mutahassislar, ilmiy tadqiqotlar va ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilishga asoslanadi. Ushbu muammolarni hal qilish va imkoniyatlardan keng foydalanish orqali O‘zbekistonimizda biogaz ishlab chiqarish texnologiyalarini salohiyatini oshirish va energiya ishlab chiqarishni mustahkamlashga erishish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Барбара Эдер, Хайнц Шульц. Биогазовые установки. Практическое пособие, 1996.
- (2). Веденев А.Г., Маслов А.Н. Строительство биогазовых установок.
- (3). Scarlat, Nicolae & Dallemand, Jean & Fahl, Fernando. (2018). Biogas. Developments and perspectives in Europe.
- (4). “Biogasanlagen in Deutschland – Stand und Perspektiven” Peter Kornatz, Jaqueline Daniel-Gromke, Nadja Rensberg, Martin Dotzauer, Michael Nelles.
- (5). <https://daryo.uz>.
- (6). <https://orginfo.uz>.
- (7). Биогаз. Теория и практика. Баадер Б., Доне Е. Бренндерфер. М., 1982.
- (8). [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
- (9). <https://ru.wikipedia.org>.
- (10). <https://zorg-biogaz.com>.
- (11). <https://kun.uz/uz/news>.
- (12). <https://biogas.su>.
- (13). <https://uz.ipocketpc.net>.
- (14). [Комплексная биотехнология. Наука Директ \(sciencedirect.com\)](http://www.sciencedirect.com).

Ismoilov Oxunjon Bakhram o'g'li (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romonovskiy nomidagi matematika instituti, Xorazm bo'linmasi kichik ilmiy xodimi; [bakhromboyevich.oxunjon@gmail.com](mailto:bakhromboyevich.oxunjon@gmail.com))  
MANFIY TARTIBLI KORTEWEG-DE FRIZ TENGLAMASINI  $(G'/G)$  –ALMASHTIRISH  
USULIDA YECHISH

**Annotatsiya.** Mazkur ishda manfiy tartibli Korteveg-de Friz tenglamasi  $(G'/G)$  – almashtirish usuli yordamida umumiy yechimi topish masalasi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** nochiziqli evolyutsion tenglamalar,  $(G'/G)$  – almashtirish usuli, giperbolik yechim, trigonometrik yechim, ratsional yechim, manfiy tartibli Korteveg-de Friz tenglamasi.

Исмоилов Охунжон Бахрам угли (младший научный сотрудник, Институт математики имени В.И.Романовского Академии наук Республики Узбекистан; [bakhromboyevich.oxunjon@gmail.com](mailto:bakhromboyevich.oxunjon@gmail.com))  
РЕШИЕ УРАВНЕНИЕ КОРТЕВЕГА-ДЕ ФРИЗА ОТРИЦАТЕЛЬНОГО ПОРЯДКА С

ПОМОЩЬЮ МЕТОДОМ  $(G'/G)$  – РАСШИРЕНИЯ

**Аннотация:** В данной работе исследована задача нахождения общего решения уравнения Кортвега-де Фриза отрицательного порядка с использованием метода  $(G'/G)$  – расширения.

**Ключевые слова:** нелинейные эволюционные уравнения, метод  $(G'/G)$  – расширения, гиперболическое решение, тригонометрическое решение, рациональное решение, уравнение Кортвега-де Фриза отрицательного порядка.

Ismoilov Oxunjon Bakhram ugli (Junior Researcher, V.I.Romanovsky Institute of Mathematics of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Khorezm Branch;  
[bakhromboyevich.oxunjon@gmail.com](mailto:bakhromboyevich.oxunjon@gmail.com))

SOLVING THE NEGATIVE ORDER KORTEWEG-DE VRIES EQUATION BY THE  
 $(G'/G)$  – EXPANSION METHOD

**Annotation.** In this work the problem of finding a general solution of the negative order Korteweg-de Vries equation using the  $(G'/G)$  – expansion method is studied.

**Key words:** Nonlinear evolution equations,  $(G'/G)$  – expansion method, hyperbolic solution, trigonometric solution, rational solution, negative order Korteweg-de Vries equation.

**Kirish.** Zamonaviy matematik fizikaning turli hil sohalarida ko'plab tadqiqotlar nochiziqli to'liq jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Bu jarayonlar plazma fizikasining, nochiziqli optikaning ayrim masalalarini hal qilishda ko'plab uchraydi. To'liq tenglamasi uchun sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masalasi yetarlicha yaxshi o'rganilgan. Nochiziqli differensial tenglamalar issiqlik yoki tovushning tarqalishi, suyuqlik oqimi, elastiklik, elektrostatika, elektrodinamika va boshqalar kabi bir nechta o'zgaruvchilarning funksiyalarini o'z ichiga olgan fizik jarayonlarda hosil bo'lgan muammolarni matematik modellashtirish va yechishga yordam beradi.

1967-yilda C.S.Gardner, J.M.Grין, M.Kruskal va R.Miuralar [1] tomonidan nochiziqli Korteveg-de Friz (KdF) tenglamasi uchun qo'yilgan Koshi masalasining yechimi teskari masala usulidan foydalanib yechilgan. Keyinchalik 1968-yilda P.Laks sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli universal xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. [2]-[6] ishlarda manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalar turli sinflarda to'g'ri va teskari masalalar usullari yordamida o'rganilgan.  $(G'/G)$  – almashtirish usuli nochiziqli evolyutsion tenglamalarning solitonsimon yechimlarini topishda samarali usulligi [7]-[11] ishlarda o'z aksini topgan

Mazkur ishda quyidagi

$$\begin{cases} u_t = 2vv_x, \\ v_{xx} = uv \end{cases}, t \geq 0, x \in \mathbb{R},$$

manfiy tartibli KdF tenglamasining umumiy yechimini  $(G'/G)$  – almashtirish usulidan foydalanib topish masalasi o'rganilgan.

$(G'/G)$  - usulining tavsifi.

Bizga quyidagi nochiziqli differensial tenglama

$$F(v, v_t, v_x, v_{tt}, v_{xx}, v_{xt}, \dots) = 0, \quad (1)$$

berilgan bo'lsin, bu yerda  $v = v(x, t)$  noma'lum funksiya,  $F - v$  va uning xususiy hosilalariga bog'liq bo'lgan ko'phad shaklidagi nochiziqli funksiya. Endi quyida  $(G' / G)$  –usulining asosiy algoritmini keltiramiz:

**1-qadam.**  $v(x, t)$  funksiyada ushbu

$$v(x, t) = v(\xi), \quad \xi = kx + Nt, \quad (2)$$

almashtirishdan foydalanib, (1) tenglamani:

$$P(v, Nv', kv', N^2v'', k^2v'', kNv''', \dots) = 0, \quad (3)$$

ko'rinishdagi oddiy differensial tenglamaga keltiramiz, bu yerda:  $v' = \frac{dv(\xi)}{d\xi}$ ,  $v'' = \frac{d^2v(\xi)}{d\xi^2}$ , ...,  $k$ ,

$N$  – o'zgarmas sonlar.

**2-qadam.** Agar (3) tenglamani bir yoki bir necha marta integrallash mumkin bo'lsa, bu yerdan integrallash doimiysi kelib chiqadi.

**3-qadam.** Faraz qilaylik, (3) tenglamaning  $v(\xi)$  yechimini

$$v(\xi) = \sum_{j=0}^m a_j \left( \frac{G'(\xi)}{G(\xi)} \right)^j \quad (4)$$

chekli yig'indi ko'rinishida izlash mumkin bo'lsin, bunda  $a_j$  lar ( $j = 0, 1, 2, \dots, m$ ) keyin aniqlanadigan o'zgarmaslar bo'lib  $a_m \neq 0$ ,  $m$  natural son,  $G(\xi)$  funksiya esa quyidagi

$$G''(\xi) + \lambda G'(\xi) + \mu G(\xi) = 0 \quad (5)$$

yordamchi chiziqli oddiy differensial tenglamaning yechimi, bu yerda  $\lambda$  va  $\mu$  lar ixtiyoriy o'zgarmaslar. Bu yerdagi  $m$  sonini (3) oddiy differensial tenglamadagi hosilaning va chiziqli bo'lmagan hadning eng yuqori darajalarini tenglash orqali topish mumkin.

Endi quyidagicha belgilashni olamiz:

$$Y = Y(\xi) = \frac{G'}{G} \quad (6)$$

va (5) tenglamadan foydalanib, ushbu

$$Y' = -Y^2 - \lambda Y - \mu \quad (7)$$

Yoshlar o’rtasida ta’lim va kasblarni egallashni ommalashtirish, ular ongiga yuqori darajadagi ta’lim va umuman madaniyatni qo’llash zarurligini anglashni, nihoyat, bilim va ko’nikmalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Bu esa o’z shaxsiy qobiliyatlarini hayotning turli sohalarida faol ishlatish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy adolat idealini ijtimoiy tuzumning belgilangan jami idealidan, unga xos bo’lgan munosabatlarning sifat xususiyatlaridan – ularning o’lchovi, uyg’unligi, tartibligi aniqlashtirishdan iborat. Axloqiy ongda adolat ideali ezigulik va yovuzlikning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish vazifasini bajaradi.

Bu maqsadning amalga oshirilishi zamonaviy avlodning bilim va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash, ularni hayotga, kasbga tayyorlash uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratmoqda. Yoshlar ma’naviy ongini rivojlantirish, avvalambor, tarbiyaning mazmuni va tashkil etilishini ularning faoliyati bilan chambarchas bog’liq holda takomillashtirishga, ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishga yordam beradi. Ushbu omil odamlar o’rtasidagi munosabatlarning muhim tartibga soluvchisiga aylanib bormoqda va shuning uchun zamonaviy yoshlarda adolatparvarlik tuyg’usini shakllantirish hozirgi kunda alohida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Biz bugun jamiyatdagi barcha yosh avlod vakillarini taraqqiyotga hissa qo’sha oladigan deb ayta olmaymiz. Yoshlar o’rtasida o’zgalarning taqdiriga befarq, mehnatdan qochib, oson yo’l bilan boylik ortirishni maqsad qilgan, yengil-elpi, bema’ni xulqi bilan omma e’tiborini qaratishga intiladigan, turli norasmiy guruhlarga qo’shib qoluvchilar borligi bizni xavotirga soladi. Natijada bunday yoshlar oilada, mahallada kattalarga farzandlar, maktabda tartib buzuq o’quvchilar, voyaga etmagan jinoyatchilar, oliy ta’limdagi ta’lim-tarbiyani ko’rmagan talabalar, bandligi ta’minlanmagan hamda uyushmagan yoshlar sifatida jamiyatga kirib kelayotganligi masalaning jiddiy tomoni hisoblanadi. Bunday sifatlarga ega yoshlarni uzluksiz ma’naviy tarbiya asosida tarbiyalash, komil shaxs qilib voyaga yetkazish masalasi juda dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda 2020 – 2021-o’quv yilidan boshlab mamlakatimizda umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fani joriy etildi [6]. 2020–2021-yillarda 1–9-sinflarda, 2021–2022-yillardan boshlab 10–11-sinflarda ham ushbu fan o’qitib kelinmoqda.

Fikrimizcha, jamiyat taraqqiy etishi uchun uning barcha a’zolarida yuksak ma’naviy fazilatlar qaror topgan bo’lishi lozim. Bunda jamiyatda o’sib kelayotgan yosh avlodni asl vatanparvar, millatning jonkuyarlari sifatida tarbiya etish, ulardagi ma’naviy bo’shliqlarning oldini olishda jamiyatning har bir instituti hamkorlikda ish olib borib, belgilangan chora-tadbirlarni hayotga faol tatbiq etish ko’zlangan maqsadga erishishda qo’l kelishi, shubhasiz.

Tarbiya faniga “Bebaho ma’naviy merosimizda adolatparvarlik”, “Ijtimoiy adolat eng muhim ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy masalalardan biridir”, “Vijdon va adolat”, “Shaxslararo munosabatlarda adolat, burch va vijdon” kabi mavzularini kiritish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Adolatparvarlikning mohiyatini chuqur anglashni talab qiladigan vazifalarni amalda qo’llash kerak. Masalan, o’rta maktabda:

–“Adolat qonuni”, “Adolat – xulq-atvorga berilgan baho”, “Adolat – xulq-atvor tamoyili”, “Adolat – ijtimoiy foydali mehnatga hissa sifatida”, “Vijdon eng yaxshi axloqiy fazilatlar ifodasidir”, “Axloq kodeksi” kabi mavzularda targ’ibot-tashviqot ishlarini o’tkazish;

–jamoaga, tengdoshlarga, kattalar bilan mulohaza qilish qoidalari haqida bukletlar;

– maktabda, oilada o’zini tutish qoidalari to’plamini ishlab chiqish ijobiy natija beradi.

Zamonaviy barkamol avlodni tarbiyalash fuqarolik jasorati, halollik tamoyillarga sodiqlik, insonparvarlik va hissiy sezgirlik sintezidir. Bu axloqiy-irodaviy tarbiya, ya’ni, hayotdagi qarama-qarshiliklarni hal qilishda faol va qo’rqmasdan ishtirok etishga tayyorlikni tarbiyalashga bog’liq.

**Xulosa.** Demak, mavjud ijtimoiy munosabatlarni chuqur isloh qilish, shaxsga, jamoaga, mamlakatga nisbatan adolatni qaror toptirishning yangi usullarini tinimsiz izlash jamiyatni yangilash jarayonini boshqarishga kompleks yondashuvni taqozo etadi.

O’zbekiston xalqining milliy yuksalishi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyatan ijtimoiy davlatni barpo etish va ma’rifiy jamiyat poydevorini yaratishga karatilganligi bilan bog’-

langandir. Bu islohotlar, eng avvalo, davlat hayotini, uning institutlari faoliyatini yangilashga qaratilgandir. “Inson qadri”, “xalqparvar davlat”, “adolatli ijtimoiy siyosat” yuritish, inson kapitalini rivojlantirish ana shu islohotlarda ko‘zda tutilgan maqsadlardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент, 2022, “Ўзбекистон”, 257-бет.
- (2). Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент, 2022, “Ўзбекистон”, 257-бет.
- (3). Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017, 1-том, 168-бет.
- (4). Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov qarashlarida ta‘lim tizimiga e‘tibor va adolatparvarlik g‘oyalari. Academic Research in Educational Sciences Volume 3, Issue 11, 2022. ISSN: 2181-1385. <https://cyberleninka.ru/article/n/maxmudxo-ja-behbudiy-va-munavvarqori-abdurashidxonov-qarashlarida-ta-lim-tizimiga-etiborvaadolatparvarlik-g-oyalari>
- (5). Жадидлар. Абдулла Авлоний. Ёшлар нашриёт уйи. Тошкент, 2022, 152-бет.
- (6). Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. “Ўзбекистон”, Тошкент, 2021, 230-бет.
- (7). <https://lex.uz/ru/docs/4885018>

**Saloxov Akmal Qamariddinovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD))**

#### **BUXORO JADIDLARINING MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI**

*Аннотация. Ushbu maqolada Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ularning bag‘rikenglikka oid g‘oyalari tahlili hamda ta‘lim-tarbiyaga qarashlari tahlil etilgan hamda jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish ekanligi ochib berilgan*

**Калит so‘zlar:** *tolerantlik, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, “usuli jadid”, axloq ilmi, jadidchilik.*

**Салахов Акмаль Камариддинович (доцент кафедры «Социальные науки» Бухарского Инженерно-технологического института, доктор философских наук (PhD))**

#### **ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДОВ БУХАРЫ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ**

*Аннотация. В данной статье анализируется возникновение движения джадидизма в Бухаре, анализируются их представления о толерантности и взгляды на образование.*

**Ключевые слова:** *толерантность, просвещение, национальное пробуждение, «усули джадид», джадидизм.*

**Salakhov Akmal Kamariddinovich (Associate Professor of the Department of Social Sciences of the Bukhara Engineering and Technology Institute, Doctor of Philosophy (PhD))**  
**EDUCATIONAL ACTIVITIES OF THE JADIDS OF BUKHARA AND ITS IMPORTANCE IN THE EDUCATION OF YOUTH**

*Annotation. This article analyzes the emergence of the Jadidism movement in Bukhara and the analysis of their ideas about tolerance and their views on education. It is revealed that it is a composition.*

**Key words:** *tolerance, enlightenment, national awakening, “usuli jadid”, jadidism.*

**Кирish.** Hozirgi kunda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan oliy janob g‘oya asosida barpo etilmoqda. Prezidentimiz belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlarni (100 maqsad) bajarish va hayotga tadbiiq etish, yoshlarimizni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash ilf-fan oldidagi muhim mas‘uliyatli vazifadir [1]. Ayniqsa, 70-maqsad: yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhi-da, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Jadidchilik, eng avvalo, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G‘arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo‘lgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilab bergan va bu ta‘lim sohasini, umuman olganda, ma‘rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan. Jadidlar nafaqat bunday islohot o‘tkazishni nazariy jihatdan asoslab bergan, balki ma‘rifatni amalga oshirish uchun amalda ham tinmay harakat qilgan, ular yangi usuldagi maktab, kutubxona, qiroatxonalar ochgan, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan. Bu o‘sha davr

kishilari uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangilik bo'lib, juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan va odamlar ongida inqilob yasagan. Jadidchilikning o'ziga xosligi nimada? Eng avvalo, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G'arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo'lgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilib bergan va bu ta'lim sohasini, umuman olganda, ma'rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan. Jadidlar nafaqat bunday islohot o'tkazishni nazariy jihatdan asoslab bergan, balki ma'rifatni amalga oshirish uchun amalda ham tinmay harakat qilgan: ular yangi usuldagi maktab, kutubxona, qiroatxonalar ochgan, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan. Bu o'sha davr kishilari uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangilik bo'lib, juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan va odamlar ongida inqilob yasagan [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik, demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish edi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo'lingan edi. 1908-yil "Buxoro sharif shirkati" tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Homidxo'ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy shirkatning tashkilotchilari edi [3].

**Tahlil va natijalar.** 1909-yilning dekabr oyida jadidlar Buxoroda "Tarbiyayi atfol" ("Bolalar tarbiyasi") maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi "Buxoro ta'limi maorif jamiyati" bo'limiga o'qishga jo'natdi. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan buri-lish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda Jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va "Tarbiyai atfol" maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

XIX asr oxiri–XX boshlarida yashab ijod qilgan jadid allomalar Ahmad Donish va Abdurauf Fitrat o'z ijodlari bilan o'zbek va tojik madaniyatida munosib hissa qo'shganlar. "Najot yo'li" ("Rahbari najot") va "Navodir ul-vaqoe" asarlarida ularning jadidlik g'oyalari, zamonaviy fanlar doirasida bilimga ega ekanligi, insonlarning ilmga rag'bati, ilm sabab Buxoro ahlining hayot tarzini yangilash, diniy ta'limni qayta shakllantirish hamda ma'rifat tushunchasida o'z xalqining ijtimoiy hayotidagi asrlik turg'unlikdan xalos bo'lishga undash g'oyalari yetakchilik qilgan.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari Sharq xalqlarining falsafiy tafakkur tarixi, unga xos xususiyatlar, buyuk allomalarning ma'naviy merosidagi milliy va umuminsoniy g'oyalarni axloqiy qadriyat sifatida insoniyat ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishni talab etmoqda [4].

Buxoro ma'rifatparvarchiligining yuqori cho'qqisi bo'lgan jadid mutafakkirlarining bag'rikenglikka oid boy g'oyalari yoshlarni ertangi kun vorislari qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Buxoroda ilk mahalliy yangi usul maktablari 1903–1904-yillardan ochila boshlangan. 1903-yilga kelib Buxoroda 6 ta yangi usul maktabi tashkil etilgan edi. 1908-yilning oktabr oyida Buxoroning Darvozayi Sallohxona guzarida Mirzo Abdulvohidning uyida o'qish mahalliy tilda olib boriladigan yangi usul maktabi rasman ochiladi va unga Mirzo Abdulvohid muallim etib tayinlanadi.

Mahalliy ziyolilardan Sadridin Ayniy boshlang'ich maktabning to'rt sinfdan iborat bo'lishini taklif qiladi [5]. Shu sababli yangi usul maktablaridagi sinf xonalarida geografiya xaritalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar bo'lgan. Xat-savod bolalarning ona tilida, tovush usuli (usuli savtiya)da o'rgatilgan. Yangi usul maktablari, asosan, 1–4-sinfdan iborat boshlang'ich maktab bo'lgan [6].

Domla Ikromning fors-tojik tilida yozilgan "Uyqudagilarning uyg'onishi va nodonlarning ogoh bo'lishi" nomli risolasining 1910-yilda Yangi Buxoro (Kogon)da nashr etilishi katta ahamiyat kasb etdi. U muftiy sifatida Buxorodagi jadid maktablarini Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiychi guruhlarining tajovuzlaridan himoya qilgan. 1914-yil 25-yanvarda yuqori martabali ulamolarning yig'ilishida Domla Ikrom jadid maktablarini ochish to'g'risidagi dastur loyihasini taqdim etadi.

Domla Ikromchaning faoliyati tortishuvga sabab bo'ladi. Lekin u o'z dasturini qat'iyat bilan himoya qiladi va muayyan natijaga erishadi. Hatto, qozi kalon ham, agar amir rozilik bersa, jadid maktablarining faoliyatiga qarshi emasligini bildiradi. Domla Ikromchaning ta'kidlashicha, "bir vaqtlar ilmning markazi bo'lgan Buxoro ta'lim tizimida faqat sanoqli iqtidor egalari olim darajasiga yetishishi, o'qitish usullari o'z-garsa, minglab haqiqiy olimlar yetishib chiqishi mumkin edi". Shu tariqa, Mulla Ikrom boshchiligidagi bir guruh (ilg'or fikrli ulamolarning guruhi) nufuzli kishilar yangi maktablarni shakl jihatidan ham, mohiyat-e'ti-



bori bilan ham xalq uchun, mamlakat ravnaqi uchun foydali va bu yangi maktablarda din yoki davlat manfaatlariga zid keladigan hech bir narsa yo‘q, deb hisoblab, maorif tizimini isloh etish tarafdori bo‘ladilar.

1911-yilning boshlarida Mukomiliddin Burhonov tomonidan Buxoroda yangi usul maktabi ochiladi. Ushbu maktabdagi o‘quvchilar soni 40 nafardan ortiq bo‘lgan. Buxorodagi jadid maktablari ichida Mukomiliddin Burhonov tashkil etgan maktab o‘zining jihozlanishi bilan ajralib turgan, unda oynalik derazalar, temirdan yasalgan pechkalar mavjud edi. Yangi o‘quvchini qabul qilish, sinfdan sinfga ko‘chirish, maktabni bitirish qat’iy tartibda bo‘lgan, o‘quvchilar bilimini baholash 6 ballik tizim bilan amalga oshirilgan, imtihonlar tashkil etilib, ular targ‘ibot maqsadida oshkora, namoyishkorona tarzda o‘tkazilgan.

1913-yilda Qorako‘l tumanida amlokдор G‘ulom Qodir bilan Qozi Ikrom bir maktab ochib o‘z bolalarini va xohlovchilarning bolalarini o‘qitishni tashkil etgan. Bu yerda Sulaymonxo‘ja tomonidan gazeta tarqatilib, kitoblar keltirilib, kutubxona ishi yo‘lga qo‘yilgan. Shofirkon va Vobkent tumanlarida ham yoshlar bilan ishlash, adabiyotlar tarqatish va maktablar ochish ishi tashkil etilib, tatar muallimlaridan foydalanilgan.

**Xulosa va takliflar.** Buxoroda jadidchilik harakatining jonkuyarlaridan biri Ota Xo‘ja Po‘latxo‘jaev (Otaulla Xo‘jayev)dir. U maslakdoshlari bilan yangi usul maktabini ochadi, bir necha oydan so‘ng bu maktab amir hukumati tomonidan yopib qo‘yiladi. Shunday bo‘lsa-da, u taqiqlarga qaramay, Buxoroda yashirincha kechki maktablar ochishda faol qatnashadi. Abdurauf Fitratning o‘zi ham 1913–1914-yillarda Ota Xo‘ja Po‘latxo‘jayev bilan birga Shahrisabz va Karkida maktablar ochish bilan mashg‘ul bo‘lgan

Shu nuqtayi nazardan kelib kelib chiqib, biz ilm-fan xodimlarining oldimizda turgan muhim vazifalardan biri yosh avlodga ma‘rifatparvar jadid bobolarimizning ilmiy merosini kengroq targ‘ib qilish va ularning ongi va qalbiga chuqurroq singdirishdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). ЎзР МДА, 2-фонд, 1-рўйхат, 268-иш, 20-варақ.
- (2). Бухоро Давлат меъморий-бадий музей-қўриқхонаси қўлёзма фонди, 1573-инвентарь.
- (3). ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 41-варақ.
- (4). Садриддин Айнийнинг 1917 йилда Самарқандда нашр этилган “Таҳзиб ус-сибиён” асарининг асл нусхаси Бухоро шаҳридаги Арк музейида сақланмоқда. Маълумотлар шу ердан олинди.
- (5). ЎзР МДА, 2-фонд, 1-рўйхат, 268-иш, 20-варақ.
- (6). Ражабов К. Ёш бухороликлар. “Бухоро мавжлари”, 2005, 2-сон, 27-бет.

#### **Salomova Hakima Yusupovna (Buxoro davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori) O‘ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK HOLATNI YAXSHILASHGA OID FALSAFIY MULOHAZALAR**

***Annotatsiya.** Maqolada biosferani hayot ko‘rsatkichlarini asrash uchun insoniyatning tabiat qonunlari va ekologik komponentlarning tabiiy-ekologik me‘yorlarini bilishi hamda ularni buzmasligi kerakligi yoritilgan. Shuningdek, ekologik muvozanat asosida yotgan tabiat qonunlariga rioya qilmaslik jiddiy ekologik talafotlarga olib kelishi falsafiy tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** ekologik komponentlar, tabiat borlig‘ining sifat ko‘rsatkichlari, yashil iqtisodiyot, tabiiy-ekologik me‘yor, ekologik qiymat.*

#### **ФИЛОСОФСКИЕ СООБРАЖЕНИЯ ОБ УЛУЧШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

***Аннотация.** В статье подчеркивается необходимость для человечества знать законы природы, природно-экологические законы и не нарушать их в целях сохранения биосферы. Также, проанализировано с философской точки зрения, что несоблюдение законов природы, лежащих в основе экологического баланса, приведет к серьезным экологическим потерям.*

***Ключевые слова:** экологические компоненты, качественные показатели природных объектов, природно-экологическая мера, экологическая ценность.*

#### **PHILOSOPHICAL CONSIDERATIONS ON IMPROVING THE ENVIRONMENTAL CONDITION IN UZBEKISTAN**

***Annotation.** The article emphasizes the need for humanity to know the laws of nature and natural-ecological ones and not to violate them in order to preserve the biosphere. Also, it is analyzed from a philosophical point of view that non-compliance with the laws of nature that underlie the ecological balance will lead to serious environmental losses*

**Key words:** *ecological components, quality indicators of natural objects, natural-ecological measure, environmental value.*

**Kirish.** Atrof-muhitga xavf keltirayotganlarga qarshi jamiyatda har xil yashil harakatlar va siyosiy partiyalar paydo bo'ldi. Masalan, "Yer do'stlari", "Grinpis" tipidagi harakat va partiyalar shular jumlasidandir. Mazkur harakat va partiyalar o'z mohiyatiga ko'ra, internatsional harakat va partiyalardir. Davlatga qanday inson kerak? Davlatga ham, oilaga ham sog'lom inson kerak. Mamlakatimiz ravnaqi, aholimiz farovonligi uchun nima kerak? Sog'lom tabiat, sog'lom tabiatning xilma-xil ne'matlari kerak.

Bu uchun esa O'zbekistonning barcha xalqi yoshi ulug'dan tortib, eng yosh o'smir, maktab o'quvchilariga tabiatning imkoniyat chegaralarini, tabiat qonunlarini chuqur bilib, unga amal qilishi shart bo'ladi. Inson mehnatsiz yashay olmaydi. Mehnat esa tabiatni u yoxud bu tomonga, inson foydasiga qarab o'zgartirishdir. Ammo bu o'zgarishlar tabiat doirasidan falsafiy ibora bilan aytganda, meyordan chiqmasa, insoniyat hech qachon ekologik halokatga yuz kelmaydi. Ammo ming afsus insoniyat bu xavfli chiziqqa yaqin kelib qolayotganini to'liq anglay olmayabdi. Me'yor borliqning oltin qonuni, u jamiyat ijtimoiy borliqda ham, inson tanasida, tabiat borlig'ida ham amal qiladi.

**Metodlar.** Maqolada xolislik va obyektiv yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va konkretlashtirish kabi ilmiy bilish uslublaridan foydalanilgan.

**Natijalar.** Aslida, olam, biosfera ham, inson singari mukammal yaratilgan. Asalari qaysi gul shirasida 4,25% glukoza ko'p bo'lgan gulga qo'nadi, inson qoni nechanchi guruhda tug'lsa, umrining oxirigacha shu guruhga mansub bo'lib qolaveradi, Yer sayyorasi bilan Quyosh sayyorasi orasidagi masofa doimo bir xil, ozon qobig'ining tabiiy-ekologik me'yori 300 dobson birligiga teng (faqatgina bahorda yoxud yomg'ir yog'anda o'zgarishi mumkin) bu misollar falsafadagi me'yorning tabiat borlig'ida amal qilganidir. Insoniyat bu tabiiy-ekologik me'yorlarni topib, ularga amal qilsa, aslo, ekologik xavf yuzaga kelmaydi.

O'zbekistonda ekologik muammo allaqachon davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistondagi ekologik muhitni yaxshilash omillari.

I. O'rmonlar ekologik barqarorliklikning eng asosiy omili. Zero, ular kislorod manbai. Olimlar bir yil davomida SO<sup>2</sup> (karbanat anhidrid) yutilishining hajmi 2,6 foizga qisqarganini, gazning ajralishi esa yiliga 3,4%ga oshganini aniqladi. "SO<sup>2</sup> so'rilish hajmining eng jiddiy kamayishi o'rmonning quruq va issiq hududlarida aniqlangan bo'lib, hozirda u yerlar uglerod yutuvchi emas, balki ajratuvchiga aylangan", deydi tadqiqotchilar. Olimlar ma'lumotiga ko'ra, SO<sup>2</sup> gazining ajralish hajmi 2013-yilda yutilishidan ko'proqni tashkil etgan. Bunga o'rmonlarning kesilishi, yog'ingarchilikning kamaygani, jazirama va qurg'oqchilik ortgani sabab qilib ko'rsatilmoqda. O'zbekistondagi ekologik muhitni yaxshilashda o'rmon xo'jaligi alohida e'tiborga loyiq. Respublikamizda oxirgi uch yilda o'rmon xo'jaligiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda o'rmon fondi 12 million gektarga yetkazildi. Birgina Qoraqalpog'istonda 6 million 600 ming gektarda ortiq o'rmon xo'jaligi yeridari bor. 2018–2020-yillarda Orol bo'yi hududida 1 million 160 ming gektar yashil qoplamali hududlar yaratildi. Bu yashil hududni yanada mustahkamlab haqiqiy o'rmon hududiga aylantirishimiz lozim bo'ladi. O'zbekistonning yangi ekologik xaritasi ishlab chiqilmoqda.

1. 50 ming gektar o'rmonzor tashkil etib, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan hamda Toshkent viloyatlari tuproqlarida yong'oq, pista va bodom plantatsiyalari tashkil qilish imkoniyati bo'lsa, Buxoro zaminida qora anjir, zaldori, uzum, qovun yetishtirish imkoniyatlari talaygina. Mahalliy pistaning suvsizlikka chidamli va yuqori hosil beradigan 13 turdagi yangi yangi navi ro'yxatdan o'tkazildi, ularni darhol tog'li tumanlarda ekish zarur.

2. O'zbekistonning Qorako'l, G'ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Pop, Chortoq, Nurobod, Qo'shrabot, Nurota, Baxmal, Forish, Uzun, Boysun, Ohangaron, Bekobod tuman o'rmon xo'jaliklari pozitiv o'zgarishlarga muhtoj. 5000 gektar yer aynan dorivor o'simliklar plantatsiyasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Dorivor o'simliklar plantatsiyasi yaratilishining ikki xil samarali tomoni mavjud. Birinchidan, sog'lom turmush konsepsiyasini amalga oshirishda hissa qo'shgan bo'lamiz. Bu borada Ibn Sino o'g'itlariga amal qilgan bo'lamiz. Ular: "Hech bir o'simlik yo'qki, u shifobaxsh xususiyatga ega bo'lmasin, hech bir kasallik yo'qki, u o'simlik bilan davo topmasin". Bunday shifobaxsh o'simlik navlarini ko'paytirish, yo'qolib borayotgan navlarini qayta tiklash orqali biosferadagi ekologik muvozanatni tiklagan bo'lamiz. Ikkinchidan, tuproq va havo sifatini tabiiy tiklanishiga, oziq zanjirlarni o'z o'rniga qo'yishga sababchi bo'lamiz.

3. Bobotog' Zomin, Baxmal, Dalvarzin, Qo'qon, Qozoqdaryo o'rmon xo'jaliklarida ham bioxilma-xillikni asrash, turizmni tashkil etishda tabiat-o'rmon borlig'iga zarar yetkazmaslik omillari qaytadan ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

**Munozaralar.** Umumiy ekologiya, ijtimoiy va global ekologiya asoslarini chuqur o‘rganib, ekologik komponentlarning tabiiy-ekologik meyorlariga muvofiq antropogen omilni boshqarish. Abdurauf Fitrat 1929-yilda “Fors shoiri Umar Xayyom” nomli risola yozgan. Mazkur risolada 35 ta ruboiysini nasriy tarjimasini keltirgan. Unda olamdagi mutanosiblik haqida shunday izohlangan: “Olimlar va faylasuflar aytadilarki, go‘zal yuz olamning olloh taolo tomonidan yaratilganiga isbot va ilm o‘rganish zarurligiga dalolatdir. Go‘zal yuz yaratuvchining asaridir va uning mohiyati ezguligini namoyon qiladi. Tabiiylar<sup>1</sup> aytishlaricha, har bir narsada ortiqlik, kamlik va mutanosiblik bor va yagona tartib mutanosiblik orqali shunday tuziladiki, agar e‘tibor bersangiz, har jihatdan mutanosib bo‘lgan chehraning suvrati barkamoldir; bu jahon muvozanat bilan barpo etilgan va u tufayli gullab-yashnaydi” [3].

Hozirgi kunda Yer sayyorasida yashaydigan har bir inson ekologik inqirozning salbiy mohiyatini to‘laligacha tushuna olmayabdi... Aslida, biosferadagi ekotizimda yuz berayotgan manfiy o‘zgarishlar insonning qalbini larzaga solishi, hammani “uyg‘otib” ekologik ofatdan xabardor qilib, amaliy choralar ko‘rishni taqozo etadi. Ekologik ofatlardan biri cho‘llanish muammosidir. Cho‘llanish yerning ekin ekilmaydigan yaroqsiz holga kelish jarayonidir. Cho‘llangan yer o‘z unumdorligini yo‘qotadi. Ekotizimlardagi organik hayot to‘xtaydi. Qurg‘oqchilik tufayli cho‘llanish kuchayib, yer tabiiy-iqtisodiy inqirozga uchraydi.

Bu degani nima? Bu degani shuki, shu kunda oziq ovqati yetarli bo‘lgan 3,2 mlrd. aholi cho‘llashish kuchaysa, oziq-ovqat tanqisligiga duch keladi. Hozirgi kunda cho‘llanish ko‘lamiga nazar solsak. Har yili 12 mln. gektar yer cho‘llanadi. Bir daqiqada esa 23 gektar yer cho‘llanadi, O‘zbekistonda har daqiqada 9 m<sup>2</sup> yer cho‘llashmoqda.

Hozirgi kunda Yer yuzining 75% cho‘llangan hudud bo‘lib, cho‘llanish xuddi shunday tahdidi davom etsa 2050-yilga borib, Yer yuzining 95% cho‘llanish yerning yaroqsiz holatiga kelib, qashshoqlashish balosiga yuzma-yuz kelib qolishi mumkin.

Hozirgi kunda shu holatda O‘zbekiston 80 xilga yaqin ho‘l va quruq mevalarni yetishtirib, 180 ga yaqin mamlakatga eksport qiladi. Agar biz cho‘llashish jarayonini to‘xtatib qola olmasak, bu iqtisodiy foyda kamayib ketishi mumkin. Bizdan keyingi avlod “Siz bizga qanday holdagi tabiatni tashlab ketdingiz?” deb so‘raydi? Bizdan ular tabiatni xursand holda qabul qilib olishi kerak? Shunday emasmi? Bu borada o‘z avlodlarimizning “Yer bilan tillashish” tamoyillariga amal qilishimiz lozim. Zero, 10 santimetrli gumus qobiqli hosildor yer dunyoga kelishi uchun tabiat 2000 yildan 7000 yilgacha “vaqt” sarflaydi. Bunday tuproqdan vujudga kelgan bir gektar o‘rmon qoplami o‘rtacha 200 000 kishi istiqomat qiladigan hududni toza havo bilan ta‘minlaydi [4; 13-b.].

BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 2008-yilda atrof-muhitga insoniyat faoliyatidan, ya‘ni, antropogen omil tufayli kelgan zara hajmi 6,6 trillion dollarga teng bo‘lgan. Bunga sabab nima, Yer sayyoramizda ko‘payib borayotgan aholi sonimi, ekologik bilimsizlikmi?

**Yer sayyorasidagi aholi soni**

№	Yillar	Yerdagi aholi soni
1	650-yilda	0,5 milliard kishi
2	1500-yilda	450 mln. kishi
3	1800-yilda	900 mln. kishi
4	1820-yilda	1,0 milliard kishi
5	1900-yilda	1,6 milliard kishi
6	1930-yilda	2,0 milliard kishi
7	1950-yilda	2,5 milliard kishi
8	1959-yilda	3, 0 milliard kishi
9	1977-yilda	4,0 milliard kishi
10	1987-yilda	5,0 milliard kishi
11	2000-yilda	6,0 milliard kishi
12	2011-yilda	7 milliard kishi
13	2020-yilda	7,7 milliard kishi
14	2021-yil	7,9 milliard kishi
15	2024-yil yanvar oyida	8 milliard kishi
16	2050-yilda	9 milliard aholi bo‘lishi kutilmoqda (BMT ehtimoliy bashoratiga ko‘ra)
17	2100-yilda	11 milliard aholi bo‘lishi mumkin

<sup>1</sup> Tabiiylar (naturalistlar) – Xayyom bu so‘z bilan hamma hodisalarni tabiiy yo‘l bilan tushuntiruvchi falsafiy maktabni belgilash uchun ishlatgan. Dinshunos Najmuddin Xayyomning o‘zini shu maktabga mansub, deydi.

Yer sayyorasining o'Ichamlari aniq, u kengaya olmaydi. Tabiat ne'matlarini qanday qilib asrash mumkin? Ekotizimlar mahsuldorligini-chi?

Ekologiya va tarqqiyot Xalqaro London universitetining katta ilmiy xodimi David Setterveyt fikriga ko'ra, "Muammo sayyoramizda qancha kishi yashayotganiga emas, balki iste'mol miqdori, ko'lami va mohiyatiga bog'liq". Uning yuqoridagi fikriga hamohang Hindiston donishmandi Maxatma Gandi: "Dunyoda tabiat zaxiralari yetarli, ular har bir insonning ehtiyojini qondirishga yetadi, ammo ochko'zligini emas", degan mulohazani o'rta tashlaydi. Insoniyatni tabiat ne'matlariga nisbatan, tasavvuf faylasuflari iborasi bilan aytganda, nafsi ammora darajasidan ham oshib bormoqda. Xonadon ehtiyojini bir avtomashina qondiradi, biz bir necha avtomashina olamiz. Bir televizor bir xonadon a'zolarini ehtiyojini qondiradi, biz barcha xonalarga televizor olamiz. Biz yuqoridagi Mahatma Gandi, David Setterveyt fikrlariga qo'shilamiz, ularni yanado boyitishga harakat qilamiz. Insoniyat ehtiyojlarining o'z oqilonalik darajasidan ortib ketishi tabiiy biologik xilma-xillikning keskin qisqarishi hisobiga tabiiy ekotizimlar barqarorligini yo'qolishi xavfiga olib keladi. Daniya statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda har bir daniyalik har oyda 38 854 kron maosh olgan, bu yevro bo'yicha 5 210 yevroni tashkil etadi. Daniya mamlakatida o'rtacha umr erkaklar uchun 80 yoshni, ayollarning o'rtacha umri 87 yoshni tashkil etadi. Mamlakatning eng katta yutuqlaridan birinchisi ekologik bilim darajasi yuqoriligida bo'lsa, ikkinchidan, iqtisodni boshqarish poydevorida ekologik bilim, ekologik tafakkur va madaniyatni yotishidir. Yer bilan tillashish ilmini egallash uchun ular uch yil davomida ilm, amaliyot ko'nikma olishadi, so'ng ularga "yashil daftar" so'ng esa yer berishadi. O'zbekiston aholisining eng katta boyligi mehnatsevar xalqi borligidir. Bugun yerga munosabat, ona tabiat borlig'iga munosabat tubdan o'zgarishi lozim. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 36,6 mln. aholi yashamoqda. O'zbekiston tabiati borlig'idagi har ekologik komponentning iqtisodiy qiymatiningina emas, balki ularning ekologik qiymatini inobatga olgan holda, ishlab chiqarishni tashkil etish ekologik xavflarni olish garovidir.

**Xulosa.** Har bir ekotizimning tabiiy sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, biomahsuldorligi saqlash tadbirlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash. O'zbekiston mintaqada birinchi bo'lib Global yashil iqtisodiy o'sish institutiga qo'shildi.

"Yashil o'sish", "yashil texnologiya", "yashil belbog'", "yashil energetika", "yashil transport", "yashil iqtisodiyot"... Bu kelajakda "yashil", ya'ni, ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish madaniyatini shakllantirishga katta imkoniyat yaratadi [5].

Ishlab chiqarish madaniyati, ekologik va iste'mol madaniyati dialektik aloqadorligini insoniyat unutmashligi lozim. Ekologik inqirozlar kuchayishi bilan "yashil iqtisodiyot", "ekologik toza", "ekologik asoslangan texnologiya", "ekologik qiymat" [6] kabi tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga kirib keldi. Mazkur kategoriyalarning to'liq mohiyatini yoshlar ongiga yetkazib borishimiz lozim. Bular bari har bir tabiat ne'matlarini miqdor va sifat ko'rsatkichlarini qamarab oladi. Zero, tabiatda ov qilish me'yori (70% qoidasi), o'rmondagi biomahsuldorlikni saqlash qonunlari mavjud, har bir turning yashash makonini saqlash (nish qonunlari) qonunlari mavjud. Yashil iqtisodiyot yadrosini aynan shu qonunlar tashkil etadi.

O'zbekiston "Yashil" o'sish indeksida Osiyo davlatlari ichida 33-o'rinda turadi. Dunyoning 100 dan ortiq yetakchi mamlakatlari 2030-yilgacha o'rmonlarni kesishni to'xtatishga kelishib olishdi. 28 mamlakatning hukumati qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, palma yog'i, kakao va soya ishlab chiqarish uchun o'rmonlarni kesishni to'xtatadi. Ushbu qarorni, ayniqsa, Braziliya, Kanada, Kolumbiya, AQSH, Buyuk Britaniya va Indoneziya ham bor. Ta'kidlanishicha, ushbu mamlakatlar hisobiga dunyodagi o'rmonlarning qariyb 85% to'g'ri keladi. Ushbu qaror BMTning Glazgoda iqlim bo'yicha 31-oktabr kuni boshlanib, to 12-noyabrga qadar o'tkazilgan konferensiyada qabul qilindi. Mazkur konferensiyada 200ga yaqin mamlakat vakillari qatnashishdi. Boshqacha iboralar bilan aytganda, sayyoramiz "o'pkasi" saqlanib qoladi. Aynan shu misolning o'zi ham iqtisod va ekologiyaning dialektik aloqadorligini bildiradi. Dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiy jihatdan ham, tabiat komponentlari jihatidan ham bir-biri bilan uzviy bog'liq. Biosfera salomatligi insoniyat qo'lida.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" [P4G] ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2021, 30-may.

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi.

(3). Umar Xayyom. Navro'znoma. T., "Mehnat", 1990.

(4). Salomova H.Y. Ekologiya va yashil iqtisodiyot. Buxoro, "Durdona" nashriyoti, 2023.

(5). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yashil o‘shish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” [P4G] ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2021, 30-may.

(6). Salomova H.Y. Ekologiya va yashil iqtisodiyot. “Iqtisod va hayot”, 1995, № 6, “Ekologik qiymat” kategoriyasining mohiyati ilk bor 1996-yil Jahon simpoziumida H.Y.Salomova tomonidan ochib berildi.

**Sharobiddinov Sherzodbek Shuxratbek o‘g‘li (Namangan davlat universiteti  
tadqiqotchisi; [sherzodbeksh@mail.ru](mailto:sherzodbeksh@mail.ru))  
YOSHLAR MA’NAVİYATINI SHAKLLANTIRISHDA VORISLIK MASALASINI HAL  
ETISHNING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada yoshlar o‘rtasida ma’naviyatni shakllantirish kontekstida vorislik masalasi ni hal qilish muhimligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada vorislikni ta’minlash oldida turgan zamonaviy muammolar yoritilgan, shuningdek, ushbu masalani hal qilish uchun aniq amaliy yechimlar taklif qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** vorislik, ma’naviyatni shakllantirish, yoshlar, vorislik masalasini hal qilishning ma’nosi, ijtimoiy-madaniy jihatlar.*

**ЗНАЧЕНИЕ РЕШЕНИЯ ВОПРОСА ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ  
МОЛОДЕЖНОЙ ДУХОВНОСТИ**

***Аннотация.** В статье рассматривается важность решения вопроса преемственности в контексте формирования духовности среди молодежи. В статье освещаются современные проблемы, стоящие перед обеспечением преемственности, а также предлагаются конкретные практические решения для решения этой проблемы.*

***Ключевые слова:** преемственность, формирование духовности, молодежь, значение решения вопроса преемственности.*

**IMPORTANCE OF SOLVING THE ISSUE OF SUCCESSION IN THE FORMATION OF  
YOUTH SPIRITUALITY**

***Annotation.** The article examines the importance of solving the question of succession in the context of the formation of spirituality among young people. The article covers modern problems facing succession, and also offers clear practical solutions to address this issue.*

***Key words:** succession, formation of spirituality, youth, the meaning of solving the issue of succession, socio-cultural aspects, education and upbringing.*

**Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida**

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat ma’naviy qadriyatlarni yo‘qotish va avlodlar o‘rtasidagi aloqani yo‘qotish bilan bog‘liq muammolar va muammolarga duch kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, vorislik masalasi yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Vorislik nafaqat moddiy boyliklar yoki kasbiy ko‘nikmalarni uzatish, balki insonning shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ma’naviy tajriba va qadriyatlarni yetkazishdir.

Vorislik–bu tajriba, bilim va ma’naviy munosabatlarni keksa avloddan yoshlarga o‘tkazishni ta’minlaydigan avlodlar o‘rtasidagi ko‘prik. Ushbu jarayon shaxsni shakllantirish uchun juda muhimdir, chunki u nafaqat o‘ziga xos ko‘nikma va bilimlarni, balki insonning dunyoqarashini belgilaydigan qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Tajribali avlodlardan ustozlik va yo‘l-yo‘riq olgan yoshlar, ko‘pincha, yanada barqaror axloqiy kompasni ishlab chiqadilar. Vorislik mehnatsevarlik, mas’uliyat, kattalarga hurmat kabi qadriyatlarni yetkazishga yordam beradi, bu ma’naviy chidamlilik va fuqarolik faolligini shakllantirish uchun asosdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Avlodlar orasidagi tafovut mojarolar, vazifalar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Vorislik bu mojarolarni hal qilishning o‘ziga xos vositasi bo‘lib, avlodlar o‘rtasidagi muloqot uchun platforma yaratadi [1;256-b.]. Tajriba va qadriyatlarni yetkazish jarayonida keksa avlodlar yoshlarning ehtiyojlari va intilishlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin, yoshlar esa, o‘z navbatida, keksa avloddan qimmatli saboqlarni olishlari mumkin. Vorislik masalasini hal qilish yoshlar ma’naviyatini shakllantirishning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu jarayon qadriyatlar, bilimlar va madaniy merosni uzatishga yordam beradi, barqaror, axloqiy jihatdan to‘yingan shaxslarni rivojlantirish uchun asos yaratadi. Vorislik, shuningdek, nizolarni hal qilish va avlodlar o‘rtasidagi muloqotni yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, bu esa uyg‘un jamiyatni yaratishga yordam beradi. Jamiyatning barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta’minlash uchun ushbu masalaga e’tibor ta’lim dasturlari va ijtimoiy tashabbuslarga kiritilishi kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda vorislik masalalarini hal etishning ahamiyati olimlar, dinshunoslar, pedagoglarni qiziqtirgan mavzu bo‘lib kelgan. Ushbu ada-

biyot sharhi mavjud tadqiqotlarning asosiy topilmalarini umumlashtirib, yosh shaxslarning ma'naviy o'sishi va rivojlanishida vorislikni rejalashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Adabiyotda ta'kidlangan muhim jihatlardan biri madaniy, diniy va falsafiy an'analarni saqlashda vorislikni rejalashtirishning o'rnidir. McMillan (2018) ta'kidlashicha, merosning avloddan avlodga o'tishi yoshlarda davomiylilik va o'ziga xoslik tuyg'usini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Samarali voris strategiyalarisiz madaniy eroziya va ma'naviy merosni yo'qotish xavfi mavjud bo'lib, bu yosh shaxslarning ma'naviy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [4;128-b.].

Tadqiqotlar, shuningdek, vorislikni rejalashtirish va yoshlar o'rtasida shaxsiyatni shakllantirish o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Tompson (2020) fikriga ko'ra, o'zlarining madaniy va diniy merosi bilan mustahkam aloqaga ega bo'lgan yoshlarda o'ziga xoslik va tegishlilik tuyg'usi ko'proq rivojlanadi. Yoshlarning madaniy va diniy amaliyotlarda faol ishtirok etishini o'z ichiga olgan vorislik jarayonlari ularning ma'naviy sayohatiga jalb qilinishi va sarmoya kiritilishini osonlashtiradi [5;610-b.].

**Tahlil va natijalar.** Tez o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot ba'zan bizni miltillashi bilan ko'r qilib qo'yishi mumkin bo'lgan zamonaviy dunyoda oldingi avlodlarning urf-odatlarini va qadriyatlarini bilan aloqani yo'qotmaslik kerak. Vorislik masalasi yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishda, ularning dunyoqarashi, qadriyatlarini va jamiyatdagi mavqeyini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada biz ushbu muammoni hal qilishning ahamiyatini va uning zamonaviy avlod ma'naviyatining shakllanishiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Yoshlar har doim ijtimoiy o'zgarishlarning katalizatori bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Uning ma'naviy rivojlanishi jamiyatning kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu rivojlanishning asosiy jihatlardan biri bu vorislik masalasi – qadriyatlar, urf-odatlar va tajribalarni katta avlod yoshlaridan o'tkazish. Ushbu maqolada nima uchun bu masalani hal qilish yoshlar ma'naviyatini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rib chiqamiz [2;15-b.]. Texnologiyalar jadal rivojlanib, qadriyatlar o'zgarib borayotgan zamonaviy dunyoda yoshlarni tarbiyalash va ma'naviyatini shakllantirish masalalari alohida dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu kontekstdagi asosiy jihatlardan biri bu vorislik masalasi – yoshlarning oldingi avlodlari tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar va donolikni yetkazish. Ushbu masalaning yechimi yosh avlodning doimiy axloqiy asoslarini va ma'naviy rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Vorislik–bu tajriba, bilim va qadriyatlarni keksa avloddan yoshlarga yetkazish. Bu jarayon nafaqat madaniy merosni saqlab qoladi, balki jamiyatning barqarorligi va ko'p qirrali o'sishini ta'minlaydi [3;37-b.]. Yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish kontekstida vorislik muhim rol o'ynaydi, uni ma'no va ko'rsatmalar bilan to'ldiradi. Vorislik jamiyatning hayot siklining ajralmas qismidir. Yoshlarning katta avlodlaridan tajriba va bilimlarni uzatish jamiyatning barqarorligi va barqarorligini ta'minlaydi. Ota-bobolar tomonidan to'plangan ma'naviy qadriyatlar yoshlarga murakkab dunyoda harakat qilishda, ularning dunyoqarashi va qadriyat munosabatlarini shakllantirishda yordam beradi. Har bir avlod jamiyatning madaniy merosiga hissa qo'shadi. Vorislik o'tmish va kelajakni bog'laydigan ko'prikdir. An'analik va madaniy xususiyatlarning uzatilishi yoshlarning ma'naviy hayotini boyitadigan noyob madaniy boylilikni yaratadi.

Vorislik xalq madaniyati va tarixining ajralmas qismidir. Bu tajriba, urf-odatlar, qadriyatlar va bilimlarni keksa avloddan yosh avlodga yetkazishdan iborat. Axborot va madaniy ta'sirlarning tez almashinuvi mavjud bo'lgan zamonaviy jamiyatda tarixiy meros bilan aloqani saqlab qolish muhimdir. Vorislik yoshlarga o'zlarining o'ziga xosligini va jamiyatdagi o'rnini tushunishga imkon beradi. Vorislik yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat qadriyatlar va urf-odatlarini meros qilib olish, balki ularni zamonaviylik sharoitida idrok etish imkoniyatini beradi. Yoshlar o'zlarining tarixi va ildizlarini anglab, dunyoda yaxshiroq harakat qilishlari va muvozanatli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Zamonaviy jamiyat globallashtirish, texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar kabi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu omillar an'analik va qadriyatlarni yangi haqiqatlarga moslashtirish zarurligini keltirib chiqaradi. Biroq ushbu o'zgarishlar kontekstida asosiy tamoyillar va qadriyatlarni saqlash ham muhim jihatdir. Vorislik moslashuvchan va o'z mohiyatini saqlab qolgan holda o'zgaruvchan dunyoga moslasha olishi kerak. Avlodlar o'rtasida tajriba va bilim almashish yoshlarga bu o'zgarishlarni ongli ravishda idrok etish imkonini beradi, katta avlod esa yoshlarning ehtiyojlari va qadriyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda vorislik masalasini hal qilish jamiyatning barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismidir. Vorislik o'tmish va kelajakni bog'laydigan ko'prikdir bo'lib, madaniy va ma'naviy qadriyatlarini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim, madaniy dasturlar va avlodlar o'rtasidagi faol o'zaro munosabatlar yoshlar, umuman, jamiyat uchun mustahkam ma'naviy asos yaratishga yordam beradigan asosiy elementlardir.

Vorislik yoshlarning qadriyatlarini va dunyoqarashini shakllantirishga ham ta'sir qiladi. Keksa avlodlar o'zlarining hayotiy tamoyillarini, axloqiy qadriyatlarini va jamoat mas'uliyatini tushunishlarini yetkazishlari mumkin. Ushbu tajriba almashinuvi yoshlarga hayotga nisbatan muvozanatli va axloqiy nuqtayi nazarni shakllantirish orqali jamiyatdagi o'rnini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy yoshlar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, shu jumladan, shaxsiyat inqirozi. Vorislik masalasini hal qilish ushbu kontekstda o'ziga xos stabilizator bo'lib xizmat qiladi. Keksa avlod vakillari bilan muloqot qilish orqali yoshlar o'zlarining maqsadlari va qadriyatlarini yaxshiroq aniqlashga yordam beradigan qo'llab-quvvatlash va tushunishni topadilar.

Jamiyatning barqaror ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta'minlash uchun vorislik ham muhimdir. Keksa avlodlar o'tmishda jamiyat duch kelgan muammolarni hal qilish tajribasiga ega. Ularning bilimlari xatolarni takrorlamaslik va yangi g'oyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda vorislik masalasini hal qilish jamiyat kelajagi uchun juda muhimdir. Bu nafaqat madaniy merosni saqlab qolish va yetkazish usuli, balki barqaror va axloqiy jihatdan mas'uliyatli yoshlar muhitini rivojlantirishning asosiy elementidir.

**Xulosa.** Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda vorislik masalasini hal qilish jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining muhim jihati hisoblanadi. Ushbu jarayon barqarorlikni ta'minlash, madaniy boylarni saqlash va yangi avlodning fuqarolik javobgarligini shakllantirish uchun zarurdir. Katta avlod o'z tajribasi va qadriyatlarini yetkazish uchun javobgardir va shu bilan jamiyatning barqaror va uyg'un rivojlanishi uchun mustahkam paydevor yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Лагойда Н.Г. Изучение истории семьи и ее значение для современной молодежи. "Вестник Бурятского государственного университета". Образование. Личность. Общество. 2008, №. 5, с. 225 – 232.
- (2). Mamatov O.V. The nature of ideology. Modern Science. 2017, №. 5–2, с. 11 – 14.
- (3). Пахомов В.И. Духовно-нравственное и патриотическое воспитание в формировании личности. Основные формы, методы, направления информационно-пропагандистской работы по воспитанию патриотизма и духовности у молодежи. Автономия личности. 2021, №. 2 (25), с. 36 – 45.
- (4). Johnson, A.L., Smith, K.R., & McMillan, J.D. (2017). Succession planning and youth spirituality. A qualitative analysis. Journal of Religious Education, 66(2), p. 123 – 137.
- (5). Jones, S.M. (2016). The importance of leadership continuity in fostering youth spirituality. Journal of Youth Studies, 19(5), p. 603 – 618.

**Voxidova Munira Tulkinovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsent, falsafa fanlari nomzodi)**

### **YOSHLARDA BARQARORLIK VA BAG'RIKENGLIKNING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-AXLOQIY JIHLARI**

**Аннотация:** Ushbu maqolada yoshlarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligi va tolerantligini shakllantirish, yoshlarga oid siyosatning muhim vazifalaridan biri etib belgilanganligi yoritib berilgan.

**Калит so'zlar:** jamiyat, konfessiya, siyosiy faollik, siyosiy madaniyat, qadriyat, tolerantlik, meros, ong, shaxs, tafakkur.

#### **СОЦИАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ И ТОЛЕРАНТНОСТИ У МОЛОДЕЖИ**

**Аннотация.** В данной статье поясняется, что социально-нравственное воспитание молодежи, формирование ее социальной активности и толерантности определяется как одна из важных задач молодежной политики.

**Ключевые слова:** общество, конфессия, политическая активность, политическая культура, ценности, толерантность, наследие, сознание, личность, мышление.

**Vokhidova Munira Tulkinovna (Bukhara Institute of Engineering and Technology, Associate Professor of the Department of "Social Sciences", Candidate of Philosophy)**

### **SOCIAL AND ETHICAL ASPECTS OF SUSTAINABILITY AND TOLERANCE IN YOUTH**

**Annotation.** This article explains that the social and moral education of young people, the formation of their social activity and tolerance is defined as one of the important tasks of youth policy.

**Key words:** society, confession, political activity, political culture, values, tolerance, heritage, consciousness, personality, thinking.

**Kirish.** Hozirgi davrda O‘zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish, fuqarolarning siyosiy va milliy o‘zligini anglashi, yangi demokratik qadriyatlarining shakllanishi, ochiq demokratik, huquqiy davlat qurilishi va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishidek qiyin, ammo jo‘shqin va izchil jarayonlar kechmoqda. Jamiyatning liberallashtirilishi mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakat xalqlarini yagona davlat tarkibiga jipslashtirishga qaratilgan strategiyasini ishlab chiqish va izchil siyosatni amalga oshirishga kirishdi. Zero, sobiq sho‘ro hokimiyati tajribasi shuni ko‘rsatadiki, milliy va diniy his-tuyg‘ular, an‘analar va madaniyatning har qanday shaklda inkor etilishi jamiyatni parokandalikka olib keldi [1].

O‘zbekiston Respublikasida demokratiya inson, uning hayot erkinligi, sha‘ni va boshqa bo‘linmas huquqlari oliy qadriyatdir, degan umuminsoniy prinsiplarga tayanadi. O‘zbekistonda mustaqillik e‘lon qilingan kundan boshlab, demokratik prinsiplarni shakllantirish o‘zbek zaminida istiqomat qilayotgan millatlarning huquqlari, har bir xalqning an‘ana va udumlari, tilini rivojlantirish va ularga bo‘lgan hurmatni yanada mustahkamlash borasida izchil ish olib borilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yoshlarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligi va tolerantligini shakllantirish yoshlarga oid siyosatning muhim vazifalaridan biri etib belgilandi. Ushbu qonunga muvofiq, yoshlarga oid siyosat asosanadigan prinsiplarning belgilanishi buning yorqin dalili bo‘lib xizmat qiladi. Ularga misol qilib, jumladan, «milliy, irqiy, til, diniy mansubligi, ijtimoiy ahvoli, jinsi, ma‘lumoti va siyosiy qarashlaridan qat‘i nazar, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish», «yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish», «yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida yoshlar tomonidan o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘lini tanlash kafolati», «jamiyatni, ayniqsa, respublika yoshlarining hayotini rivojlantirish dasturlari va siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtiroki», «huquq va burch, erkinlik va fuqarolik mas‘uliyatining birligi» kabilarni ko‘rsatish mumkin [2].

**Tahlil va natijalar.** Shuni ta‘kidlash lozimki, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, yoshlarning ijtimoiy-axloqiy tarbiyasi va uni yuksaltirish muammolariga bag‘ishlangan nazariy va ilmiy tadqiqotlar olib borishga katta e‘tibor berildi. Ularda respublikaning bir qator taniqli olimlari ishtirok etganligi bu jarayonning samarali kechishiga ijobiy ta‘sir etdi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy-demokratik davlat qurilishi, yoshlarga oid davlat siyosati prinsiplarining izchil amalga oshirilishi tez orada O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining mustaqil ijtimoiy harakati hisoblangan «Yoshlar ittifoqi» hozirgi kunda mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruhlar bilan teng huquqli hamkorlikni ta‘minlash, yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari va o‘z pozitsiyasini ongli ravishda tanlashlariga ko‘maklashish bilan bog‘liq dasturiy maqsadlarini izchil amalga oshirib kelmoqda.

Fuqarolarning, jumladan, yoshlarning konstruktiv siyosiy faolligi va siyosiy madaniyatini mustahkam ta‘lim salohiyati va har tomonlama bilimlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mazkur vazifani bajarishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim sohasidagi siyosat, ta‘lim tizimining isloh qilinishi katta rol o‘ynaydi. Shu tufayli respublikada ta‘limning tamoman yangi tizimi tashkil etilib, takomillashib bormoqda. Ta‘limning bu tizimi yoshlarimizning siyosiy faolligi va siyosiy madaniyati, ularni siyosiy hayotga jalb etish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi [3].

Barcha oliy ta‘lim muassasalarida fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat barpo etish borasida jahonda to‘plangan tajribaning o‘rganilishi talaba-yoshlarning respublika hayotida faol va ongli ravishda ishtirok etishlariga ko‘maklashmoqda. Umuman olganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan har tomonlama islohotchilik faoliyati, fuqarolik jamiyati va demokratik davlatning bosqichma-bosqich barpo etilayotgan, yoshlarga oid davlat siyosati prinsiplarining izchil qo‘llanishi, siyosiy partiyalar, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining faoliyati va boshqa ijtimoiy-siyosiy omillar yoshlarimiz jadal ijtimoiy-siyosiy faoliyatga jalb etilayotganligini, jamiyatning ijtimoiy-demografik guruhi sifatidagi xususiyatini aks ettiruvchi tamoman yangi siyosiy madaniyatga ega ekanligini, ko‘p millatli va ko‘p dinli mamlakatimiz sharoitida ijtimoiy-ma‘naviy yechimlariga asosan, doimiy ravishda rivojlanib borayotgan tolerantliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan amaliy siyosiy faollikni namoyon etayotganliklarini ko‘rsatmoqda.

Yoshlarning siyosiy faolligi va madaniyatini yuksaltirish – jamiyatning muhim faoliyati. O‘zbekistondagi ijtimoiy-ma‘naviy jarayonlarning izchil demokratik yo‘nalishi, hozirgi zamon talablariga javob be-



ruvchi saylov jarayonlarining demokratik mohiyatga ega ekanligi ushbu ijobiy holatning yana bir tasdig'i-dir [4].

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-falsafiy merosning tarbiyaviy-axloqiy ta'siri samaradorligi uning milliy mentalitet, milliy ong, yoshlarning fikrlashi bilan mohiyat jihatidan yaqinligi va o'zaro bog'liqligi, ular rivojlanishi va o'zaro ta'sirining yaxlitligi, ma'naviy merosning hozirgi zamon ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar jarayoniga har tomonlama kirib borganligi bilan belgilanadi.

Xalqimizning ijtimoiy-falsafiy merosi jahonning boshqa xalqlari tarixida tolerantlikni mushohada qilish an'analari bilan bir qatorda, yoshlarni tolerantlik jihatidan ijtimoiy-axloqiy yuksaltirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Sh.S.Agzamxodjayeva tolerantlikning tarbiyaviy ahamiyati haqida shunday yozadi: «O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilg'or falsafiy-axloqiy qarashlarida inson oliy mavjudot deb hisoblanib, dunyo boyligi va boshqa barcha narsalar insoniylik darajasi bilan baholanadi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida inson, uning sha'ni, baxti, gumanizm, odamiylik, sabr-toqat asosiy masala hisoblanadi».

Yangi davrda xalqimizning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, birinchi navbatda, ma'rifatparvarlik va uning yangi bosqichi bo'lgan jadidchilik bilan bog'liq bo'lgan. Jadidlar keng ko'lamli ijtimoiy-ma'rifiy harakat sifatida maydonga kelib, nafaqat maorif sohasidagi islohotlar, balki Turkiston mustaqilligiga erishish uchun ijtimoiy-siyosiy sohada ham islohotlar o'tkazishni yoqlab chiqqanlar, tolerantlik muammosiga yangicha yondashuvlarni ilgari surganlar. Jadidlar yoshlar ta'limi va tarbiyasi borasida ilgari surgan g'oyalarda tolerantlikka ko'p qirrali ijtimoiy-ma'naviy hodisa deb qaralganligi bunday yondashuvning o'ziga xos jihatini tashkil etadi [5].

Tolerantlikning jadidlar tomonidan bunday sharhlanishi ularning bu muammoga konseptual amaliy masala sifatida yondashuvi, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlari bilan aloqadorligi jihatidan ajralib turadi. Bu esa hozirgi davrda uning nihoyatda dolzarbligini belgilaydi.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik tufayli mamlakatimizda madaniy meros va islom diniga munosabat tubdan o'zgardi. Sho'ro zamonida islom dini mafkuraviy tushunchalarga ko'ra yashirib qo'yilgan va bir yoqlama sharhlangan madaniy merosning bebaho yodgorliklari bilan birga jamiyatga qaytarildi. Asrlar davomida madaniyat, turmush tarzi, dunyoni anglash, musulmonlar ma'naviy-axloqiy shakllanishining asosiy omili bo'lgan g'oyalarni ilgari surgan insoniyatning o'tkir aql sohiblari o'z ijodlarida Qur'oni karim g'oyalardan ruhlanib va unga asoslanib ijod qilganlar.

Yuqorida qayd etilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, bular O'zbekiston xalqlarining ma'naviy an'analari va hozirgi zamon voqeligi tizimini tashkil etib, tolerantlik me'yorlari va qadriyatlarini asosiga qurilgan, yoshlarda tolerantlik, diniy bag'rikenglik ruhini shakllantirish hamda ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mustahkam asosi bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т., “Ўзбекистон”, 2016, 9-бет.
- (2). Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2000, 341-бет.
- (3). Мы благодарны тебе, Узбекистан! Узбекистан – страна толерантности. Ташкент, “Ўзбекистон”, 2007, с. 268 – 275.
- (4). Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1, Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996, 81-бет.
- (5). Агзамходжаева Ш.С. Ўрта Осиё фалсафасида бағрикенглик. Ёшларда ижтимоий толерантликни юксалтириш масалалари. Т., “Истеъдод”, 2006, 131-бет.
- (6). Маҳмудов Т. «Авесто» ҳақида. Масъул муҳаррир А.Маҳкам. Т., “Шарк”, 2000, 63-бет.

**Jumayev Eshtemir (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi;**

**[eshtemir1@gmail.ru](mailto:eshtemir1@gmail.ru); ORCID 0009-0009-2078-5371)**

**“YOSHLAR”, “MILLIY G'OYA”, “MADANIYAT” VA “OMMAVIY MADANIYAT”NING  
O'ZARO ALOQADORLIGI TUSHUNCHASI VA MA'NO-MAZMUNI**

*Аннотация. Ushbu maqolada “Ommaviy madaniyat” tushunchasi ko'pchilikka yo'nalganligi, qamrovini kengligi, texnologik jihatdan zamonaviy texnika resurslariga asoslanishi bilan xarakterlanishi, shu jihatdan “ommaviy madaniyat” tushunchasining ishlatilishi to'g'ri va obyektiv xarakterga ega ekanligi,*

*Ommaviy madaniyat keng turdagi mahsulotlarni taqdim etadi, ularning ba'zilari keyinchalik esa ommalashib ketishi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** "ommaviy madaniyat", milliy madaniyat, uyg'onish davri, globallashuv, ommaviy madaniyatning sanoatlashuvi, iste'molchi, ommabop madaniyat, qarashlar yaxlitligi, razolat, tubanlik.

### **ПОНЯТИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ "МОЛОДЕЖЬ", "НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ", "КУЛЬТУРА" И "МАССОВАЯ КУЛЬТУРА"**

**Аннотация.** В данной статье освещается тот факт, что понятие "массовая культура" ориентировано на массы, характеризуется широтой охвата, технологически опирается на ресурсы современной информационной технологии. Понятия "массовая культура" носит реальный и объективный характер, массовая культура представляет широкий спектр продукции, некоторые из них впоследствии становятся популярными.

**Ключевые слова:** "массовая культура", национальная культура, ренессанс, глобализация, индустриализация массовой культуры, потребитель, массовая культура, целостность взглядов, стыд, пропасть.

### **CONCEPT AND MEANING OF THE RELATIONSHIP BETWEEN "YOUTH", "NATIONAL IDEA", "CULTURE" AND "MASS CULTURE"**

**Annotation.** This article highlights the fact that the concept of "mass culture" is aimed at the masses, characterized by breadth of coverage, technologically based on the resources of modern information technology. The concept of "mass culture" has a real and objective character, mass culture represents a wide range of products, some of which later become popular.

**Key words:** "mass culture", national culture, renaissance, globalization, industrialization of mass culture, consumer, popular culture, integrity of views, shame, abyss.

#### **Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti R.R.Rustamov taqrizi ostida**

**Kirish.** "Madaniyat", "Ommaviy madaniyat", "Milliy madaniyat", "Ommabop madaniyat" tushunchalari o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega umumiy va farqli jihatlari mavjud. Bunda "madaniyat" va "milliy madaniyat" tushunchalarini hamda "Ommaviy madaniyat" va "Ommabop madaniyat" tushunchalarini qiyosiy o'rganish bilan birga farqlash mumkin. Bunda "Ommaviy madaniyat" tushunchasi qo'sh-tirnoqqa olinib salbiy mazmun kasb etish to'g'risida umumiy to'xtamga ham kelingan deyish mumkin. "Ommaviy madaniyat" va "Ommabop madaniyat" tushunchalarini tahlil etganda uning quyidagi farqli jihatlari hisobga olish lozim. Bu "Ommaviy madaniyat" tushunchasi bilan "Ommabop madaniyat" tushunchalarini bir xil emasligini anglashga va farqlashga yordam beradi. "Ommaviy madaniyat" tushunchasi ko'pchilikka yo'nalganligi qamrovini kengligi, texnologik jihatdan zamonaviy texnika resurslariga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Shu jihatdan "ommaviy madaniyat" tushunchasini ishlatilishi to'g'ri va obyektiv xarakterga ega. Ommabop madaniyat norasmiy kelishuv orqali vujudga kelgan munosabat, g'oyalar, tasavvurlar va qarashlarning yaxlitligini o'z ichiga oladi. Ommaviy madaniyat keyin "plus belgisi bilan ommaviy madaniyat" bo'ladi. Ommaviy madaniyat keng turdagi mahsulotlarni taqdim etadi, ularning ba'zilari keyinchalik ommabop madaniyatni tashkil etish uchun ommalashtiriladi.

"Ommaviy madaniyat" ommaviy ishlab chiqariladigan, tarqatiladigan va sotiladigan madaniyatdir. Ommabop madaniyat ko'pchilikning fikriga ko'ra, ommaviy madaniyatdan kelib chiqadi. Ommaviy madaniyat imkon qadar ko'proq iste'chilarni qamrab olish uchun mo'ljallangan sodda yagona tarkib yaratadi. U madaniyatning aksilmadaniyat va submadaniyat ko'rinishlarini ham o'z ichiga oladi. Asosiy farq shundaki, ommaviy madaniyat ko'pchilik uchun ham, ozchilik uchun ham mahsulot ishlab chiqarsa, ommabop madaniyat aholining ko'pchiligi tomonidan iste'mol qilinadigan madaniyat ko'rinishlaridir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** "Ommaviy madaniyat" hodisasiga xos xususiyatlar Sharq Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873–950) qalamiga mansub "Fozil odamlar shahri" asarining "Fozillar shahrining ziddi bo'lgan shaharlar haqida so'z" deb nomlangan 29-bobida ham qayd etilgan. Asarda fozillar shahrining ziddi bo'lgan shaharlar haqida so'z borar ekan, ularni "Johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmaydi, asl baxt-saodat nimaligini bilmaydi ham. Chunki jaholatdagi odamlar hech qachon baxt topmagan va baxt-saodatga erisholmaydi ham. Farovonlikka kelsak, jaholatdagi odamlar (haqiqiy obodlikni bilmasdan) ba'zilar nazarida baxt-u davlat bo'lib ko'rindigan o'tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazatlarni, hirs-u shahvatni, obro', amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o'ylaydilar. Shu ne'matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-

saodat bo‘lib qo‘rinadi”<sup>1</sup> deb ta’riflaydi. Jaholatdagi shaharlar aholisini ta’riflar ekan, mutafakkir “ommiy madaniyat”ga xos bir qator xususiyatlarni sanab ularni tasniflaydi: “Jaholatdagi shahar – davlatning bir qancha turlari bor. Shulardan biri zaruriy ehtiyojlar shahridir. Bunday shahar aholisi faqat badan uchun zarur bo‘lgan narsalar: oziq-ovqat, ichimlik, kiyim-kechak, turarjoy, jinsiy aloqa hamda shu kabilariga erishish uchun bir-birlariga yordam berish bilangina cheklangan odamlardir. Ayirbosh qiluvchilar shahrining aholisi – to‘qchilik va mol-dunyoga erishuvda bir-birlariga yordam berishni hayotning asosiy maqsadi deb biladilar. Razolat (tubanlik) va badbaxtlik shahri – bunday shahar aholisi faqat yeyish, ichishda, jinsiy aloqada huzur-halovat topishga, hissiy lazzatlar, aysh-ishrat, kayf-safoning barcha turlariga intiladilar. Obro‘parastlar shahri. Bunday shahar aholisi bir-birlarini maqtashni, kukka kutarishni yaxshi ko‘radilar. Ularni o‘zga xalqlar so‘zda ham, ishda ham ulug‘lashlarini istaydilar. Bir-birlarining oldida yoki begonalar ko‘ziga ulug‘vor, shon-shavkatli bo‘lib ko‘rinishni xohlaydilar. Amalparastlar, hokimiyatparastlar shahri. Bunday shahar aholisi barcha xalqlar ularga bo‘ysunishini, o‘zlari hech kimga bo‘ysunmaslikni xohlaydilar. Ularning fikr-u zikri g‘alabalar, futuhotlar nashidasini surishga qaratilgan. Shahvatparastlar shahri. Bunday shahar aholisining har biri ehtirolari tizginini jilovlamay, istalgancha shahvat nafslarini, tuban mayllarini qondirishga intiladi”<sup>2</sup>.

Ammo iste’molchi, bir vaqtning o‘zida, qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish jarayonida ham ishtirok yetadi”<sup>3</sup>, deb “ommiy madaniyat” ko‘rinishlarining paydo bo‘lishini izohlab berdi. de-Tokvil kuzatgan ijtimoiy chegaralar qat’iy bo‘lmagan Amerika jamiyatidagi ommaviylik sababli madaniyat va san’atning utilitar xususiyatga ega bo‘lib borishi jarayonini ilg‘ab oladi.

**Tahlil va natijalar.** Turkiy etnonimlar tarixini tadqiq qilishda qo‘l keluvchi bebaho manbalardan biri “Devonu lug‘ot ut-turk asaridir” asaridir [1]. “Ommabop madaniyat” esa “omma” deganda qiyofasiz, milliy madaniyatdan begona, qadriyatlarni tan olmaydigan “odam”, “guruh” nazarda tutiladi. Uning xatti-harakati, fe‘l-atvoridagi belgilar, yurish-turishidagi o‘ziga xos odatlar xalqning, millatning nafsoniyatiga tegadigan darajada milliy madaniyat va umuminsoniy madaniyat talablariga va mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi. Faqat ana shunday “o‘zlarini zamonaviy” deb hisoblaydigan, ananaviy va zamonaviy madaniyat talablaridagi begonalashgan qatlam qiyofasini ifoda etadi.

Mustaqillik jamiyat hayotida ma’naviy tiklanish va yuksalish jarayonida milliy g‘oyani jamiyat rivojlanishi va yoshlar hayoti bilan uzviy bog‘liq ekanligi hamda yot g‘oyaning ta’sirining oldini olishda milliy g‘oya negiziga tayanish muhim omil ekanligini ko‘rsatmoqda.<sup>4</sup>

Yangi O‘zbekiston strategiyasi “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” bosh g‘oyasi asosida yosh avlod ongi va qalbiga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularning har tomonlama rivojlangan, zamonaviy bilimlarni egallagan va yuksak ma’naviyatli kasb egasi bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, “...mamlakatimizda ma’naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishimiz kerak”<sup>5</sup>. Mamlakatimizda xalqimizning boy ma’naviy merosi va dunyo tamaddudining eng yaxshi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan avlodni shakllantirish sharoitida milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davrlar o‘tishi bilan milliy-ma’naviy qadriyatlar ham o‘zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me’yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi.

Milliy g‘oya ana shu qayd etilgan sifatlarga javob bergan taqdirdagina, kutilayotgan maqsadlarga erishish mumkin. Ammo milliy g‘oya o‘z-o‘zidan yoshlar ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e’tiqodiga aylanib qolmaydi. Bunga har bir yosh o‘z hayoti davomida erishib boradi.

**Xulosa.** Demak, milliy g‘oyaning maqsad va vazifalari umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga to‘la-to‘kis mos kelishi, demokratik erkinliklar va inson huquqlarini saqlashga doir xalqaro andozalarga hamohangligi bilan ham insoniyat tarixidagi ko‘pgina milliy g‘oyalardan farq qiladi. Milliy g‘oya xalqimizning yangi jamiyat qurish yo‘lidagi harakat dasturi deyish ham mumkin.

<sup>1</sup> Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. Таржимонлар: Абдусодиқ Ирисов, Махкам Махмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар: М.Хайруллаев, М.Жакбаров. Т., “Янги аср авлоди”, 2016, 247 – 248-бетлар.

<sup>2</sup> Ўша асар. 248 – 249-бетлар.

<sup>3</sup> Tocqueville A. Democracy in America. Literary Classics of the United States, Inc., New York, N.Y. 2004, p.466–467. URL: <https://archive.org/details/tocqueville-democracy-in-america-goldhammer.num/page/n3/mode/2up?q=click> murojaat sanasi: 08.08.2023).

<sup>4</sup> “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 28 декабрь, 270-сон (7228).

<sup>5</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 278-бет.

Milliy g'oyaning asosiy maqsadi fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalar, maqsad va yo'nalishlar bilan yoshlarni O'zbekiston taraqqiyot yo'lining ma'no va mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalashga qaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarda milliy g'oyaga ishonchni uyg'otish, ularni adolatli, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda ma'naviy-ruhiy rag'batlantirishda o'z aksini topadi. Milliy g'oya yoshlarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. Foya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholatdan ma'rifatning farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yoshlarda milliy g'oyaga zid bo'lgan yot va begona, zararli g'oyalardan saqlash, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, unga doimo tayyor bo'la olish immunitetini shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Marqayev K. "Devonu lug'otit-turk-turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi" mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman, T., 2018.

(2). O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020, 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y, 03/21/683/0375-son, 12.10.2021, 03/21/721/0952-son). <https://lex.uz/docs/5013007> (murojaat sanasi: 02.04.2022).

(3). O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni. 15.02.1991-yildagi 223-XII son. URL: <https://lex.uz/docs/111825> (murojaat sanasi: 09.09.2023).

(4). O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. 14.04.1999-yildagi 763-I son. URL: <https://lex.uz/docs/11360> (murojaat sanasi: 09.09.2023).

(5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019-yildagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/4149765#4153662> (murojaat sanasi: 09.09.2023).

(6). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmoni. 2020-yil 5-oktabr. <https://lex.uz/docs/5030957> (murojaat sanasi: 16.02.2021).

(7). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi to'g'risida Nizom. URL: <https://senat.uz/oz/committees/category/yoshlar-madaniyat-va-sport-masalalari-qomitasi/regulation> (murojaat sanasi: 09.09.2023).

(8). M.Mesarovich va E.Pestel. "Insoniyat o'zining burilish chorrahasida". 1974.

(9). R.Murtazayeva. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. T., 2007.

Xolmatova Vazira Narzullaevna (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd))

**TILSHUNOSLIKDA NUTQIY TUZILMALAR SAVOL TUZILMASIDAGI SEMANTIK STRUKTURASIDA KONNOTATSIYA HODISASI**

***Annotatsiya.** Lisoniy birlikning qo'shimcha, ba'zan bo'yoqdor ma'nosi tilshunoslikda ko'pincha "konnotatsiya" tushunchasi bilan bog'lanadi. Konnotatsiya termini lotin tilidagi connotare – "qo'shimcha ifodalash" so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslik uni mantiq fanidan o'zlashtirgan. Ushbu termin dastlabki paytlarda lug'at birliklariga nisbatan qo'llanilgan edi. Maxsus lug'atlarda berilayotgan izohlarda konnotatsiyaning semantik-stilistik maqomi bilan birgalikda, uning til birliklari emotsional-ekspressiv xususiyatlariga ishora qilishi ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:** nutqiy tuzilma, savol gaplari, semantika, pragmatlingvistika, nutqiy aktlar, intensiya, konnotativ ma'no, tub ma'no.*

**Xolmatova Vazira Narzullaevna (dozent Karshinskogo Inzhenerno-ekonomicheskogo instituta, doktor filosofskix nauk po filologicheskim naukam (Phd))**

**ФЕНОМЕН КОННОТАЦИИ В СЕМАНТИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЕ В ВОПРОСНОЙ СТРУКТУРЕ РЕЧЕВЫХ СТРУКТУР В ЛИНГВИСТИКЕ**

***Аннотация.** Дополнительное, иногда красочное значение языковой единицы часто связано в лингвистике с понятием «коннотация». Термин коннотация происходит от латинского слова connotare – «дополнительное выражение», а лингвистика заимствовала его из науки логики. Первоначально этот термин применялся к словарным единицам. В комментариях, приведенных в специальных словарях, подчеркивается, что семантико-стилистический статус коннотации относится к эмоционально-экспрессивным свойствам языковых единиц.*

***Ключевые слова:** структура речи, вопросительные предложения, семантика, прагматлингвистика, речевые акты, интенция, коннотативное значение, корневое значение.*

**Kholmatova Vazira Narzullaevna (Associate Professor of Karshi Engineering and Economic Institute, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (Phd))**

**PHENOMENON OF CONNOTATION IN THE SEMANTIC STRUCTURE IN THE QUESTION STRUCTURE OF SPEECH STRUCTURES IN LINGUISTICS**

***Annotation.** The additional, sometimes colorful meaning of a linguistic unit is often associated with the concept of "connotation" in linguistics. The term connotation is derived from the Latin word connotare – "additional expression", and linguistics borrowed it from the science of logic. This term was originally applied to vocabulary items. In the comments given in the special dictionaries, it is emphasized that the semantic-stylistic status of the connotation refers to the emotional-expressive properties of the language units.*

***Key words:** speech structure, question sentences, semantics, pragmatlinguistics, speech acts, intention, connotative meaning, root meaning.*

**Kirish.** Muloqot jarayonida so'zlovchi shaxs voqelikdagi narsa-hodisalar haqidagi oddiy axborotni yetkazish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ushbu hodisaga nisbatan o'z munosabatini bildirishi hamda shu yo'sinda tinglovchining ongi, hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

Tadqiqotchilar xabarni yetkazish uchun zarur bo'lgan asosiy lisoniy birlik sifatida gapni ajratishga odatlanishgan. Gap yaxlit mazmunga ega bo'lgan birlamchi nutqiy hodisa hisoblanadi. M.Y.Bloxning talqinicha, gap nutqiy faoliyat jarayonida, o'z ma'nosini vaziyat bilan bog'liq axborot mundarijasiga moslashtirgan holda, nominativ va predikativ xususiyatlar yaxlitlashuvini namoyon qiladi [Blox. 1986:98–99-b.]. Nominativ jihat namoyon bo'lishida voqea-hodisaning nomlanishi ko'rinishidagi ma'lum bir vaziyat ifoda topadi. Predikativ xususiyat voqelanishida esa propozitsiya yoki voqea nomi voqelik bilan boglanadi. Bunda so'zlovchi voqeaning haqiqiyliги yoki xayolligini, qaysi paytda va qanday sharoitda kechayotganini belgilaydi va natijada xabar turli modal bo'yoqlarini oladi [Shu manba;123-b.].

**Adabiyotlar tahlili.** Har bir nutqiy harakat obyektiv va subyektiv xususiyatlarning o'zaro murakkab munosabati nutqiy tuzilmaning ko'p jihatli bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu munosabatlar doirasida asosiy nominativ va predikativ ma'no bo'laklari bilan bir qatorda, ko'plab o'ziga xos qo'shimcha ma'no bo'laklari ham ifoda topadi. Mazkur qo'shimcha ma'nolarning yuzaga chiqishi muloqot konteksti, ma'lum muhit bilan bog'liqdir. Bunda so'zlovchi va tinglovchi ijtimoiy maqomi shaxsiy xususiyatlari ham o'ziga yarasha

o'rinni egallaydi. Eslatilgan qo'shimcha ma'nolarning ko'pchiligi tagma'noli ko'rinishga ega bo'lib, kontekst vositasida anglashiniladi. O'zbek tilshunoslarining qaydicha, "ifodaning yashirin bayoni, jumlaning tagma'nosi kommunikatsiya ishtirokchilarining fikrlash faoliyati bilan va ularning olam haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'lanadi. So'zlovchining tashqi olam haqidagi tasavvuri qancha keng bo'lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shu qadar tez fahmlaydi. Shuning uchun ham ifoda semantik strukturasi haqidagi axborot ko'rinishlarini oshkora yoki yashirin bayon qilish, oshkora ifodalab bo'lmaydigan axborot ko'rinishini tagma'no shaklida berish so'zlovchining ichki maqsadi bilan bog'liqdir" [Hakimov, Gazieva. 2020;73-b.].

Jumladan, D.Kristalning lug'atida quyidagi izohni o'qiydiz: "A term used on semantics as a part of a classification of types of meaning; opposed to denotation. Its main application is with reference to the emotional associations (personal or communal) which are suggested by, or are part of the meaning of a linguistic unit, especially a lexical item..." [Crystal. 2008;102-b.].

A.Hojiyev tomonidan tuzilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da ham konnotatsiya tushunchasi denotatsiya tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi: "Til birligining konnotativ ma'nosi (ekspressiv, uslubiy munosabat kabi qo'shimcha ma'no yoki ma'nolarning) ifodasi" qabilida izohlanadi [Hojiyev. 2002;51-52-b.].

I.V.Arnoldning "Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika" nomli kitobida "konnotatsiya" tushunchasi mundarijasida to'rtta qism ajratiladi. Bular quyidagilardan iborat: ekspressivlik, emotsionallik, baho va funksional-uslubiy bo'yoqdorlik [Arnold. 1990;7-b.]. Matnshunoslik va uslubshunoslik sohalarida olib borilgan tadqiqotlar natijalari konnotatsiya hodisasi mohiyati va uning mundarijasi borasida ayrim mulohazalarni bildirishga imkon beradi. Ushbu tushunchaning qo'llanish ko'lami haqida gap ketganida, uning tatbiqi faqat so'z yoki so'z birikmasi qatlami bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Konnotatsiya tushunchasi, eng avvalo, lisoniy unurning ma'lum kontekst muhitida qo'llanish mo'ljaliga ishora qilishi sababli, tilning asosiy axborot birligi, ya'ni nutqiy tuzilmasiga nisbatan ishlatilishi lozim. Zotan, nutqiy faoliyat jaryonida faollashgan gap ko'rinishidagi tuzilma axborot yetkazish maqomiga diktema, ya'ni gaplarning mavzui birlashuvi tarkibiga ega bo'ladi. Ushbu birlashma, o'z navbatida, ma'lum pragmatik-lisoniy xususiyatlar majmuasiga ega bo'ladi [Blox. 1986;120-b.].

Tadqiqotchilar tomonidan an'anaviy ravishda ajratib kelinayotgan konnotativ ma'no bo'laklari haqida fikr yuritayotib, eng avvalo, ekspressivlikning boshqa konnotativ bo'laklardan farqi ahamiyat qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Ekspressivlik, aslini olganda, nutqiy hodisa bo'lib, nutqiy faoliyat natijasida yuzaga keladi. Demak, ekspressivlikning oddiy semantik unsur sifatida qarash noto'g'ri. Ekspressivlik nutqiy tuzilmaning pragma-stilistik xususiyatidir va uning konnotativ ma'no bo'lagini tashkil qiladi. Ushbu xususiyat yetkazilayotgan axborotning so'zlovchi kommunikativ mo'ljali va tildan foydalanish me'yoring mazkur muloqot sharoitiga mos kelishini ta'minlaydi. Eng muhimi, u muloqot samarasiga yetarlicha hissa qo'shadi.

**Muhokama.** Konnotatsiya mazmun shakllanishiga qo'shadigan hissasi emotsionallik, baho va uslubiy bo'yoq bilan chegaralanib qolmasdan, balki yanada kengroq ko'lamda namoyon bo'ladi. Sanab o'tilgan ma'no bo'laklaridan tashqari, muloqot qatnashchilari va sharoiti bilan bog'liq va o'zaro munosabatlar ko'lamida yuzaga keladigan ma'no bo'laklarini ham e'tibordan qochirmaslik kerak bo'ladi.

Biroz oldinroq nutqiy tuzilma semantikasi nominativ va predikativ jihatlari uyg'unlashuvini qayd etgan edik. Xuddi shu jihatlarga konnotatsiyaning ma'lum ko'rinishlari muqobillashuvini kuzatadigan bo'lsak, unda nominativ sathda to'rtta, predikativ sathda esa uchta komponentni ajratish mumkin. Jumladan, nominativ sathga faktual (voqelikda sodir bo'ladigan), funksional-stilistik, baho va etik konnotatsiyalar voqelansa, predikativ sathda esa fatik, muloqot maqsadi bilan bog'liq (intensiya) va emotiv konnotatsiyalar harakatlanadi. Ushbu yetti turdagi konnotatsiyaning har biri keyingi bosqichda konnotativ semantikaning turli ko'rinishlarini farqlovchi tag turlariga ajralishi mumkin.

Faktual (voqelik bilan bog'liq) konnotatsiyalar asosiy proproziya sifatida so'z ketayotgan predmet-hodisani bevosita nomlash mo'ljaliga ega. Bu holatda asosiy mantiqiy axborot qo'shimcha ma'nolar hisobidan kengayadi. Mazkur ma'no bo'laklarining paydo bo'lishi tavsiflanayotgan vaziyat haqidagi umumiy va muloqot ishtirokchilari xabardor bo'lgan bilimning faollashuvi bilan bog'liq. Tilshunoslar "fon bilimi" deb atayotgan ushbu bilim turining mavjudligi muloqot yuritishning asosiy shartlaridan biri bo'lib, tadqiqotchilar uni presuppozitsiya hodisasi bilan tenglashtiradilar [Mahmudov. 1986; Filmore. 1971].

Presuppozitsiya hodisasi bilan bog'liq muammolarga to'xtalib o'tirmasdan qayd etmoqchimizki, nutqiy tuzilmaning mazmuniy tarkibini tavsiflashda presuppozitsiya tushunchasini birmuncha tor ma'noda anglab, uni suhbatdoshlar umumiy bilimining alohida qismi sifatida talqin qilish ma'quldir. Biroq ushbu bilim nutqiy akti shakllantirish va uning mazmunini tushunish uchun yetarli bo'lishi kerak. Muhimi, suh-

batdoshlarning ko'rsatilgan umumiy bilim parchasiga ega bo'lishi uzatilayotgan axborotning ma'lum qismini lisoniy shaklsiz ifodalash imkonini beradi. Presuppozitsiyalar to'liq mos kelganida, oshkora ifodalanmagan axborot tinglovchi tomonidan so'zlovchi istagan ma'noda va to'liq qabul qilinishi kutiladi. Bu esa, o'z navbatida, lisoniy tejamkorlik tamoyili harakatga tushishiga imkon yaratadi, ya'ni, so'zlovchi uzatilishi lozim bo'lgan axborot hajmini to'liq saqlagan holda, nutqiy tuzilmaning shaklini qisqartira oladi. O'zbek olimlari sintaktik kompressiya, ya'ni, siqqlik yuz berganida gapning mazmuni murakkablashib, axborot ko'lami kengayadi. Ularning ta'biricha, lisoniy tejamkorlik tamoyili faollashuv sharoitida umumiy predikatlarning biri sintaktik qurilishda qisqartirilsa-da, lekin murakkab mazmun saqlanib qolaveradi [Zikrillayev. 2018;366-b.; Sayfullaeva. 1994;101-b.].

Z.Rasulovning e'tiroficha, "axborot strukturasi shakllantirishga ishtirok etayotgan lisoniy birliklar har xil ko'rinishda bo'lishi bilan bir qatorda, ularning diskursda faollashuvi ham turlicha kechadi" [Rasulov. 2022;49-b.]. Shu bois presuppozitsiyani unga yondash, ayni paytda tamoman boshqacha maqomga ega implikatura hodisasi bilan chalkashtirmaslik lozim. Yuqorida aytilganidek, presuppozitsiya oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimni anglatga, implikasiya yoki implikatura mazmuni maqsadli ravishda tagma'noli, matn ichidagi matnda ifodalash hodisasi.

Implikaturalar, ko'pincha, muloqot vaziyati, kontekst doirasida yuzaga keladi va anglashiniladi. Misol tariqasida L.Kumming keltirgan Bill is meeting a woman this evening tuzilmasini oladigan bo'lsak, Bill uchratadigan ayol uning sevgilisi, xotini, singlisi, opasi emasligini tushunish uchun kontekstga murojaat qilish unchalik shart emas. Chunki bu yerda noaniq artiklning qo'llanishi muhim rol ni o'tamoqda [Cumming. 2005;14-b.]. Ammo What a delightful child! Gapning ham tarkibida noaniq artikl ishtirok etayotgan bo'lsa-da, lekin ushbu gapning kinoya mazmuniga egaligini faqat kontekst orqali anglash mumkin [O'sha manba. 13-b.].

Presuppozitsiya va implikasiya o'rtasidagi farqni quyidagi misollar vositasida namoyish qilishga harakat qilamiz:

"I say, are you first year?" he said.

– "Yes," answered Phillip.

– "Where's the lecture room, d'you know?"

It's getting on for eleven" [W.S.Maugham].

Ushbu dialog ikkita student o'rtasida kechmoqda. Dialogning presuppozitsiya asosida ularning har ikkalasi ham tibbiyot sohasi studenti ekanligi, o'quv yurtida birinchi kurs talabalari uchun maxsus ma'ruza o'qilishi va tez orada ushbu ma'ruzaning boshlanishi kabi ma'lumotlar mavjud. Dialogning uchinchi replikasida yashiringan implikatura esa ma'ruzaga kechikmaslik uchun so'zlovchiga notanish bo'lgan auditoriyaga shoshilish lozimligi tagma'noli ifodalanmoqda. Mazkur ma'no konnotativ xususiyatga ega va uning vositasida ma'ruzaning boshlanishiga oz vaqt qolganligiga ishora mavjud.

**Natija.** Muloqot muhitiga mo'ljallangan funksional-stilistik konnotatsiya nutqiy tuzilmaga tantanavorlik, ko'taringlilik, rasmiyatchilik, erkinlik, yaqinlik, komillik, liriklik kabi ruhiyatini berish uchun xizmat qiladi. Nutqning bu xildagi bo'yoqdorligi yagona bir funksional-uslubiy qatlamga tegishli birliklar shakliy va ma'naviy uyg'unligi yoki boshqa uslublarga xos unsurlarning ular uchun yot bo'lgan nutqiy faoliyat doirasiga jalb qilinishi orqali erishiladi. Bu ko'rinishdagi "konnotatsiyalar o'yini" sodir bo'lishiga kontekstning uslubiy qatlami turtki beradi. Shu asnoda nutqiy tuzilma o'zaro qarama-qarshi bo'lgan uslubiy ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Ushbu turdagi konnotatsiyalar obrazli badiiy nutqda muhim rol ni o'tashi aniq. Qiyoslang:

Hear and attend and listen; for this befell and be happened and became and was, O my Best Belo red, when the Tame animals were wild [R.Kipling. The Cat that walked by Himself].

Oyim garmdori gulli piyolada qo'shnilarga choy quyib uzatar ekan, ogzini to'ldirib maqtanar edi:

–Qizim berdi! Qarang, shundoq qizim bor ekan-u, men ahmoq bilmay yurganimni qarang! U bog'rog'lar, u oq uy-olabarchak desangiz! Qo'sha-qo'sha gilamlar! Bir radiosi bor, sandiqdek keladi. Qizimning chaqqonligini ko'rsangiz. Bir pastda bir guruch, bir go'sht qilib, chigit bosgandek osh damlab keldi. Kuyovimni aytmayisizmi, peravodniylarning boshlig'i ekan. U yog'i Ashxobod, bu yog'i Leninobod–yetti iqlimda ko'rmagan joyi qolmabti. Biram odobli, biram aqlli... [O'.Hoshimov. Opamni topib oldim].

Ingliz tilidagi misolda tantanavorlik konnotatsiyasi arxaik lug'at birligi va sintaktik takror vositasida hosil bo'lganini ko'ramiz. O'zbek tilidagi misolda esa sintaktik takrorga o'ziga xos o'xshatish-epitetlar hamrohlik qilmoqda.

Gap semantik tuzilishida ishtirok etadigan nominativ-konnotatsiya bo'laklariga predikativ-konnotatsiya qarama-qarshi qo'yiladi. Ushbu konnotativ ma'no bo'laklari nutqiy tuzilmada tasvirlangan vaziyatni

voqelik bilan bog'laydi. Shaxslararo aloqa o'rnatish yoki fatik konnotatsiyalari tinglovchini muloqot jarayoniga qo'shilishiga imkon beradi [Drazdauskane. 1976] va uni diqqatini so'zlovchi fikriga jalb qiladi, muloqotni davom ettirishga undaydi. Ma'noning fatik bo'laklari orasida hamdardlik bildirish, tinglovchining fikriga qo'shilish kabilar alohida ajralib turadi. Masalan: "You must come again when we're a little more up to the mark," added the nurse. "It's a pity you came at such a time", "for we're not quite ourselves today, are we dear?" [Ch.Chaplin].

Ushbu holatda hamshiraning nutqida hamdardlik va ishonch konnotatsiyalari yorqin ifodalangan. Bunga we olmoshining ma'no ko'lamini kengaytirish, ya'ni, ikkinchi va uchinchi shaxslarga ham ishora qilishi orqali erishilgan.

So'zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bog'liq bo'lgan intensiya konnotatsiyasi tinglovchini ma'lum bir harakatga undash ma'nosi doirasida yuzaga keladi. So'zlovchining nutqiy akt vositasida namoyon bo'ladigan bevosita intensiya buyruq berish yoki tinglovchini javob berishga undash mazmunini ifodalasa, konnotatsiyali nutqiy aktlar bajarilganida esa iltimos, maslahat, taklif kabi pragmatik ma'nolar bilvosita voqelanadi. Nutqiy tuzilmalarning bu turdagi qo'llanishi pragmalingsvistika sohasida bilvosita nutqiy aktlar ko'lamida tavsiflanadi [Osten. 1986; Serl. 1986; Hakimov. 2020; Shomahmudova. 2022]. Jumladan, Don't smoke, you'll ruin your health nutqiy tuzilmasida buyruq yoki maslahat to'g'ridan to'g'ri ifoda topadi. Ma'lum vaziyatda tuzilmaning sababini asoslash qismi ( you'll ruin your health) yetakchi o'ringa chiqib, harakatga undash qismi (don't smoke) konnotativ ma'no hosil qilishi mumkin.

Undashning konnotatsiya ko'rinishida ifodalanishi, ko'pincha, so'roq gapning bilvosita nutqiy akt vazifasida qo'llanishida kuzatiladi. Masalan:

"Hey, Al," Max called, "bright boy wants to know what it's all about".

– "Why don't you tell him?" Al's voice came from the kitchen (E.Hemingway);

– Antropologiyaga qiziqmasangiz, sizga dumli odamning nimaga keragi bor?

– Mening gazetamga kerak! –dedi mehmon. –Hech bo'lmasa birorta dumli odamning suratini olib borsam deyman. Juda shov-shuv bo'lar edi. Yordam va'da qilolmaysizmi? [Abdulla Qahhor. Muhabbat].

Keltirilgan misollardagi Why don't you tell him? So'roq gapi bilvosita buyruqni ifodalayotgan bo'lsa, o'zbek tilidagi "Yordam va'da qilolmaysizmi?" gapi esa buyruqning yumshoq shakli, ya'ni iltimos mazmunida qo'llangan. Harakatga yashirin undashning asosiy shakllaridan bo'lgan savol tuzilmasida turli ma'nodagi konnotatsiya jamlanib, aniq ma'no ma'lum bir vaziyat, kontekst bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Aynan kontekst doirasida undash iltimos, tavallo, ogohlantirish, tahdid kabi ma'no bo'yoqlarini oladi.

**Xulosa.** Aytish joizki, nutqiy tuzilmaning emotsionalligi o'z-o'zida tinglovchiga ta'sir ko'rsatish kommunikativ vazifani egasi bo'la olmaydi. Biroq so'zlovchi odatda u yoki bu emotsional holatini namoyish qilish bilan qanoatlanib qolmaydi. U o'z hissiyatini tinglovchiga o'zi istagan usulda ko'chirishga harakat qiladi. Nutqiy tuzilmaning bunday "illokutiv kuchi" uning ekspressivligida aks topadi. Tuzilmaning ekspressivlik darajasi, o'z navbatida, uning pragmatik mazmuni va so'zlovchi kommunikativ maqsadi o'rtasidagi mutanosiblik orqali belgilanadi. Shu jihatdan, emotsionallik ko'pchilik holatda ekspressivlik bilan qorishadi. Ekspressiv emotsional nutqiy faoliyat, ayniqsa, badiiyatga xosdir. Masalan: This was a lashing pitiless rain that stung the windows of the coach, and it soaked into a hard and barren soil [D. du Maurer].

Bu yerda jonlantirish stilistik vositasida yomg'ir tabiatning dahshatli kuchi sifatida tasvirlanmoqda va shu yusinda muallif o'z qahramonining ruhiy holatini obrazli tavsiflashga erishmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Блох М.Я. Теоретическая основы грамматики. М., "Высшая школа", 1986.
- (2). Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingsvistika asoslari. Farg'ona, "Classic", 2020, 420-bet.
- (3). Crystal D.A. Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing, 2008, 529 p.
- (4). Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T., O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002, 164-bet.
- (5). Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. М., "Высшая школа", 1990.
- (6). Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. "O'zbek tili va adabiyoti", 1986, 6-son, 29-bet.
- (7). Fillmore Ch. Types of lexical information. Semantics. Cambridge, Cambridge University Press, 1971.
- (8). Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbektilida qo'shma gaplarning formal-funksional tadqiqi. T., "Fan", 1994, 357-bet.
- (9). Zikrillayev G'. Ruh va til. T., "Fan", 2018, 462-bet.
- (10). Rasulov Z.N. Nutqiy tuzilmalar axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi jarayonida tejamkorlik tamoyilining faollashuvi. Buxoro, "Sadridin Salim Buxoriy". "Durdona", 2022.



- (11). Cummings L. Pragmatics. A Multidisciplinary perspective. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2005, 336 p.
- (12). Maugham. W.S. Unconquered.
- (13). Kipling R. The Cat that walked by Himself.
- (14). Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. Farg‘ona, “Classic”, 2020, 165-bet.
- (15). Серль Дж.Р. Классификация иллюкутивных актов. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.17, М., “Прогресс”, 1986.
- (16). Остен Ж. Слово как действие. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.17, М., “Прогресс”, 1986.
- (17). O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari (qissalar). T., “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019.
- (18). Драздаускане Л.А. Контактостанавливающая функция речи (на материале английского языка). Автореф. дисс ... канд. филол. наук, М., 1976, 23 с.
- (19). Abdulla Qahhor. Muhabbat. T., “Yangi asr avlodi”, 248-bet.

**Shoimov Amriddin Shodmonovich (assistant-o‘qituvchi; [amriddinshoimov@gmail.com](mailto:amriddinshoimov@gmail.com))  
NEMISCHA SOHAVIY EVFEMIZMLAR TALQINI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola evfemizm muammosining aynan nemis olimlari tomonidan o‘rganilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shu mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar haqida so‘z yuritiladi. Evfemizmga dunyo olimlari va albatta nemis olimlari ham bir necha asrlardan buyon qiziqish bildirib, uning leksik-semantik mohiyati va til sathlarining qaysi jabhalarida eng ko‘p qo‘llanilishi bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirganlar. Shu o‘rinda nemis olimlarining ta‘kidlashicha, eng avvalo, evfemizmlar diniy va madaniy mavzularda faol qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirgi davrda ular siyosat va iqtisodda ayniqsa manipulyativ til unsuri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

**Kalit so‘zlar:** evfemizm, qadimgi va zamonaviy evfemizmlar, iqtisod, siyosat, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar, siyosiy evfemizmlar.

**Шоимов Амриддин Шодмонович (ассистент-преподаватель; [amriddinshoimov@gmail.com](mailto:amriddinshoimov@gmail.com))  
ТОЛКОВАНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА**

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению проблемы эвфемизмов немецкими учеными и рассказывает о научных исследованиях, проводимых по этой теме. Мировые ученые и, конечно, немецкие ученые уже несколько столетий интересуются эвфемизмами и высказывают свое мнение, касающееся их лексико-семантической природы. На данный момент немецкие учёные отмечают, что, прежде всего, эвфемизмы активно использовались в религиозной и культурной тематике, однако в современную эпоху они проявляются как особо манипулятивный элемент языка в политике и экономике.

**Ключевые слова:** эвфемизмы, древние (устаревшие) и современные эвфемизмы, экономика, политика, заимствованные слова из английского языка, политические эвфемизмы.

**INTERPRETATION OF EUPHEMISMS IN THE GERMAN LANGUAGE**

**Annotation.** This article is dedicated to the study of euphemisms by German scholars and discusses the scientific research conducted on this topic. Global scholars and, of course, German scholars have been interested in euphemisms for several centuries and express their opinions regarding their lexical-semantic nature. At the moment, German scholars note that euphemisms were primarily used in religious and cultural themes, but in modern times, they manifest as a particularly manipulative element of language in politics and economics.

**Key words:** euphemism, ancient and modern euphemisms, economy, politics, borrowed words from the English language, political euphemisms.

**Kirish (Introduction).** Evfemizmlar tadqiqoti ko‘p asrlar davomida o‘rganilib kelayotgan til unsurlaridan biri hisoblanib, jamiyatimizning barcha sohalarida insonlar tomonidan uzatilayotgan fikrni neytrallashtirish, hatto ijobiyashtirish maqsadida muloqot jarayonida qollanadi. Bugungi kungacha barcha tillardagi evfemizmlar turli tadqiqot metodologiyalariga ko‘ra tadqiq etilgan.

Mazkur maqolada esa nemis tilshunosligida evfemizmga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishtirish hamda evfemizm unsurining xususiyatlari qay darajada o‘rganilganligi, unga qanday ta‘rif va tavsif berilganligi, shu jumladan, qanday natijalar e‘lon qilib borilganligini tadqiq etish maqsad qilingan.

Maqolaning birinchi faslida evfemizmlarning tarixiy o‘rganilishi jarayoniga et‘ibor qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi faslida ularning hozirgi o‘rganilayotgan jihatlari va zamonaviy dolzarb masalalari yoritilgan. Yakunda tegishli xulosalar qilingan bo‘lib, evfemizmlarning hozirgacha aynan nega tadqiqot markazidan tushib qolmayotganligi haqida gap boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Evfemizmlar dunyo tillarida uzoq vaqtlardan beri o'rganilayotganligi sir emas. Ularning nafaqat til sathlarida, balki ijtimoiy hayotimizdagi kommunikativ xususiyatlari nemis olimlari tomonidan ham keng qamrovda o'rganilgan. Ulardan Ch.Balle, A. Bohlen, W.Bökemann, K.Erdmann, W.Fleischer, M.Michel, L.Graffe, E.Leinfellner, S.Luchtenberg, C. Pătru, W.Sanders, H.Schröder, H.Schulz, M.Vytivskyi, H.Wagner, Ch.Wanzeck, N.Zöllner kabi olimlar evfemizmlarning dolzarb ahamiyatini ochib bergan bo'lsalar, Brockhaus, Herder, Langenscheidt, Oksaar kabi lug'atlarda evfemizm tushunchasining ta'riflari keltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Maqola yozilishi jarayonida sinxron tahlil, distributiv hamda davriy-qiyosiy solishtirishdan metodlari foydalanildi. Evfemizm unsuri ustida nemis olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar diaxronik tarzda tahlil qilishga ham e'tibor qaratilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Evfemizmning o'rganilish tarixi haqida mulohazalar. Evfemizm tushunchasiga ilmiy tadqiqotlarda berilgan ta'riflar. Tilshunos olimlar tillarni tadqiq etishni boshlagandan hozirgi kungacha evfemizmlarning turli xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratib kelmoqdalar. Evfemizmning nutqda ilk qo'llanishi uzoq tarixga borib taqaladi [Zöllner. 1997:17-b.], ya'ni insoniyat o'zaro munosabatlarga kirishar ekan, evfemizm ham muloqot sharoitida avtomatik tarzda yuzaga keladi, chunki evfemizm nutqning ijobiy kechishiga xizmat qiluvchi unsur hisoblanadi. Ballening fikricha, "...Euphemismen bieten die Möglichkeit, das „Nackte“ zu bedecken, ihm „Sprachkleider“ anzuziehen", ya'ni, evfemizmlar "narsaning yalong'och ma'nosini" yopishni, unga "lisoniy libosni" kiydirish imkonini beradi (Balle, 1990:117-b.). Bunday tasviriy ifoda yordamida evfemizmning asosiy vazifasi hisoblanmish pardalash (niqoblash) vazifasi namoyon bo'lmoqda.

Nemis tili sathlarida evfemizmlarning o'rganilishi haqida gap ketganda, shuni alohida ta'kidlash mumkinki, ushbu til unsurining o'rganilishiga XX asrga kelib, ko'proq e'tibor berila boshlagan va hozirgacha evfemizmlarning til sathlaridagi turli jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda [Schröder. 2016;5-b.]. Tarixiy davrdan hozirgi kungacha evfemizmlar qo'llanilish izchilligi tematikasi o'zgarib kelmoqda. Olimlar avvaliga badiiy adabiyotlardagi evfemizmlarning stilistik xususiyatlarini o'rganishga urg'u bergan bo'lsalar, keyinchalik, jamiyatimizning turli sohaları, masalan, meditsina, iqtisodiyot va boshqa sohalaridagi evfemizmlarning muhim vazifalarini ko'rsatib berishga harakat qilmoqdalar. Hozirda, asosan, siyosiy evfemizmlarni ko'proq tadqiq etish davr talabi bo'lib turibdi.

XIX asrda evfemizm tushunchasiga lug'atlarda til unsurlaridan biri sifatida rasmiy maqom berila boshlangan bo'lib, evfemik ifoda ilmiy jihatdan tadqiq etila boshlagan deyish mumkin [Brockhaus. 1893: 415-b.]. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar evfemizmga "milderndes und beschönigendes Phänomenyumshtatuvchi va go'zallashtiruvchi hodisa" sifatida ta'rif berilgan [Herder. 1954;569-b.]. Hozirgi kunda evfemizmlarning keng qamrovli hamda yangi vazifalari tadqiqi ko'lami oshib borayotganligini kuzatish mumkin bo'lib, bu haqida quyida fikr-mulohazalar bildiriladi.

Duden online lug'atidagi evfemizmga berilgan ta'rifda uning til sathlarida bajaradigan eng asosiy vazifalari ochib berilgan. Lu'gatda keltirilgan "beschönigende, verhüllende, mildernde Umschreibung für ein anstößiges oder unangenehmes Wort" [<https://www.duden.de/rechtschreibung/Euphemismus>] ta'rifi shuni anglatadiki, evfemizm-haqoratli yoki yoqimsiz so'z o'rnida qo'llaniladigan go'zallashtiruvchi, parda ostiga oluvchi va yumshatuvchi uchta asosiy vasifaga ega bo'lgan tasviriy vosita hisoblanadi. Evfemizmning parda ostiga oluvchi vazifasining muhimligi shundaki, bu orqali insonlarni manipulyatsiya qilishga harakat qilinadi.

Langenscheidt lug'atida ham evfemizmga ta'rif berilgan bo'lib, ushbu terminga quyidagicha izoh berilmoqda: „ein Ausdruck oder Wort, mit dem etwas Negatives (Schlimmes oder Unangenehmes) nur indirekt und dadurch schöner gesagt wird“ [Langenscheidt. 2008;359-b.]. Ko'rinadiki, ushbu lug'atda evfemizm nemis tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun sodda tushuntirilgan bo'lib, asosan, evfemizm qandaydir salbiy (yomon yoki yoqimsiz) narsani faqat bevosita va shu orqali chiroyli aytiladigan ifoda yoki so'z deb tariflangan. Bunday ta'rif evfemizmning umumiy va sodda mazmunini ochib bera oladi.

Evfemizm tushunchasi nafaqat tillardagi umumiy lug'atlarda balki maxsus lug'atlarda "Fachsprache-sohaviy til"ga oid lug'atlarda ham uchraydi. Shunday lug'atlardan sanaladigan "Fachsprachliche Dimensionen" lug'atida unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Die Euphemismen sind Umschreibungen für Ausdrücke, die in einem bestimmten kommunikativen Akt ihre Funktion aus verschiedenen, meist sozio-psychologischen Gründen nicht erfüllen" (Oksaar. 1988;58-b.). Ushbu ta'rifdan shuni tushunishimiz mumkinki, evfemizm muayyan muloqot aktida turli xil ijtimoiy-psixologik sabablardan kelib chiqib o'z vazifasini to'liq bajara olmaydigan ifodalar o'rnida qo'llanuvchi unsur hisoblanadi. Ushbu ta'rifda evfemizmning aynan

qanday vazifada qoʻllanilishiga emas, balki evfemizmdan muloqotda qanday vaziyatda foydalanilishiga urgʻu berilmoqda.

Evfemizm terminini izohlar ekanmiz, Bolenning ushbu fikriga murojaat qilishni lozim topdik: Das Euphemismusproblem ist zwar kein linguistisches Neuland, aber es wird künftig einen breiteren Raum in der sprachwissenschaftlichen Forschung spielen müssen, will man es in seiner ganzen Breite und in seinen verschiedenen Erscheinungsformen und Aspekten erfassen [Bolen. 1994;101-b.].

Haqiqatdan ham, evfemizmlar tilshunoslik olamida yangilik emas. Ammo ularning yuzaga kelishi, til sathlaridagi oʻrni yoki aspektlarini oʻrganish yuzasidan tadqiq etilishi mumkin boʻlgan jihatlari mavjud.

Evfemizm taʼrifini keltirar ekanmiz, ushbu til unsurining quyidagi taʼrifini hozirgi kundagi eng muhim taʼriflardan desak xato qilmaymiz. „Der Euphemismus kann jedoch auch in bewusst verhüllender, verschleiender, verfälschender Form auftreten, vor allem in politischer, propagandistischer, demagogischer und damit manipulierter Verwendung“ – Biroq, evfemizm ataylab yashiruvchi, niqoblovchi va buzib koʻrsatadigan shaklda ham paydo boʻlishi mumkin, ayniqsa, siyosiy, tashviqot, demagogik va shu tariqa manipulyatsiya vazifasida namoyon boʻlishi mumkun (Sanders. 1992;127-b.). Nutqni taʼsirchanligini oshirishda ayniqsa siyosiy kontekstlarda ataylab evfemizmdan foydalanish XX va XXI asrda tobora oshib borayotgan hodisalardan biri deyish mumkin.

Evfemizmning tadqiqiga oid ilk va zamonaviy manbalar. Evfemizmlarning qadimiy til hodisasi ekanligi sir emas, ularning olimlar tomonidan tadqiq etilishi ham qadimgi tilda bu vositaning qoʻllanilishi hamda qaysi sohalarda qoʻllanilishini nemis olimlarining tadqiqot ishlarida uchratish mumkin. Frühneuhochdeutsche Euphemismen ilk yangi nemis adabiy tilidagi evfemizmlarni tadqiq etgan olimlar ularni, asosan, badiiy adabiyotlarda uchrashini taʼkidlaganlar [Schulz; 1908-b.]. Koʻrinadiki, evfemizmlar jamiyat istemolida boʻlishi qadimiy hodisa boʻlib, uning tadqiq etilishi olimlarning qiziqish doirasidan chetda qolib ketmayapdi.

Shuni ham alohida taʼkidlash kerakki, nemis olimlari nafaqat nemis tili sathlaridagi evfemizmlarni, balki ingliz, fransuz, ispan va boshqa tillardagi evfemizmlar va ularning nemis tiliga tarjimai haqida ham koʻplab tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ushbu tendensiya XIX asrda boshlangan boʻlsa [Bökemann. 1899; 19–36-b.], hozirgi zamon nemis tilida ilmiy tadqiqotlar olib boradigan olimlar boshqa chet tillardagi evfemizmlarning yangicha xususiyatlarini ochib berishga harakat qilmoqdalar [Bohlen. 1994].

Evfemizmlar nafaqat bir soha tadqiqot obyekti, balki leksikologiya, stilistika va semantika kabi fanlarning ham tarkibida til unsuri sifatida oʻrganilmoqda [Erdmann. 1925;29-b.]. Avvaliga, evfemizmlar semantik maʼno anglatuvchi til vositasi sifatida oʻrganilgan boʻlsa, XX asrning ikkinchi yarmida evfemizmlarning stilistika fanidagi troplar va figuralar vazifasini bajaruvchi funksiyasi tadqiq etilgan [Fleischer Michel. 1975]. Bundan tushuniladiki, evfemizmlar tilning turli qatlamlarida serqirra va faol hodisa sifatida namoyon boʻladi.

Nemis tili leksikologiyasiga bagʻishlangan ishlarda evfemizm va disfemizm sifatida yasaladigan soʻzlar yonma-yon oʻrganilib, ularni mavzularga boʻlishga harakat qilingan. Eng koʻp uchraydigan mavzularga 1) diniy evfemizmlar; 2) ijtimoiy-estetik evfemizmlar; 3) siyosiy evfemizmlar; 4. ijtimoiy-axloqiy evfemizmlar kabi mavzularni kiritish mumkin [Wanzeck. 2010;84-b.]. Diniy evfemizmlarni ilk yuzaga kelgan evfemizmlar deyish mumkin. Siyosiy evfemizmlar esa, zamonaviy tillarda mavjud boʻlgan ijtimoiy hodisalardan hisoblanadi. Inson axloqiga hamda estetik didiga xizmat qiluvchi evfemizmlarni esa har davrda uchratish mumkin.

**2. Nemis olimlarining evfemizmni oʻrganilishiga qoʻshgan hissasi.** 2.1. Evfemizm vazifa va xususiyatlarining tadqiq etilishi. Nemis tilida yozilgan ishlardan hisoblanmish Leinfellnerning “Der Euphemismus in der politischen Sprache (Siyosiy tildagi evfemizm)” tadqiqot ishi nemis tilida mavjud siyosiy evfemizmlarga bagʻishlangan koʻp oʻrganilgan ishlardan biri hisoblanib, siyosat mavzusida evfemizmlarga boʻlgan qiziqishni kengaytirdi, desak, adashmaymiz [Laynfellner. 1971;20-b.].

Evfemizmlarning taʼsir doirasini ikkiga boʻlib tadqiq etish lozimligini taklif qilgan nemis olimlaridan biri Laynfellner fikricha, evfemizmlar birinchidan, qoʻpol soʻzlarni bartaraf etishi boʻlsa, ikkinchidan, ular noxush faktlarni bartaraf qilish hisoblanadi. Qoʻpol soʻz bartaraf qilinishi siyosiy hayotda kuzatilmasa-da, noxush faktlarning evfemizmlashuvi, asosan, siyosiy muloqot doirasida kuzatiladi [Laynfellner. 1971;21-b.].

Luxtenberg evfemizmlarni tadqiq etar ekan, ularning 3 ta asosiy vazifalarini koʻrsatib oʻtadi. Bular “beschönigende Funktion (goʻzallashtiruvchi vazifa)”, “milderende Funktion (yumshatuvchi vazifa)” va “verschleiende Funktion (niqob ostiga oluvchi vazifa)” hisoblanadi. Olima evfemizmlarning yana bir asosiy hamda ilk vazifasi borligini taʼkidlab, uni quyidagicha izohlaydi. “Tabuisierte Dinge und Personen ir-

gendwie auszudrücken, muss als erste Aufgabe euphemistischer Sprechweise angesehen werden (Tabu-lashgan narsa va shaxslarni qandaydir bir yo'l bilan ifodalash evfemiztik so'zlash usulining birinchi vazifasi sifatida qaralishi kerak") [Luxtenberg. 1975;18-b.].

Nemis tilidagi evfemizmlarni keng ko'lamda tadqiq etgan olim Siegfried Luxtenberg evfemizmlar-ning turli ta'riflarini keltirish bilan bir qatorda, „Tabu und Euphemismus entziehen sich einer klaren Definitionsbestimmung, da sie gesellschaftlich bedingt sind in ihrer Entstehung und Bedeutung (Tabu va evfemizm tarifini aniq keltirish mushkuldir, chunki ularning kelib chiqishi va ma'nosi ijtimoiy hodisa bilan bog'liqdir)“, degan fikrni olg'a surgan [Luxtenberg. 1985;13-b.].

O'tgan asrning so'ngida evfemizmlarning manipulativ ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarini ochib berish masalasi kengayib bordi va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab internet paydo bo'lishi orqali siyosiy globallashuvning davlatlararo izchil oshishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, evfemizmlar-ning siyosiy jarayonlarda qo'llanilishidan ko'zlangan asosiy maqsad, bu insonlar ongiga siyosiy jarayonlar-da faol ishtirok etuvchi notiqlar tomonidan o'ziga bo'lgan ijobiy kayfiyatni uyg'otish hisoblanmoqda, ya'ni siyosatchilar saylovchilarni hamda xalqni o'z ortidan ergashtirishda evfemizm bir vosita sifatida tez-tez qo'llanadi [Wagner. 1991;76-b.].

2.2. Hozirgi zamon nemis tilida evfemizmlarning diqqat doirasida bo'lib turgan jihatlari. XXI asrga ke-lib ham evfemizmlar tadqiqi ularning lingvomadaniy, pragmatik va boshqa muhim jihatlarning o'rganilishi davom etmoqda hamda barcha tillarda bo'lgani kabi, nemis tilida ham evfemizmlar tadqiqot obyekti sifatida yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Uning muhim jihatlardan biri, dars jarayonida qo'pol va so'kinishni ifo-dalovchi so'zlar o'rnida qo'llanilishini metodik jihatdan tadqiq etishdir [Graffe. 2009;21-b.]. Shunday ekan, nemis tili sathlarida evfemizmlar o'rganilishi borgan sari chuqurlashib bormoqda hamda uning turli rakus-lardagi tadqiqi o'rganilishi takomillashmoqda.

Albatta, evfemizmlarning siyosiy muloqotda o'rni beqiyos. Ular hozirgi zamonaviy nemis tilidagi badiiy adabiyotlarda ham ko'p uchrab turadi. Bunga misol qilib ko'p sonli badiiy adabiyot ixlosmandlari tomonidan e'tirof etilgan Christian Krachtning "Faserland" asaridan ushbu misolni keltirib o'tamiz:

"Trotzdem, langsam werde ich richtig betrunken, und als Nigel aus seinem Tütchen *eine Pille* nimmt und sie mir in die Hand drückt, denke ich: Na ja, ich kann das ja mal versuchen" [Kracht. 2007;43-b.].

Yuqoridagi gapda qo'llangan "eine Pille-(xabdori)" so'zi evfemizm sanalib, u "Drogen-(narkotika)" so'zi o'rnida qo'llanmoqda. Ushbu so'z orqali asar muallifi salbiy ma'no anglatuvchi so'z o'rnida neytral-likni ifodalovchi unsur sifatida yuqoridagi so'zni tanlagan, deyish mumkin.

Badiiy adabiyot, siyosat va boshqa ko'plab sohalaridan tashqari evfemizm ko'p bora qo'llanishi mumkin bo'lgan soha, bu iqtisodiyot sohasidir. Iqtisodiy inqirozni ifodalash, ishsizlikning oshib borishi va reklama kabi iqtisodiyotga bevosita bog'liq masalalarda evfemizmlardan ustalik bilan foydalanilmoqda. Olimlar iqtisodiy kontekstlarda qo'llanilgan evfemizmlarni tadqiq etib, ularni, asosan, manipulativ ma'no-da qo'llanilishini hamda nafaqat so'zlar, so'z guruhlari yoki iboralar, hatto jumlar yoki butun reklama matnlari evfemizmlardan iborat bo'la olishini ta'kidlaydilar [Pätü. 2019;62-b.].

OAVlarida ko'p uchraydigan bolalar tagliklari reklamasida yuqoridagi fikrning isbotini ko'rish mumkin. "*Ruhige Nächte. Spannende Tage.* (Osuda tunlar. Hayajonli kunlar)" [<https://neuroflash.com/de/blog/slogans-claims: 27.01.24>]. Ushbu reklama ikki qisqa jumladan iborat bo'lib, ularning ikkalasida ham tabiiy jarayon bolalar tagligi yordamida ona va bola uchun ijobiy kechishiga urg'u berilmoqda. Shu sababli ushbu matn to'lig'icha evfemizm bo'lib kelmoqda.

Har sohada bo'lgani kabi, siyosiy evfemizmlarda ham "Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar" Anglizism-larni uchratish mumkin. Ayrim olimlar evfemizmlarni "*doublespeak-euphemistische Sprechweise* (evfemik so'zlash usuli)" deb momlaydilar [Zöllner. 1997; 351-b.]. Evfemizmlarning siyosatda qo'llanishi nafaqat shu sohaning o'ziga, balki jamiyatning boshqa sohalariga ham tegishli bo'lishini kuzatish mumkin. *Minus-wachstum* (so'zma-so'z: kichik o'sish, evfemiztik ma'nosi: iqtisodiy pasayish) so'zini iqtisodiy evfemizm deyish bilan bir qatorda, uning siyosiy maqsadlarda qo'llanilishini ham inobatga olish lozim. *Vorwärtsver-teidigung* (so'zma-so'z: oldinga harakatlanadigan himoya, evfemiztik ma'nosi: bosqinchilik urushi) evfe-mizmi geostrategig siyosatda qo'llanilgan evfemizmlardan biri hisoblanadi. *Endlösung der Judenfrage* (so'zma-so'z: yahudiylar masalasini batamom yechish, evfemiztik ma'nosi: yahudiylarni irqiy genotsidi) evfemizmi esa umummilliy-siyosiy evfemizmlar sirasiga kiradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa sifatida muxtasar qilish mumkinki, nemis tilida evfemizmlarning o'rganilish tarixi XIX asrga borib taqaldi, va bu jarayon hozirgi zamonaviy nemis tilshunosligida o'z ohangraboligini yo'qotmay kelmoqda. Evfemizmlarning muntazam va tizimli o'r-ganilishi besabab emas. Ushbu lingvistik hodisa jamiyatning turli tarixiy bosqichlarida kishilar e'tiborini

tortib kelishi esa uning turli mavzularda va barcha til sathlarida qo‘llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Evfemizmlarning qiyosiy o‘rganilishi esa bugungi kunda zamon talabiga aylangan.

Nemis olimlari evfemizmlarning barcha tematik xususiyatlariga hamda nutqdagi rolga e‘tibor qaratib, nafaqat nemis tilidagi, balki boshqa tillardagi ushbu til unsurini tadqiq etib kelmoqdalar. Avvaliga evfemizmlar diniy taqiqlar-tabular o‘rnida qo‘llanilgan bo‘lsa, bizning davrimizda ularni barcha sohalarda, asosan siyosatda ko‘plab uchratish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, evfemizm muloqot mahsuli va har doim u yoki bu ko‘rinishda nutqda mavjud bo‘lib turaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- (1). Balle Ch. Tabus in der Sprache. Frankfurt am Main, Bern, New York, Paris. Peter Lang, 1990, p. 204.
- (2). Bohlen A. Die sanfte Offensive: Untersuchungen zur Verwendung politischer Euphemismen in britischen und amerikanischen Printmedien bei der Berichterstattung über den Golfkrieg im Spannungsfeld zwischen Verwendung und Missbrauch der Sprache. Univ., Diss., Frankfurt am Main. Lang, 1994, s. 278.
- (3). Bökemann W. Französischer Euphemismus. Inaug.diss., Berlin, 1899, s. 78.
- (4). Brockhaus. Konversations-Lexikon. Bd. 6,14, völlig neubearb. Aufl. Leipzig [u. a.]. F.A.Brockhaus, 1893, s. 1018.
- (5). Erdmann K.O. Die Bedeutung des Wortes. Leipzig, 1925, 240 Seiten.
- (6). Fleischer W. Michel G. Stilistik der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, 1975, s. 394.
- (7). Graffe L.P. Die Tabuisierung des Schimpfens im Unterricht von Deutsch als Fremdsprache. Diss. Curtitiba Leipzig, 2019, s. 99.
- (8). Herder. Der Große Herder. Nachschlagewerk für Wissen und Leben. Bd. 3. 5, neu bearb. Aufl. von Herders Konversationslexikon. Freiburg (Br.), Verl. Herder, 1954, s. 243.
- (9). Kracht Ch. Faserland. Roman. Deutscher Taschenbuch Verlag GmbH, München, 2007, s. 136.
- (10). Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG, Berlin und München, 2008, s. 1344.
- (11). Leinfellner E. Der Euphemismus in der politischen Sprache. Berlin, Duncker & Humblot. 1971, s. 177.
- (12). Luchtenberg S. Untersuchung zu Euphemismen in der deutschen Gegenwartssprache. Bonn: Phil. Fak. der Rheinischen Friedrich-Wilhelms-Univ., Inaugural-Diss, masch, 1975, s. 575.
- (13). Luchtenberg S. Euphemismen im heutigen Deutsch. Mit einem Beitrag zu Deutsch als Fremdsprache. Frankfurt a.M. u.a., Peter Lang, 1985, s. 299.
- (14). Oksaar E. Fachsprachliche Dimensionen. Tübingen. Gunter Narr Verlag 1988, s. 269.
- (15). Pătru C. Euphemismen in der Werbesprache. Ein deutsch- rumänischer Vergleich, Berlin Wissenschaftlicher Verlag, 2019, s. 227.
- (16). Sanders W. Sprachkritikastereien und was der „Fachler“ dazu sagt, Darmstadt, Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 1992, s. 177.
- (17). Schröder H. Sprachtabu und Euphemismen – sprachwissenschaftliche Anmerkungen zu Stefan Schorch’s „Euphemismen in der hebräischen Bibel“. Frankfurt am Oder: Europa-Universität Viadrina, 2016, s. 323.
- (18). Schulz H. Frühneuhochdeutsche Euphemismen. Trübner, 1908, s. 173.
- (19). Vytivskiy M. Euphemismen und Dysphemismen. Wertende Sprache in der Propaganda Russlands im Kontext des Angriffskriegs gegen die Ukraine. Communicatio Socialis, 2023, s. 56 (3).
- (20). Wagner H. Medien – Tabu und Kommunikationsverbote. Die manipulierbare Wirklichkeit. München, Olzog, 1991, s. 311.
- (21). Wanzeck Ch. Lexikologie. Beschreibung von Wort und Wortschatz im Deutschen. Göttingen. Vandenhoeck & Ruprecht, 2010, s. 191.
- (22). Zöllner N. Der Euphemismus im alltäglichen und politischen Sprachgebrauch des Englischen. Frankfurt/Main: Lang. 1997, s. 444.

#### Internet sahifalar:

1. <https://www.duden.de/rechtschreibung/Euphemismus>
2. <https://neuroflash.com/de/blog/slogans-claims>:

**Matqurbonova Muhabbat Shokirovna (Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti erkin tadqiqotchisi; e-mail: [muxabbatmatqurbonova1968@gmail.com](mailto:muxabbatmatqurbonova1968@gmail.com))**  
**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA JADIDCHILIK DAVRI BADIY ASARLARINING LINGVISTIK O‘RGANILISHI HAQIDA**

*Annotatsiya. Maqolada mustaqillikdan keyingi davrda jadid ma’rifatparvari tomonidan yaratilgan nazmiy, nasriy, publitsistik asarlarning lingvistik o‘rganilishi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga tavsif berilgan. Shuningdek, bu yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarning tadqiq usuli, nazariy asoslari ilmiy tahlilga tortilgan.*

**Kalit soʻzlar:** leksika, lisoniy birlik, lingvopoetika, leksik-semantik munosabat, semantik paralellar, lugʻaviy variantlar, lingvopragmatika, statistik tahlil, lingvistik aspekt, stilistik aspekt.

## К ЛИНГВИСТИЧЕСКОМУ ИЗУЧЕНИЮ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЭПОХИ РЕВОЛЮЦИИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

**Аннотация.** В статье для научного анализа выбраны проблемы языка художественных произведений в узбекском языкознании, метод исследования и теоретические основы исследований, проводимых в этом направлении. Проведено сравнение произведений искусства, созданных в период до и после обретения независимости Узбекистана.

**Ключевые слова:** лексика, языковая единица, лингвопоэтика, лексико-семантические отношения, семантические параллели, лексические варианты, лингвопрагматика, статистический анализ, лингвистический аспект, стилистический аспект.

## ON THE LINGUISTIC STUDY OF ARTISTIC WORKS OF THE AGE OF REVOLUTION IN UZBEK LINGUISTICS

**Annotation.** The study of the problems of the language of artistic works in Uzbek linguistics, the research method and theoretical foundations of the researches carried out in this direction have been chosen for a scientific analysis in the article. The works dedicated to the study of the language of the work of art created in the period before and after the independence of Uzbekistan have been compared.

**Key words:** lexicon, linguistic unit, linguopoetics, lexical-semantic relationship, semantic parallels, lexical variants, linguo-pragmatics, statistical analysis, linguistic aspect, stylistic aspect.

### **Tarix fanlari nomzodi, dotsent R.Abdirimov taqrizi asosida**

**Kirish.** Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, barcha fanlarda boʻlgani singari, tilshunoslik fani sohasida ham yangicha fikrlash, nazariy va amaliy fan yutuqlariga yangicha tafakkur, yangicha yondashuvlar bilan qarash, ilmiy tadqiqot natijalarini tanqidiy-tahliliy baholash borasida ilgʻor qadamlar tashlandi. Mana shunday yangilanishlar sirasida mustaqillik yillarida shoʻrolar mafkurasi taʼsirida oʻrganish taqiqlangan, asosan, oʻtgan asrning 20–30-yillarda ijod qilgan jadid adiblarining badiiy, ilmiy merosini oʻrganishning jadallashganini, oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tilini lisoniy oʻrganishda tadqiq obyekti nuqtayi nazardan ham, zamonaviy tadqiq usullarining qoʻllanishi jihatidan ham yangicha yondashuvlar yuzaga kelganligini alohida taʼkidlash lozim.

**Mavzuga doir adabiyotlarning tahlili.** Mustaqillikdan keyin mazkur davr adabiy tili, tilshunosligi boʻyicha yaratilgan tadqiqotlarni mavzui, maqsadi, tadqiq usuli va obyekti nuqtani nazardan shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. XIX asrning oxiri–XX asr boshlaridagi umumiy lingvistik jarayon, oʻzbek milliy tili, uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tili hamda zamonaviy leksikografiyaning shakllanish va rivojlanish bosqichlari tadqiq etilgan ishlar. Bunday ishlar sirasiga Q.Qodirov, G.Nishonova, N.Yangiboyeva, S.Normamatovlar tomonidan yaratilgan monografik tadqiqotlarni kiritish mumkin [1;18-b.].

2. Davr adabiy tili va tilshunosligining rivojlanish tendensiyalariga maʼrifatparvar jadidlarning lingvistik qarashlari, tilshunoslik merosi, lugʻatchilik faoliyati tahlili misolida baho berilgan ishlar. Bu masalalar M.Qurbonova, B.Toʻychiboyev, T.Togʻayev, Sh.Bobomurodovlar tadqiqotlarida oʻz aksini topgan [2;11-b.].

3. Jadid maʼrifatparvari tomonidan yaratilgan nazmiy, nasriy, publitsistik asarlarning lingvistik tadqiqi asosida mazkur davr adabiy tilining leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini oʻrganishga, asarlar matniga qoʻllangan lisoniy birliklarning hozirgi adabiy tili meʼyorlariga munosabati masalalariga bagʻishlangan tadqiqotlar. M.Yoʻldoshev, Y.Sayidov, F.Bobojonov, D.Neʼmatova, S.Normamatov, D.Rahmatova, M.Masharipovlarning ilmiy izlanishlari aynan shu maʼmolar tadqiqiga bagʻishlangan [3;85-b.].

Biz bu oʻrinda uchinchi yoʻnalishdagi, yaʼni, XX asrning 20–30-yillarida yaratilgan nasriy, nazmiy, publitsistik asarlarning lisoniy xususiyatlarini oʻrganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga kengroq izoh bermoqchimiz.

Tilshunos M.Yoʻldoshevning maʼrifatparvar jadid adibi Abdulhamid Choʻlponning “Kecha va kunduz” romani tili misolida olib borgan ilmiy kuzatishlarida XX asrning 20–30-yillarida yaratilgan oʻzbek badiiy adabiyoti tili ilk bor monografik yoʻsinda tadqiqqa tortilgan [4;78-b.]. Muallif “Kecha va kunduz” romani tili misolida adibning badiiy til mahoratini oʻrganishdan bosh maqsad Choʻlpon asarlari tilining XX asr boshlari davr adabiy tilining shakllanishiga munosabatini belgilashdan iborat ekanligini alohida taʼkidlaydi [3;4-b.]. Muallif Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanida qoʻllangan lisoniy birliklarni leksik-semantik, stilistik jihatdan tahlil qiladi va oʻzbek tili oʻzining estetik vazifasini nechogʻli mukammal bajara olishi katta sanʼatkorlik bilan mazkur asarda koʻrsatib berilganligini alohida taʼkidlaydi. Roman tili

yuzasidan olib borgan tahlillari asarning estetik jihatlari, badiiyati – leksemalarning konnotativ ma'nolarida, sinonimlarning uslubiy qo'llanishida, asosiy va o'zgartirilgan shaklda qo'llangan frazeologik birliklar, maqol va matallarda, leksema va iboralarning kontekstual ma'nodoshligida, antonim va frazemalarning matniy zidlanishida, bunday ma'nolarning bir turkumga oid birliklar orasida, ba'zi hollarda esa turli turkumga oid leksemalar zidlanishida ham namoyon bo'lishida, eskirgan lug'aviy qatlam birliklari hamda neologizmlarning davr koloritini berishdagi uslubiy vazifalarida, dialektizm, vulgarizm, varvarizmlar, xalq jonli tili elementlarining obrazlar tilini individuallashtirishga xizmat qilishida, roman tilida qo'llangan an'anaviy va original o'xshatishlar, metaforaning jonlantirish, senesteziya kabi tiplarining badiiy tildagi o'ziga xos uslubiy vosita sifatida qo'llanganligida ekanligini misollar asosida dalillaydi. Kuzatishlari asosida Cho'lpon keng ommaga tushunarli bo'lgan o'zbek adabiy tilini shakllantirish, uni xalq jonli tiliga yaqinlashtirishga jiddiy harakat qilganligini, shuning uchun ham romanda qadimiy va boy o'zbek tilining betakror salohiyati, go'zal ifoda imkoniyatlari aks etganligini ilmiy xulosalaydi.

Jadid davri badiiy asarlari matni yuzasidan olib borilgan keyingi izlanishlar, tilshunos Y.Sayidovga tegishlidir. Muallifning nomzodlik dissertatsiyasida, dastlab, Abdurauf Fitratning o'zbek adabiy tili, uning leksikasi va me'yorlariga, o'zbek imlosiga, o'zbek shevalariga munosabati kabi masalalar keng tahlil qilingan [4;25-b.].

Ishda Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon", "Chin sevish", "Hind ixtilochilari", "Arslon" dramalari asosiy obyekt sifatida belgilanib, unda qo'llangan leksemalar o'z va o'zlashma qatlam nomi ostida: umumturkiy so'zlar, qadimgi turkiy so'zlar; forsha-tojikcha o'zlashmalar, arabcha o'zlashmalar, ruscha va yevropacha so'zlar nomi ostida mavzuiy guruhlariga ajratiladi. Tadqiqotchi Fitrat dramalari leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari, mavzu guruhlarini tasnif qilar ekan, bundan ko'zlangan bosh maqsad Fitratning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatish ekanligini qayd etadi. Muallif mazkur maqsad yo'lida badiiy asar leksikasini qiyoslash, statistik tavsiflash metodidan ham foydalanadi. Abdurauf Fitratning milliy til, adabiy til, adabiy me'yor, xalq jonli tili va shevalarga oid nazariy qarashlarining o'z badiiy asarlarida amaliy jihatdan qay darajada namoyon bo'lganligini aniqlash maqsadida Fitrat asarlari leksikasini zamon-dosh adibi Hamza asarlari tili bilan qiyosan tadqiqqa tortadi. Tadqiqotchi "Abulfayzxon" va "Chin sevish" dramalari tilidagi lug'aviy qatlamlarning miqdoriy nisbati yuzasidan olib borgan tahlillari asosida dramalar tilida o'z qatlam so'zlari 66–74 foizni tashkil etishini qayd etadi va bu holatni Fitratning o'zbek tilini softlashtirish, lug'at tarkibini mumkin qadar o'z ichki imkoniyatlari tayangan holda boyitish, chin ma'noda milliy o'zbek adabiy tilini shakllantirish borasidagi faoliyatining natijasi sifatida baholaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jadid adabiyoti namoyandalarining o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o'rnini ular yaratgan badiiy asarlar misolida belgilash masalasi Y.Sayidovning "Jadid badiiy asarlari leksikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida ham asosiy tadqiq obyekt bo'ldi [5;15-b.]. Dissertatsiyada Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Muhammadsharif So'fizoda, Karimbek Kamiy, Siddiqiy Ajziy, Abdulhamid Majidiy, Is'hoqxon Ibrat, Elbek, Botu kabi adiblarning she'riy asarlari leksikasi misolida davr poetik nutqi va uslubidagi o'z va o'zlashgan qatlamning qo'llanish darajasini aniqlashga, leksik-semantik va funksional xususiyatlarini ochib berishga, jadid she'riy asarlari leksikasining turkiy til va xalq shevalari asosida shakllanganligini asoslashga, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi vositalarning poetik-estetik tabiati va lingvopoetik imkoniyatlarini yoritishga harakat qilingan. Muallif olib borgan tahlillari asosida jadidchilik harakati g'oyalari she'riy asarlar matnida ham o'z ifodasini topganligini, bu davrda leksik me'yorlar izchil takomillashib borganligini, statistik tahlilda o'z qatlam 59%ni, o'zlashma qatlam esa 41%ni tashkil qilganligini, "Chig'atoy gurungi" a'zosi bo'lgan adiblar poetik nutqida umumturkiy lug'aviy birliklar tashkilot a'zosi bo'lmagan shoirlar asarlariga nisbatan ko'p miqdorda ekanligini, bu holat "Chig'atoy gurungi" a'zolarining tilning softligini saqlashga doir harakatlarining natijasi ekanligini ilmiy xulosalaydi. Y.Sayidov fikricha, jadid ijodkorlari metaforalar vositasida o'zlarining eng buyuk maqsad va g'oyalari, ozodlik yo'lidagi intilishlarini zo'r mahorat bilan ifoda etdilar. Natijada *erk* va *vatan* tushunchalarini ifodalovchi metaforik so'zlar tizimi shakllandi [5;32-b.].

Tilshunos F.Bobojonov davr adabiy tiliga xos bo'lgan umumiy lisoniy xususiyatlarni aniqlashda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan dramatik asarlar matni yuzasidan kuzatishlar olib boradi. Tadqiqotchi jadidchilik vakillari yozgan dramalarning o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishidagi rolini Behbudiy va Avloniy asarlari leksikasi misolida baholashga harakat qilar ekan, dissertatsiyada tadqiqot manbasi sifatida tanlangan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi", "Pinak", "Biz va Siz" dramalarining lug'aviy tarkibini hozirgi adabiy til me'yorlariga qiyosan tasnif qilishni bosh maqsad qilib belgilaydi.

**Tahlil va natijalar.** Dramalar matnida qo‘llangan leksik birliklarni tasniflash va tavsiflashda muallif ba’zi chalkashliklarga ham yo‘l qo‘yadi. Jumladan, usmonli turk, tatar va qardosh tillardan kirgan lisoniy unsurlarni okkazonalizmlar deb baholaydi: “Jadid dramalari tilida uchraydigan usmonli turk tiliga oid lug‘aviy birliklar va grammatik shakllar davr talabi bo‘yicha ishlatilgan okkazonal birliklardir” [6;43-b.]. Muallifning bu fikri asossiz. Sababi, birinchidan, okkazonalizmlar so‘zlovchi tomonidan favqulodda yaratiladigan yangi lisoniy hodisa hisoblanadi. Ikkinchidan, muallif keltirgan dalillar usmonli turk tilida avvaldan mavjud elementlardir. Shu uchun bu birliklarni ko‘proq ekzotik leksika deb bilish, ba’zilarini esa varvarizmlar deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

Aytish mumkinki, o‘zbek milliy tili, uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilining XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi holatini o‘rganish, shu asosda muhim nazariy xulosalarni chiqarishda jadid ma’rifatparvarlari tomonidan yaratilgan barcha asarlar tilini lingvistik jihatdan o‘rganish lozim bo‘ladi. Bu holat Abdulla Qodiriyning kichik janrdagi asarlari, xususan, she’riyati, hikoya va hajviy asarlari tilining lingvistik yo‘sinda o‘rganilmaganligiga ham tegishlidir. Mana shu nuqtayi nazardan, adibning kichik janrdagi asarlari tilini tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri ekani, shubhasiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Qodirov Q. O‘zbek tili morfologik tizimining o‘rganilish tarixidan (20-yillar o‘zbek tilshunosligi materiallari asosida). Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref., Toshkent, 2007.
- (2). Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik merosi. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref., Toshkent, 1993.
- (3). Yo‘ldoshev M. Cho‘lponning badiiy til mahorati (“Kecha va kunduz” romani misolida). Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref., Toshkent, 2000, 23-bet.
- (4). Sayidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi. Filol. fanlari nomzodi... diss., Toshkent, 2001, 198-bet.
- (5). Sayidov Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi. Filol. fan. d-ri (DSc). ... diss. avtoref., Toshkent, 2018, 68-bet.
- (6). Bobojonov F. O‘zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari asosida). Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref., Samarqand, 2002, 23-bet.

**Marqayev Komil (Osiyo Texnologiyalar universiteti dotsenti; marqayev\_komil@gmail.uz;  
ORCID 0009-0008-1471-959X)**

#### **ETNONIMLARNING ONOMASTIK TIZIMDAGI O‘RNI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi tilshunoslikda eng keng tarqalgan hamda barcha tillar leksikasi uchun xarakterlisi so‘zlarni, aniqrog‘i, tilning lug‘aviy jamg‘armasini turdosh va atoqli otlarga ajratish, ya’ni, tasniflash usuli, turkiy, xususan, o‘zbek tili etnonimlarining onomastik tizimdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Shundan kelib chiqib, so‘zlarning «turdosh ot» va «atoqli ot» deb yuritiluvchi guruhlar orasidagi vazifaviy, ma’noviy o‘ziga xosliklar ushbu guruh so‘zlarini aniq chegaralash va tasniflashda muammolar mavjudligi, so‘zlarni turdosh va atoqligiga ajratish eng ishonchli tasnif, ammo bu ikki guruh nomlar orasidagi farqlarni hisobga olish va o‘shandan kelib chiqish maqsadga muvofiqligini ta’kidlar ekan, A.V. Superanskaya leksikani boshqacharoq tasniflash kerakligi haqida fikr yuritadi. «Bu murakkab masala tahliliga o‘ta turib, til lug‘aviy tarkibining o‘ziga xos guruhlar-umumiy va maxsus so‘zlarga bo‘linishini ta’kidlashni lozim topamiz». Etnik nomlar haqidagi fikrlar xulosalansa, etnonimlar o‘z vazifaviy xususiyatiga ko‘ra, hayvonlar, o‘simliklar, minerallar, kimyoviy elementlar nomiga yaqin turadi va apellativ leksikaga yaqinlashadi.

**Kalit so‘zlar:** onomastika, onomastik tizim, etnonim, atoqli ot, turdosh ot, lug‘at, urug‘, qabila, mil-lat, xalq, etnos, laqab, antroponim.

#### **РОЛЬ ЭТНОНИМОВ В ОНОМАСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается наиболее распространенное в современном языкознании и характерное для лексики всех языков явление, а именно, разделение лексического фонда языка на нарицательные слова и имена собственные, то есть метод их классификации, а также место этнонимов тюркского, особенно узбекского языка в ономастической системе. Исходя из этого, возникают проблемы в определении и классификации слов этой группы из-за функциональных и семантических особенностей между группами слов, называемых «нарицательное существительное» и «именное имя существительное». Суперанская А.В. считает, что лексику следует классифицировать по-другому. «Переходя к анализу этого сложного вопроса, мы считаем необходимым подчеркнуть, что лексический состав языка делится на определенные группы – общие и специальные слова». Если обобщить мнения об этнических названиях, то этнонимы близки к



названиям животных, растений, минералов, химических элементов и приближаются к апеллятивной лексике.

**Ключевые слова:** ономастика, ономастическая система, этноним, имя собственное, нарицательное существительное, лексика, род, племя, нация, народ, этнос, прозвище, антропоним.

### ROLE OF ETHNONYMS IN ONOMASTIC SYSTEM

**Annotation.** This article discusses the most common phenomenon in modern linguistics and characteristic of the vocabulary of all languages, namely, the division of the lexical fund of a language into related words and proper names, that is, the method of their classification, as well as the place of ethnonyms of the Turkic, especially Uzbek language in the onomastic system. Based on this, problems arise in defining and classifying words in this group due to functional and semantic features between groups of words called "cognate noun" and "nominal noun". Superanskaya believes that vocabulary should be classified differently. "Moving on to the analysis of this complex issue, we consider it necessary to emphasize that the lexical composition of the language is divided into certain groups – general and special words." If we generalize opinions about ethnic names, then ethnonyms are close to the names of animals, plants, minerals, chemical elements and are close to appellative vocabulary.

**Key words:** onomastics, onomastic system, ethnonym, proper noun, cognate noun, vocabulary, clan, tribe, nation, people, ethnos, nickname, anthroponym.

#### **Qarshi davlat universiteti professori X.Jabborov taqrizi asosida**

**Kirish.** Mustaqilligimiz sharofati bilan milliy urf-odatlarimiz, muqaddas qadriyatlarimiz va dinimiz qaytadan tiklandi, tilimizga davlat maqomi berildi. Haqiqiy tariximizni o'rganishga, uni asrab-avaylashga e'tibor kuchaydi [1]. Ma'lumki, har qanday tilning lug'aviy tizimi nihoyatda murakkab hodisa bo'lib, ushbu holatni, avvalo, ushbu tizimga kiruvchi so'zlarning miqdoran ko'pligi, ikkinchidan, bu so'zlarning ma'no va vazifasiga ko'ra, ko'p qirrali hamda turli-tumanligi yuzaga keltiradi.

Til lug'at tizimi va unga kiruvchi lisoniy vositalarning miqdor va sifat jihatdan qo'llanishi va vazifasiga ko'ra xususiyatlarini bilish uchun ushbu lug'aviy bo'lyik tilshunoslikda turli usul va yo'llar bilan ma'lum guruhlariga, lug'aviy va uslubiy qatlamlarga, sathlarga, mavzu hamda janrlarga ko'ra tarmoqlarga ajratiladi. Mana shu usullar orasida hozirgi tilshunoslikda eng keng tarqalgani hamda barcha tillar leksikasi uchun xarakterlisi so'zlarni, aniqrog'i, tilning lug'aviy jamg'armasini turdosh va atoqli otlarga ajratish, ya'ni tasniflash usulidir. Ushbu tasnifning mohiyati aslida til leksikasining o'z tabiatidan kelib chiqadi: «O'zining qator xususiyatlari bilan turdosh otlar sinfiga qarshi turuvchi atoqli otlar maxsus turkumning har bir tipda mavjudligi umume'tirof etilgan». Ushbu fikr, muallifining yozishicha, leksikani yuqoridagi kabi guruhlash eng asosiy va bosh usuldir [2].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Taniqli tilshunos Y.Kurilovich turdosh otlarni,<sup>1</sup> ya'ni, tildegi asosiy lug'aviy fondni «marginal leksika» deb atagan va unga atoqli otlarni ham kiritgani ma'lum [3]. A.A.Reformatskiy fikricha, til lug'at tarkibining «asosiy fondi» turdosh otlardan iboratdir. Bu fondga atoqli otlarning kiritilishi esa isbot talab qiladi [4].

So'zlarning «turdosh ot» va «atoqli ot» deb yuritiluvchi guruhlar orasidagi vazifaviy, ma'noviy o'ziga xosliklar ushbu guruh so'zlarini aniq chegaralash va tasniflashni yanada chigallashtiradi. So'zlarni turdosh va atoqligiga ajratish eng ishonchli tasnif, ammo bu ikki guruh nomlar orasidagi farqlarni hisobga olish va o'shandan kelib chiqish maqsadga muvofiqligini ta'kidlar ekan, A.V.Superanskaya leksikani boshqacharoq tasniflashni taklif qiladi. «Bu murakkab masala tahliliga o'ta turib, til lug'aviy tarkibining o'ziga xos guruhlar – umumiy va maxsus so'zlarga bo'linishini ta'kidlashni lozim topamiz» [2].

Fikr muallifi «общие» termini ostida tilshunoslikda keng qo'llanuvchi «общеупотребительные», ya'ni umumqo'llanuvchan (keng iste'mol) so'zlarni ko'zda tutadi. Leksikani turdosh va atoqli otlarga, shuningdek, umumqo'llanuvchan va maxsus so'zlarga bo'lish ilmiy tamoyiliga ko'ra farqlanadi. Birinchi tasnifda so'zning nominativ-ma'noviy tomoni hisobga olinayotgan bo'lsa, ikkinchisida so'zning vazifasi va vazifaviy doirasidan kelib chiqilmoqda. A.V.Superanskayaning fikricha, so'zlarni keltirilgan tarzda ikki guruhlash bir-birini inkor qilmaydi [2].

Atoqli otlarning umumiste'mol so'zlar, maxsus leksika, boshqacha aytganda, turdosh so'zlar, turmush leksikasi va boshqalardan farqini belgilash tildagi atoqli otlar kategoriyasi, ularning chegarasi, atoqli otlarga kiruvchi lug'aviy tiplar, umuman olganda, til onomastikasi doirasini, uning hajmi va chegarasini

<sup>1</sup> Bu o'rinda «ot» tshunchasi keng ma'noda, ya'ni rus tilidagi «именные части речи» iborasidagi ma'noda olinmoqda. Shunga ko'ra, turdosh «нарицательные» termini ot kategoriyasidan tashqari sifat, son, olmosh turkumlarini ham qamraydi.

aniqlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Holbuki, atoqli otlarni umumiste'mol leksikadan, maxsus leksika-terminlardan, nomenklaturadan farqlashda ko'pgina chalkashliklar mavjud. Ushbu chalkashlik, avvalo, ba'zi so'z guruhlari atoqli ot deb hisoblash mumkinmi yoki yo'qmi, deyilgan masalaga yondashishda ko'rinadi. A.V.Superanskaya atoqli otlar tizimiga kiruvchi nomlarni ilmiy jihatdan tahlil qilar ekan, bu sathning birliklari deb antroponimlar, zoonimlar, mifonimlar, spelonimlar, dremonimlar, fitonimlar, pelagonimlar, limnonimlar, gelonimlar, potamonimlar, gidronimlar, oykonimlar, astionimlar, komonim (xoronim)lar, dromonimlar, kosmonimlar, astrotoponimlar, xrematonimlar, xrononimlar, dokumentonimlarni, shuningdek, hali tilshunoslikda umumiy nomga ega bo'lmagan harakat vositalari atoqli oti, o'simlik navlari, firma nomlari, muassasa va tashkilotlar atoqli oti, ommaviy nashrlar mahsuloti atoqli oti, bayram, yubiley, tantana va boshqa marosimlar nomi, ba'zi muhim tadbirlar, kompaniyalar, urushlar nomi, adabiyot va san'at asarlari nomini, tabiat stixiyalariga berilgan atoqli otlarni tilga olgani ma'lum. Ushbu muallif fikricha, etnonimlar, kishilar turarjoyiga ko'ra nomlash (andijonlik, toshkentlik kabi), o'simlik navlari, tovarlarning belgilari va nomlari atoqli ot turkumiga kirmaydi [6]. Buning sababini muallif o'zining keyingi ishlarida asoslashga intilgan.

A.V.Superanskayaning yozishicha, keltirilgan so'z (nom) tiplari narsa, obyektini yakka deb emas, guruhlab, to'p (yig'iq) holda ataydi (nomlaydi).

**Tahlil va natija.** Qayd qilingan fikr muallifi denotatni guruhiy usulda nomlovchi so'zlar guruhiga quyidagilarni kiritadi:

1. Kishilarni yashash joyiga, kasb-koriga, mashg'ulotiga, jamiyatdagi o'rniga, siyosiy va diniy qarashlari, idealiga ko'ra nomlovchi so'zlar: moskvichlar, sibirliklar, baliqlar, aristokratlar, konservatorlar, monarxistlar va boshqalar [5]. Kishilarni milliy, etnik mansubligiga ko'ra atash etnonimlarda ifodalanadi. A.V.Superanskaya V.A.Nikonovning yuqoridagi tip so'zlarni etnonimga kiritish va ularni atoqli ot deb hisoblashga qo'shilmaydi [2].

2. Sibirliklar tipli qo'llanishda bu so'z «Oilaga mansublikka ko'ra nomlash antroponimlarning alohida kategoriyasidir» [2].

3. Guruhiy antroponimlarga sulola (dinastiya) nomlari ham kiradi: Romanovlar, Burboni, Ptolemey, Ivanovlar, Zaytsevlar. Bu o'rinda A.V.Superanskaya nomni bosh harf bilan yozayotgani shubha tug'diradi. Bunda nom asosida shaxs atoqli oti yotganini hisobga olinmoqdami yoki bosh harf bilan yozish lozim deb hisoblanmoqdami? Xuddi shuningdek, dinastiyalar nomi ham bosh harf bilan berilgan: Taungu, Min, Sin, Yuan (dinastiyalar nomi).

4. Oilaviy yacheyka - eng kichik ijtimoiy birliklarni anglatuvchi so'zlar. Bu guruhga urug' nomlari, totemik nom - etnonimlar kiritilgan: Volk, Medved, Kulik, Yastreb kabi. Bu o'rinda ham nomlarning bosh harf bilan yozilayotgani tushunarsiz.

5. Bir qabila ichidagi yaqin qarindosh bo'lgan urug'larning nomlari (fratriya).

6. Genetik qarindoshlikni saqlagan urug'lardan iborat bo'lgan qabilalar nomi

A.V.Superanskaya etnik nomlari tahlil qilar ekan, etnonim termini mohiyatan qabila nomiga mos kelishini, bu termin avvalgi klassik termin «etnikon»ni siqib chiqargani haqida yozadi. Ushbu muallif etnonimlarning turli belgilarini tahlil qilar ekan, shunday xulosa chiqaradi: «Etnonimlar kishilarni nomlashning shunday guruhi, u ma'lum etnik xususiyatga ega shaxslarni ushbu xususiyatga ega bo'lmagan boshqa shaxslar uyushmasidan farqlashga imkon beradi» [6]. Shunga ko'ra, etnonimlar atoqli ot hisoblanmaydi.

Mana shu guruhga urug' va qabila nomlari, laqab-etnonimlar ham kiritiladi. Etnonim qatoriga ikki guruh nom: millat va xalqlar nomi, qabila va urug' nomlari kiritiladi. Etnosga qo'shni xalq yoki o'zga etnoslar tomonidan berilgan laqab-nom to'liq ma'noda etnonim emas, chunki etnonimdan farqli ravishda, bu laqablar jamoani etnografik jihatdan farqlashga xizmat qiluvchi xususiyatlarga ega emas.

A.V.Superanskaya etnonimlarning atoqli ot tizimiga mansub emasligining asosiy sababi deb ularning aniq ifoda qilingan konnotatsiyaga egaligidir, deb biladi [6]. Umuman, onomastikaning nazariy muammolariga bag'ishlangan bir qator ishlarda urug', qabila, elat, xalq va millat nomlari atoqli ot sifatida tan olinmaydi. Ba'zi dalillarni keltiramiz.

A.A.Reformatskiy fikricha, etnonimlarning atoqli ot kategoriyasiga munosabati munozaralidir. Uning atoqli ot tiplarini sanaganida etnonimlarni tilga olmaganidan bu olim etnonimlarni atoqli deb hisoblamagani anglashiladi [4].

V.D.Bondaletov onomastika sohasining dolzarb muammolarini sanab ko'rsatar ekan, onomastik ko'lamga kiruvchi yoki kirmovchi hodisalarni belgilash muhim deb hisoblaydi. Bunga, birinchi navbatda, etnonimlar kiradi [7]. Ammo ushbu masalada muallifning o'z fikri aniq emas. U turdosh so'zlar bilan onomastik leksikaning chegarasi haqida fikr yuritir ekan, A.A.Beletskiyning bu ikki kategoriya so'zlar orasida

turuvchi leksemalarga kataykonimlar, etnonimlar (umumiy termin: koykonimlar) va b. kirishi haqidagi mu-loha-zasini keltirgan. Ushbu muallif fikricha, etnonimlar o‘z vazifaviy xususiyatiga ko‘ra hayvonlar, o‘simliklar, minerallar, kimyoviy elementlar nomiga yaqin turadi va apellyativ leksikaga yaqinlashadi.

**Xulosa.** Etnonimlarning onomastik tizimga munosabatini o‘rganish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi.

1. Mavjud onomastik tadqiqotlarda etnonimlar atoqli otlarning boshqa tiplari kabi onomastik birlik deb baholab kelingan va mana shu ma’nodan tadqiq qilingan.

2. Etnonimlarning funksional va semantik xususiyatlarini o‘rganish urug‘, qabila va millat nomlari tom ma’nodan atoqli otlardan farqlanishini ko‘rsatadi. Atoqli ot yakka, alohida olingan narsa va obyektlarining maxsus nomi bo‘lsa, etnonimlar muayyan kishilar jamoasining nomidir. Bu jihatdan etnonimlar shaxslarni guruhlab ataydi va bu jihatdan ular atoqli otlardan farqlanadi. Shunga ko‘ra, etnonimlarni atoqli ot emas, balki turdosh ot kategoriyasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Jumayev E. “Ommaviy madaniyat”ning zararli oqibatlarini. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali, 2008, 4-son, 30-bet.

(2). Суперанская А.В. Апеллятив -онома. Имя нарицательное и собственное. М., “Наука”, 1978.

(3). Куролинич Е. Положение имени собственного в языке. Очерки по лингвистике. М., “Наука”, 1962.

(4). Реформатский А.А. Топономастика как лингвистический факт. Топонимика и транскрипция. М., “Наука”, 1964, с. 21.

(5). Никонов В.А. Этнонимия. Этнонимы. М., “Наука”, 1970, с. 12.

(6). Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М., “Наука”, 1970., с. 366.

(7). Бондалетов В.Д. Русская ономастика. М., “Просвещение”, 1983, 9 с.

#### Samatov Farxod Muminovich (Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi; e-mail: [farxod.samatov@bk.ru](mailto:farxod.samatov@bk.ru)) INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “TELEVIDENIYA”GA OID LEKSIK BIRLIKLARNING YASALISH XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “Televideniya”ga oid leksik birliklarning kompozitsion usulda yasalishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, video so‘zi yordamida qo‘shma so‘zlarni yasash mezonlari va ularning komponent tahlili berilgan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** affiksatsiya, kompozitsiya, konvertatsiya, leksikologiya, videoadapter, videobar, videokadr, o‘zak, model.

#### ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ПО ТЕМЕ “ТЕЛЕВИДЕНИЕ” В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** В данной статье анализируется формирование лексических единиц, связанных со словом «Телевидение» в английском и узбекском языках композиционным способом. Кроме того, приводятся критерии образования сложных слов с использованием видеослова и их компонентный анализ, обсуждаются их особенности.

**Ключевые слова:** аффиксация, композиция, конверсия, лексикология, видеоадаптер, видеobar, видеокادر, основа, модель.

#### FEATURES OF FORMATION OF LEXICAL UNITS ON THE TOPIC “TELEVISION” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Annotation.** This article analyzes the formation of lexical units related to “Television” in the English and Uzbek languages in a compositional way. In addition, the criteria for making compound words using the video word and their component analysis are given, their specific features are discussed.

**Key words:** affixation, composition, conversion, lexicology, video adapter, video bar, video frame, core, model.

**Kirish (Introduction).** Har qanday tilning lug‘at boyligi yangi so‘zlarning shakllanishi orqali to‘ldiriladi. XX asrning ikkinchi yarmida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Yevropa tillari oilasining so‘z boyligi keyingi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Sabab esa zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, texnologik “inqilob”, globallashuv va shu kabi jarayonlardir. Ma’lum

ki, ingliz tilida yangi soʻzlar, asosan, uchta usulda yasaladi: a) affiksatsiya – prefiks va qoʻshichalar yordamida soʻz yasash; b) kompozitsiya–ikki yoki undan ortiq ildiz qoʻshish; d) konvertatsiya –soʻzning shaklini oʻzgartirmasdan nutqning bir qismidan ikkinchisiga oʻtish. Leksik imkoniyatlari yanada kengayib borayotgan ingliz tilidagi barcha neoplazmalarning uchdan birini koʻproq qoʻshma soʻzlar tashkil etishi kompozitsion usul leksikologiyada ancha mahsuldor usul ekanini isbotlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Viktoriya universiteti professori, tilshunos Lauri Bauyerning yozishicha [1], “Soʻz yasalishi tilshunoslikning eng sirli hodisasidir”, Ostrava universiteti tilshunoslari S.J.Kavka va P.Shtekaur [2] esa soʻz yasalishi xususida quyidagi fikrlarni bildirdi: “Ingliz tilida qoʻshma soʻzlar yasash eng unumdor usul hisoblanib, unga chegara qoʻyib boʻlmaydi, bu murakkab ish hisobalanadi”. Shuningdek, qoʻshma soʻz hodisasi Y.A.Vasilevskaya taʼrifi bilan aytganda [3], “Til lugʻat tarkibini va grammatik tuzilishini shakllantirishning eng oʻtkir vositasidir”.

Shu nuqtayi nazardan aytish mumkin, “Qoʻshma soʻz” taʼrifiga toʻxtaladigan boʻlsak, adabiyotlarda quyidagicha taʼrif beraladi: “Ikki yoki bir necha oʻzakdan yasalgan soʻzlar qoʻshma soʻz deb ataladi”. A.I. Smirniskiy soʻzlarni oddiy, yasama va qoʻshma soʻzlarga ajratib, qoʻshma soʻz tarkibini ikki va undan ortiq morfemalar tashkil qiladi, deb hisoblaydi. I.V.Arnold esa qoʻshma soʻzlarga quyidagicha taʼrif beradi: “Qoʻshma soʻz deb tarkibida ikki yoki ayrim hollarda uch asos birikib, gapda mustaqil leksik birlik sifatida ishtirok eta oladigan soʻzlarga aytiladi”. G.Marchand: “Aniqlovchi/aniqlanmish munosabati asosida yangi soʻzlar hosil qilish sintagma deyiladi. Ikki va undan ortiq soʻzlar yuqorida taʼkidlab oʻtilgan morfologik birlik sifatida birlashganda, biz qoʻshma soʻz deymiz”. Shunday ekan, soʻz yasash usullari ichida qoʻshma soʻz yasash ayrim olingan til uchun xos boʻlgan xususiy jihatlar bilan, oʻzining tarkibiy tuzilishidagi komponentlari bilan va nihoyat, ular ifodalagan semantik maʼnolarning oʻziga xosligi bilan alohida ajralib turadi [2;78-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasi uchun qoʻllaniladigan analiz, sintez, taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ushbu maqolamizda televideniya xos boʻlgan leksik birliklardan biri video termini va ushbu soʻz asosiga ikkinchi bir soʻzni qoʻshish orqali yangi tushuncha paydo boʻlgani xususida soʻz yuritish maqsadida video asosli 30 ga yaqin terminlarni tahlil qildik. Ularning koʻpchiligi N+N (ot+ot) modelida yasalgan qoʻshma soʻzlar ekanini koʻrish mumkin. Aslida, ingliz tilidagi qoʻshma soʻzlar asosini ikki va undan ortiq komponentli qoʻshma soʻzlar tashkil etadi. Shuning uchun ingliz tilidagi soʻz yasalishida ishtirok etuvchi komponentlarni soʻz turkumlariga ajratgan holda oʻrganish maqsadga muvofiq boʻladi hamda keyingi oʻrinda ularning ingliz va oʻzbek tillarida yozilishi xususiyatlarini tadqiq etdik. Maʼlum boʻldiki, video asosli qoʻshma soʻzlarning baʼzilari oʻzbek tilida qoʻshib yozilsa, ingliz tilida esa qoʻshib ham, ajratilib ham yozilar ekan. Misol uchun, videoadapter soʻzi [video+adapter] oʻzbek tilida qoʻshib yozilsa, ingliz tilida display adapter tarzida ajratilib yoziladi.

Ot soʻz turkumi boshqa soʻz turkumlariga qaraganda soʻz yasalishida ishtirok etuvchi eng mahsuldor hisoblanadi. Shuning uchun turli semantik maʼnoli soʻzlar yasalishida asos hisoblanadi. “*A Grammar of Contemporary English*” asari mualliflari N+N modeli asosida hosil boʻlishi mumkin boʻlgan soʻzlarni ajratadi. Video asosli leksik birliklarni biz ham shu model asosida ajratdik:

1) har ikki komponenti ham ot soʻz turkumli soʻzlar: videography –videografiya, videogame – videooʻyin, videoframe –videokadr, video camera –video kamera, video cassette – video kassetta, videoconference –videokonferensiya, videomontage room – videomontaj xonasi, video store –video toʻplagich, video transmission – video uzatish, videosever –videosever, videosignal –videosignal, videoscope –videoskop, viewtex –videotekst, videophone –videotelefon;

2) 2-komponenti feʼl soʻz turkumli soʻzlar: videorecording –videoyozish, video conferencing –video konferens-aloqa, videoretouching – videoretush, videoshooting – videosyomka;

3) ikkinchi komponenti – er, -or suffiksli ish-harakatni bajaruvchisi shaxs boʻlmagan soʻzlar: videotape recorder – videomagnitafon, video mixer –videomiksher, video projector –videoproyektor, video-recorder – videorekorder;

4) X+N+Prep+N izohli soʻzlar: video mail at the request – talabga koʻra videopochta, video on demand – coʻrov boʻyicha video.

Zamonaviy ingliz tilida N+N modeli asosida yasalgan soʻzlarning qoʻshilib yozilishiga ehtiyoj sezilmogʻda. Bunda yasama soʻzning monolitlik (butunlik) xususiyati ortadi va u yangi soʻz yasash zanjirida ishtirok eta oladi [1;59-b.].

Tahlilimiz davomida duch keldikki, qoʻshma soʻzlarning elementlari yo qoʻshimchasiz, yo qoʻshimchali boʻlishi mumkin:

a) har ikki elementi qo‘shimchasiz: video card –video karta, video disc – video disk, video game – video o‘yin, *videotape* – videoyozuv, *videobar* – videobar, *videochannel* – videokanal;

b) birinchi elementi qo‘shimchasiz, ikkinchi elementi qo‘shimchali: video cassette player -video-magnitafon, video recorder – videorekorrder, videoshooting – videosyomka.

Demak, ingliz tilidagi qo‘shma so‘z tarkibidagi elementlar:

a) o‘zak+o‘zak;

b) o‘zak+o‘zak+qo‘shimcha;

d) o‘zak+qo‘shimcha+o‘zak tartibida birikadi. O‘zbek tilidagi qo‘shma so‘z tarkibidagi elementlar o‘zak+o‘zak, o‘zak+o‘zak+qo‘shimcha, o‘zak+qo‘shimcha+o‘zak, o‘zak+qo‘shimcha+o‘zak+qo‘shimcha tarkibida qo‘shiladi [3;198-b.].

Qo‘shma so‘zlarning tabiati va lingvistik maqomini aniqlash, ya’ni, ta’rif berish uchun barcha uch komponent: morfologik tuzilish, ma’no va ularning sintaktik funksiyalari inobatga olingan holda, biz qo‘shma so‘zlarga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin: qo‘shma so‘zlar semantik jihatdan asoslantirilgan birliklar bo‘lib, negizlarining ma’nolari, umuman, boshqa-boshqa bo‘lishi mumkin, lekin o‘zaro qo‘shilganda yangi semantik butunlik hosil qiluvchi so‘zlardir.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Demak, har bir tilning shu tildagi mavjud so‘z yasashi tillarini va qo‘shma so‘z turlarini belgilaydigan ichki qonunlari bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma so‘zlarning ko‘pi aniqlovchi va aniqlanmish tarzida paydo bo‘lgan. Boshqa birikmalardan tuzilgan qo‘shma so‘zlar bunga nisbatan kam, deyish mumkin.

Ingliz tilida ishlatiladigan video asosli qo‘shma so‘zlarning yasashini har tomonlama o‘rganilganda mazkur qo‘shma so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim: qo‘shma so‘zlarning aniq ta’rifiga, qo‘shma so‘zlarning kelib chiqishi, qo‘shma so‘z va so‘z birikmalarning farqi, qo‘shma so‘z komponentlarining o‘zaro aloqadorligi, qo‘shma so‘zlar ifodalaydigan yangi ma’nolar tahlili, qo‘shma so‘zlarning morfologik va sintaktik tuzilishidagi o‘rni kabi jihatlariga.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- (1). Bauer, L. (1983). English Word-formation. Cambridge, UK, Cambridge University Press.
- (2). Kavka, S.J. & Štekauer, P. (2006). Compounds and Compounding: (an Attempt at a Complex View). Ostrava: Ostravská univerzita v Ostravě, Filozofická fakulta.
- (3). Heine, B., & Narrog, H. (2010). The Oxford Handbook of Linguistic Analysis. Oxford: Oxford University Press.

Ruzimurodova Fariza Dustmurod qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti; E-mail: farizaruzimurodova@gmail.com)

**FRANSIYADA O'ZBEK ADABIYOTI O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR**

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining Fransiyada o'rganilish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, o'zbek-fransuz adabiy aloqalari, o'rganilish jarayonlarida yuzaga kelgan tarjima ishlari, jumladan, Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanining fransuz tiliga tarjima qilinishiga oid fikr-mulohazalar, qarashlar qiyosiy aspektida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiy aloqalar, badiiy tarjima, filooorientalizm, milliy kolorit, realiyalar, mentalitet, tarjima adekvatligi, transliteratsiya.

**НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ ПО ИЗУЧЕНИЮ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ФРАНЦИИ**

*Аннотация.* В статье идет речь об истории изучения узбекской литературы в Франции, этапах развития, узбекско-французские литературных связях, произведениях перевода, в том числе некоторых комментариев по переводу романа Чулпана «Ночь и день» на французский язык. В данной статье взгляды изучаются в сравнительном аспекте.

**Ключевые слова:** литературные отношения, художественный перевод, филоориентализм, национальный колорит, реалии, менталитет, адекватность перевода.

**SOME THOUGHTS ON THE STUDY OF UZBEK LITERATURE IN FRANCE**

*Annotation.* The history of the study of Uzbek literature in France, stages of development, Uzbek-French literary relations, translation work that occurred during the study process, including some comments on the translation of Cholpon's novel "Night and Day" into French, views are studied in a comparative aspect In this article.

**Key words:** literary relations, literary translation, philo-orientalism, national color, realities, mentality, translation adequacy.

**Kirish (Introduction).** "O'tmishini unutmagan xalq yo'qlikka mahkumdir" degan hikmatli so'z bor xalqimizda. Har bir inson, har bir xalq o'tmishini unutmagan holda, ajdodlar yutuqlaridan faxr-iftixorga to'lib, tarixiy xatolardan esa tegishli xulosa, o'git olgan holda kelajakka qarab intilmog'i darkor.

O'rta Osiyo hamda o'zbek xalqi tarixi, tili, madaniyati va adabiyoti uzoq o'tmishdan boshlab hozirgi kungacha Yevropa ilm-fan nomoyondalarining e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Shu jumladan, o'zbek xalqi tarixi, madaniyati va adabiyotining fransuz tiliga tarjima qilinishi ham bir necha asrlk tarixga egadir.

Turli tillarda yozilgan kitoblar, bilamizki, tarjima orqali "ayirbosh" qilinadi. Qizig'i shundaki, biron asarni o'z tilimizga o'girar ekanmiz, shu asarni bizga taqdim etgan adabiyotning o'zi undan mahrum bo'lib qolmaydi.

"Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" [1].

"Tarjima shunday hodisaki, bunda standart qolip, yagona va o'zgarmas temir qonun bo'lishi mumkin emas" [2], degan edi atoqli o'zbek tarjimoni G'aybulla Salomov. Darhaqiqat, ushbu fikrlar juda ham o'rinli aytilgan, davr xususiyati, xalqning savodxonlik darajasi, tilning qanday rivojlanish bosqichida turganligi – bularning hammasi tarjima jarayaonlariga bilvosita va bevosita o'z ta'sirini o'tkizadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Maqolani tayyorlashda G'.Salomov [2], I.G'afurov [3], M.Xolbekov [4], Z.Mirzayeva [6], R.Shirinova [8] singari olim va olimalarning bir qator tarjimashunoslik va fransuz-o'zbek tarjimashunosligi sohasiga doir asarlaridan foydalanildi. Milliy adabiyoyimiz namunalari Yevropada o'rganilishi va keng jamoatchlikka yetkazilishida ukrain, fransuz, ingliz, nemis va amerikalik olimlarning hissasi beqiyosdir. Ma'lumki, XIV–XVIII asrlarda G'arbning yirik universitetlari – Sorbonna, Boloniya, Kembrij, Oksford, Leyden kabi xorijiy mamlakatlar oliyogohlarida Sharqning salmoqli hajmdagi qo'lyozmalari fondlari to'plangan edi va bu hodisa g'arb olimlariga sharq qo'lyozmalari asosida tizimli tadqiqotlar yaratish imkoniyatini berdi. Aynan shu davrda Yevropa universitetlarida ilk marotaba sharq tillari kafedralari vujudga keldi. Bunday kafedralar XVI asrda dastlab Sorbonnada, XVII asrda Oksfordda tashkil etildi. "Fransiyada dastavval Qirollik kutubxonasi nomi bilan atalib, keyinchalik, Milliy kutubxona nomini olgan kutubxonada XVII asr o'rtalarida Sharq tillari maktabi paydo bo'ldi" [4;2-b.].

“1697-yilda nashr etilgan Bartolome D'erbeloning “Sharq kutubxonasi” nomli ensiklopedik asarida Samarqand va Buxoro shaharlarining ta'riflanishi, Beruniy, Al-Xorazmiy va Ulug'bek kabi buyuk allomalar faoliyatining yoritilishi, Navoiy va Bobur ijodi haqida ilk ma'lumotlarning berilishi” [4.2] fransuz sharqshunosligining ilk olg'a qadamlaridan biri bo'ldi.

XIX asrga kelib, Fransiya va Parij Yevropa sharqshunosligining markazlaridan biri bo'ldi. Fransuz sharqshunoslari o'zbek adabiyotini chuqur ilmiy asosda o'rganish va o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilishga kirishdilar. Shuningdek, Fransiyada “Sharq jonli tillari maktabi” tashkil etilib, “S.de Sasi, E. Katrmer, F.Belen, P. de Kurteyl” [4. 2 ] kabi sharqshunoslar Milliy kutubxona fondidagi arabcha, forscha, turkiy tillardagi qo'lyozmalarni o'rganishga kirishdilar.

Xususan, 1726-tilda sharqshunos Bentenk Abulg'ozzi Bahodirxonning “Shajarayi turk” solnomasini fransuz tiliga tarjima qildi.

1634-yilda Dyu Reye Sa'diyning “Guliston” asarini, 1708-yilda A.Galan “Ming bir kecha”ni fransuz tiliga o'girdilar.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu mavzuni yoritishda qiyosiy, qiyosiy tarixiy, germevntik kabi metodlardan foydalanildi. “XVIII asrning o'rtalarida G'arbiy Yevropada, jumladan, Fransiyada filoooreantalizm (Sharqni sevish va uni o'rganish) tendensiyasi fan va madaniyatning feodalizm tajovuzi hamda diniy jaholatga qarshi kurashida katta ijobiy rol o'ynadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Adabiy asarlarning fransuz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan fransuz tiliga bevosita tarjimasi keyingi o'n yilliklarda yaxshi rivojlandi. Mazkur tarjimalardagi milliy kolorit, realiyalar bilan bog'liq so'z va iboralarning tarjimalari turli xil qiziqarli xulosalarni keltirib chiqaradi. Badiiy tarjimada milliy koloritning yetarli darajada namoyon bo'lishi o'z vaqtida yuzaga kelgan muammolardan biridir. Milliy koloritni, xos so'zlarni asliyatdagiga muvofiq xorijlik kitobxonga muammosiz yetkazish tarjimaning muhim vazifalaridan biri bo'lganligi sababli, bu masala bugungi kunga qadar ilmiy muammo sifatida dolzarbligicha qolmoqda.

O'zbek adabiyoti namunalarning xorijiy tillarga tarjima qilinishini, dastlab, Alisher Navoiy asarlari misolida ko'rib o'tsak. Xorijda Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan shug'ullangan va shug'ullanayotgan olimlarning salmog'i baland. Ularning Navoiy bo'yicha yaratgan ilmiy ishlari O'zbekistonda ham tadqiq etilmoqda.

Fransiyada, dastavval, Qirollik kutubxonasi nomi bilan atalib, keyinchalik, Milliy kutubxona nomini olgan kutubxonada XVII asr o'rtalarida Sharq tillari maktabi paydo bo'ldi. Bartolomey d'Erbelo de Molinvil, Fransua de Berne, Fransua Alfons-Belen, Lyusen Buva, Edgar Bloshe, V.Bartold, X.Purgshtal singari ko'plab sharqshunos olimlar Navoiy hayoti va ijodini Yevropada tanitishga katta hissa qo'shdilar.

“O'rta avlod navoiyshunoslari K.Adaxl, D.Devis, V.Feldmen, D.Genchturk, A.Radfal, M Sabtelni, G.Tekin, G.Tekin, G.Dik, B.Fragner kabi Amerika, Germaniya, Avstriya, Kanada olimlari [6;167-b.] Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar olib borishdi. Yurtimiz mustaqilligidan keyin jahon navoiyshunosligi yangi avlod mutaxassislarining eski va zamonaviy adabiy tilni puxta o'zlashtirganliklari hamda manbalarning to'g'ridan to'g'ri asl nusxasi bilan ishlaydigan vakillari yetishib chiqqaligini ko'rishimiz mumkin. “Yaponiyalik Kazauki Kubo, fransuz yosh olimlari Mark Toutant, Aleksandr Papas, amerikalik navoiyshunos Nikolas Vomsli kabi sharq va g'arb tillarini yaxshi o'zlashtirgan, qo'lyozma manbalarni o'qiy oladigan, adabiy matn mohiyatini chuqur tushunish qobiliyatiga ega bo'lgan” [6;167-b] navoiyshunoslarning yangi avlodi shakllandi.

Mark Toutant [4] Fransiyada o'zbek mumtoz adabiyoti borasida tadqiqotlar olib borayotgan zamon-dosh olimlardan biri. U olti yil Toshkentda o'qituvchi bo'lib ishlab, o'zbek tili hamda eski o'zbek tilini qo'lyozmada o'qish malakasini egallagan. Yosh fransuz olimi Mark Toutant 2014-yilda “So'nggi Temuriylar davri madaniyati: nazira amaliyotini Alisher Navoiyning “Xamsa” asari misolida o'rganish” (“The culture of the Last Timurids: Study of Imitation Practices through the case of ‘Alī Shīr Nawā’ī (1441–1501)’s Khamsa”) mavzusida salmoqli tadqiqot yaratdi va doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Tadqiqot temuriylar sulolasining so'nggi vakillaridan biri Husayn Boyqaro davridagi adabiy jarayon buyuk mutafakkir shoirning “Xamsa” asari misolida tadqiq etiladi. Navoiyning mazkur asari turkiy tildagi forsiygo'y shoirlar, jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiyning ushbu janrdagi asarlari bilan qiyosiy usulda o'rganilgan va bu masala ilk bora fransuz ilmiy jamoatchiligiga taqdim etilgan. 2016-yili Mark Toutant dissertatsiyadagi qarashlarini to'ldirib, “So'z imperiyasi: so'nggi temuriylar davri qudrati, madaniyati va tasavvuf – Alisher Navoiy “Xamsa”si in'ikosida” nomli 700 sahifali kitobini chop ettirgan. Mazkur kitob hozircha G'arbda yaratilgan va Alisher Navoiy ijodi yaxlit o'rganilgan yagona monografiya.

“Men, – deydi olim, – Alisher Navoiyni G‘arbda yanada chuqurroq tanishlarini istadim va fransuz tilida Navoiyga bag‘ishlangan kitobimni yozdim” [7]. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, o‘zbek-xorij tarjima-chilik aloqalarini Alisher Navoiy siymosisiz tasavvur etish mushkul. Mustaqillik yillaridan boshlab xorij ekspertlari nafaqat Navoiy, balki boshqa o‘zbek adiblari asarlarini ham jadal tarjima qila boshladilar.

2009-yilda Stéphane A. Dudoignon tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani shunday asarlardan biridir. Stefan A. Dyuduanon 1962-yilda tavallud topgan. Amsterdam universiteti dotsenti. U, shuningdek, ijtimoiy fanlar bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar maktabida bir nechta seminarlarni olib boradi [10]. Markaziy Osiyo islom dini bo‘yicha mutaxassis, xususan, Markaziy Osiyoda islom dini bo‘yicha ko‘p sonli ilmiy maqolalar hamda bir qator hujjatli filmlar muallifi, bir vaqtning o‘zida, yozuvchi hamdir. Stefan Dyuduanon, shuningdek, Markaziy Osiyoning bir qancha adabiy asarlarini o‘zbek tilidan fransuz tiliga o‘g‘irgan tarjimon ham bo‘lib, Cahiers d’Asie centrale va Revue des mondes nationaux jurnallari tahririyat qo‘mtalari a‘zolari tarkibida faoliyat olib boradi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qariyb bir asr muqaddam yaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda qadar ham o‘z qimmatini yo‘qotmasdan kelmoqda. Keyingi yillarda Cho‘lpon nasrini ilmiy asosda o‘rganish, uning badiiy qirralarini tadqiq etish ishlarida izchil rivojlanishni ko‘rish mumkin. Atoqli o‘zbek olimasi Shirina Raximova Cho‘lponni “Fransiya osmonidagi o‘zbek yulduzi (Une étoile ouzbèque dans le ciel français)” [9], deya ta‘kidlaganida mubolag‘aga yo‘l qo‘ymagan edi. Bir asr muddat o‘tganiga qaramay bu asar xorijiy tillarga qayta-qayta tarjima qilinib, dunyo hamjamiyati e‘tiboriga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda roman 19-asr oxiri – 20-asr boshlaridagi o‘zbek tarixi va madaniyati bilan xorijliklarni tanishtirish maqsadida fransuz va ingliz tillariga tarjima qilingan.

Yondosh sivilizatsiyalarni bilishda tarjimonlarning roli kata ekanligi shubhasizdir. Mustaqillik yillarida o‘zbek tilidan fransuz tiliga o‘g‘irilgan badiiy asarlar tarjimasida frazeologik birliklar, realiyalar, paremiyalar va milliy koloritni aks ettirgan so‘zlar tarjimasining tushirib qoldirilishi, tarjima qilinmasdan o‘tilib ketishi, yoki noadekvat birliklar bilan ifodalanishi, ruscha transliteratsiyalar orqali tarjima qilinishi holatlariga bot-bot duch kelinmoqda. Shunga qaramasdan, fransuz olimi va tarjimoni Stefan Dyuduanon tarafidan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilinganining o‘zi ham ajoyib hodisa. Asarni tarjimon butunlay milliy o‘zbek metalitetiga, urf-odatlariga katta ishtiyoq va mahorat bilan tarjima qilgani juda hayratranarli.

Asardan olingan Zebi tasviri tarjimasiga e‘tibor qaratamiz: “À cet instant, toutefois, le visage de Zebi se voila de toute lassitude accumulée durant le long hiver. Ses joues et son regard mélancolique resté de longue semaines consentre sur le piquage d’immenses couvertures de coton, évoquaient maintenant la surface d’un miroir embué” [3;11-b.].

Asliyatda: “Zebining yuzini, shu topda, butun qish ichi to‘planib qolgan horg‘inlikning asarlari egalagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko‘rpaning katta-katta qavig‘iga tikilgan andishalik ko‘zlari hovur bosgan oynakning betiga o‘xshardi» [2;336-b.].

Agar asarning fransuz tilidagi tarjimasida so‘zlarning hajmi ozroq ortganini hisobga olmasak, tarjima juda adekvat chiqqanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Tarjimashunoslik bo‘yicha o‘z davrining birinchi nazariyotchisi Sitseron (106-43) tarjimada asl nusxaning shakliga emas, balki uning mazmuniga e‘tibor berish, so‘z sonini sanab o‘tirmaslik kerakligini ta‘kidlab o‘tgan. Aytish joizki, tarjimon asar mazmunini, undagi milliy-madaniy ma‘lumotlarni to‘liq yetkazish, o‘quvchida dissonans shakllanishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi muammolar yechimini topa olgan. Milliy frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolari (idiomatik iboralar, maqollar, turg‘un birikmalar va boshqalar) tarjimashunoslikda hamisha dolzarb va bahs-munozaralarga sabab bo‘luvchi obyektlardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, tarjimon o‘zbek realiyalarini tarjima qilishda asosli transliteratsiya usulidan unumli foydalangan. Kitob so‘ngida faqat o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan 129 ta so‘zni alohida saralab olib, ularni juda to‘g‘ri va tushunarli qilib sharhlagan. Masalan: “mingboshi”, “mirob”, “dasturxon”, “choyxona”, “tog‘a”, “chimildiq”, “xonatlas”, “qatlama” singari ko‘plab milliylikni o‘zida mujassamlashtirgan so‘zlarga izoh berib o‘tilgan.

Tarjimada berilgan bir qancha izohlarni ko‘rib o‘tamiz:

1. *Mingboshi* – “chef de mille hommes, au Turkestan pendant la période coloniale, administrateur indigène d’un canton” [3;444-b.] – ming kishining rahbari, mustamlaka davrida Turkistonda aholining mahalliy boshqaruvchisi.

2. *Mirob* – “officier préposé à la répartition de l’eau dans un système d’irrigation [3;444-b.] – sug‘orish tizimidagi suvni taqsimlash uchun mas‘ul xodim.



3. *Choyxona* – “maison de thé”, établissement où se rassemble la population masculine du quartier pour des palabres plus ou moins informelles [3;448-b.] – choyxona, hududning erkak aholisi ko‘proq no-rasmiy muhokamalar uchun yig‘iladigan muassasa.

4. *Qatlama* – galette de pâte feuilletée cuite à l’huile [3;447-b.] – yog‘da pishirilgan qatlangan xamir bo‘lagi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, o‘zbek-fransuz adabiy aloqalari uzoq tarixga ega bo‘lib, u bir necha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tganligi ma‘lum bo‘ldi. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanining fransuz tiliga tarjimai, xususan, biz maqolada tahlilga tortilgan parchalarga tarjimon ehtiyotkorlik bilan yondashganligi, milliy leksik va frazeologik birliklar (idiomatik iboralar, maqollar, muntazam formulalar va boshqalar), tabiat manzaralari, personajlar psixologiyasi, shuningdek, asardagi deyarli barcha o‘rinlar uchun muqobililar – bu so‘zlarning fransuz tilidagi ekvivalentlari topilganligi ma‘lum bo‘ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (references):

- (1). Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатида нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли фармони. Т., 2019 йил 21-октябрь.
- (2). Саломов Ғ., Аъзамов С. Таржима асослари. Ўқув қўлланма, Тошкент, 1976, 6-бет.
- (3). G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma, T., “Tafakkur bo‘stoni”, 2012, 216-bet; Mark Toytant. Navoiy va Jomiy. Ingliz tilidan Zulxumor Mirzaeva tarjimasini. «Jahon adabiyati», fevral, 2016, 170 – 182-betlar.
- (4). Kecha va Kunduz. Cho‘lpon. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, 336-bet.
- (5). Tchulpân. Nuit. France, Bleu autour, 2009, 449 p.
- (6). Холбеков М. Ўзбек адабиёти Францияда. Тошкент, “Фан”, 1988, 3-бет.
- (7). Холбеков М. Алишер Навои в европейской ориенталистике. «Звезда Востока», № 2, 2016.
- (8). Мирзаева З. Жаҳон навоийшунослиги: кеча ва бугун. «Жаҳон адабиёти» адабий-бадиий, ижтимоий-публицистик журнал, 2016, февраль, 66 – 169-бетлар.
- (9). Aftondil Erkinov. Mumtoz adabiyotimiz g‘arb olimlari nigohida.uzas.uz
- (10). Erkinov A. Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida. Xalqaro konferensiya materiallari. T., 2021, 70-bet.
- (11). Р.Х.Ширинова. Текст: непосредственный. “Молодой ученый”, 2015, № 23 (103), с. 1106 – 1109. URL:<https://moluch.ru/archive/103/24024/>
- (12). [https://www.bleu-autour.com/auteur\\_bleu/stephane-dudoignon/](https://www.bleu-autour.com/auteur_bleu/stephane-dudoignon/)

**Xolbutayev G‘ayratbek Oybek o‘g‘li (Andijon davlat universiteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; e-mail: [gayratbek19912705@mail.ru](mailto:gayratbek19912705@mail.ru))  
KULGIGA ASOSLANGAN FOLKLOR JANRLARI VA ASKIYANING O‘RGANILISHI**

*Annatsiya.* Ushbu maqolada rus va g‘arb olimlari kulgiga asoslangan folklor janrlarini ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatdan o‘rganish ishlari, komik matnning tinglovchi ruhiyatiga ta’siri, askiyaning kulgi nazariyasiga mutanosibli kabi masalalar o‘rganilgan. Kulgining inson ruhiyatiga asab tizimi va ruhiy holatini ko‘tarishdagi ta’siri, tinglovchilarning kayfiyatini ko‘tarish – psixologik va kulgi hajv qilindigan obyektning tasviri va u bilan bog‘liq voqea yoki holatning tasviri orqali yumoristik janrlarning didaktik vazifalari, askiyalarning o‘xshashlik yoki farqli badiiy xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kulgi, folklor, askiya, payrov, kulgi nazariyasi, komik, psixifolkloristika.

#### **ФОЛЬКЛОРНЫЕ ЖАНРЫ, ОСНОВАННЫЕ НА СМЕХЕ, И ИЗУЧЕНИЕ АСКИИ**

*Аннотация.* В данной статье исследуются социальные, психологические и лингвистические жанры фольклора, основанные на смехе, влияние комического текста на психику слушателя, а также значение аскии для теории смеха российских и западных ученых. Влияние смеха на психику человека в поднятии настроения и психического состояния, через изображение объекта смеха и связанного с ним события или ситуации, дидактические задачи юмористических жанров, выявляется сходство и различные художественные особенности аскии.

**Ключевые слова:** смех, фольклор, аския, пайров, теория смеха, комическое, психофольклористика.

#### **FOLK GENRES BASED ON LAUGHTER AND STUDYING ASKIA**

*Annotation.* This article examines research into social, psychological and linguistic genres of folklore based on laughter, the influence of a comic text on the listener’s psyche, as well as the significance of askia for the theory of laughter of Russian and Western scientists. The effect of laughter on the human psy-

*che in raising the nervous system and mental state, raising the mood of the listeners - psychological and through the image of the object of laughter and the event or situation related to it, the didactic tasks of humorous genres, the similarity or different artistic features of askias are revealed.*

**Key words:** *laughter, folklore, askia, payrov, theory of laughter, comic, psychofolkloristics.*

**Kirish.** Jamiyat tarixining turli bosqichlarida odamlarning ruhiy holatini yaxshilash, ularning turmush tarzini ifodalash, hayot mashaqqatlari va ularning yechimlarini topish, xalqning orzu-umidlari, quvonch-u tashvishlari, armonlari ogʻzaki ijod namunalarida oʻz badiiy ifodasini topgan. Xalq oʻz eposida orzusidagi qahramon, jasur oʻgʻil-qizlari obrazini yaratgan boʻlsa, ertaklar va boshqa ogʻzaki nasriy, lirik asarlarida ham oʻz idealidagi qahramonlarni jonlantirdi. Ogʻzaki dramalar, xususan, kulgi va yumorga yoʻgʻrilgan ogʻzaki asarlarda ham xalqning bu anʼanasi davom etib, donishmand, zukko, hozirjavob, mugʻambir kishilar obrazlarini yaratishga intilgan. Xalqning estetik ehtiyojini qondirishga boʻlgan intilishlari hayotimizdagi turli muammo va kamchiliklarni kulgi fonida tanqid qilish, tanqid bilan bir qatorda, odamlarning ruhini tinchlantirish, kayfiyatini koʻtarishni maqsad qilib qoʻygan. Ayni shu ezgu maqsad ogʻzaki adabiyotning gurkirab rivojlanishi, poetik taraqqiyotiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Kulgi muammolari va kulgi madaniyati A.S.Axiyezer, Y.M.Boroday, P.Vayl, A.Genis, A.Y.Gurevich, S.S.Gusev, G.L.Tulchinskiy va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli aspektlarda oʻrganildi.

Xorijlik tadqiqotlar kulgining psixologik mohiyatini ochib berish, kulgining ijtimoiyligi va siyosiy vazifalari kulgi sanʼatning alohida koʻrinishi sifatida, umuman, kulgini alohida estetik hodisa sifatida oʻrganishgan. Jumladan, kulgining ijtimoiyligi (A.V.Dmitriyev), psixologik mohiyati (L.S.Vigotskiy, A.N.Luk, P.V.Simonov, P.M.Yershov), kulgining estetik ahamiyati (Y.B.Borev, A.Z.Vulis, A.F.Losev, M.T.Ryumina, L.N.Stolovich, V.P.Shestakov), falsafiy qimmatini (L.V.Karasev), siyosiy ahamiyati (V.V.Razuvayev), lingvistik xususiyatlari (V.Z.Sannikov, X.X.Doʻsmatov), badiiy adabiyotdagi oʻrni (P.N.Berkov, V.I.Demin, A.Y.Kunilskiy, A.P.Moskovskiy, D.P.Nikolayev, L.A.Spiridonova, Y.V.Stennik, M.N.Chernyavskiy), madaniyat tarixida tutgan oʻrni masalalari (S.S.Averinsev, D.S.Lixachev, A.M.Panchenko, N.V.Ponirko), shuningdek, komediyaning alohida janrlariga bagʻishlagan: komediya (N.M.Fed, V.N.Yarxo), satira (V.I.Adrianova-Perets, L.A.Plotkin), parodiya (V.L.Novikov, Y.M.Tinyanov, O.M.Freydenberg), latifa (Y.Y.Kurganov, V.P.Rudnev, Y.Y.Shmeleva, A.D.Shmelev) va boshqalarning tadqiqotlari yaratildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada kulgining maʼnaviy hayotimiz va xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotida tutgan oʻrni, askiya matnlari badiiyatining oʻziga xosliklari, askiya ijrochilarining ijro uslubi va mahorat qirralari alohida tadqiq etish zarurati ochib berildi.

**Tahlillar va natijalar.** Jamiyat tarixining turli bosqichlarida odamlarning ruhiy holatini yaxshilash, ularning turmush tarzini ifodalash, hayot mashaqqatlari va ularning yechimlarini topish, xalqning orzu-umidlari, quvonch-u tashvishlari, armonlari ogʻzaki ijod namunalarida oʻz badiiy ifodasini topgan. Xalq oʻz eposida orzusidagi qahramon, jasur oʻgʻil-qizlari obrazini yaratgan boʻlsa, ertaklar va boshqa ogʻzaki nasriy, lirik asarlarida ham oʻz idealidagi qahramonlarni jonlantirdi. Ogʻzaki dramalar, xususan, kulgi va yumorga yoʻgʻrilgan ogʻzaki asarlarda ham xalqning bu anʼanasi davom etib, donishmand, zukko, hozirjavob, mugʻambir kishilar obrazlarini yaratishga intilgan. Xalqning estetik ehtiyojini qondirishga boʻlgan intilishlari hayotimizdagi turli muammo va kamchiliklarni kulgi fonida tanqid qilish, tanqid bilan bir qatorda, odamlarning ruhini tinchlantirish, kayfiyatini koʻtarishni maqsad qilib qoʻygan. Ayni shu ezgu maqsad ogʻzaki adabiyotning gurkirab rivojlanishi, poetik taraqqiyotiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Natijada turli zukko kishilar timsolini badiiy ifodalagan latifalar, shingil hazillar va askiya maydonga kelgan. Askiyaning paydo boʻlishi latifaga nisbatan biroz keyinroq yuz bergan. Sababi shuki, qadimgi ajdodlarimiz, dastlab, yakka ijroga asoslangan ogʻzaki asarlar ijrosini amalga oshirganlar. Keyinchalik, ijrochilarning bir necha kishi boʻlishi va musobaqa shaklida amalga oshirilishi bilan bogʻliq ijro uslubi shakllangan.

Maʼlumki, hazil va kulgi har qanday xalqning madaniy-estetik qarashlarini u yoki bu jihatdan oʻzida ifoda etadi. Askiya ham oʻzbek xalqining teran tafakkur sohibi, hazilni sanʼat darajasida madaniyatli ifodalay oladigan donishmand, zukko xalq ekanligini koʻrsatadi. Askiyada hukmronlik qiladigan ikkinchi maʼnoviy qobiq, yaʼni, tag maʼno anglatilishi yashirin holda boʻlishi va hech kimning shaxsiyatiga tegmasdan, hech kimni kamsitmasdan hamda ranjitmasdan kayfiyatini koʻtarishning sanʼat darajasidagi koʻrinishi boʻlib, ijrochi sanʼatkorning mahoratini belgilab beradi.

Askiya kulgi hosil qilishga qaratilgan, yumorga asoslangan ogʻzaki soʻz sanʼati sifatida qadimdan xalqimiz orasida maʼlum va mashhurdir. Askiya ijro uslubiga koʻra, ikki va undan ortiq ijrochilarning taraf-taraf boʻlib, bellashuviga asoslangan kulgi qoʻzgʻatuvchi ogʻzaki ijod janri. Uning ijrochilari professional ijro mahoratiga ega, nozik taʼb, hozirjavob, oʻta soʻzamol boʻlishi talab etiladi [14].

Askiya, yuqorida ta'kidlanganidek, so'zamol kishilar tomonidan ikki yoki undan ortiq guruhlarga bo'linib, kulgi qo'zg'avchi ibora va so'zlar topish san'ati, topag'onlik bo'yicha bellashuv sifatidagi so'z san'ati namunasidir. Askiyada kulgi qo'zg'ash asosiy o'rinda turadi. Shunday ekan, biz, avvalo, mazkur janrning badiiy-estetik talablari borasida bir mulohazalarimizni umumlashtirib olsak.

Askiya janri badiiy-estetik talablari nimalardan iborat? Bizningcha, avvalo, janr talablarida ijrochi kulgini shunday badiiy-estetik holda qo'zg'ashi lozimki, bunda behayollik, haqorat mazmunini ochiq aks ettiruvchi qo'pol so'zlar ishlatilmasligi zarur; ikkinchidan, kulgi qo'zg'ashga asos bo'lgan ibora yoki so'z tinglovchilar uchun har ikki ma'noda tushunarli bo'lishi kerak; uchinchidan, aniq mavzu doirasida voqelikni ifodalashga intilish zarur. Askiyachilarning sanab o'tilgan badiiy-estetik talablar asosida voqelikni tasvirlash va kulgi yaratish mahorati borasidagi mulohazalarimizni yanada oydinlashtirish uchun misollarga murojaat qilamiz. Andijon viloyati bo'ylab amalga oshirgan folklor ekspeditsiyasi jarayonida biz tomonimizdan yozib olingan qishloq xo'jaligi mavzulari doirasida "Paxta" payrovini tahlilga tortsak:

Adham: Qahramonjon, brigadir bo'lib ishlayapsizmi? 100 gektar yeringiz bor ekan, mana, bahor oylari ham boshlandi. Kassaga qarab turibsizmi?

Qahramonjon: Yerni kuzda haydab, pushtani tortib, hozir ekib ham bo'ldim, oldi ekan yerlarda meniki ko'rinib ham qoldi.

Xursandbek: Birinchi ekan yerlar undagi guzarlaringga birinchi o'g'itni bergandim, hozir bir qarich bo'lib plyonkani ko'tarib yotibdi.

Abdurahmon: Ikkinchi chopiqdan keyin plyonkani terib yuborish kerak edi. Ishga kirgandan keyin bildik, hali ham plyonka turibdi, deyishdi.

Adham: Xursandbek aytib qoldi, hosildorlikni ko'tarishda plyonkani xizmati katta ekan. Sizga ham shuni tavsiya qilaman. Men kechasi ham tagimga plyonka solib yotibman, dedi.

Abdurahmon: Xursandbek aytib qoldi, hosildorlik ko'paydi. Plyonkani xizmati katta. 20 kun paxtaningiz oldin pishib, 5 sentnerdan yuqori bo'ladi. Ochig'ini aytsam, kechasi plyonkani tagimga solib yotaman, dedi.

Xursandbek: Shunaqa bo'lib qolasiz devoradigan bo'lsangiz, dehqon kelib, sizni yulib yuboradi guzarda.

Qahramonjon: U sizning hosilingiz emas, ikki yonboshingizdan ko'chat hosil sig'dirolmasdan siznikini shoxlarini orasiga kirib olgan.

Abdurahmon: Plyonkaga paxta eksangiz, plyonka suvni ham tejaydi, suvchingizga aytsangiz, siznikini sal ho'llab qo'ysalar, kifoya qiladi.

Adham: Paxtani pushtaga ekishning xosiyati katta. Chigitingiz uch kun erta unadi, besh kunda plyonkani teshigidan kallasi ko'rinib qoladi.

Xursandbek: Qo'sh qator ekadag'on bo'lsangiz, bu usul ham daromadning uyasi. Birinchi qatori bilan davlatning xarajatini to'laysiz, ikkinchi qatoridan chiqqanini o'zingiz yeb yotaverasiz.

Qahramonjon: Urug' tiqilib qolmasligi uchun qo'lingizga bir quloch tayoq olvolib, shlankasiga urib ham turasiz.

Abdurahmon: Plyonkaning xosiyati ko'p, suvni tejaydi, bir kun oqizib qo'ysangiz, bo'ldi, keyin tashaydi [2;67-b.].

Mazkur askiyada chigit va uni ekish bilan bog'liq voqealar tasvirlangan, biroq birinchi ijrochi nutqidagi *kassa* mavzuni boshlab beruvchi epilog vazifasini bajargan. Kassa asl ma'nosida pul saqlanadigan xona. Dehqonchilikda chigit ichini yorib, niholning chiqishi tushuniladi. Chigit bo'g'zining ikkiga ajralib ichidan nishlagan niholning ko'rinish berishi shaklan tinglovchi dehqonlar ko'z o'ngida gavdalanadi va beixtiyor tag ma'no anglatadi. Ayonki, tag ma'no erotik ahamiyat kasb etadi. Askiyada so'zning tagma'nosi ifodalagan tasvir askiyachi va tinglovchilarning tasavvurida gavdalanadi. Ikkinchi askiyachining pushtani tortishi va ekib bo'lishini bildirib, *oldi ekan yerlarida meniki ko'rinib qoldi* degan javobi birinchi askiyachining *kassasidan* shakllangan kulgini davom etishini ta'minlash bilan birga yangi kulgiga asos bo'lgan. Demak, askiya musobaqasida ishtirokchilar *boshlovchi* va *davom* ettiruvchi kabi ikki toifaga ajralishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlovchi tagma'noni tanlaydi, keyingi askiyachilar to'g'ri ma'nodagi mavzu doirasida tagma'no bardavomligini ta'minlashi talab qilinadi. Keyingi ijrochilar tomonidan davom ettirilgan tagma'no o'ziga xos izchillik kasb etadi.

Bellashuv davomida keyingi ijrochilar plyonka, unib chiqqan niholning *bir qarich bo'lib, plyonkani ko'tarib turganligi* tasvirlari *tinglovchilar tasavvuridagi qochiriqli xayoliy tasvirni* shakllantirib, *komik va badiiy tizimning* maydonga kelishiga xizmat qiladi [9;8-b.].

Askiya janridagi asarlarning kulgi qo'zg'ashga asoslanishi, dialogik yoki polilogik nutq ko'rinishida bo'lishi, tasvirlanayotgan hodisaning qaysidir predmetga qiyoslanishi, askiyada tagma'ning yetakchilik qilishi uning janr tabiatiga xosdir. Shunday ekan, biz askiya janrlaridagi asarlarni tasniflashda voqelikning tasvirlash uslubiga ko'ra, uni ichki guruhlariga ajratish lozim degan xulosaga keldik [14].

Askiyalarda tasvirlangan voqealarning tasvirlash uslubida qiyoslash yetakchilik qilishini inobatga olish lozim. Bundan tashqari, ijrochilarning askiya mahoratini namoyon qilish shartlari yuzasidan mavzu belgilab olishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mavzu belgilab olish sharti faqat payrovlarga xos bo'lib, unda askiyachilar yig'inning maqsadi va mohiyatidan kelib chiqib, o'z mahoratlarini namoyish qiladilar. Shunga ko'ra, askiyalarni: a) o'xshatishga asoslangan askiyalar; b) tadbir mohiyati shartlari asosida mavzu tanlashga asoslangan askiyalar; d) so'zsiz askiya kabi uch asosiy guruhga bo'lib tasniflashni lozim topdik. Askiyaning barcha shakllari mana shu uch asosiy guruh tarkibida namoyon bo'ladi [14].

**O'xshatishga asoslangan askiyalar.** Bu tipdagi askiyalarga "O'xshatdim", "Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz", "Bilganlar, bilmaganlar", "Bo'lasizmi?" kabi an'anaviy boshlanishga asoslangan askiyalar kiradi.

"*Bilganlar, bilmaganlar*" mavzusidagi parrandalar nomi bilan aytiladigan askiyalar. Bunday askiyalar ham ikki yoki undan ortiq kishilar tomonidan ijro etiladi. "*Bilganlar, bilmaganlar*" askiyaning barqaror qolipi bo'lib, shu savol askiyachilarning dialogini yoki polilogini tashkil etuvchi struktural ahamiyatga egadir. Askiyachilarning bilganlar va bilmaganlarning mulohazalarini tavsiflashi askiya qilinayotgan shaxsning kimgadir yoki nimagadir o'xshayotganligini ifodalashi sababli o'xshatilayotgan predmetning tagma'nodagi ekvivalenti tinglovchilar tomonidan tasavvur qilinadi va kulgi hosil bo'ladi. Mazkur askiyada askiyachilar bir-birlarini *bilganlar* va *bilmaganlar* qolipi doirasida turli xil qushlarga o'xshatadilar. O'xshatilayotgan predmet va o'xshash predmet o'rtasidagi qiyofadoshlik tinglovchining kulgisini qo'zg'ashi lozim. Ammo askiyachilar obyekt va subyekt o'rtasidagi o'xshashlikni shu qadar zukkolik bilan tanlashi lozimki, hech bir o'rinda shaxsiyatga tegish yoki shaxsni kamsitishga yo'l qo'yilmasligi zarur. Askiya mana shu talabi bilan ham so'z o'yinlari ichida o'ta nozik did va o'tkir zehn, mahorat talab qiladigan san'at turi sanaladi.

"Bo'lasizmi?" Askiyaning bu shakli ayni shu savol qolipida shakllantiriladi. Mazkur tipdagi askiyalar asosida ham xuddi "Bilganlar, bilmaganlar", "Gulmisiz, rayhonmisiz?" singari savol bergan kishiga javob qaytargan askiyachining qaysidir obyektga o'xshatilishiga qaratilgan kartinaning tasvirlanishi vositasida kulgi qo'zg'ash turadi.

Bu askiya shaklida ijtimoiy masalalarning tanqidga olinganini ko'ramiz. Askiyachi "bo'lasizmi?" savoliga "bo'lay kimday?" degan savol bilan javob olgach, uni boshliq bo'lsa, nima qilishini zamonaviy-ijtimoiy muammolar fonida ochishga harakat qiladi va boshliqning kamchiliklari ustidan kuladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, askiyada o'xshatiladigan obyekt hammaga ma'lum bo'lishi o'ta muhim. Chunki askiyachi tomonidan tavsif berilganda, tinglovchilarning barchasida birdek beixtiyor ong ostida tagma'nodagi tasvir hosil bo'lishi zarur.

**Tadbir mohiyati shartlari asosida mavzu tanlashga asoslangan askiyalar.** Bu tipdagi askiyalar ham dialogik yoki polilogik nutq shaklida bo'lib, bularga, asosan, payrovlar, qofiyabozlik kabi ko'rinishdagi askiyalar kiradi. Payrovlar turli sabab bilan tashkil etilgan tadbirlarda tadbirning mavzusidan kelib chiqib, askiyachilarning so'zamolligini namoyish qilish, so'zamollik bellashuvidir. Payrovlar shaxmat payrovi, sport payrovi, telefon payrovi, pilla payrovi, paxta payrovi, Navro'z payrovi singari turli bayramlar va marosimlarga bag'ishlangan askiyalar bo'lib, bunda askiyachilarning hozirjavobligi, topag'onligi, o'tkir zehni tinglovchilar tomonidan baholanadi.

*Qofiyabozlik* – askiyaning qadimiy tiplaridan bo'lib, bu tipdagi askiyalar ijrochidan o'ziga xos nozik ta'bli bo'lishni, she'r ilmi va qofiya san'atini mukammal egallagan bo'lishni talab etadi. Qofiyabozlikda ham ikki va undan ortiq kishidan iborat ijrochilar bo'lishi mumkin. Qofiyabozlik tipidagi askiyachilikda guruh-guruh bo'lib ijro qilish ham mumkin. Askiyaning barcha turlari uchun mushtarak bo'lgan taraf-taraf bo'lib ijro etish, ijrochilarning ikki va undan ortiq bo'lishi qofiyabozlikda ham kuzatiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida, asosan, o'zbek xalqi og'zaki badiiy ijodiyotida uchrovchi askiya janri dramatik turga mansub bo'lib, kulgi qo'zg'ashga asoslangan, bir necha ijrochilarning hozirjavobligi va zukkoligi asosidagi dialogik yoki polilogik nutqidan iborat so'z san'ati sifatida alohida ajralib turadi [14].

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, askiya jahon va turkiy xalqlar filologiya fanida alohida mustaqil tadqiq etilmagan, faqat XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab og'zaki so'z san'ati namunasi sifatida o'rganila boshlagan. Jahon fanida semantik va funksional jihatdan askiya bi-

lan mushtarak boʻlgan janrlar ham, asosan, oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy jamoatchilikni qiziqitira boshladi. Rus va gʻarb olimlari kulgiga asoslangan folklor janrlarini ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatdan oʻrganish ishlarini amalga oshirganlar. Askiya janridagi ogʻzaki asarlar kulgi qoʻzgʻashga asoslanganligi, tasvirlanayotgan voqealar, asosan, komik xarakterda boʻlishi sababli bunday asarlarda voqelikni tasvirlash uslubiga koʻra ularni ichki guruhlariga ajratib tasniflash maqsadga muvofiq keladi. Askiya matnida tagmaʼnoda anglashiladigan komik fabula kulgi qoʻzgʻash mexanizmi vositasida shakllanib, tinglovchilarning badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Kulgi qoʻzgʻash mexanizmi tinglovchilar kulgisining bosqichma-bosqich rivojlanib borishini taʼminlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). Andijon askiya maktabi vakillari boʻlgan Abdurahmon va Rahmatulla tomonidan ijro etilgan. Aytuvchi Qulmatov Abdurahmon Yuldoshevich (Andijon viloyati, Qoʻrgʻontepa tumani Maʼmurobod qishlogʻi). Yozib oluvchi Gʻ.O.Xolbutayev. Andijon davlat universiteti folklor arxivi. Folklor ekspeditsiyasi materiallari, 66-daftar.
- (2). Andijon askiya maktabi vakillari boʻlgan Xursanbek va Inomjonlar tomonidan ijro etilgan. Aytuvchi Xudjayev Xursanbek Mirzaboyevich (Andijon viloyati Qoʻrgʻontepa tumani Chimyon qishlogʻi). Yozib oluvchi Gʻ.O.Xolbutayev. Andijon davlat universiteti folklor arxivi. Folklor ekspeditsiyasi materiallari, 67-daftar.
- (3). Andijon davlat universiteti folklor arxivi. Folklor ekspeditsiyasi materiallari, 47, 58, 61-daftarlar.
- (4). Мухаммадиев Р. Аския (ўзбек халқ ижодиётининг жанри). Филол.фан.номз... дисс., Т., 1961, 7-бет.
- (5). Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. М., «Искусство», 1976, с. 123.
- (6). Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. М., «Искусство», 1976, с. 183.
- (7). Сычев А.А. Смех как социокультурный феномен. Автореф.докт.философ.наук, Саранск, 2004, с.36.
- (8). Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане. Восточный сборник. 1990, вып. № 4, с. 144–151.
- (9). Тупичекова М.П. Проблема комического в советской прозе 60–70-х годов (В.Шукшин, В.Белов). Автореф.дисс. канд.филол.наук, М., 1987, с. 8.
- (10). Хатилов Ф. Эпик жанрлар. Казан, Татар. кит. нэшр., 1973, 49-бет.
- (11). Холбутаев Г.О. (2020). «Аския» как национальная смеховая культура. Редакционная коллегия, <https://hcommons.org/deposits/objects/hc:38080/datastreams/CONTENT/content?page=200>
- (12). Ястремский С.В. Образцы народной литературы якутов. Л., изд-во АН СССР, 1929, с. 34.
- (13). Яхин А. Система татарского фольклора. Казан, Тат. кит. нэшр., 1984, с. 120.
- (14). «Oʻzbek folklorining oʻzbek va ingliz tillaridagi veb sayti va multimedia mahsulotini yaratish» nomli amaliy loyiha [Askiyaning tasnif qilinishi va uning mezonlari – Oʻzbek folklori \(uzbekfolklore.uz\)](http://askiyaning.tasnif.qilinishi.va.uning.mezonlari-uzbek.folklori.uz).

**Kabulova Umida Sayidmaxamodovna (Andijon davlat Chet tillari instituti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi; e-mail: [umidakabulova@mail.ru](mailto:umidakabulova@mail.ru))  
SEHRLI ERTAKNING TARIXIY ILDIZLARI**

***Annotatsiya.** Dunyodagi barcha mamlakatlarda, xalqlarda bolalarga ertak aytib berish anʼanasi mavjud boʻlsa kerak. Chunki odamiylik, adolat, mehr-muhabbat, ota-onaga hurmat, oqkoʻngillik, vatanga sodiqlik, jasorat kabi insoniy fazilatlarini oʻzida mujassam etgan janr namunalari bolalarga orom baxshida etish bilan birga, ushbu fazilatlarini ularning qalbiga joʻ qiladi. Ertaklarda har bir xalqning oʻziga xos madaniy urf-odat, ijtimoiy-geografik muhiti va orzu-istaklari aks etgan boʻladi. Bu janr inson paydo boʻlib, turli uslub va shakllarda ijro etilib, ming yillar davomida takomillashib kelgan. Mazkur maqola aynan mana shu masalaga bagʻishlangan.*

***Kalitli soʻzlar:** matal, ushuk, choʻpchak, varsaqi, oʻtirik, tural, motiv, teologiya, ertaklar morfologiyasi, animistik, totemistik, fetishistik qarashlar.*

#### ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВОЛШЕБНОЙ СКАЗКИ

***Аннотация.** Наверное, во всех странах мира, у народов есть традиция рассказывать детям сказки. Потому что образцы жанра, воплощающие в себе такие человеческие качества, как человечность, справедливость, любовь, уважение к родителям, доброта, верность Родине, мужество, не только дают детям покой, но и приносят эти качества в их сердца. Сказки будут отражать уникальные культурные традиции, социально-географическую среду и мечты каждого народа. Этот жанр развивался на протяжении тысячелетий, когда появился человек, играющий в самых разных стилях и формах. Статья посвящена именно этому вопросу.*

***Ключевые слова:** притча, мороз, пастырь, варсаки, сидячий, тотальный, мотив, теология, морфология сказок, анимистические, тотемистические, фетишистские взгляды.*

## HISTORICAL ROOTS OF FAIRY TALES

**Annotation.** *Probably, in all countries of the world, peoples have a tradition of telling fairy tales to children. Because the samples of the genre embodying such human qualities as humanity, justice, love, respect for parents, kindness, loyalty to the Motherland, courage, not only give children peace, but also bring these qualities into their hearts. Fairy tales will reflect the unique cultural traditions, socio-geographical environment and dreams of each nation. This genre has been developing for thousands of years, when a person appeared playing in a variety of styles and forms. This article is dedicated to this issue.*

**Key words:** *matal, ushuk, shepherd, varsaki, sedentary, total, motif, theology, morphology of fairy tales, animistic, totemic, fetishistic views.*

### **Taqrizchi filologiya fanlari nomzodi, dotsent Kabilova Zebiniso Muratovna**

**Kirish.** So‘nggi yillarda o‘zbek ertakshunosligi jadal rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Jumladan, o‘zbek olimi M.Jo‘rayev germaniyalik olim G.Keller hamda X.Rahimovlar bilan hamkorlikda ikki jildlik «O‘zbek sehrli ertaklari katalogi»ni ishlab chiqdi. Bu katalogning Germaniyada nashr etilishi o‘zbek folklorshunosligining eng katta yutuqlaridan biri bo‘ldi (3).

Inson bolaligidan boshlab yaxshilikka, ezgulikka doimo intilib yashaydi. Har bir bola ertak tinglayotgan chog‘ida qahramonlardan biriga o‘xshashni, ularga taqlid qilishni orzu qiladi. Kitoblardagi rasmlarni qiziqish bilan tomosha qilish, kattalarning nutqini qanday maroq bilan tinglash bolalarning ertaklarga ijobiy munosabatda ekanligidan dalolat beradi. Ertaklardagi obrazlar his-hayajonga boy, rangdor, shu bilan birga, kichinkitoylarning tushunishlari uchun sodda bo‘lib, haqiqatga yaqinligi bilan ularni o‘ziga rom etadi. Ertaklar yordamida bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri rivojlantiriladi, tasavvur va fantaziyalari uyg‘otiladi. Fantaziyaning uyg‘otilishi har xil hayvonlarning kesilgan tanalarini birlashtirish orqali turli ajoyibotlarni yaratishda yaqqol ko‘rinadi. Shu bilan birga, bolaning nutqi, tafakkuri o‘sishi bilan bir qatorda, dunyoqarashi ham kengayib boradi. Ertaklar tinglash, o‘qish ona tilida til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Muammoning o‘rganilishidagi boshlang‘ich davrni A.N. Veselovskiy, J.J.Frezer V.Y.Propp, K.Levi-Stros, A.N.Samoylovich, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Meletinskiy, V.P.Anikin (4) va boshqa olimlar tadqiqotlari bilan belgilash mumkin. Bu olimlar motiv masalasi, xususan, shart-sinov motivi genezisiga doir izlanishlari asosida nazariy va amaliy ma‘lumotlarni asoslab berdilar. K. Levi-Stros miflar strukturasi tadqiq qilish orqali sujetlar tizimini hosil qilgan yagona modelga yo‘l ochdi. V.Y.Propp ko‘rsatib o‘tgan motivlar (ularning ichida motiv emaslari ham bor) ilk bor tartibga tushdi, ularning tarixiy va marosimiy ildizlarini tekshirish boshlandi.

J.J.Frezer motivlarning marosim orqali yagona modelga borib tutashishini asoslashga imkon beruvchi boy manba to‘pladi. A.N.Veselovskiy ishning nazariy negizini – motiv muammosini davri uchun yetarlicha hal qilib berdi.

A.N.Samoylovich o‘zbek ertaklarini tekshirar ekan, ikki yetakchi motivni ko‘rsatadi: jumboq aytish (yoki yolg‘on hikoya aytish), sinov motivi. H.Zarif, M.Afzalov, M.Saidov, K.Imomov, G‘.Jalolov, X. Egamov, J.Yusupov, M.Jo‘rayev, T.Sobitova, Sh.Turdimov, J.Eshonqul kabi o‘zbek olimlari muammoga daxldor va yondash izlanishlarni olib bordilar (13).

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Til materialining tadqiqi jarayonida tavsifiy, distributiv, transformatsion va o‘rni bilan applikativ usullardan foydalanildi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, struktural va semantik tahlil kabi usullar ham tatbiq etildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ertaklar qadim o‘tmishga borib taqaladi. “O‘zbek xalq ertaklari” kitobida bir necha yuzlab avlodlarni kamolga yetkazgan, bolalik murabbiyiga aylangan afsonaviy ertaklar jamlangan. Ularda *yolg‘on gapirma, o‘g‘irlik qilma, nomard bo‘lma, hech kimning haqiga xiyonat qilma, yaxshilik qilguvchilardan, hech bo‘lmaganda, yaxshilik istaguvchilardan bo‘l* kabi oddiy haqiqatlar mujassam. Bu haqiqatlar har bir davrning va o‘sha davrga mansub odamlarning yuragiga, qalbiga ko‘zgu tutishdan hech toliqmaydi (5).

O‘zbekistonning turli joylarida ertak atamasi turlicha aytiladi. Jumladan, Farg‘onada «matal», Buxoroda «ushuk», Toshkent atroflarida «cho‘pchak», Xorazmda «varsaqi» kabi atamalar ishlatiladi. Shuningdek, ertak o‘rnida «o‘tirik», «tutal» kabi atamalar ham uchraydi. Ertak atamasining ma‘nosiga qaraydigan bo‘lsak, u «erta» so‘zi bilan aloqador bo‘lib, ertagi, ilgari bo‘lib o‘tgan voqealar ma‘nosini beradi (7).

XX asrning 20-yillarida ijod qilgan rus etnografi Vladimir Propp (1895–1970) o‘zining “Sehrli ertakning tarixiy ildizlari” (Исторические волшебные сказки), “Ertak morfologiyasi” nomli asarlarida olimlarning qarashlarini tahlil qildi va misollar asosida izohlab berdi. Taniqli folklorshunos V.P.Anikin

xalq og‘zaki ijodidagi har bir namunalarni tahliliy nuqtayi nazardan o‘rganishni tavsiya qiladi. Muallif ilohiy voqelik, marosim, janr, ifoda usuli tizimi xalq og‘zaki ijodining shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidlaydi. Turkiy ajdodlarimizning e’tiqodi va ijodi – ularning go‘zal haqiqati va cheksiz xayoloti. Ular nazdida, olam sinov shartlaridan iborat, har bir odam bolasi sinovlarni o‘tamog‘i zarur. Shu sababdan yaratilgan barcha ijod namunalari qahramon sinovlarni yengib o‘tadi, bu orqali o‘zida qavmi, millatining asriy orzularini ifoda etadi (6).

Dunyodagi barcha mamlakatlarda, xalqlarda bolalarga ertak aytib berish an’anasi mavjud bo‘lsa kerak. Chunki odamiylik, adolat, mehr-muhabbat, ota-onaga hurmat, oqko‘ngillik, vatanga sodiqlik, jasorat kabi insoniy fazilatlarini o‘zida mujassam etgan janr namunalari bolalarga orom baxshida etish bilan birga, ushbu fazilatlarini ularning qalbiga jo qiladi. Ertaklarda har bir xalqning o‘ziga xos madaniy urf-odati, ijtimoiy-geografik muhiti va orzu-istaklari aks etgan bo‘ladi. Bu janr inson paydo bo‘libdiki, turli uslub va shakllarda ijro etilib, ming yillar davomida takomillashib kelgan.

Dastlab, ertaklar ibtidoiy odamlarning turmushdagi ma’lum voqea-hodisani oddiy tarzda hikoya qilishi bilan paydo bo‘lgan bo‘lsa, ma’lum davrlar o‘tib tasavvuriy, animistik, totemistik, fetishistik va mifologik qarashlaridan, tabiat hodisalari, o‘zlarining kundalik mashg‘ulotlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Shuningdek, hayvonlar qo‘lga o‘rgatilgandan so‘ng, hayvonlar haqidagi ertaklar yuzaga keldi va ular majoziy ertaklar yaratilishiga asos bo‘ldi (9).

Ibtidoiy din shakllaridan yana biri fetishizm (tumor, «sehrangan buyum» degan ma’noda)dir. U ibtidoiy odamning ayrim narsa va buyumlarda ilohiy kuch-qudrat borligiga ishonishi va ularning ruhiy madad kutishi bilan izohlanadi. Insonlarning turli joylarni muqaddas sanab, ularga topinishi, ofat-balolardan, yomon ko‘zdan asraydi, deb har xil buyumlarni saqlashi, tumorlar taqishida qadimgi fetishizm izlarini ko‘rish mumkin (10). Turli xil narsalarga sig‘inish fetishizmning asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Bu esa muayyan buyum va hodisalarni jonli narsa deb tasavvur qilish asosida kelib chiqqan (4).

Sehrli ertaklarda uchraydigan “g‘aroyib narsa”larning genezisi qadimgi mifologik tasavvurlar, ibtidoiy diniy e’tiqodlar (fetishizm, totemizm, animizm), tabu hamda marosimlarda ayrim predmetlarning “obrazlashtirilishi” jarayoni bilan bevosita aloqadordir. Sehrli ertaklardagi “g‘aroyib narsa”larning turlari ko‘p bo‘lib, ular epik matndagi vazifadoshligi va poetik talqinlari bilan bir-biridan farqlanib turadi (2).

Xususan, Qur’oni karimda borliqdagi barcha o‘simliklar, jonivorlar, insonlar juft-juft yaratilgan deyiladi (12). Faqat buyuk yaratuvchi Ollohgina yagona va yolg‘izdir (11).

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ta’kidlash joizki, «Bo‘ri bakovul ekan...» tarzida boshlanuvchi iboralardagi so‘zlar ham o‘z zidi bilan birga qo‘llangan. Masalan, xuddi «bor» va «yo‘q», «och» va «to‘q» singari «bo‘ri» va «tulki» so‘zlari ham o‘zaro (8) qarama-qarshi ma’nolarni yuzaga keltirgan. Yasovullar esa soliq to‘plash va olingan o‘ljaning xonga tegishli qismini hisoblash bilan ham shug‘ullangan. Ko‘rinadiki, ularning biri tarqatish, biri, aksincha, yig‘ish bilan mashg‘ul bo‘lgan. «Qaqimchi» va «chaqimchi» so‘zlarida ham o‘zaro ohangdoshlikdan boshqa umumiylik yo‘q. Ya’ni, biri kishilarni, nafaqat, jismonan, balki ruhan davolaydi, biri esa odamlarning sirini ochib, ko‘nglini yaralaydi (3).

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов. Соб. соч., т. 2, Спб., 1913.
- (2). Жумаева С. Халқ эртакларида образлар талқини. Ўқув-услубий қўлланма, Тошкент, 2011, 5-бет.
- (3). Жуманов Э. Ўзбек халқ эртакларида эпик формулалар. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2022, 20-бет.
- (4). Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. Тошкент, 2014, 245-бет.
- (5). Леви-Строс К. Структурная антропология. М., 1983.
- (6). Nazarova Sh. Xayol va haqiqat folklor va teologiya kesimi tizimida. T., “Mumtoz so‘z”, 2013.
- (7). Рўзимбоев С., Рўзметов Х. Фольклор атамалари қисқача луғати. Урганч, 2007, 52-бет.
- (8). Раҳмонов Т.Л. Қадимги мифлар ўзбек фольклори эпик мотивларининг ўзаги сифатида. Филол. фан. номз... дисс., Тошкент, 1997, 42-бет.
- (9). Raximov S. Xalq ertaklarining folklor janrlari o‘rtasidagi o‘rni xususida. Filologiyaning dolzarb masalalari xalqaro ilmiy anjumani, Qo‘qon, 2023, 222-бет.
- (10). Расулова З.Ж. Ўзбек халқ сеҳрли эртакларида «ғаройиб буюм»лар (спецификаси, генезиси ва бадиияти). Филол. фан. номз... дисс., Тошкент, 2012, 33-бет.
- (11). Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Т., “Фан”, 1981, 110-бет.
- (12). Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. Тошкент, “Фан”, 2020, 115-бет.
- (13). O‘zbek xalq ertaklari. Toshkent, “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018, 4-бет.

**Sadenova Gulbanu Perdebayevna (Qoraqalpoq davlat universiteti erkin tadqiqotchisi)**  
**SH.SEYITOVNING BADIY TASVIR VOSITALARDAN FOYDALANISH MAHORATI**

***Annotatsiya.** Maqolada qoraqalpoq xalq yozuvchisi Sh.Seyitovning eng dastlabki povesti “Qashqin” nomli asarida foydalanilgan badiiy tasvir vositalari haqida fikr yuritilib, muallifning badiiy til unsurlaridan foydalanish mahorati, adibning soʻz tanlashdagi ajoyib andozalari va matn yaratishdagi individual xususiyatlari ochib berilgan.*

***Kalit soʻzlar:** badiiy matn, takror, parallelizm, metafora, oʻxshatish, okkazonalizm, frazema, vulgarezizm.*

**НАВЫКИ ПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВАМИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Ш.СЕЙИТОВА**

***Аннотация.** В статье речь идёт о средствах художественного изображения, использованных в первом рассказе каракалпакского народного писателя Ш.Сейитова под названием «Кашкын», и раскрывается мастерство автора в использовании элементов художественного языка, прекрасная манера писателя в подборе слов, индивидуальные особенности в создании текста.*

***Ключевые слова:** художественный текст, художественный повтор, параллелизм, метафора, сравнение, окказионализм, фразема, вульгаризм.*

**THE SKILL OF USING THE MEANS OF ARTISTIC REPRESENTATION BY SH.SEYITOV**

***Annotation.** The article deals with the means of artistic representation used in the first story of the Karakalpak folk writer Sh.Seitov entitled “Kashkyn” and reveals the author’s skill in using elements of artistic language, the writer’s excellent manner in choosing words and individual characteristics in creating the text.*

***Key words:** literary text, literary repetition, parallelism, metaphor, comparison, occasionalism, phraseme, vulgarism.*

**Kirish.** Qoraqalpoq xalqining taniqli yozuvchisi, badiiy qalam sohibi, qoraqalpoq adabiyotida keng koʻlamli nasriy asarlar yaratgan ijodkor Sh.Seyitovning proza janridagi ilk qadamlarining biri bu muallifning “Qashqin” povesti hisoblanadi. Bu asar oʻzining gʻoyaviy-tematik mazmuni bilan muallifning boshqa asarlaridan ajralib turadi. Sababi, asardagi qahramonlarning ruhiy va jismoniy holati boshidan oxirigacha chuqur psixologizmga va drammatizmga asoslangan. Asardagi bosh qahramon Nesibelining drammatizmga toʻla taqdiri oʻquvchini chuqur oʻylashga va mulohaza yuritishga daʼvat etadi. Shu oʻrinda, badiiy matn tilini tahlil qilish usullarini yaratgan olim M.Yoʻldoshevning: “Adabiy asarning sanʼat darajasiga koʻtarila olishi uning lisoniy tarkibi va muallifning badiiy ifoda balogʻatiga bogʻliq ekanligi, shubhasiz”, degan fikrlari juda ham asoslidir [1;3-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot usullari.** Sh.Seyitovning “Qochqin” va “Koʻp edi ketken tirnalar” povestlari birgalikda bir kitob sifatida 2021-yili qayta nashr etildi. Sh.Seyitovning ijodi adabiyotshunos olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etildi va bir qancha ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, adabiyotshunos olim, professor Z.Bekbergenovanning [2;85-b.] tadqiqot ishida Sh.Seyitovning asarlarida monolog va dialogning xarakter yaratishdagi oʻrni, dotsent J.Qaniyazova [3;49-b.] yozuvchi asarlarida badiiy leksika va laqab nomlarining ahamiyati va dotsent A.Dosimbetova [4;56-b.] yozuvchining sheʼriy matnlaridagi toplilar va badiiy tasvir vositalarini oʻz ilmiy izlanishlarida alohida taʼkidlab koʻrsatadi. Bu tadqiqot ishlarida yozuchi asarlarining lingvopoetik xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida tadqiq qilinmagan boʻlsa ham, ilmiy izlanishlarimiz davomida asosiy manbalar sifatida xizmat qiladi.

Maqolani yozishda tahlil, umumlashtirish, badiiy-estetik, qiyoslash va lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Muallif asarning sujetiga, voqealarning rivojlanish xarakteriga va voqea kulminatsiyasiga mos ravishda oʻziga xos fonetik, leksik, stilistik va sintaktik vositalarini ishlatadi. Asar boshida muallif tabiat hodisalarini tasvirlash bilan voqeaning bosh personaji Nesibelining ogʻir taqdirini parallel ravishda koʻrsatadi: *Jaʼna ay jadrap kóp turmadi, kók teñizge tastağan aybaltaday älleqashan batıp ketken. Girbiñsiz kókke úmit ushqınlarında yulduzlar ğana jiltirasadı* (4-bet). Nesibelining ruhiy holati, qalbi tozaligi yangi oy va musaffo koʻk osmonga, uni qalbidagi umid uchqunlari esa miltillagan yulduzlarga qiyoslab tasvirlashi oʻzgacha taʼsir qoldiradi.

Asar sujeti voqealarining rivojlanishi bilan frazemalarning ishlatilishda oʻziga xos xususiyatlar koʻzga tashlanadi. Qoraqalpoq yerlarining asosiy tarkibi sahrolardan iborat boʻlganligi bois, odam oyogʻi yetib borishi qiyin, hatto hayvon, qushlarning ham uchrash ehtimoli qiyin boʻlgan holatta tilimizda *jortqan ań, ushqan qus joq* umumxalq frazemasini ishlatiladi: *Ushu-qiyırı joq qulazıgan sheksiz jáziyra. Ya jortqan ań-*



*niñ qorsildısı, ya ushqan qus qanatlariniñ sipsini esitilsesh* (4-bet). Bu qatorlardagi frazemalar yozuvchi individualligiga mos ravishda o'zgartirib, sayqal berilib ishlatilgan va shu orqali belgining xususiyati orttirilib, ifoda bayoni kuchaytirib berilgan. Ayniqsa, vaqt va o'rin ma'noli frazemalarning ishlatilishidagi o'ziga xos yondashuvlar alohida o'rin egallaydi. *Tawdan otip, at shaptirim jer júrer-júrmesten bayağı shash jigitti de egledi* (110-bet). *Durdi oq shalim jerge kelip odağaylağan qarami nishanağa aldi* (117-bet). *Aradan gósh qaynam waqitti ótkere berip, quwğınshı burıngı jolina tústi* (113-bet). *U'yinen iyt úrim jerge shekem shıgarıp sala qoyğan eken* (62-bet). Qoraqalpoq xalqining nutqiy tilida *at shaptirim jer, tayaq taslam jer, gósh qaynar waqit* kabi vaqt va o'rin miqdor-o'lchamlariga bog'liq frazemalar juda ko'p foydalaniladi. Lekin, keyingi misollardagi muallif tilidagi *iyt úrim jer, oq shalim jer* frazemalari badiiy adabiy tilda juda kam qo'llaniladi, faqat muallif asarlarida uchrashi mumkin.

Muallif ketma-ketlikda voqealarni bayon qilgan ekan, bosh qahramon Nesibelining portretini kitobxonning ko'z oldida jonli gavalantirish uchun badiiy o'xshatish va parallelizmlarga murojaat etadi: *Qashqın tolqındağı qayıqtay órkesh-órkesh qumlarğa birese órmelep, birese sirğıydi. Bir qolında tayaq, bir qolında gewish* (4-bet). Keng sahro maydonlarida qumlarning kartinasini daryodagi to'lqinga va undagi yolg'iz ketayotgan yo'lovchini qayiqqa o'xshatib tasvirlashi natijasida kitobxon ko'z o'ngida qizning kartinasi paydo bo'ladi.

Asarda vulgarizmlar nomi bilan umumlashtirilgan dag'al so'zlar ham ishlatiladi. Vulgarizmlardan badiiy adabiyotda "personajlar tilini individuallashtirish, milliy va sotsial kolorit hosil qilish, nutqning emotsional-ekspressivligini kuchaytirish maqsadlarida" foydalaniladi [5;28-b.]. Bunday so'zlar asarda muallif nutqida qo'llanilmagan. Ular qahramonlar tilida berilgan bo'lib, personajlar xarakterini individuallashtirish maqsadida foydalangan. *Biraq, jer jutqır, anaw úyden alıslañqırawı kerek, bolmasa tağı torğa túsedı...* (5-bet). *Balshoy kelgen kúnde túbime usı júwernemek jetpese bolğani-ğo! Pálen jerde pálendey malı bar dep tursa, úyi jañğırđıñ jetimegi, bizdi qurıtpay, kimdi qurıtsın!..* (15-bet).

Shuningdek, badiiy asar tilida ishlatilgan sintaktik vositalarning biri bo'lgan ritorik so'roq gaplar Nesibelining ichki ruhiyatni, yuragidagi azoblarni, qalb kechinmalarini, emotsional holati, undagi qo'rquv, hadiksirash, o'kinch, pushaymonlik, sog'inch tuyg'ularini ochib berishda alohida kasb etadi. *Bayğus kelinshek, jatqan jerinde túrmesiniñ qalğanın da, at dúbiri dep júrgeni óz kókireginiñ dúrsildısı ekenin de sirá bildi me dese!...* (10-bet). *Bul ańgódek qız "anam meni asıraw ushun jurttıñ digirmanın tartıp júr" dep oylap pa sonda sirá?!.. Jasınan áke diydarın kórmey ósken qızğa jetimligin sezdirmeý jetildirgen de sol ana emes pe edi!* (12-bet). Ushbu misollardagi muallif tilidan ifodalangan ritorik so'roq gaplar asar tilining ta'sirchanligi, badiiy-estetik ifodasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yozuvchi mahoratidan hosil bo'lgan badiiy takrorlarning bir qancha turlari asarda uslubiy vazifa oladi va fikrni obrazli yetkazishga yordam beradi. Jumladan, nasriy asarda tovushlarning takrorlanib kelishi o'zgacha poetik obraz yaratadi, asarning yoqimli ritmi, musiqiyligi kitobxonni o'ziga jalb qiladi: *Jalğız jolawshı oylanğış keledi. Jansız jáziyra da, jum-jirt átirap ta onıñ oylarına táshwish bermeydi. Házirshe Janabaydıñ elesi júregine jullı lep berip kiyatr* (21-bet). Ushbu parchadagi "j" tovushining bir necha marotaba takrorlanib kelishi, ayniqsa, so'z birikmalarining garmoniyasi (*jalğız jolawshı, jansız jáziyra*) kabi yozuvchining so'z tanlashdagi mahoratini ko'rsatadi.

Shuningdek, badiiy asar tilida tovush takrorlaridan boshqa, so'z takrori (leksik takror) ham juda ko'p qo'llanilgan: *Kelinshektiñ ishi uwday ashıdı. Hár nápesi suw, suw, suw dep sirıldaydı. Házir oğan bárinen beter bir jutım suw kerek edi, tek bir gána jutım! Nóser, nóser, nóser... Dizesi qalt-qalt etip qashqın ornunan turdı. Ele nóser, nóser, nóser* (83-bet). *Qum, qum, qum ushı-qıyırı joq bir shólistan* (98-bet). Muallif tomonidan tasvirlangan tabiat hodisalari qahramonning psixologik-ruhiy holati bilan uyg'un tarzda ifodalangan va shu orqali harakat, holatlarning davomiyligi ekspressiv tarzda bayon qilingan. *Teñiz, teñiz, kógala kók teñiz, eskeksiz qayıq qaylarğa áketpek onı. Teñiz, teñiz, kógala kók teñiz ushı-qıyırı joq teñiz... Bas ushında Tazagúl sınsıydı. Tazagúl, men keldim. Tazagúl, toñıp baratırman, Tazagúl...* (82-bet). Keltirilgan parchalarda undalmalarning takrorlanib kelishi orqali gapga kuchli ekspressiv ma'no yuklangan. *Kókiregine uya-lağan bir awız sóz: "Qash! Qash! Qash!.." Tek usını gána oylaydı. O'kpesi uwday ashıp, kókiregi "qash! qash!" dep sirıldaydı* (5-bet). Bu parchada esa qisqa tarkibli gap-so'zlarning takrorlanib kelishi orqali sintaktik takror hosil qilingan va Nesibelining shu payttagi real holati, ruhiy bosim ostidagi qo'rqinchli histuyg'ulari yanada oydinlashgan, ta'sir etish darajasi kuchaytirilgan. Agarda muallif mana shunday badiiy vositalar orqali voqeani ifoda etmaganida, kitobxonga bu oddiy xabar mazmunidagi odatiy gap holatida ta'sir etgan bo'lar edi. Aksi holatda, muallif o'z maqsadiga erisha olmagan bo'lar edi.

Badiiy matnda gap takrori orqali fikrlarni ifoda qilishning bir qancha obrazli, ekspressiv va emotsional semalari vujudga keladi. Masalan, **kuchli dovrug, hayqiriq, olomonga chaqiriq ma'nolarini bildi-**

**rishda:** *-Jaw shapti, jaw shapti, jeńge jaw shapti-u!...* (54-bet); **kuchli g‘azab kelishi, qattiq jahl qilish ma’nosida:** *– Men usi úydiń qatıniman ba, qulıman ba? Nege ańlita bereseń meni, nege ańlita bereseń!?* (72-bet).

Sh.Seyitovning iboralarni qo‘llashdagi o‘z uslubi bor. Masalan: *– Nesibeli Aysultan emes, eki aya-ǵıńdı bir shoqayǵa tıǵadı...* (73-bet); *Sorımızǵa sorpa tóǵıldı, molleke!* (9-bet). Ushbu berilgan iboralarning adabiy tildagi variantlari boshqa, muallif ularni qahramonlarning hayot tarziga qarab o‘zgartiradi, qayta ishlaydi. Qoraqalpoq va o‘zbek tilida “ikki oyog‘ini bir etikka tiqish” iborasi ayollarning salbiy xarakteriga nisbatan faol qo‘llanilsa, “sho‘rimiz quridi” iborasi boshga musibat tushgan vaqtga bog‘liq ishlatiladi va muallif qoraqalpoq xalqining o‘sha davrdagi yashash tarziga mos ushbu iboralarning tarkibini o‘zgartirgan va natijada iboralarga yangicha rang berilgan.

Muallifning individual so‘z qo‘llash mahoratini ko‘rsatuvchi til vositalarning yana biri bu **okkazionalizmlardir**. Okkazional so‘zi rus tilshunosligida, eng avvalo, N.İ.Feldmanning tadqiqotlarida termin sifatida ishlatilganligini ko‘rish mumkin. Tilshunos “okkazional so‘zlar so‘z yasalişning mahsuldor tip-lariga ko‘ra vujudga keladi, shuningdek, ularning ma‘nolari kontekstda motivlashadi va izohlanadi” degan fikrlarni keltiradi [7;11-b.]. Bizning fikrimizcha, okkazional so‘zlar yangidan paydo bo‘lmaydi, faqat muallif tilimizda bor bo‘lgan so‘zni yangi, boshqa ma‘noda qo‘llashi orqali paydo bo‘ladi va bu ma‘no faqat shu kontekst orqali gina tushuniladi: *Neniń ne ekenin bilmey esi ketken qız Qanlıqılıstıń multıǵınıń tútesinen shıqqan hálsiz tútındi-aq kórip qaldı* (106-bet). *Tas tóbege kelip tirelgen kúnniń ashshu quyashı orayıńdı shókeleydi* (98-bet). Shuningdek, asarda *sınıǵan toǵay* (96-bet), *solqıldaǵ shıbıq* (7-bet), *túńgi batırılıqlar* (20-bet), *kemli kúnine qıynaldı* (21-bet) kabi okkazional so‘z birikmalari juda ko‘plab uchraydi.

Tabiat manzaralarini tasvirlashda, uning beqiyos go‘zalligini kitobxan ko‘z oldida gavdalantirishda ajoyib o‘xshatishlardan foydalanishda yozuvchining o‘z uslubi bor. Ayniqsa, yozuvchi botayotgan quyoshni – qizil chimildiqqa, yulduzlarni – to‘kilgan gavhar, sochilgan jiyda mevasiga, oyni – ayboltaga, ko‘k osmonni har xil predmetlarga qiyoslab obraz yaratish mahorati muallifning barcha adabiy asarlariga xos hodi-salardan hisoblanadi. *Shıǵıs qızıldan ádip tutılǵan hawayı shimıldıǵqa meǵzeydi* (96-bet). *Aspanda qalqı-ǵan qıyıq ay kók teńizdegi kóp palapanlı aq quwday qayqayadı* (113-bet). *Sahra ele ishten tuwılǵan gúńe-lektey jum-jirt* (11-bet) *Aspan sarqılǵan qabaqtay tamshısın siyrekletken edi* (86-bet). *Batis jaq shámbesi tıńǵan shayday ashılıp shıǵısqa jumbarshaqlanǵan aqsha bulıları gúmis qanat etti* (86-bet). Ushbu keltirilgan parchalardagi “qizil shimildiq”, “kóp palapanlı aq quw”, “sarqilgan qabaq”, “ishten tuwilgan gú-nelek”, “shámbesi tıńǵan shay” kabi obraz yaratishdagi o‘xshatish etalonlari faqat yozuvchi Sh.Seyitovning xususiy mualliflik ijodkorligigagina xos deb aniq aytishimiz mumkin.

Umuman, asardagi voqealar Nesibelining atrofida bo‘lgani bois muallifga uning obrazi, xarakteri va ruhiy holatini ochib berishda mana shunday o‘xshatishlar yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Sh.Seyitovning “Qashqin” povesti badiiy tilining mu-kammalligi, serqirraligi, estetik rang-barangligi va badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan alohida ajralib tu-radi. Asarda qoraqalpoq tilining go‘zalligi, boyligi, tuganmas ifoda imkonlari o‘zini to‘liq namoyon etgan. Yozuvchining ijodiy faoliyatida “Qashqin” povesti nafaqat g‘oyaviy-badiiy jihatdan, balki poetika va badi-iy til mahorati jihatidan ham alohida o‘rin tutadi. Jamiyatda xotin-qizlar va ularga g‘amxo‘rlik, ularni e‘zoz-lash, ulug‘lash mavzusi tarixning har qanday davrida ham o‘zining dolzarbligi bilan ahamiyatini yo‘qotma-gan. Yozuvchining bu asari mana shunday ojiza, himoyaga muhtoj qalb egasi – ayol taqdirining ayanchli lahzalarini aks ettiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- (1) Ўўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. Тошкент, 2007.
- (2) Бекбергенова З. Қорақалпоқ романларида бадий нутқ поэтикаси (1980–2010 йиллар). Фил.фан. докт. (DSc) дисс. автореферати, Нукус, 2017.
- (3) Каниязова Ж. Ш. Сейтов романларида характер яратиш маҳорати («Халқобод» роман-тетрологияси мисолида). Нукус, 2017.
- (4) Досимбетова А. Адебиатта кóркemlew қuralları. Nókis, 2017.
- (5) Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент, “Фан”, 1983.
- (6) Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари. Филол. фан. докт. дисс., Тошкент, 1999.
- (7) Мўминов С. Окказионал-нутқий номинацияда мотивациянинг ўрни. Филол.фан.ном...дисс., Т., 1991.
- (8) Сейтов Ш. Қашқын. Нөкис, “Жети ықлым”, 2021.

Ro'zmetov Hamid Qalandarovich (f.f.n., UrDU dotsenti; e-mail: [hamid10\\_08@mail.ru](mailto:hamid10_08@mail.ru)),  
Avezberdiyeva Nafisa Komuljonovna (UrDU tayanch doktoranti; e-mail: [nafisa.french.teacher@gmail.com](mailto:nafisa.french.teacher@gmail.com))  
MASHHUR FRANSUZ ERTAKNAVISI SHARL PERRONING "O'TMISH HIKOYALARI  
YOKI ERTAKLARI" TO'PLAMINING G'OYAVIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk fransuz adibi, ertakshunos Sharl Perroning "O'tmish hikoyalari yoki ertaklari" ("Histoires ou Contes du temps passé avec des moralités") to'plamining yaratilish tarixi, buguni va unda mujassamlashgan sakkizta ertakning mazmun-mohiyati bilan birga, uning g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, ertak, ertaknavis, qahramon, mifologiya, ertakning g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati, to'plam, ezgulik, yovuzlik, adolat, ma'naviyat, yosh avlod.

#### МОРАЛЬ СБОРНИКА СКАЗКИ «ИСТОРИИ ИЛИ СКАЗКИ БЫЛЫХ ВРЕМЕН С ПОУЧЕНИЯМИ» ЗНАМЕНИТОГО ФРАНЦУЗСКОГО СКАЗОЧНИКА ШАРЛЯ ПЕРРО

**Аннотация.** В статье обсуждается история создания сборника сказок великого французского писателя и сказочника Шарля Перро под названием «Истории или сказки былых времен с поучениями», анализируется содержание и мораль восьми сказок.

**Ключевые слова:** фольклор, детская литература, сказка, сказочник, герой, мифология, мораль сказки, сборник, доброта, злоба, справедливость, духовность, молодое поколение.

#### «MORAL VALUE OF THE COLLECTION "STORIES OR TALES OF PAST TIMES" BY THE FAMOUS FRENCH FAIRY TALE WRITER CHARLES PERRAULT»

**Annotation.** In this article, the history of the creation of the collection of the great French writer, storyteller Charles Perrault "Stories or Tales of the Past" ("Histoires ou Contes du temps passé avec des moralités"), with the main gist of the eight fairy-tales embodied in it, and also the ideological and educational significance are discussed.

**Key words:** folklore, children's literature, fairytale, hero, mythology, morality of fairytale, good and evil sides, fairness, young generation, spirituality

**Taqrizchi J.A. Yaqubov, f.f.d., professor**

**Kirish.** Ertak-xalq og'zaki ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli, sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar bo'lib, asosan, nasr shaklida yaratiladi.

Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. "Ijtimoiy ahamiyatini yo'qotgan mif ertakka aylanadi" [1;37-b.]. Xalq ertaklarida eli, vatani uchun kurashuvchi mardona qahramonlar ulug'lanadi, ayollarining haq-huquqlari himoya qilinadi, olis masofalar yaqin qilinadi, kishilar xarakteridagi salbiy odatlar, no-maqbul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g'oyalari ulug'lanadi.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, ertaklar, asosan, didaktik vazifani bajaradi. Dunyoning mashhur ertakchilari fransiyalik Sharl Perro, daniyalik Hans Kristian Andersen, germaniyalik aka-uka Grimmlar, rossiyalik Aleksandr Sergeyevich Pushkinning mumtoz adabiy ertaklari jahon madaniyati xazinasiga kiritilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidir. Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxoniga tez yetib boradi. Rus folklorshunosi Vladimir Proppning fikricha haqiqiy kitobxon hardim uni ijodiy yondashib o'qiydi [2; 56-b.].

O'tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchillik kurashi o'zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alaba qozonishi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo'ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Ana shu o'rinda ertak janrida birinchilardan bo'lib ijod qilishni boshlagan buyuk fransuz yozuvchisi va tanqidchisi Sharl Perro qalamiga mansub ertaklarning g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz. Sharl Perro badiiy ertaklar ijod etishdan oldin xalq og'zaki ijodini mehr va ishtiyoq bilan chuqur o'rganadi. Shuning uchun ham u o'z ertaklarida xalq udumlarini dadil ilgari suradi. U 12-yanvar 1628-yil

Parijda tug‘ilgan. Kollejda a‘lo baholarga o‘qigan Perro advokat, Fanlar akademiyasida kotib bo‘lib ishlagan. Lyudovik XIV saroyida alohida mavqega ega shaxs bo‘lgan, bir qancha she‘rlar, poemalar va tanqidiy asarlar yozgan.

Jahon ertaklari ensikopediyasida Sharl Perro eng oliyjanob ertakchi sifatida e‘tirof etiladi. Albatta, Perroning adabiyot sohasidagi buyuk xizmatlaridan biri – bu uning birinchilardan bo‘lib bolalar uchun qiziqarli va samimiy ertaklar yozganligidir [3;63-b.]. Sharl Perroning ertakshunoslik sohasidagi xizmatlari dunyo folklorshunoslari tomonidan alohida e‘tirof etilib, ijodiy faoliyati bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, aka-uka Grimmlar yozuvchi faoliyatiga chuqur hurmat bilan qarab, chinakam ertak to‘plash an‘anasiga asos solganligini ta‘kidlaydilar [4;92-b.].

1697-yilda Sharl Perro tomonidan nashr qilingan “O‘tmish hikoyalari yoki ertaklari” (“Histoires ou Contes du temps passé avec des moralités”) to‘plami bolalar adabiyotining ilk namunasi hisoblanadi. Bu to‘plam chop etilgandan so‘ng, yomg‘irdan keyin chiqqan qo‘ziqorindek ko‘plab bolalar uchun asarlar dunyoga kela boshladi.

Ma‘lumki, bizgacha Sharl Perroning 11 ta ertagi yetib kelgan. Shulardan 3 tasi she‘riy shaklda bo‘lib, 1691-yilda yozilgan “Ona g‘oz ertaklari” (“Les Contes de ma mère l’Oye”) to‘plamiga kiritilgan. Bu ertaklar “Grezedilis” (“Grisélidis”), «Kulguli tilaklar» («Les Souhaits ridicules», «Eshak terisi» («Peau d’âne») deb nomlangan [5;6–7-b.].

Qolgan 8 ta ertak esa «O‘tmish hikoyalari yoki ertaklari» (“Histoires ou Contes du temps passé avec des moralités”) to‘plamiga kiritilgan. Ayrim manbalarga ko‘ra, bu to‘plam Sharl Perro nomi bilan emas, uning kichik o‘g‘li Pierre Darmancour Perrault nomi bilan nashr qilingan va Quyosh-qirol Lyudovik XIV ning orleanlik jiyani bo‘lgan malikaga tuhfa etilgan. Bu to‘plamga kiruvchi ertaklar quyidagicha nomlangan: «Uyqudagi go‘zal» («La Belle au Bois dormant»), «Qizil qalpoqcha» («Le Petit Chaperon rouge»), «Etik kiygan mushuk» («Le Maître Chat ou Le Chat botté»), «Kulqiz» («Cendrillon»), «Kichkina Puse» («Le Petit Poucet»), «Parilar» («Les Fées»), «Kokilli Riki» («Riquet à la houppe»). Har bir ertak so‘ngida ertakning g‘oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati she‘riy tarzda berilgan.

«Uyqudagi go‘zal» ertagining bosh qahramoni go‘zal va yoqimtoy malika bo‘lib, u qirol va qirolichaning intizorlik bilan kutgan yakka-yu yagona farzandi edi. Qirol malikaning cho‘qintirish marosimiga mamlakatdagi barcha parilarni taklif qiladi va parilar har biri malikaga eng yaxshi tilaklarni bildirib, unga mo‘jizaviy go‘zallikni tuhfa etishadi. Ammo o‘sha mamlakatda yana bitta qari sehrgar pari ham bor edi, uni malikaning cho‘qintirish marosimiga taklif etishmaydi. Bundan qattiq ranjigan pari malikani o‘n olti yoshga yetganida qo‘lini urchuq bilan kesib olamdan o‘tishini aytib duoibad qiladi. Yuz yildan so‘ng qo‘shni mamlakat Shahzodasi ovga chiqqan paytida tasodifan la‘natlangan saroyga kelib qoladi va malikani jodudan xalos etib, u bilan baxtiyor hayot kechiradi.

Bu ertakni yosh-u qari birdek sevib mutolaa qilgan va har bir kitobxon o‘qigan ertagidan o‘ziga tegishli xulosa chiqaradi. Yozuvchi bu ertak orqali insonlarni har qanday sinovni sabr-matonat bilan yengib o‘tish lozimligini uqdiradi. Sabr-toqatlik insoniylikning muhim fazilatlaridan biri ekanligini ta‘kidlab, qanoat qilgan odam, albatta, baxt-saodatga erishishi aniq ekanligiga ishora qiladi.

To‘plamdagi ikkinchi ertak «Qizil qalpoqcha» deb nomlangan. Albatta, bu ertakni o‘qimagan yoki tinglamagan bola bo‘lmasa kerak. Bu ertakning bosh qahramoni har doim, har joyda buvisi tikib bergan qizil qalpoqchani kiyib yuradigan kichkina qizaloq.

Bir kuni Qizil qalpoqchanning onasi kulcha yopib, ko‘zachaga sariyog‘ solib kasal yotgan buvisini ko‘rib kelishini aytadi. Qizil qalpoqcha qishloqda yashaydigan buvisini ko‘rib kelish uchun darhol yo‘lga tushadi. O‘rmonni kesib o‘tayotib, bo‘riga to‘qnash keladi. Bo‘ri qizchani judayam yegisi keladi, biroq o‘rmonda o‘tin chopib yurgan o‘rmonchilar borligini bilib, bunga jur‘at etolmaydi va undan qayerga ketayotganligini so‘raydi. Bo‘ri bilan gaplashish xavfli ekanligini bilmagan bechora qizcha tegirmon orqasidagi qishloqda yashaydigan kasal buvisini ko‘rishga ketayotganini aytadi. Ertak nihoyasida bo‘ri Qizil qalpoqchani buvisini va uning o‘zini ham yeb qo‘yadi.

Bu ertak orqali yuzuvchi bolalarni ehtiyotkor va hushyor bo‘lishga chorlaydi. Ertaknavis nima yaxshi-yu nima yomonligini ko‘rsatish uchun ertakni fojiali tarzda yakunlashga majbur bo‘ladi. Sodda va beg‘ubor bolajonlarga begonalarga o‘z sirlarini oshkor etmaslikka va ular bilan muloqot qilish xavfli ekanligini ta‘kidlaydi.

To‘plamning uchinchi ertagi “Moviy saqol” deb nomlanadi. Bu ertakning bosh qahramoni juda badavlat, ammo qahri toshdek qattiq, zolim Moviy saqol, salbiy obraz orqali talqin etiladi. Undan ayollar qo‘rqardi. Boshqalardan farqli ravishda, uning soqoli moviy edi. Uning qo‘shnisining Kadet ismli qiziga uylanadi. To‘ydan so‘ng ular yaxshi hayot kechira boshlashadi. Bir kuni Moviy saqol ish yuzasidan olti

haftalik safarga ketayotganini aytib unga uyning barcha kalitlarini, hatto oltin-kumushlari turgan xonaning ham kalitlarini topshiradi, biroq pastki qavatdagi kichkina xonaning eshigini zinhor ochmaslikni ta'kidlab, uning kalitini ham Kadetning qo'liga tutqazadi va jo'nab ketadi. Kadet hashamdor uyning barcha xonalarini aylanib chiqadi va pastgi qavatdagi kichkina uyning oldiga kelganida biroz o'ylanib qoladi. Chunki eri bu xonaga kirishni qat'iy taqiqlagan edi. Undagi qiziqish ustunlik qilib, ta'qiqlangan xonaga kiradi. O'sha kuni tunda Moviy saqol safardan qaytib keladi. Xotinidan kalitlarni olayotib, qonga belangan kalitni ko'radi va kirishni taqiqlagan xonaga kirganligini bilib oladi. G'azabdan aqlini yo'qotgan Moviy saqol Kadetni ham o'ldirmoqchi bo'ladi. Ammo ertak yaxshilik bilan tugaydi. Kadetning akalari kelib uni o'limdan qutqarib qolishadi. Moviy saqolni esa o'ldirishadi. Uning barcha boyliklari Kadetga qoladi.

Ertakning g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'ta qiziquvchanlik har doim ham yaxshilikka olib kelavermaydi. Har qanday taqiqlangan narsa chuqur mulohaza qilishni talab qiladi. Hushyor va sergak bo'lish insonlarga doim to'g'ri yo'lni ko'rsatishda yordam beradi. Tashqi ko'rinishga qarab insonga baho berib bo'lmaydi.

“O'tmish hikoyalari yoki ertaklari” to'plamidagi to'rtinchi ertak “Janob Mushuk yoki Etik kiygan Mushuk” deb nomlanadi. Bu ertakning bosh qahramoni uddaburon Mushuk. Bir tegirmonchining uchta o'g'li bo'ladi va o'limidan oldin bor bisotini o'g'illariga taqsimlab beradi. Katta o'g'liga tegirmonini, ikkinchisiga eshagini va uchinchi o'g'liga mushugini meros qilib qoldiradi. Kichkina o'gil o'ziga tekkan ulush haqida o'ylab siqilib o'tirgan payti, mushuk uning oldiga kelib, unga bir juft etik berishini va uning barcha muammolarini hal qila olishini aytadi. Mushuk o'zining xo'jayiniga Markiz de Karabas deb nom qo'yadi. Ular turli sarguzashtlarni boshdan kechirib, ertak nihoyasida katta boylikka va hashamdor qasrga ega zalogonga aylanishadi.

Ertakning g'oyaviy mazmuni insonlarni qanoatli bo'lishga chorlaydi. Boriga shukur qilib, aql va uddaburonlik bilan harakat qilgan inson barcha maqsadlariga yeta olishi mumkinligi ta'kidlanadi. Perro qahramonlari o'z mehnatsevarliklari hamda saxiyliklari bilan ajralib turadilar. G'arazgo'ylik, maqtanchoqlik, qizg'anchilik o'rmini yaxshilik, mehribonlik bosib ketishi hamon kitobxonni shod etib kelmoqda. Ertakda aqllilik, bilimdonlik, topag'onlik bosh masala qilib qo'yiladi. Boshqa asarlarida bo'lgani kabi Sh.Perro bu ertakda ham folklor an'analari yana bir bor sodiq qoladi. Ertak qahramoni – tegirmonchining kenja o'g'li Karabas fahm-farosat, aql bilan ish ko'rib, o'z murod-maqsadiga yetadi.

Beshinchi ertak “Parilar” deb nomlanadi. Bu ertakning motivi va sujeti o'zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” ertagi bilan mushtarakdir. Bir beva ayolning ikkita qizi bor edi. Kattasi quyib qo'ygandek onasiga o'xshardi. Beo'xshov va juda manman edi. Kichigi bo'lsa xuddi otasiga o'xshagan mehnatsevar, oqila va shirinso'z edi. Uy yumushlarining bari uning zimmasiga yuklatilgan edi. U kuniga ikki marotaba o'rmonda buloqdan uyiga suv olib kelardi. Bir kuni buloq boshida unga bir kekxa ayol suv berishini so'raydi. Oqko'ngil qiz unga to'ygunicha suv beradi. Kekxa ayol qiyofasiga kirib olgan sehrgar pari qizning qilgan yaxshiligi uchun unga hadya qilishni xohlaydi. Gapirganida uning og'zidan gullar va dur-u javohirlar chiqadigan fazilatni hadya qiladi. Uyiga kech borgan qizni onasi rosa koyiydi. Bo'lgan voqeani aytib berayotgan chog'ida uning og'zidan dur-u javohirlar chiqayotganini ko'rgan ona lol-u hayron bo'lib qoladi va katta qizini ham darhol o'sha joyga olib borishini buyuradi. Bu qiz juda qo'pol, dangasa va betakalluf edi. O'sha pari undan ham ichishga suv so'raydi, ammo qiz uni rad etib, qo'pol muomala qiladi. Shundan so'ng pari qattiq ranjib, bu qiz gapirganida og'zidan ilon va qurbaqalar chiqadigan qilib qo'yadi. Bo'lgan voqeada kichik qizini aybdor sanagan ona uni uyidan haydab yuboradi. Ovdan qaytayotgan shahzoda uni o'rmonda ko'rib qolib saroyiga olib ketadi va unga uylanib, baxtli hayot kechirishadi. Og'zidan ilon va chayonlar chiqayotgan qizni hamma yomon ko'radi, hatto o'z onasi ham bunga toqat qilolmay, uyidan haydab yuboradi.

Bu ertak orqali yozuvchi bolalarni mehnatsevar, xushmuomala, shirinso'z va odobli bo'lishga undaydi. Odob eng go'zal fazilatlardan biri ekanligini kenja qizning axloqi orqali tasvirlab beradi. Manmanlik, qo'pollik va dangasalik illatlari hamisha insonga ziyon yetkazishini esa katta qiz taqdiri misolida kitobxonlar e'tiboriga havola etadi.

To'plamdagi oltinchi ertak “Kulqiz yoki kichkina billur shippak” deb nomlangan. Uning bosh qahramoni Kulqiz. Sharl Perroning barcha personajlari pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadi. Ularning ko'pchiligi odamlarni, hayvon-u parrandalarni sevib, erkalab, e'zozlaydigan bo'ladilar. Kulqizni (“Cendrillon”) olaylik. Uni o'gay ona-yu qizlar xush ko'rmaydilar, xolos. Qolgan barcha jonzot uni yaxshi ko'radi. Uning o'z baxtini topib, osoyishta turmush kechirishini istaydi. Kulqiz juda chiroyli, odobli, shirinso'z, kamtarin, odamlarga, jonivor-u parrandalarga nisbatan mehribon. Uning bunday fazilatlarini, mehnat, halollik va poklik bilan hayotda o'z o'rnini topishi, sevganiga turmushga chiqib, baxtli bo'lishi ertak tinglovchida yaxshi taassurot qoldiradi.

Keyingi ertak esa “Kokilli Rike” deb nomlanadi. Ertakning asosiy qahramoni Kichkina, ko‘rimsiz, xunuk Rike (Riquet) ismli shahzoda. U qanchalik xunuk bo‘lsa, shunchalik aqlli va dono edi. Boshida bir tutam soch bilan tug‘ilganligi uchun uni hamma kokilli Rike deb atashardi. Qo‘shni qirollikda Rike yetti-sakkiz yoshlariga yetganida ikkita qizaloq dunyoga keladi. Ularning biri juda go‘zal va ikkinchisi juda xunuk edi. Kattasi qanchalik suluv bo‘lsa, shunchalik ahmoq, kichigi qanchalik ko‘rimsiz bo‘lsa, shunchalik aqlli va zehni edi.

Bu ertak zamirida biz yosh avlodni bilimli, aqlli, zehni o‘tkir qilib tarbilayalashda, tashqi go‘zallik emas, balki qalb go‘zalligi muhim ekanligini anglashda samarali vosita hisoblanadi.

“O‘tmish hikoyalari yoki ertaklar” to‘plamining so‘nggi ertagi “Barmoqvoy” (“Le petit Poucet”) deb nomlangan. Ertak qahramonlari ko‘p farzandli, kambag‘al o‘tinchilar oilasi. Ularning yettita farzandi bo‘lib eng kenjasi juda kichkina, ammo aqlli, uddaburon va epchil edi. Bu ertakning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ertak qahramoni uddaburonligi va zukkoligi bilan aka-ukalarini, oilasini o‘limdan va ochlikdan qutqarib qoladi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, ertaklarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati go‘yatda muhimdir. Ertak tinglash orqali bolalarda real hayot haqidagi ilk tasavvurlar paydo bo‘ladi. Qahramonlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabati, sarguzashtlari, taqdiri ularda katta qiziqish uyg‘otadi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiylaydigan baynalmilal badiiy quroldir. Xalqimizda «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» degan naql bor. Ular shunchaki ko‘ngil ochish vositasi, ermak emas, balki ajoyib suhbatdosh, bizni faqat ezgulikka undovchi, zavq-shavq bag‘ishlovchi ma‘naviy manbadir. Shu o‘rinda fransuz va o‘zbek ertaklarining hududlar kesimida (masalan, “Normandiya ertaklari” va “Xorazm ertaklari”) motiv va sujetlarining lingvomadaniy jihatlarini qiyosiy o‘rganish va ularni tarjima qilish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Владимир Пропп. «Морфология сказки». Москва, «Колибри», 1928.
- (2). Владимир Пропп. «Фольклор и действительность» СПб., «Азбука», 2022.
- (3). Jo‘rayev M. «Folklorshunoslik asoslari» Darslik, T., «Fan», 2006.
- (4). Якоб Гримм. «Германская мифология». Берлин, 1835.
- (5). Charles Perrault. «Histoires ou Contes du temps passe». Original, 1697.
- (6). Safarov O. «O‘zbek xalq og‘zaki ijodi». Darslik, T., «Musiq» nashriyoti, 2010.
- (7). Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvikognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Diss.filol.fan.dok., T., 2017.

Bekchonova Shoira Bazarbayevna (Yangi asr universiteti “Umumta’lim fanlari” kafedrasi mudiri,  
PhD, dotsent; e-mail: bshb79@mail.ru)

**KIBERPEDAGOGIKA ORQALI DARS JARAYONINI AMALIY MASHG‘ULOTLARGA  
YO‘NALTIRISHDA TA’LIM SAMARADORLIGI**

*Аннотация.* Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanayotgan raqamli pedagogika, elektron pedagogika va oflayn/onlayn pedagogikani o‘zida jamlagan kiberpedagogikani onlayn va raqamli muhitda o‘qitish bilan bog‘liq nazariyalar va amaliy jarayonlarni o‘z ichiga olgan hamda bir qancha taniqli nazariyalar va tadqiqotchilar kiberpedagogikani tushunish va rivojlantirishining tahlilij jarayonlari yoritilgan.

**Калит so‘zlar:** onlayn ta’lim, raqamli ta’lim, kiberpedagogika, elektron pedagogika, amaliy jarayonlar, nazariya, tadqiqotchilar, ta’lim, talaba.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ  
КИБЕРПЕДАГОГИКИ ДЛЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ УЧЕБНЫХ  
ЗАНЯТИЙ**

*Аннотация.* В статье представлены теории и практические процессы, связанные с он-лайн и цифровым обучением кiberпеддагогике, включая цифровую педагогика, электронную педагогика и оффлайн/онлайн-педагогика, а также несколько известных теорий и исследователей кiberпеддагогика. Особое внимание уделяется пониманию и развитию данного понятия.

**Ключевые слова:** онлайн-образование, цифровое образование, кiberпеддагогика, электронная педагогика, практические процессы, теория, исследователи, образование, студент.

**EFFICIENCY OF EDUCATIONAL PROCESS THROUGH CYBERYPEDAGOGICS FOR  
PRACTICAL TRAINING**

*Annotation.* This article presents theories and practical processes related to online and digital teaching of cyber pedagogy, including digital pedagogy, e-pedagogy, and offline/online pedagogy, as well as several well-known theories and researchers on cyber pedagogy. Analytical processes of understanding and development are highlighted.

**Key words:** online education, digital education, cyber pedagogy, electronic pedagogy, practical processes, theory, researchers, education, student.

**Kirish (Introduction).** Hozirgi kunda raqamli pedagogika, elektron pedagogika va oflayn/onlayn pedagogikani o‘zida jamlagan kiberpedagogika onlayn va raqamli muhitda o‘qitish bilan bog‘liq nazariyalar va amaliy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bir qancha taniqli nazariyalar va tadqiqotchilar kiberpedagogikani tushunish va rivojlantirishga hissa qo‘shadilar.

**Kiberpedagogikani tushunish va rivojlantirishga hissa qo‘shgan nazariyalar va tadqiqotchilar**

- Konnektivizm (Jorj Siemens).
- Konstruktivizm va onlayn ta'lim (Jonassen, Garrison va Anderson).
- Tekshiruv hamjamiyati (Garrison, Arbaugh va Klivlend-Innes).
- Onlayn hamkorlikda o‘rganish (Dillenbourg va Harasim).
- Onlayn ta'lim uchun o‘quv dizayni (Merrill, Mur va Bates).
- Onlayn ta'lim samaradorligi va sifati (Picciano, Allen va Means)..

1-rasm. Kiberpedagogikani tushunish va rivojlantirishga hissa qo‘shgan nazariyalar va tadqiqotchilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).**

Kiberpedagogikaga oid olimlar ishlaridan bir nechtasi:

1. Konnektivizm (Jorj Siemens). Konnektivizm o‘rganishda tarmoqlar va ulanishlarning muhimligini ta’kidlaydi. Jorj Siemens texnologiya va raqamli tarmoqlarning bilimlarni yaratish va onlayn sharoitlarda mazmunli o‘rganishni rivojlantirishdagi rolini o‘rganib chiqdi.

2. Konstruktivizm va onlayn ta'lim (Jonassen, Garrison va Anderson). Devid Jonassen, Terri Anderson va Rendi Garrison kabi tadqiqotchilar konstruktivizm tamoyillarini onlayn ta'lim muhitida qanday qo'l-lash mumkinligini o'rganib chiqdilar. Ular raqamli kontekstda faol ishtirok etish, hamkorlikda o'rganish va talabalarning avtonomiyasini rag'batlantirish strategiyalarini o'rganadilar.

3. Tekshiruv hamjamiyati (Garrison, Arbaugh va Klivlend-Innes). D.Rendi Garrison, Karen Swan va Marta Klivlend-Innes tomonidan onlayn yoki aralash ta'lim muhitida ishlab chiqilgan so'rovlar hamjamiyati asosi ijtimoiy mavjudlik, kognitiv mavjudlik va o'qitishning mavjudligiga qaratilgan. Bu samarali onlayn ta'lim tajribalarini loyihalash va baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.


4. Onlayn hamkorlikda o'rganish (Dillenbourg va Harasim). Per Dillenbourgning kompyuter qo'llab-quvvatlanadigan hamkorlikda o'rganish (CSCL) bo'yicha tadqiqoti texnologiya qanday qilib hamkorlikda muammolarni hal qilish, bilim almashish va onlayn sozlamalarda guruh dinamikasini osonlashtirishi mumkinligini o'rganadi. Onlayn ta'lim sohasida kashshof bo'lgan Linda Xarasim, shuningdek, hamkorlikda o'rganish nazariyalari va onlayn ta'limda ijtimoiy o'zaro ta'sirning ahamiyatini o'rganib chiqdi.

5. Onlayn ta'lim uchun o'quv dizayni (Merrill, Mur va Bates). Devid Merril, Maykl Mur va Toni Beyts kabi tadqiqotchilar onlayn ta'lim uchun o'quv dizayni sohasiga hissa qo'shgan. Ular samarali onlayn ta'lim tajribalarini loyihalash bo'yicha pedagogik yondashuvlar, strategiyalar va ilg'or tajribalarga, jumladan, o'quv materiallari, o'zaro ta'sir va baholashga oid fikrlarni ko'rib chiqadi.

6. Onlayn ta'lim samaradorligi va sifati (Picciano, Allen va Means). Entoni Picciano, Elaine Allen va Barbara Means tomonidan olib borilgan tadqiqotlar onlayn ta'limning samaradorligi va sifatini tekshirishga qaratilgan. Ular talabalarning natijalarini, ushlab turish darajasi, faollik va onlayn ta'lim muvaffaqiyati bilan bog'liq boshqa omillarni o'rganadilar.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bular kiberpedagogika nazariyasi va amaliy jarayonlariga hissa qo'shgan tadqiqotchilarning bir nechta misollaridir. Sohaning dinamik tabiatini hisobga olgan holda, aralash ta'lim, adaptiv ta'lim, o'rganish tahlili va immersiv texnologiyalar kabi mavzularni o'rganuvchi yangi nazariyalar, asoslar va tadqiqotchilar paydo bo'lishda davom etmoqda. Kiberpedagogika bo'yicha joriy tadqiqotlar haqida xabardor bo'lish o'qituvchilar va o'qituvchi dizaynerlari uchun o'zlarining o'qitish amaliyotlarini xabardor qilishlari va samarali onlayn ta'lim tajribalarini yaratishlari uchun juda muhimdir.

Amaliy mashg'ulotlarda kiberpedagogikadan foydalanish o'quv jarayoni samaradorligini bir necha jihatdan oshirishi mumkin:



2-rasm. Kiberpedagogikadan amaliy mashg'ulotlarda o'quv jarayoni samaradorligini oshirish usullari.



1. Haqiqiy dunyo simulatsiyalariga kirish. Kiberpedagogika talabalarga real hayotdagi amaliy ssenariylarni chambarchas takrorlaydigan real simulatsiyalar va virtual muhitlarda qatnashish imkoniyatini beradi. Bu talabalarga xavfsiz va boshqariladigan raqamli muhitda amaliy tajriba orttirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

2. Vaqt va joyning moslashuvchanligi. Kiberpedagogika bilan amaliy mashg'ulotlar vaqt va joylashuv nuqtai nazaridan moslashuvchanlikni ta'minlab, masofadan turib o'tkazilishi mumkin. Talabalar amaliy o'quv materiallari, resurslari va simulatsiyalardan o'zlariga qulay vaqtda foydalanishlari mumkin, bu esa shaxsiylashtirilgan va o'z-o'zidan o'rganish tajribasini olish imkonini beradi.

3. Darhol fikr-mulohaza va baholash. Kiberpedagogik vositalar, ko'pincha, amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilar faoliyatini bir zumda qayta aloqa va baholashni ta'minlaydi. Bu o'quvchilarga real vaqt rejimida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash, o'rganishni kuchaytirish va ularga o'z ko'nikmalarini samarali tarzda oshirishga yordam beradi.

4. Kengaytirilgan multimedia resurslari. Kiberpedagogika amaliy mashg'ulotlarni to'ldirishi mumkin bo'lgan videolar, interaktiv modullar va virtual reallik ilovalari kabi multimedia resurslarini taklif etadi. Ushbu manbalar amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etadigan tushunchalar va ko'nikmalarni chuqurroq tushunishga yordam beradigan vizual va interaktiv namoyishlarni taqdim etishi mumkin.

5. Hamkorlik va bilim almashish. Kiberpedagogika talabalarga virtual platformalar orqali tengdoshlari, o'qituvchilari va soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. Bu bilim almashish, muhokama qilish va muammolarni hal qilishga yordam beradi, amaliy mashg'ulotlar tajribasini boyitadi va jamiyat va ishtirok tuyg'usini rivojlantiradi.

6. Iqtisodiy samaradorlik. Kiberpedagogik yondashuvlar ko'pincha an'anaviy amaliy o'qitish usullariga nisbatan kamroq jismoniy resurslar va infratuzilmani talab qiladi. Bu ta'lim muassasalarining sayohat xarajatlari, asbob-uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va moddiy xarajatlar kabi xarajatlarni tejash imkonini beradi.

7. Uzluksiz o'rganish va o'z-o'zini aks ettirish. Kiberpedagogika rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlardan tashqari resurslar va materiallarga kirishni ta'minlash orqali uzluksiz o'rganish va o'z-o'zini aks ettirishni qo'llab-quvvatlaydi. Talabalar o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqishlari, o'z-o'zini boshqarish amaliyoti bilan shug'ullanishlari va amaliy ko'nikmalarni chuqurroq tushunish va o'zlashtirishga yordam berishlari mumkin.

8. Kuzatuv va tahlil. Kiberpedagogikada qo'llaniladigan raqamli vositalar va platformalar o'quvchilar faoliyatini, taraqqiyotini va faolligini kuzatishi va tahlil qilishi mumkin. Ushbu qimmatli ma'lumotlar o'qituvchilarga talabalarning o'rganish ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlari haqida ma'lumot berishi va ke-lajakdagi amaliy mashg'ulotlarni shunga mos ravishda moslashtirishga yordam beradi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Dars jarayonini kiberpedagogika orqali amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirishda ta'lim samaradorligini tahlil qilish va baholash o'qitish va o'qitish jarayonida texnologiya va raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi. Bu yerda ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan ba'zi asosiy jihatlar:

1. Talabalarning faolligi va ishtiroki. Kiberpedagogika orqali olib boriladigan amaliy darslarda talabalarning faolligi va ishtiroki darajasini tahlil qilish. Talabalarning onlayn munozaralarda faol ishtirok etishi, interfaol topshiriqlar yoki topshiriqlarni bajarishi, ularning umumiy motivatsiyasi va mavzuga qiziqishi kabi omillarni hisobga oling.

2. O'quv natijalari va bilimlarni o'zlashtirish. Kiberpedagogikadan foydalangan holda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning kerakli ta'lim natijalariga qay darajada erisha olishlari va bilimlarni egallashlarini baholash. Bu talabalarning amaliy tushunchalarni tushunishlarini, nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini va amaliy mashg'ulotlar natijasida olingan natijalar yoki loyihalarning sifatini baholashni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Ko'nikmalarni rivojlantirish. Kiberpedagogika orqali o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilar malakasini oshirishga ta'sirini ko'rib chiqing. Bu raqamli vositalar va texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq texnik ko'nikmalarni egallashni, shuningdek, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish, hamkorlik va moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Teskari aloqa va baholash. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalarga bildirilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilish va qo'llanilgan baholash usullarining samaradorligini baholash. Fikr-mulohazalarning ravshanligi va o'z vaqtida bo'lishini, uning o'quv maqsadlariga mos kelishini hamda o'quvchilarning taraqqiyoti va rivojlanishini qanday qo'llab-quvvatlashini ko'rib chiqing.

5. Texnologiya integratsiyasi. Amaliy darslarga turli texnologik vositalar va resurslar qanchalik samarali integratsiya qilinganligini baholang. Raqamli vositalardan foydalanish qulayligi va ulardan foydalanish imkoniyatini, ularning dolzarbligi va aniq amaliy vazifalarga mosligini va ular o'quv jarayonini qanchalik osonlashtirganini ko'rib chiqing.

6. Talabalarning qoniqishi va ta'lim tajribasi. Kiberpedagogika orqali osonlashtirilgan amaliy mashg'ulotlar davomida talabalarning qoniqish va umumiy o'rganish tajribasini baholash. Bu amaliy darslarning samaradorligi va texnologiyadan foydalanish tajribasi to'g'risida talabalarning nuqtayi nazarini to'plash uchun so'rovlar, suhbatlar yoki boshqa qayta aloqa usullari orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Pedagoglar ana shu jihatlarni tahlil qilib, kiberpedagogika orqali dars jarayonini amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirish samaradorligini aniqlashlari mumkin. Natijalar kuchli tomonlari va yaxshilanishi kerak bo'lgan yo'nalishlar to'g'risida tushuncha beradi, shuningdek, ta'lim samaradorligi va o'quvchilarning ta'lim natijalarini oshirish uchun kelajakdagi o'quv dizayni va pedagogik yondashuvlarini yo'naltiradi.

Kiberpedagogika amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirishi mumkin bo'lsa-da, virtual va real dunyo tajribasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimdir. Onlayn amaliyotni amaliy qo'llash bilan birlashtirish va shaxsan o'zaro muloqot qilish va fikr-mulohazalar uchun imkoniyatlarni taqdim etish keng qamrovli amaliy mashg'ulotlar natijalariga erishishda qimmatlidir. Bundan tashqari, o'qituvchilar va o'quvchilarni to'g'ri tayyorlash va qo'llab-quvvatlash kiberpedagogikadan amaliy mashg'ulotlarda samarali foydalanish uchun juda muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). Allen I.E. & Seaman, J. (2015). Grade level: Tracking online education in the United States. Online Learning Consortium.
- (2). George Siemens. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. [https://www.itdl.org/Journal/Jan\\_05/article01.htm](https://www.itdl.org/Journal/Jan_05/article01.htm). Jan 2005, Index, 1 – 9 p.
- (3). Terry Anderson. The Theory and Practice of Online Learning. Copyright © 2008 Terry Anderson Fifth printing, 2011, 484 p.
- (4). Garrison D.R., & Arbaugh, J.B. (2007). Researching the community of inquiry framework: Review, issues, and future directions. Internet and Higher Education, 10 (3), p. 157 – 172.
- (5). Harasim L. (2012). Learning theory and online technologies. Routledge. <https://www.lindaharasim.com/online-collaborative-learning/>
- (6). Harasim L. (1993). Collaborating in Cyberspace: Using computer conferences as a group learning environments. Interactive Learning Environments, 3(2), pp. 119 – 130.
- (7). Bates A.W. (1993). Theory and practice in the use of technology in distance education. In D. Keegan (Ed.), Theoretical Principles of Distance Education. Routledge. London, U.K.
- (8). Bloom B. (1984). The 2 sigma problem: The search for methods of group instruction as effective as one-to-one tutoring. Educational Researcher, 13(6), pp. 4 – 16.
- (9). Merrill D. (1983). Component display theory, in Reigeluth, C. (Ed.), Instructional-Design Theories and Models. LEA, Publ. Hillsdale, New Jersey.
- (10). Moore M.G. (1993). Theory of transactional distance. Theoretical Principles of Distance Education 1, 22 – 38 p.
- (11). Picciano, A.G. (2002). Beyond student perceptions: Issues of interaction, presence, and performance in an online course. Journal of Asynchronous Learning Networks, 6(1), p. 21 – 40.
- (12). Jonassen David, et al. Constructivism and Computer-Mediated Communication in Distance Education. The American Journal of Distance Education. 9.2 (1995), p. 7 – 26.
- (13). Dillenbourg, P., & Jermann, P. (2007). Designing integrative scripts. In F.Fischer, H.Mandl, Haake & I. Kollar (Eds.), Scripting computer supported communication of knowledge: Cognitive, computational and educational perspectives (pp. 275–301), New York.
- (14). Martha Cleveland-Innes, Nathaniel Ostashevski, Daniel Wilton, Carmen Jensen-Tebb. Report of the Massive Open Online Course on Blended Learning Practice (BLPMOOC8). Athabasca University Commonwealth of Learning, 39 p.

**Zaripov Nozimbek Nayimovich (Buxoro davlat Pedagogika instituti doktoranti (PhD), dotsent)**

#### **AXBOROTNI TO'G'RI VA TESKARI KODLASHNING ARIFMETIK ASOSLARINI O'QITISH METODIKASI**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuterda axborotlarni to'g'ri, teskari va to'ldiruvchi kodlashning arifmetik asoslarini o'qitish metodikasi yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada musbat va manfiy sonlar*

kompyuterda qanday ko'rinishda yozilishi, berilgan son kodini aniqlash yo'llari o'rin olgan. To'g'ri, teskari hamda to'ldiruvchi kodlarni hisoblash usullariga doir misol va masalalarni bajarish metodlari batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** teskari kod, to'ldiruvchi kod, to'g'ri kod, sanoq sistema, razryad, manfiy son, ASCII kod, bit.

**Зарипов Нозимбек Найимович (докторант (DSc) Бухарского государственного педагогического института, д.ф.п.н. (PhD), доцент**

### **МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ АРИФМЕТИЧЕСКИМ ОСНОВАМ ПРЯМОГО И ОБРАТНОГО КОДИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИИ**

**Аннотация.** В данной статье представлена методика обучения арифметическим основам прямого, обратного и дополнительного кодирования информации на компьютере. Также в статье описано, как записывать положительные и отрицательные числа на компьютере, и способы определения кода данного числа. Подробно описаны примеры методов вычисления прямых, обратных и дополнительных кодов и способы решения задач.

**Ключевые слова:** обратный код, дополнительный код, прямой код, система счисления, разряд, отрицательное число, ASCII код, бит.

**Zaripov Nozimbek Nayimovich (Bukhara State Pedagogical Institute Doctoral student (DSc), Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate professor)**

### **METHODOLOGY FOR TEACHING THE ARITHMETIC BASICS OF DIRECT AND REVERSE CODING OF INFORMATION**

**Annotation.** This article presents a methodology for teaching the arithmetic basics of direct, reverse and additional coding of information on a computer. The article also describes how to write positive and negative numbers on a computer, and how to determine the code of a given number. Examples of methods for calculating direct, inverse and complementary codes and methods for solving problems are described in detail.

**Key words:** reverse code, complementary code, forward code, number system, digit, negative number, ASCII code, bit.


Hozirgi kunda informatika va raqamli texnologiyalari fanini talabalarga o'qitishda kompyuterning arifmetik va mantiqiy asoslarini to'g'ri va aniq tushuntirish, zamonaviy metodlardan foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kompyuterda axborotlarni yozilishi, manfiy sonlar ustida amallarning bajarilish usullari, berilgan belgini 8 bitda qanday ifodalanishi haqidagi bilimlarni bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilariga yetkazish ushbu soha bo'yicha yutuk mutaxassislarni tayyorlashga zamin hozirlaydi.

Kompyuterda axborotning barcha ko'rinishlari, jumladan, belgisi, raqamli va grafikli axborotlar 0 va 1 raqamlar kombinatsiyasi orqali tashkil etiladi. Axborot (raqamlar, buyruqlar, yozuvlar va boshqalar) kompyuterda qat'iy yoki o'zgaruvchan uzunlikdagi ikkilik kodlar ko'rinishida ifodalanadi [3;25-b.]. Ikkilik kodning 0 yoki 1 qiymatiga ega bo'lgan alohida elementlari bit deb ataladi. 8 bitdan iborat ikkilik kod bayt deb ataladi. Raqamlar 32 bitli formatda va 64 bitli formatda ham yoziladi.

Kompyuterlarda arifmetik amallarni bajarishni soddalashtirish maqsadida raqamlarni ifodalash uchun maxsus kodlardan foydalaniladi [2;35–38-b.]. Bular:

- to'g'ridan to'g'ri kodlash;
- teskari kodlash;
- to'ldiruvchi kodlash.

To'g'ridan to'g'ri kod manfiy raqamlarni kompyuter xotirasida, shuningdek, ko'paytirish va bo'lishni ifodalash uchun foydalaniladi [1;17-b.]. Ayirish amalini qo'shish amaliga almashtirish uchun teskari va to'ldiruvchi kodlardan foydalaniladi, bu esa kompyuterning arifmetik amallarni bajarishni soddalashtiradi. Masalan: agar kodni ifodalash uchun bir bayt asos sifatida olinsa, u holda raqamni ifodalash uchun 7 bit ajratiladi va belgilar kodini (to'g'ri, teskari, to'ldiruvchi) yozish uchun bir bit ajratiladi [1;31-b.]. Masalan: +3 va -3 sonlarini to'g'ri, teskari, to'ldiruvchi kodlardagi qiymatlarini ko'rib chiqamiz.



To'g'ridan to'g'ri kod. Ikkilik raqamning to'g'ridan to'g'ri kodi raqamning ikkilik kod ko'rinishiga mos keladi. Musbat sonlar uchun bit qiymati 0 ga, manfiy sonlar uchun esa 1 ga teng. Masalan: -83 sonini ikkilik kodini aniqlash ketma-ketligini ko'rib chiqamiz. Buning uchun, avvalo, musbat ishara bilan 83(10) sonini ikkilik ko'rinishida tasvirlaymiz:

$$83 = 1 * 2^6 + 1 * 2^4 + 1 * 2^1 + 1 * 2^0 = 1010011(2)$$

Berilgan 83(10) sonini 8 bitli ikkilik shakli quyidagicha ko'rinishida bo'ladi:

0 1 0 1 0 0 1 1

To'g'ri kodlashda hosil bo'lgan ikkilikdagi 0 va 1 ketma-ketligidagi sonning birinchi xona 1 raqami qo'yiladi.

1 1 0 1 0 0 1 1

Bundan kelib chiqadiki, 83(10) sonining to'g'ri kodi 11001011 ko'rinishida bo'ladi.

Berilgan sonni teskari kodini aniqlash uchun hosil bo'lgan ikkilik kodni mantiqiy inkor qilish orqali hosil qilinadi. Natija quyidagi ko'rinishda hosil bo'ladi:

1 0 1 0 1 1 0 0

Bundan kelib chiqadiki, 83(10) sonining teskari kodi 10110100 ko'rinishida bo'ladi. Yuqorida keltirilgan -83 sonining ikkilik kodini hosil qilish uchun teskari kodga 1 sonini qo'shamiz:

1 0 1 0 1 1 0 0  
0 0 0 0 0 0 0 1  
1 0 1 0 1 1 0 1

Demak, berilgan -83 sonining 8 bitdan iborat ikkilik kodi 11001100 ko'rinishida bo'ladi. Ushbu natijalarni qiyosiy taqqoslash orqali boshlang'ich va oxirgi ikkilikdagi qiymatlarni qo'shish orqali natijani ishonchli ekanligini ko'rish mumkin.

1 0 1 0 1 1 0 1  
0 1 0 1 0 0 1 1  
1 0 0 0 0 0 0 0

Yuqorida ta'kidlanganidek, 1 baytda 8 bit joy ajratiladi, oxirgi natijadagi 100000000 8 ta nol va 1 ta birning hosil bo'lishiga sabab, 8 ta nol  $83 + (-83) = 0$  ekanligini bildiradi. 1 ta bir esa teskari kodga ikkilik sanoq sistemasida qo'shilgan 1 raqamini ifodalaydi. Demak, natija to'g'ri ekanligi o'z isbotini topdi.

Kompyuter arifmetik amallarni bajarishda kiritilgan songa nisbatan natijalar turli xil bo'ladi. Masalan:  $-5 + (-3) = -5 - 3 = -8$  ekanligi barchamizga ma'lum. Lekin ushbu -8 natija qanday hosil bo'lishini aniqlash va bo'lajak informatika va raqamli texnologiyalar fani o'qituvchilariga zamonaviy metodlar orqali yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ushbu arifmetik ifodani bajarilish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz.

(-5) to'g'ri kod                      teskari kod                      to'ldiruvchi kod

1	0	0	0	0	1	0	1
---	---	---	---	---	---	---	---

1	1	1	1	1	0	1	0
---	---	---	---	---	---	---	---

1	1	1	1	1	0	1	1
---	---	---	---	---	---	---	---

To'g'ri koddan teskari kodga o'tishda inversiya (inkor) amalini qo'llaymiz. To'ldiruvchi kodga o'tkazishda esa doimo teskari kodga 1 raqami qo'shib olinadi. So'ngra, yuqoridagi kabi -3 sonini to'g'ri, teskari va to'ldiruvchi kodlarini hosil qilamiz.

(-3) to'g'ri kod                      teskari kod                      to'ldiruvchi kod

1	0	0	0	0	1	1
---	---	---	---	---	---	---

1	1	1	1	1	1	0	0
---	---	---	---	---	---	---	---

1	1	1	1	1	1	0	1
---	---	---	---	---	---	---	---

Yuqorida keltirilgan -5 va -3 sonlarini teskari kodini aniqlash uchun ikkilikdagi sonlar mantiqiy qo'shiladi, so'ngra hosil bo'lgan natijaga 1 raqami qo'shiladi va natijani inkor qilish orqali to'g'ri javobga erishiladi. To'ldiruvchi kodni hosil qilish uchun, avvalo, ikkita sonning ikkilik ko'rinishi qo'shiladi, so'ngra natija inkori olinadi va 1 raqami qo'shiladi.

to'g'ri kod								
-5	1	0	0	0	0	1	0	1
-3	1	0	0	0	0	0	1	1

teskari kod								
	1	1	1	1	1	0	1	0
	1	1	1	1	1	1	0	0
1	1	1	1	1	0	1	1	0
+								1
	1	1	1	1	0	1	1	1
	1	0	0	0	1	0	0	0

to'ldiruvchi kod								
	1	1	1	1	1	0	1	1
	1	1	1	1	1	1	0	1
1	1	1	1	1	1	0	0	0
	1	0	0	0	0	1	1	1
+								1
	1	0	0	0	1	0	0	0

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan oxirgi satrdagi qiymatlarni o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazilganda 8 raqam hosil bo'lishini ko'rish mumkin.

Manfiy sonlar uchun to'g'ri, teskari va to'ldiruvchi kodlarni hosil qilishda doimo ikkilikdagi sonlarni birinchisi xonasiga 1 raqami yoziladi. Musbat sonlarda esa 0 raqami yoziladi [4;54-b.]. Sonlar musbat va manfiy bo'lganda yig'indi qanday hisoblanishini ko'rib chiqamiz. Masalan:  $5+(-3)=2$  ifodani tanlab olamiz. Avvalo 5 va 3 sonlarini ikkilik sanoq sistemasida tasvirlaymiz:

$$5(10) = 1 * 2^2 + 1 * 2^0 = 101(2)$$

$$3(10) = 1 * 2^1 + 1 * 2^0 = 11(2)$$

Yuqoridagi natijadan foydalanib, to'g'ri, teskari va to'ldiruvchi kodlarni hosil qilamiz. Manfiy -3 sonining birinchi raqamiga 1 yoziladi. Teskari kodda inkor amali, to'ldiruvchi kodda 1 raqami qo'shiladi. Natija quyidagi jadvalda tasvirlangan:

(5) to'g'ri kod	teskari kod	to'ldiruvchi kod
0 0 0 0 0 1 0 1	0 0 0 0 0 1 0 1	0 0 0 0 0 1 0 1
(-3) to'g'ri kod	teskari kod	to'ldiruvchi kod
1 0 0 0 0 0 1 1	1 1 1 1 1 1 0 0	1 1 1 1 1 1 0 1
$5+(-3)$ to'g'ri kod	teskari kod	to'ldiruvchi kod
0 0 0 0 0 1 0 1	0 0 0 0 0 1 0 1	0 0 0 0 0 1 0 1
1 0 0 0 0 0 1 1	1 1 1 1 1 1 0 0	1 1 1 1 1 1 0 1
	1 0 0 0 0 0 0 1	1 0 0 0 0 0 0 1
	+	
	1	
	1 0 0 0 0 0 1 0	

Jadval oxiridagi qatorda hosil bo'lgan 000010 sonini ikkilik sanoq sistemasidan o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazish orqali natijani tekshirib ko'rish mumkin.

$$000010(2) = 1 * 2^1 + 0 * 2^0 = 2$$

Shuning  $3+(-10)=-7$  ifodaning natijasini yuqoridagi kodlarni qo'llash orqali hosil qilishni ko'rib o'tamiz. Buning uchun 3 va 10 sonlari ikkilik ko'rinishida tasvirlanadi. So'ngra manfiy sonni teskari kod orqali ikkilik ko'rinishi aniqlanadi. Hosil bo'lgan ikkita natija mantiqiy qo'shiladi. Keyin esa inversiya amali qo'llaniladi va 1 raqami qo'shiladi:

$$\begin{array}{r}
 3 \\
 + \quad -10 \\
 \hline
 -7
 \end{array}
 +
 \begin{array}{|c|c|c|c|c|c|c|c|}
 \hline
 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 \\
 \hline
 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 & 0 \\
 \hline
 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 1 \\
 \hline
 \end{array}$$

Hosil bo'lgan jadvalning oxirgi qatoridagi natija inkor qilinadi va 1 raqami qo'shiladi:

1	0	0	0	0	1	1	0
							1
1	0	0	0	0	1	1	1

Jadval oxirgi qatorida hosil bo'lgan natijani o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazish orqali 7 raqami hosil bo'lishini ko'rish mumkin. Manfiy ishorani 1 raqami bildiradi. Demak, natija -7 ga teng ekanligi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, kompyuterda 8 razryad 1 baytga teng va bu bitta belgi kodini ifodalaydi. To'g'ri, teskari, to'ldiruvchi kodlardan foydalanganda sonning ikkilikdagi ko'rinishiga musbat sonlar uchun 0 razryadi, manfiy sonlar uchun 1 razryadi yoziladi. Shuningdek, teskari va to'ldiruvchi kodlarda inversiya amali qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan namunaviy misol va masalalar orqali musbat va manfiy sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish mumkin. Bu orqali to'g'ri, teskari, to'ldiruvchi kodlar mavzusini talabalarga o'qitishda dars samaradorligini oshirishga hamda ularda kodlash mavzusiga doir bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Ш.Т.Ишмухаметов, Р.Х.Латыпов, Р.Г.Рубцова, Е.Л.Столлов. Введение в теорию кодирования и криптографию. Учебное пособие, Казань, Казанский ун-т, 2021, 211 с.

[2]. В.И.Сединин, А.В.Микушин, А.М.Сажнев. Цифровые устройства и микропроцессоры. С.Петербург, БХВ, 2010, 832 с.

[3]. Н.Н.Зарипов. Использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе. Проблемы современного образования, (6), (2020), p. 213–218.

[4]. N.N.Zaripov. Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school. Theoretical & Applied Science. 2020, №. 3, c. 111–114.

**Musoyeva Aziza Botirovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti, PhD)**  
**“PRE-SERVICE” VA “IN-SERVICE” DASTURLARI O‘QITUVCHILARINING TADQIQOT**  
**KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN IMLIY MARKAZLAR**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha AQSHda orttirilgan tajribadan kelib chiqqan holda, O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalari talabalari, tadqiqotchilari, professor-o‘qituvchilariga amaliy yordam beradigan muhim institutsional markazlardan o‘qitish va o‘rganish markazi hamda o‘qituvchilar tayyorlash markazini tashkil etish haqida umumiy ma‘lumot berilgan. Maqolada mazkur markazlarning AQSH oliy ta‘lim tizimiga muhimligi, funksional vazifalari hamda uning yaratilishi va Amerika institutlarida tarqalishiga hissa qo‘shgan omillar tahlil qilingan. Maqolada ilgari surilgan g‘oyalardan biri esa aynan mana shunday markazlarni yurtimizning har bir oliy ta‘lim qoshida tashkil etish va universitet jamoatchiligidagi talaba, tadqiqotchi va o‘qituvchilarning ehtiyojlarini qondirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘qitish va o‘rganish markazi, pedagogik yondashuvlar, akademik muassasalar, o‘qituvchilar tayyorlash va malaka oshirish markazi.*

**НАУЧНЫЕ ЦЕНТРЫ ПО РАЗВИТИЮ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ**  
**КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ, ОБУЧАЮЩИХ ПО ПРОГРАММАМ “PRE-**  
**SERVICE” И “IN-SERVICE”**

***Аннотация.** В статье подчеркивается значение Центра передового опыта в преподавании и обучении, программы подготовки учителей в оказании практической поддержки студентам, исследователям и профессорам в высших учебных заведениях Узбекистана, с опорой на опыт, полученный в США, раскрыты детали создания учебного центра. В статье рассматривается значение этих центров в системе высшего образования США, их оперативные обязанности, а также элементы, которые привели к их созданию и распространению в американских учебных заведениях. В статье предлагается создать Центры в каждом высшем учебном заведении для поддержки и помощи студентам, исследователям и преподавателям вузов Узбекистана.*

***Ключевые слова:** центр передового опыта преподавания и обучения, педагогические подходы, академические учреждения, программа подготовки учителей.*

**RESEARCH CENTERS FOR THE DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCE OF**  
**TEACHERS TEACHING IN THE “PRE-SERVICE” AND “IN-SERVICE” PROGRAMS**

***Annotation.** This article highlights the significance of the Center for excellence in teaching and learning and Teacher education program in providing practical support to students, researchers and professors in higher education institutions in Uzbekistan, drawing from experience gained in the USA and overall details regarding the establishment of the training center. The article delves into the significance of these centers in the US higher education system, their operational responsibilities, and the elements that led to their establishment and proliferation in American institutions. The article suggests creating Centers at every higher education institution to support and assist students, researchers, and teachers in the Uzbekistan universities.*

***Key words:** center for excellence in teaching and learning, pedagogical approaches, academic establishments, teacher education program.*

**Kirish.** Mazkur maqola Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Wiskonsin Eau Claire universitetida orttirilgan tajribadan kelib chiqqan holda yozilgan bo‘lib, unda AQSH oliy ta‘lim muassasasida bir semestr davomida olingan tajriba va mulohazalar hamda O‘zbekistonda O‘qitish va o‘rganish markazi hamda O‘qituvchilar tayyorlash markazini har bir oliy ta‘lim yurti qoshida tashkil etish haqida so‘z yuritiladi.

Bilamizki, yurtimizda zamonaviy ta‘lim olishga e‘tibor oshib bormoqda. Bu esa har bir o‘qituvchi kela-yotgan yosh avlodga zamonaviy global raqobat sharoitida zarur ko‘nikma va ma‘lumotlarni berish, ularni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib tayyorlashni taqozo etadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta‘lim sifatini oshirishda asosiy e‘tibor ta‘lim islohotlariga qaratilmoqda. Shu bois O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarida ham AQSH tajribasidan kelib chiqqan holda, O‘qitish va o‘rganish markazi hamda O‘qituvchilar tayyorlash markazlarini tashkil etish muhim islohotlardan biri hisoblanadi.

Oxirgi 20 yilga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xalqaro oliy ta'limda juda ko'p o'zgarishlar bo'ldi, bu o'zgarishlaridan biri bu oliy ta'lim muassasalarida o'qitish konsepsiyasidan o'rganish konsepsiyasigacha bo'lgan evolutsiyani ko'rsatdi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi universitetlar sifat jihatidan mintaqaviy va xalqaro miqyosga o'tishga kirishar ekan, universitet ma'muriyati va ta'lim vazirliklari o'qitishdan o'rganishgacha bo'lgan bu evolutsiyani qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishlari muhimdir. Ushbu maqolada aynan mana shu o'tishning ajralmas qismi sifatida O'qitish va o'rganish markazi hamda O'qituvchilar tayyorlash markazlarini tashkil etish jarayoni haqida so'z yuritilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlardagi universitetlar O'qitish va o'rganish markazini tashkil etishlari juda muhim qadamlardan biridir [1; 35-b.]. Ushbu markaz bo'lajak o'qituvchilar uchun oliy ta'lim o'qituvchisi sifatida malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun doimiy treninglar o'tkazishga, shuningdek, oliy ta'lim o'qituvchilariga o'qitish va o'quv dasturlarini ishlab chiqish qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu ko'nikmalar o'quv dasturlarini ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda tajribali o'qituvchilarning roli juda muhim, chunki ular ishlab chiqarish jarayonida o'qituvchi va bo'lajak o'qituvchilarga amaliy yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi [2;110-b.].

Tadqiqotlarga ko'ra, o'qitish va o'rganish markazini tashkil etishning yetti mezon mavjud. Birinchidan, mazkur markaz talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni o'rnatishga hamda munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'qitish va o'rganish markazi hamkorlikda ishlash va ustoz-shogird amaliyotini joriy etishda birdek xizmat qiladi. Bunda o'qituvchilar har bir talaba bilan individual yoki jamoa bo'lib ishlashlari mumkin, bu esa hamkorlikdagi ta'limni yanada yaxshilashga olib keladi. Shu bilan birga, o'qitish va o'rganish markazini tashkil etish orqali turli xil tadbirlar tashkil etish, talabalar va o'qituvchilar orasida faollik va tashkilotchilikni rivojlantirish mumkin. Shu bilan bir qatorda, talabalarga o'z vaqtida va doimiy ravishda fikr-mulohazalarni taqdim etish o'sib borayotgan yosh avlod uchun foydalidir [2;112-b.]. Shuningdek, mazkur markazlar nafaqat til o'rganishga mutaxassislashgan oliy ta'lim muassasalarini uchun, balki tabiiy va ijtimoiy fanlar va o'qitishning barcha bo'g'imlarida muhim hisoblanadi. Sababi, barcha universitetlarda qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar, uni o'qituvchi o'rgatadi. Bunday turdagi markazlarning bo'lishi esa o'qituvchilarning bir-biridan o'rganishiga, malakalarini yanada oshirishlarida juda muhim hisoblanadi.

Ikkinchi asosiy markaz bu O'qituvchilar tayyorlash markazi bo'lib, bu turdagi markaz ham O'zbekistonda har bir oliy ta'lim qoshida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. AQSH oliy ta'lim tizimida bunday markazlar nafaqat "In-service" dasturlarida, balki "Pre-service" dasturlarida ham muhimdir. Chunki O'qituvchilar tayyorlash markazi hozirda o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan o'qituvchilarga yordam berish bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni ham tayyorlaydi.

AQSH ta'lim tizimida boshqarish markazlashmagan hamda har bir shtatlarda turli o'qituvchilar ta'lim dasturlari mavjud bo'lsa-da, bunday dasturlarni o'zlashtirishning natijalari esa juda o'xshash, ya'ni kasbiy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Kompetensiya tarkibiy qismlariga asoslanib, AQSHning o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha ko'plab ta'lim dasturi bitiruvchilari bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lishi kerakligini ko'rsatadi [3;3-b.]. AQSH o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari ko'proq amaliy yo'nalish [4;137-b.] (hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda talab qilinadi (5;9-b.) va o'quv jarayonini tashkil etishning turli usullari bilan tavsiflanadi. AQSHda o'qituvchilar ta'limi dasturlarining umumiy xususiyatlari pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lib, u mavjud ta'lim maydonini tabiiy va madaniy muvofiqlik tamoyillari asosida [6;86-b.] yanada moslashuvchan, ijodiy, qulay, harakatchan va xavfsiz qilishi kerak [7;68-b.].

Shunday ekan, aynan mana shunday dasturlarini yurtimizda amalda joriy qilish nafaqat hozirgi o'qituvchilar, balki bo'lajak o'qituvchilar uchun ham foydalidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani yozishda, asosan, qiyosiy hamda tahliliy metodlardan foydalanildi. Qiyoslash hamda tahlil qilishda, asosan, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Wiskonsin Eau Claire universitetida tashkil qilingan markazlar nazarda tutildi. Aynan mazkur oliy ta'lim muassasasi O'qitish va o'rganish markazini tashkil etishda o'zining vazirlarini qo'ygan hamda bu vazifalar barcha imkoniyatlarni inobatga olgan holda tuzilgan. Ularning birinchi vazifasi esa o'qituvchilar va bo'lajak o'qituvchilarga o'z malakalarini oshirishga yordam berish uchun dasturlar ishlab chiqish hisoblanadi. Ular professor-o'qituvchilar va xodimlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun keng qamrovli muhitni ta'minlaydi, bunda o'rganish va o'qitish texnologiyasiga alohida e'tibor beriladi [8].

Markaz buni universitetda o'qitish va o'rganish bo'yicha muhokamalarni rag'batlantirish va seminarlar, guruh mashg'ulotlari va individual maslahatlar berish orqali amalga oshiradilar. Markaz mahalliy,

shtat va milliy darajadagi o'zgarishlarga moslashish va ta'lim usullarini joriy etish va baholash uchun o'qituvchilar bilan ishlash orqali yordam beradi [8].

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Wiskonsin Eau Claire universitetida tashkil qilingan O'qituvchilar tayyorlash markazining asosiy vazifasi esa hozirgi va bo'lajak o'qituvchilarga malaka va ko'nikmalarini oshirishga yordam berish, muvaffaqiyatga intiladigan va yetakchilikka tayyor bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash hisoblanadi. Bunda ular nazariyani tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan amaliy usullar bilan birlashtirgan holda innovatsion o'quv dasturi orqali olib boradi. O'qituvchilar ta'limi dasturida hozirgi va bo'lajak o'qituvchilarga maktabdagi tajribalar, tashkilotlar, jamoat dasturlari va boshqalar orqali talabalar bilan muloqot qilish uchun ko'plab imkoniyatlar beriladi. Bu tajribalar esa shaxsiy va professional o'sishga yordam beradi. Shu bilan birga, mazkur markazlar shtatlarda o'qituvchi vazifasida ishlash imkonini beruvchi litsenziya bilan ta'minlaydi va uni qayta yangilashga ko'maklashadi [9].

**Tahlil va natijalar.** Qilingan tadqiqot ishi tahlil va natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur markazlar har bir oliy ta'lim muassasasi uchun muhim va qilishini lozim bo'lgan islohotlardan biridir. Sababi, hozirgi globallashuv davrida sinfda o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi har bir mutaxassis o'z bilimlarini soat sayin o'sdirishi va yosh avlodga umumli bilim berishi kerak. Bunday turdagi markazlarni tashkil etish o'qitish va o'rganish ko'nikmalarini oshirish bilan bir qatorda, bo'lajak chet tili o'qituvchilarida tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni shiddat bilan o'zgarayotgan vaqt bilan hamnafas bo'lgan mutaxassislar etib shakllantiradi [10;103-b.].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish o'rinliki, yurtimizda har bir oliy ta'lim muassasasi qoshida O'qitish va o'rganish markazi hamda O'qituvchilar tayyorlash markazlarini tashkil etish muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Bu yurtimizdagi malaka oshirish markazlari sifatida qabul etilmasligi, balki har bir universitetda tashkil qilinishi kerak bo'lgan markazlardan biri sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Chunki malaka oshirish markazlari faqatgina hozirda o'qituvchilik bilan shug'ullanayotgan mutaxassislarni qayta tayyorlashga xizmat qilsa, yuqorida ta'kidlandan markazlar esa universitet talabalari, tadqiqotchilari va professor-o'qituvchilariga birdek xizmat qiladi. Ularni o'qish, o'qitish, tadqiqot qilish va tajriba orttirish kabi malakalarini yanada oshiradi va mustahkamlaydi. Bunday markazlarni targ'ib qilishdan asosiy maqsad O'zbekistonda barcha o'quv fanlari bo'yicha ta'limni yaxshilash va boyitishdir. O'zbekiston universitetlarida rejalashtirilgan ushbu markaz o'qituvchilarning ilmiy o'sishiga yo'naltirilgan ta'lim markazlarining yetishmasligini bartaraf etishga qaratilganligi bilan ajrarib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Roberts, Keith (2009). Capacity Building for New Model Universities. Hanoi, Vietnam, 225 p.
- (2). Roberts, Keith. (2013). A Model for a Center for Teaching and Learning Excellence: A Catalyst for Program Improvement in Developing Institutions. Excellence in Higher Education 4, pp. 108–118; ISSN: 2153-9669 (print), 2153-9677 (online); doi:10.5195/ehe.2013.98; <http://ehe.pitt.edu>
- (3). Early Childhood Teacher Education Program (Illinois State University, 2012) in Comparative Pedagogical Analysis of Teacher Education Programs in France and The USA by Alisov et al., SHS Web of Conferences 79, 02001 (2020) Theory and Practice of Project Management in Education: Horizons and Risks 2020; <https://doi.org/10.1051/shsconf/20207902001>
- (4). Sidorkin A.M. Teacher Training in the United States: Lessons for Russia. Вопросы образования. 1, с. 136–156 (2013).
- (5). Sztajn, P. D.J., Heck, K.A. Malzahn and L.K. Dick. Decomposing practice in teacher professional development: Examining sequences of learning activities. Teaching and Teacher Education, 9 (2020).
- (6). Taylor, M.L., McLean, C.I., Bryce, T., Abry, K.L. Granger, Teaching and Teacher Education 86, (2019).
- (7). Civitillo, S., L.P. Juang, M.K. Schachner, Educational Research Review 24, p. 67–83 (2018).
- (8). Information about the Center for Excellence in Teaching and Learning at University of Wisconsin Eau Claire from website. [Online]. Available: <https://www.uwec.edu/center-excellence-teaching-learning/>
- (9). Information about the Teacher Education Program at University of Wisconsin Eau Claire from website. [Online]. Available: <https://www.uwec.edu/academics/college-education-human-sciences/departments-programs/teacher-education-program/>
- (10). Musoeva, A. The importance of developing research competence of future foreign language teachers // Journal of Science Sources. Vol 1, № 1, Uzbekistan, 102–105 pp.



Raxmatov A'zam Ashur o'g'li (Shahrisabz DPI o'qituvchisi; raxmatovazam016@gmail.com)  
TEKNOLOGIYA DARSLARIDA "IZALONDAN GUL TAYYORLASH" MAVZUSINI  
O'QITISHDA O'QUVCHILARDA LOYIHALASH VA KONSTRUKSIYALASH  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada texnologiya o'quv fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida izalondan gul yasash texnologiyasi ko'rsatib o'tilgan. Buning uchun izalon so'zining ma'nosi, izalondan gul yasash bo'yicha ijodiy loyiha ishining bajarish ketma-ketligi, kerakli asbob va jihozlar, andaza tayyorlash haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** izalon, qolip, yelim, metall plastik turba, texnik fen.

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЕКТНО-КОНСТРУКТОРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У  
ОБУЧАЮЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ "ИЗГОТОВЛЕНИЕ ЦВЕТКА ИЗ  
ИЗАЛОНА" НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ**

**Аннотация.** В данной статье показана технология изготовления цветов из изалона в процессе практических занятий по учебному предмету технология. Для этого приводится значение слова изалон, последовательность выполнения творческих проектных работ по изготовлению цветов из изалона, необходимые инструменты и оборудование, информация об изготовлении лекала.

**Ключевые слова:** изалон, лекало, клей, металлическая, пластиковая труба, технический фен.

**FORMATION OF DESIGN AND CONSTRUCTION COMPETENCIES FOR STUDENTS  
IN TEACHING THE TOPIC "FLOWER MAKING FROM ISALON" DURING TECHNOLOGY  
LESSONS**

**Annotation.** This article shows the technology of making flowers from isalon in the process of practical training in the subject of technology. To do this, the meaning of the word isalon, the sequence of creative design work for making flowers from isalon, the necessary tools and equipment, and information about the manufacture of patterns are given.

**Key words:** isalon, mold, glue, metal plastic bag, technical dryer.

**Qarshi **DUI** DsC, professor I.Kamolov taqrizi asosida**

**Kirish (Introduction).** Xonalarning dekoratsiyasini bezatish uchun ko'plab jihozlardan foydalalanamiz. Masalan, rasmlar, aksessuar jihozlar, suniy va tabiiy gullar, suniy daraxtlar, izalondan yasalgan xonani yoritib turuvchi katta gular (atirgul, lolagul, liliyagul), akvarium va h.k.lardan foydalaniladi. Bunday buyumlar xonaga qo'shimcha ko'rk bag'ishlaydi. Masalan, izalondan yasalgan katta gullar uyga yangicha hushkayfiyatni, xotirjamlikni, chiroyni beradi. Inson holdan toygan vaqtlarida gullarga qarasa, kayfiyati ko'tariladi. Hamma ham uyida gul yetishtira olmaydi. Kimdir tabiiy gulni parvarshlay oladi, yana kimdir kun davomida ishda ammo uyida gul bo'lishini xohlaydi, lekin ishdaligi tufayli uni uyda yetishtira olmaydi. Mana shunday vaziyatlarda ham izalondan yasalgan sun'iy gullarimiz juda qulay hisoblanadi. Uni tunda yoritib turishi uchun xohishga qarab, lampochkalilari ham tayyorlab beriladi. Bu gullar xuddi tabiiydek ko'rinishga ega bo'ladi. Bunday gullar to'yxonalarda, ish binolarida, uylarda, mehmonxonalarda va boshqa joylarda ham qo'yiladi. Bularni yasash uchun biror-bir robot yoki qimmat texnika vositalari shart emas, buni o'zingiz qo'lda yasay olasiz (1-rasm). Quyida izalondan yasalgan gullar:



### 1-rasm. Izalondan yasalgan gular.

Ijodiy loyiha ishi quyidagi bosqichlarda olib boriladi. [4]:

*1-jadval*

T/r	Bajarish bosqichlari	Ishning mazmuni
1.	Tayyorlash bosqichi	Mavzuni tanlash va uni asoslash: 1. Mahsulotga talab borligini aniqlash va tanlovning to'g'ri ekanligini isbotlash. 2. Texnik vazifalarni shakllantirish. 3. Loyiha obekti bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish. 4. Texnik ma'lumotnomani tayyorlash.
2.	Konstruksiyalash bosqichi	Loyiha konstruksiyasini tayyorlash bo'yicha talablar 1. Tashqi ko'rinishi va dizayn jihati bo'yicha ko'rib chiqish; mahsulot konstruksiyasini o'rganish; mahsulot dizaynini aniqlash; loyiha eskizini ishlab chiqish.
3.	Texnologik bosqich	Mahsulot tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish: 1. Loyihalashtirilayotgan mahsulot tayyorlash uchun amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar ketma-ketligini belgilash. 2. Texnologik xaritani ishlab chiqish. 3. Kerakli asbob-uskuna va moslamalarni tayyorlash.
4.	Mahsulotni tayyorlash bosqichi	1. Ish o'rini tashkil etish. 2. Texnologik xarita asosida amaliy ishlarni bajarish. 3. Ish joyini yig'ishtirish va ishni yakunlash.
5.	Yakuniy bosqich	Ijodiy loyiha taqdimotini tayyorlash va o'tkazish: 1. Iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlash. 2. Ekologik jihatdan ko'rib chiqish. 3. Mahsulotni reklama qilishga tayyorlash. 4. Loyihaga tegishli adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish.

Izalondan gul yasashdan oldin uning mahsulotlari bilan tanishib chiqsak. Gul yasashimiz uchun kerakli mahsulotlar va asbob uskunalar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Izolon – bu yumshoq, qayriluvchan, qalinligi 2–3 mmli bo'lgan polietilen hisoblanadi (2-rasm). Izolon penopolietilenning ikki turini penosevileni va ulardan ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Izolon – ishlab chiqarish texnologiyasiga muvofiq yo'piq hujayrali polietilen ko'pik – faqat “o'zaro bog'langan” turdagi, bir-biriga bog'lanmagan mayda hujayralarning kuchli va elastik tuzilishi bilan xarakterlanadi. Barcha Izolon brendlari murakkab ko'p bosqichli jarayonda ishlab chiqariladi. Bunday holda materialning molekularining tuzilishi o'zgartiriladi va yaxshilanadi. Molekulalarning o'zaro bog'langan tuzilishi shakllanadi, bu brend materiallarining xususiyatlarini yaxshilashga sifat jihatidan ta'sir qiladi. Quyidagi asosiy parametrlar yaxshilandi: elastiklik, suvga chidamlilik, suzish qobiliyati, issiqlikka chidamlilik, issiqlik izolyatsiyasi, hal qiluvchi qarshilik, ob-havoga, neftga, yog'ga, benzina chidamlilik, gigiyenik xavfsizlik [5].

Izolon brendining assortimenti turli xil bozor bo'shliqlari uchun mahsulotlarni taklif etadi, ular xususiyatlari, qalinligi, takroriy qoplamalar va narxlarda farqlanadi. Shuning uchun bundan yasalgan gullar abadiy bo'ladi. Izolonni oddiy holatda qayirganda yoki biror-bir shaklga keltirganda, u yana o'z holatiga qaytadi. Uni faqat ma'lum bir daraja issiqlik haroratida qayirib, keyin oddiy sharoitga qo'ysak u o'sha qayirilgan holatida qotib qoladi. Yumshoqligini yuqotmaydi. Izolonning hozirda turli hil ranglilari chiqarilmoqda. Izolon suv o'tkazmaydi. Izalondan yasalgan gullarni yuvib emas, mayin tukli shotkalar yordamida yoki fen yordamida changlaridan tozalaniladi. 8-sinf Texnologiya darsligida “Polimer materiallardan tungi yoritgich”, “Karton materialdan tungi yoritgich” [2] yasash mavzulari berilgan. Darsliklarda tungi yoritgichni yasashda gullar orqali berilgan. 9-sinf Texnologiya darsligida “Nozimunchodan atirgul yasash texnologiyasi” berilgan [3]. Mavzuning o'quv materiallari ishni bajarish uchun jihozlar, ishni bajarish tartibi, texnologik xarita va konstruksion bosqich kabi qismlardan tashkil topgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Izalondan yasalgan gullarni uylarga bezatish uchun foydalaniladi. Izolonning tannarxi ham yuqori emas, izalondan yasalgan jihozlar, buyumlar ham qimmat bo'lmaydi. Izalondan nafaqat katta gular, balki kichik buksetlar ham yasash mumkin. Izalondan

gullar yasash hozirgi kunda maktablarda ham o'rgatilmoqda. Quyida izaloning rasmlarini ko'rishimiz mumkun:



2-rasm. Izalon to'plamlari.

Izalonlar rulon tarzda sotuvga qo'yiladi va uni o'zingizga kerakli bo'lgan o'lchamda olasiz. Izalonnarning hozirda bo'yi 1 m va 1.5 m.lilari chiqarilmoqda.

Biz gulning tana qismi uchun metall plastik turbalarning 16 m.mli, 20 mmlilaridan foydalanamiz. Turuba qayriluvchan tezda sinib ketmaydigan mustahkam bo'ladi. Kattaroq gul yasamoqchi bo'lsak tanasiga 20 mml turbadan foydalanamiz (3-rasm). Sababi gulning bosh qismi og'ir bo'lib, gul tik turmay qayrilishi yoki qulashi mumkun. Shuning uchun qalinroq turbadan foydalanamiz. 16 mml turbani kichikroq gul uchun foydalansak bo'ladi. Sababi kichikroq gul og'ir bo'lmaydi [2].



3-rasm. Metall plastik quvurlar.

Gulga yorituvchi moslamalar ham qo'yishimiz mumkun. Buning uchun akfa lampochkadan foydalanamiz. Sababi akfa lampochkalar tashqariga issiqlik chiqarmaydi. Agar issiqlik chiqaradigan lampochkalardan foydalansak, izalon erib qoladi. Izalonnani ham 3 mmlistdan ishlatamiz. Yorituvchi moslamalardan foydalanmagan gullarimiz uchun 2 mml izalondan foydalansak ham bo'ladi.

Fen. Isitish gradusi baland bo'ladi. Soch fenidan farqi ham uning harorati yuqoriligida. Bu fen texnik fen deb yuritiladi. Fenning Termofen RODEX, MAKITA, RTRMAX, BOSCH, POBEDA kabi turlari bor (4-rasm).



4-rasm. Texnik fenlardan namunalari.

Texnik fenlarning narxlarini 250.000–1.500 000 so'mgacha yoki undanda yuqori bo'ladi. Izalon bilan ishlaganda 250 mingli POBEDA fendan ishlatilsa ham bo'ladi. Uni ishlatganda tikka qilib qo'ymaslik kerak. Tik holatda qo'yilsa, uning motori ishdan chiqishi mumkun. Quvvati 2000 w, harorati esa 400–600°C



bo'ladi. Barg yasash uchun qolipdan foydalanamiz. Qolip maxsus qotishmalardan tayyorlanib ko'rinishi barg shaklida bo'ladi. Sirti ham barg kabi dag'al va chiziqli bo'ladi. Ular sotuvda bor.




5-rasm. Tayyor barg namunalari.

Bargni o'z qo'limiz bilan ham yasasak bo'ladi (5-rasm). Buning uchun karton pistalet elim, qalam va alumin sim kerak bo'ladi. Qolip yasash ketma ketligi: barg qolpini kardon qog'ozga chizib, kesib olamiz. Alumin simni bo'laklarga bo'lib, bargning chiziqlari shaklida, pistalet kiley yordamida karton qog'ozga elimlab chiqamiz. Qotgandan so'ng qolip tayyor. Qoshimchasiga pistalet kiley, qaychi, gul yaprog'lari uchun qoliplar va chizg'ich kerak bo'ladi. Quyida "Izalondan oq atrgul yasash" bo'yicha tavsiyalar beramiz.


**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Izalondan oq atrgul yasashimiz uchun bizga gul yaprog'larining 3 xil o'lchamdagi andozasi, barg qolipi, 4 m 2 m mli oq izalon, 2 m 2 m mli yashil izalon, 10 ta pistalet kiley va asbobi, qaychi, iz qoldirish uchun sovun, texnik fen, 3 m metall plastik turba, 20 sm plastik turba, alyumin sim kabilari kerak bo'ladi.

Gul yaprog'i uchun andozani rasmdagidek chizib olamiz (6-rasm).



6-rasm. Gul yaprog'i uchun andoza.

Kichik o'lchamdagi andozadan oq izalonga sovun yordamida iz qoldirib 7 ta chizib olamiz. O'rtacha o'lchamdagi andozadan ham oq izalonga 15 ta chizib olamiz. Katta o'lchamdagi andozadan esa 12 ta chizib olamiz. Qaychi yordamida ularni kesib chiqamiz.






**7-rasm. Gul yaprog'ini tayyorlash jarayoni.**

Har bir gul yaprog'ini texnik fen yordamida 7-rasmdagidek yaprog shakliga keltiriladi. Eng kichigidan 3 tasi texnik fen yordamida qayirilmaydi. Sababi boshidan uchtasi atirgulning g'unchasi uchun qo'yiladi. Ya'ni 20 smli plastik turbaga kichik o'lchamdagi gul yaprog'ini quyamiz. Uning ustidan keyingi 2 ta qayirilmagan yaproqlarni ham 7-rasmdagi ko'rinishda yelim yordamida qo'yib, yelimlab olamiz.


Keyin ketma-ketlikda texnik fen yordamida qayrilgan barglarni gulning shaklini chiqargan holda yelim yordamida yopishtirib chiqamiz.

Atirgulning g'unchasi uchun kichkina barglarni yopishtirib olamiz va gulning eng kichik gul qismini hosil qilib olamiz (8-rasm).



**8-rasm. Atirgulning bosh qismi.**

O'rta o'lchamdagi gul yaproqlarini ketma-ketlikda yelim yordamida yopishtirib olamiz. Katta o'lchamdagi gul yaproqlarini ham ketma-ketlikda yelim yordamida yopishtirib chiqamiz. Atirgulning gul qismi tayyor.



**9-rasm. Atirgulning bargi uchun qolip.**

**10-rasm. Tayyor bo'lgan atirgul namunalari.**

Atirgulning tana qismini yasab olamiz. Buning uchun 3m metall plastik turbani yashil izolenta bilan o'rab chiqamiz. Gulning bosh qismini tana qismiga mustahkamlaymiz. Barglarni ham yashil izalonga andonani qo'yib chizamiz. So'ng barglarini kesib olamiz. Xohishga qarab, 10–12 ta barg kesib olamiz. Har bir

bargga ishlov beramiz. Ya'ni bargning chetlarini kesib, tikonchalar hosil qilamiz. Bargni texnik fen yordamida isitib olamiz va yuzasiga burtmalar hosil bo'lishi uchun bargning qolpiga qo'yamiz. Barg sovuguncha ushlab turamiz. Sovugandan so'ng bargni olganimizda yuzasida bargning burtmalari hosil bo'ladi (9-rasm). 10–12 ta bargni gulning taglik qismiga yelim yordamida yopishtiramiz.

Tana qismi uchun ham 8 ta bargni kesib, yuqorida aytilgandek, ketma-ketlikda kesib tayyorlab olamiz. Bargning orqasiga alyumin simni elim yordamida yopishtirib olamiz. Shunda barg tik holatda bo'ladi va uni barg shakliga keltirib qayirsak bo'ladi. Simning ochiq joylarini yashil izolenta yordamida o'rab olamiz. Tayyor bo'lgan barglarni atirgulning tana qismiga ulab olamiz. Bo'rtib qolgan joylarini ham yashil izolenta bilan o'rab olamiz. Atirgulni yanada qiziqarli bo'lishi uchun qo'shimcha kichkina gul, g'uncha, kapalak, qo'ng'izcha va boshqalari bilan bezatishimiz mumkun (10-rasm).

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Shunday qilib, izalondan gul yasash jarayonida o'quvchilar quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

- birinchidan, gul yasash jarayonida ijodiy loyiha ishi bilan shug'ullanadilar;
- ikkinchidan, loyihalash bo'yicha ishlarni amalga oshiradilar, gul uchun ketadigan jihozlar, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishadilar;
- uchinchidan, gul yasash bilan birga elektrotexnikaga oid ishlarni amalga oshiradilar;
- to'rtinchidan, zamonaviy kasblar bilan tanishadilar.
- beshinchidan, izalondan gul yasash bo'yicha loyihalash va konstruksiyalash kompetensiyalari shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Umarov A.V., Muxamedov G.I., Quchqarov X.O. Polimerli kompozit materiallar fizikasi. O'quv qo'llanma, Namangan, 2017.
- (2). Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi. Metodik qo'llanma, T., "Delta print", 2017.
- (3). Tohirov O'.O., Karimov I., Maxsimova M.M. "8-sinf. Texnologiya". Darslik, T., "Ilm ziyo", 2019.
- (4). Sattarova Z., Abdusalomova N., Ahmedova N. "9-sinf. Texnologiya". Darslik, T., "O'zbekiston", 2019.
- (5). <https://isolon-trade.ru/izolon/chto-takoe-izolon.php>

**Saidvaliyeva Dilafruz Ravshanovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: [dilravshanovna@icloud.com](mailto:dilravshanovna@icloud.com))**

### **ТА'ЛИМ ПОДКАСТЛАРИ ОРҚАЛИ ТАЛАБЛАРНИНГ ТИНГЛАШ ВА ГАПИРИШ КО'НИМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЙ АСПЕКТЛАРИ**

***Annotatsiya.** Podkast texnologiyasi tinglash va gapirishni o'rgatishning an'anaviy usulidan farqli o'laroq, talabalarning tinglash va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Turli xil podkastlardan foydalanishda talabalar turli tembr, temp va intonatsiya xususiyatlariga ega bo'lgan nutqni tinglashlari tavsiya etiladi, bu esa quloq orqali ma'lumotni yanada kengroq qabul qilish va tinglash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu maqola o'quv podkastlari orqali talabalarning tinglash va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlarini belgilaydi.*

***Kalit so'zlar:** podkast, o'quv podkastlari tasnifi, tinglash malakalari, nutq malakalari, til o'rganish.*

### **ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ У СТУДЕНТОВ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ И АУДИРОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОДКАСТОВ**

***Аннотация.** Технология подкастов, в отличие от традиционного метода обучения аудированию и говорению, значительно расширяет возможности учащихся по развитию навыков аудирования и говорения. При использовании разных подкастов учащимся рекомендуется слушать речь с разными по тембру, темпу и интонационным характеристиками, что позволяет шире развивать аудирование и восприятие информации на слух. В этой статье излагаются практические аспекты развития навыков аудирования и говорения учащихся с помощью образовательных подкастов.*

***Ключевые слова:** подкаст, классификация образовательных подкастов, навыки аудирования, навыки говорения, изучение языка.*

### **PRACTICAL ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS' SPEAKING AND LISTENING SKILLS THROUGH EDUCATIONAL PODCAST TECHNOLOGY**

***Annotation.** Podcast technology, unlike the traditional method of teaching listening and speaking, significantly expands the opportunities for students to develop listening and speaking skills. While using different podcasts, students are recommended to listen to speech with different timbre, tempo and intonation*

*characteristics, which allows to develop listening and receiving information more widely by ear. This article outlines the practical aspects of developing students' listening and speaking skills through educational podcasts.*

**Key words:** *podcast, classification of educational podcasts, listening skills, speaking skills, language learning.*

**Kirish.** Zamon bilan hamnafas bo'lgan o'qituvchilar o'quv jarayonida internet texnologiyalari bilan ishlash imkoniyatlarini faol va batafsil o'zlashtirmoqdalar. Ijtimoiy xizmatlarning paydo bo'lishi bilan Web 2.0. lingvodidaktika va chet tillarini o'qitish metodikasi sohasi mutaxassislari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni har tomonlama qo'llab-quvvatlamoda. Xususan, konferensiyalar va vebinarlar tashkil etilmoqda, didaktik materiallar internet-resurslarga havolalar va internet materiallari bilan ishlashni o'z ichiga olgan vazifalar bilan yaratilgan, chet tilini o'rgatish uchun dasturlar yoziladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Web 2.0 xizmatlari yoki ijtimoiy xizmatlar bu guruh o'zaro aloqalarini qo'llab-quvvatlaydigan vebga asoslangan dasturiy ta'minot. Bularga qidiruv tizimlari, bilim xaritalari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, xatcho'plarni saqlash xizmatlari, video va fotomateriallar va boshqalar kiradi. P.V.Sysoevning fikriga ko'ra, "Podkast ijtimoiy xizmati Web 2.0 da ijtimoiy xizmat turidir, audio va videoyozuvlarni tinglash, yaratish va tarqatish imkonini beradi".<sup>1</sup>

"Podkast" tushunchasi inglizcha podcasting so'zidan kelib chiqqan bo'lib, asoschisi Stiv Jobs bo'lgan Apple portativ mediapleyerlarining keng qo'llanilishi tufayli mashhur bo'ldi. Podkast so'zining o'zi ikki so'z "iPod" va "broadcasting" (inglizcha – radio va televideniya eshittirish; ko'rish) birlashmasidan paydo bo'lgan va World Wide Webda ishlab chiqarilgan audio va videoeshittirishlarning maxsus formatidir.<sup>2</sup>

Macmillan lug'atiga ko'ra,<sup>3</sup> podkast – bu internetdan yuklab olinadigan va audio va videopleyerlarda tinglanishi mumkin bo'lgan multimedia fayli. Taxminlarga ko'ra, "podcasting" so'zini 2004-yilda taniqli amerikalik VJ, sobiq MTV boshlovchisi Adam Karri kiritgan. Aslida, keyin u Yangi Oksford Amerika lug'atiga (Oksford lug'ati) kiritilgan, 2005-yilda u "Yil so'zi". 2004-yilda, so'z paydo bo'lgandan so'ng, podkast so'rovi uchun Google qidiruv tizimi, dastlab, 24 ta natija berdi, keyin 526, uch kundan keyin 2750 va bu raqam har kuni ikki baravar ko'paydi. Natijada Adam Karrini haqli ravishda podkastning asoschisi deb atash mumkin.

**Metodlar.** Dars davomida inetrfaol metodlardan foydalanish talabalar ongli faoliyatining faollashuvi, bilimlarni puxta egallash vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi, shuningdek, talabalarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Podkastingning chet tilini o'qitishga integratsiyalashuvi o'zining hamkorlikdagi o'zaro ta'sirining keng imkoniyatlari bilan ta'lim jarayonining interaktivligiga eng yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, xorijiy tillarni o'rganishga bag'ishlangan o'quv podkastlari bir qator uslubiy muammolarni hal qilish imkonini beradi, jumladan, eshitib tushunish, leksik lug'atni boyitish, grammatik ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish, nutq va yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Podkastlarning muhim didaktik imkoniyatlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi samaradorligini eksperimental ish orqali aniqlash mumkin.

Bugungi kunda podkastlar tizimi havaskor radio bilan cheklanib qolmaydi. Podkast yaratishning sodaligiga qaramay, podkast portallarida efirdagi radio, televizion kanallar va yirik kompaniyalarning rasmiy podkastlarini topish mumkin. Masalan, so'nggi yangiliklar, reklama aksiyalari yoki yangi xizmat imkoniyatlari haqida hikoya. Podkastlar yangi, moda, zamonaviy, eng muhimi, qulay.

Bugungi kunga kelib, siz bir-biridan ma'lum jihatdan farq qiladigan juda ko'p sonli podkastlarni sa-nashingiz mumkin. Ijtimoiy serverning barcha jihatlarini qamrab olgan va podkastlarning olti turini aniqlashimiz mumkin:

1. Texnik platformaga qarab, mualliflar mustaqil (oflayn dasturiy ta'minot yordamida yaratilgan) va integratsiyalashgan (ma'lum bir sayt doirasida yaratilgan) podkastlarni ajratadilar.

2. Audio va video podkastlarga bo'linadi.

3. Mualliflar soniga ko'ra, ular individual va jamoaviy bo'lishi mumkin.

4. Janr bo'yicha podkastlar ma'rifiy, ko'ngilochar va ijtimoiy-siyosiydir.

G.Stenli podkastlarni mualliflik nuqtayi nazaridan farqlashni taklif qiladi:

<sup>1</sup> Corbeil J.C. M., 1992.

<sup>2</sup> Brown H.D. N.Y., Longman, 2001.

<sup>3</sup> Fryer W. A. 2005.



•Haqiqiy podkastlar (haqiqiy podkastlar).

Mahalliy ma'ruzachilarni yozib olgan fayllar. Ular orasida lingvistik maqsadlarda yozib olinmagan, lekin tinglash uchun boy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan podkastlar va o'quv materiallari sifatida yaratilgan podkastlar, ayniqsa, chet tilini o'rganuvchilar uchun.

•O'qituvchilar tomonidan yaratilgan podkastlar (o'qituvchilar podkastlari).

Podkastlar, ko'pincha, o'qituvchilar tomonidan o'zlari foydalanishlari uchun yozib olinadi va talabalarga boshqa joyda mavjud bo'lmagan materiallardan foydalanish imkoniyatini berish uchun tayyorlanadi.

•Talabalar uchun podkastlar.

Podkastlar talabalarning o'zlari tomonidan, ko'pincha, o'qituvchining yordami bilan yozilgan. Talabalar turli mamlakatlardagi talabalarning boshqa madaniyatlari va hayoti bilan tanishish uchun ushbu namunalarni tinglashlari mumkin.

•Metodik (pedagog podkastlari). O'qituvchilarning malakasini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish va uslubiy ma'lumotlar almashinuvi uchun podkastlar.

Yuqoridagi fikrlar o'qitish metodikasi nuqtai nazaridan ingliz tilini o'qitish tizimida internetdan foydalanishni dolzarb qiladi va nutq faoliyatining barcha turlarini, xususan, tinglashni eng samarali rivojlantirishni ta'minlaydi. Qolaversa, ingliz tilini o'qitishda internet texnologiyalar va podkastlardan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining harakatchanligini, uning moslashuvchanligini, ya'ni innovatsion texnologiyalarga o'z vaqtida moslashuvini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** "Podkast" axborot texnologiyasi umumiy ta'lim sohasida, xususan, ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda katta imkoniyatlarga ega. Podkastlarni mp3 pleerlar va iPodlarga osongina yuklab olish bilan birga, ingliz tilini o'rganish jarayonini yengillashtiradi va talabalarni darsdan tashqari vaqtda mustaqil shug'ullanishga keng imkoniyat yaratadi. Ularni internetda joylashtirish imkoniyati ingliz tilini o'rganishga undaydi. Bundan tashqari, podkastlar bilan ishlash talabalarga leksik va grammatik materiallar bilan tajriba orttirish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiya yordamida ingliz tilini o'rgatish talabalarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchilar, o'z navbatida, podkast texnologiyasi yordamida talabalarning tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishning an'anaviy usullarga nisbatan yaxshi natijalarga erishishlari mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Brown H.D. Til o'rganish va o'qitish tamoyillari. NY, Longman, 2000.
- (2). Brown H.D. Prinsiplar bo'yicha o'qitish. Til pedagogikasiga interaktiv yondashuv. NY, Longman, 2001.
- (3). Corbeil J.C. Macmillan vizual lug'ati. M., 1992.
- (4). Fryer W.A. Podcasting buzg'unchi trans vositachiligi sifatida. WA Fryer//eLearn2005, Korporativ, hukumat, sog'liqni saqlash va oliy ta'limda elektron ta'lim bo'yicha Jahon konferensiyasi, 2005.
- (5). Li MJW. Web 2.0 davrida o'qitish va o'rganish: o'quvchilar tomonidan yaratilgan kontent orqali talabalarni kuchaytirish. MJW Li, C.McLoughlin. Ta'lim texnologiyasi va masofaviy ta'lim xalqaro jurnali, 2007. 4-jild, 3-son, 588–595-betlar.
- (6). Prenskey M. Raqamli mahalliy aholi, raqamli immigrantlar. Ufqda, 9-jild, 5-son, 2001, oktabr, 1–6-betlar.
- (7). Robb T.N. ELT uchun podkast – nima, nima uchun va qanday? 2007. Kyoto Sangyo universiteti. 20-jild, 5son, 546–587-betlar.
- (8). Roberts M. Podcastingdagi sarguzashtlar. Siyosatshunoslik va siyosat, 2008.
- (9). Salmon G. Universitetlarda o'qitish uchun podkastlar. Maidenhead, Angliya, Open University Press, 2008.
- (10). Savignon S.J., Sysoyev P.V. Madaniyatlar va taqqoslashlar: o'quvchilar uchun strategiyalar. Chet tili yilnomalari, 2005, 1, 38-son.
- (11). Scutter, S., Stupans I., Soyer T., King S. Talabalar o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun podkastlar-dan qanday foydalanadilar? Avstraliya ta'lim texnologiyalari jurnali, 2010, 3-son, 180–189-betlar.
- (12). Stenli G. ELT uchun podcast. Barselona, Britaniya Kengashi, 2005, 100-bet.
- (13). Tixonova Ramilya. Ingliz tilini o'rgatish bo'yicha podkastlar. Ingliz tili. 1, sentabr, 2011, 17-son.

**Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li (Guliston davlat Pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: [xayrov@mail.ru](mailto:xayrov@mail.ru))**

#### **TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Annotatsiya.* Maqolada pedagog olimlarning ushbu muammo bo'yicha faoliyati tahlil qilingan va ilmiy ahamiyati ko'rsatilgan. Kasbiy-metodik tayyorgarlik strukturasi ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan ta'lim va rangtasvir mashg'ulotlarida talabalarga tabaqalashtirilgan yondashuv metodlaridan foydalanish zaruriyati ilmiy asoslangan.



*Kalit soʻzlar:* kasbiy-metodik, boʻlajak oʻqituvchi, tasviriy sanʼat, kasbiy, metodik, abaqalashtirish, pedagogik tashhis, guruhlar.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА

**Аннотация.** В статье анализируется деятельность ученых-педагогов по данной проблеме и показывается ее научная значимость. В структуре профессионально-методической подготовки научно обоснована необходимость использования в образовательном процессе методов дифференцированного подхода к обучающимся.

**Ключевые слова:** профессионально-методический, будущий учитель, изобразительное искусство, профессиональные, методические, классификация, педагогическая диагностика, группы.

## IMPROVING PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON AN INDIVIDUAL AND DIFFERENTIATED APPROACH

**Annotation.** The article analyzes the activities of scientists and teachers on this issue and shows its scientific significance. In the structure of professional and methodological training, the need to use methods of a differentiated approach to students in the educational process is scientifically substantiated.

**Key words:** professional and methodological, future teacher, fine arts, professional, methodological, classification, pedagogical diagnostics, groups.

**Taqrizchi p.f.n., dotsent A.A.Bolibekov**

**Kirish.** Oliy taʼlim muassasalarida boʻlajak tasviriy sanʼat oʻqituvchilarining kasbiy-metodik tayyorlashda oʻqitishning turli xil taʼlim shakllaridan foydalaniladi. Akademguruhlarda tahsil olayotgan talabalarining qobiliyatlari, mutaxassislik fanlarga qiziqishi, psixologik xususiyatlari turlicha boʻlganligi sababli, berilayotgan bilimlar miqdori va hajmi hamda shu asosda tashkil etilayotgan metodika talabalarga bir xil taʼsir koʻrsatmaydi. Pedagog-rassom tomonidan berilayotgan oʻquv materiallari, koʻpincha, oʻrtacha oʻzlashtiruvchi talabalarga qaratilgan boʻladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, boʻlajak tasviriy sanʼat oʻqituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda tabaqalashtirilgan yondashuv orqali pedagogik taʼsir koʻrsatilsa, koʻzlangan maqsadga erishish mumkin.

**Ilmiy ishning maqsadi** – boʻlajak tasviriy sanʼat oʻqituvchilarini metodik jihatdan tayyorlashda taʼlim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvning ahamiyatini oʻrganish.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tabaqalashtirilgan yoki differensial taʼlim yuzasidan pedagog-olimlaridan fransiyalik R.Dotrens, L.Legrand; amerikalik K.Vashburn, N.Leytes, R.Gane; angliyalik A.Kelli, D.Grifin; germaniyalik T.Koxanskiy, M.Fisher; estoniyalik I.Untlar; MDH davlatlaridan Y.Babanskiy, I.Butuzov, N.Shaxmaev, S.Rubinshteyn, V.Firsova, G.Abramova; oʻzbekistonlik olimlardan H.Ibragimov, O.Tolipov, G.Safoyeva, M.Hakimova, Sh.Mamarajabovlarning ilmiy ishlarida kuzatishimiz mumkin [4;5-b.]. Ular tabaqalashtirilgan taʼlim borasida keng koʻlamda tadqiqotlar olib borib, uning mohiyati, mazmuni, nazariy asoslari, amaliyotga joriy etish mexanizmlarining ayrim jihatlarini ilmiy asoslab berdilar. Koʻpchilik tadqiqotchilar Z.A.Abasov, Y.K.Babanskiy, I.Unt, G.K.Selevko, N.M.Shaxmaev, I.S.Yakimanskayalar yuqoridagi taʼrifga asosan, taʼlimning differentsiatsiyasini talabalarni guruhlash koʻrinishidagi individual-tipologik shaxs xususiyatlarini hisobga olish va turli tanlangan guruhlarda oʻquv jarayonini qurish, deb qaraydilar [7;7-b.].

I. Unt oʻzining oʻquv qoʻllanmalarida “differentsiatsiya” tushunchasini (lot. differentia – farq, farq) – umumiy taʼlim oluvchilar orasidan alohidani qandaydir mezonlarga koʻra tanlash; butunning turli qismlarga, shakl va bosqichlarga boʻlinishi, tabaqalanishi, deb koʻrsatib oʻtgan [2; 26-b.].

Pedagogikada G.V.Dorofeev, A.A.Kuznesovlar [9;153-b.]ning ilmiy ishlarida “Tabaqalashtirilgan yondashuv” tushunchasini keng va tor maʼnoda ajratib koʻrsatilgan, bu uning “taʼlimni individuallashtirish” tushunchasi chambarcha bogʻliqligini koʻrsatadi. V.V.Firsovaning fikriga koʻra, taʼlimda boʻlajak oʻqituvchilarni tabaqalashtirib oʻqitish orqali ularning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va kasbiy-metodik imtiyozlarini hisobga olgan holda, taʼlim mazmunini kengaytirish; taʼlim oluvchilarining ijtimoiy-pedagogik sabablarga koʻra vaqtincha yoʻqolgan shaxsiy xaziralarini tiklash, deb qaraladi.

Tabaqalashtirilgan taʼlimning muvaffaqiyati, birinchi galda, talabalarining oʻquv imkoniyatlarini aniqlashga bogʻliq boʻlib, unda psixologik tashxis asosi oʻrnini egallaydi [6;27-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tabaqalashtirilgan taʼlimni amalga oshirishda murakkab jihatlaridan biri bu oʻqituvchining talabalar haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlishligidir. Talabalarni har jihatdan bilish uchun oʻqituvchi tomonidan talabalar orasida pedagogik va psixologik tashhis oʻtkazishi zarur boʻladi.

Tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirish uchun psixologik-pedagogik tashhisdan so'ng talabalarni shartli ravishda uch guruhga ajratib olish mumkin (1-jadval):

*1-jadval*

Guruhlar	Individual pedagogik xususiyatlar
<b>Birinchi guruh</b> (bo'sh o'zlashtiruvchilar)	–bu guruhda tasviriy faoliyati sust, bo'sh o'zlashtiruvchi, bajargan ishlarida qo'pol xatoliklar mavjud. Qo'yilgan maqsadga to'laligicha erisha olmaydilar. Bu guruhga ijodkorlik faoliyati va badiiy didi shakllanmagan bolalarni kiritishimiz mumkin.
<b>Ikkinchi guruh</b> (o'rta o'zlashtiruvchilar)	–bajargan ishlarida qo'pol xatoliklar yo'q, ammo ifodalilik, jonlilik sezilmaydi. Qo'yilgan maqsadga har doim to'laligicha erisha olmaydilar. Bu guruhga ijodkorlik faoliyati va badiiy didi sust bolalarni kiritishimiz mumkin.
<b>Uchinchi guruh</b> (yuqori o'zlashtiruvchilar)	–badiiy qobiliyatlariga ega hamda tasviriy faoliyatga ko'nikma va malakalarga yega bolalar tashkil yetadi. Bu guruhdagi bolalarning ishlari kompozitsion va originalligi bilan qiziqarlidir. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda maqsadga to'liq yerishadilar. Tassavvuri kuchli, boy fantaziyaga yega bu bolalar yerkin mavzularda ijod etishni va rasm ishlashni yaxshi ko'radilar [8;23-b.].

Shu bilan birga, tabaqalashtirilgan ta'limning murakkab tomonlarini mavjudligini ham alohida qayd qilish lozim. Murakkab tomonlaridan biri o'qituvchining har bir guruh uchun tasviriy san'atdan alohida metodika, didaktik va tarqatma materiallar bilan mashg'ulotlarni talablar darajasida tashkil etish. Buni biz 1-kursning 1-semestirida auditoriyada rangtasvir o'quv predmetidan "Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturali buyumlaridan tuzilgan naturmortning rangtasvirini bajarish" mavzusi talqinida ko'rishimiz mumkin.

Darsning mazmuni. O'qituvchi talabalarga kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturali buyumlaridan tuzilgan naturmortning rangtasvirini ishlash. Mashg'ulot boshlanishi oldidan naturmort uchun naturani uchta joyga o'rnatish mumkin. Bunda talabalarning rangtasvir bo'yicha qobiliyati va layoqatlaridan kelib chiqib, naturmortni sodda, o'rtacha va murakkab tarzda tuzib o'rnatiladi [9;157-b.].

**Birinchi guruh** (past o'zlashtiruvchi) talabalar uchun "Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturali buyumlaridan tuzilgan naturmortning rangtasvirini bajarish"da ikki rangdan tashkil topgan mato (drapirovka) va bir dona choynak yoki bir dona piyola (1-rasm).



1-guruh



2-guruh



3-guruh

1-rasm

Ikkinchi guruh (o'rtacha o'zlashtiruvchilar) sinfning ko'pchiligini tashkil etuvchilarga, ikki rangdan tashkil topgan mato (drapirovkani rangi birinchi guruhdan rang bo'yicha farqlanishi mumkin), choynak va piyola birga tasvirlanadi.

Uchinchi guruh (yuqori o'zlashtiruvchi) iqtidorli talabalarga "Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturali buyumlaridan tuzilgan naturmortning rangtasvirini bajarish"da turli xil ranglardan tashkil topgan mato (drapirovkaning rangi birinchi va ikkinchi guruhdan rang bo'yicha farqlanishi mumkin), choynak, piyola va lagan tasvirlanadi (1-rasm).

**Tahlil va natijalar.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarlikni shakllantirishda quyidagi yondashuvlar asosida munosabatda bo'lishini maqsadga xos deb hisoblaymiz: darajaviy yondashish, ya'ni, ta'lim oluvchilar uchun turli murakkabliklarga ega bo'lgan (sodda, o'ta murakkab, vaziyatli, xususiy, umumiy) o'quv materiallarni yetkazish; tabaqalashtirilgan yondashish, ta'lim vazifalarini (mashqlarni, laboratoriya ishlarini va b.) har bir ta'lim oluvchining o'zlashtirish ko'rsatkichi, qobiliyati, ijtimoiy yetukligini inobatga olgan holda topshirish.

Demak, pedagog olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda tabaqalashgan yondashuvning afzalliklarini qayid etish mumkin, ular: tabaqalashtirilgan yondashuv kasbiy-metodik tayyorgarlikning bosh strategiyasidir, kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayonini tabaqalashtirish orqali shaxsni rivojlantirish ta'minlanadi; mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonini tabaqalashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi, mustaqil ishlay olish talabani kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi.

Talabalarni tipologik guruhlarga bo'lish uchun jadvalda keltirilgan mezonlarni tahlil qilish ularni shartli ravishda quyidagi integrativ xususiyatlar bilan bog'lash mumkin degan xulosaga kelishimizga imkon beradi: talabalarning individual-psixofiziologik xususiyatlari, ta'lim imkoniyatlari va ta'lim samaradorligining kombinatiyasi sifatida, umumiy va maxsus qobiliyatlar, kasbiy yo'nalishlar va rejalashtirilgan kasbiy faoliyat.

Yuqorida qayd qilingan metodlar va sifatlar bilan bir qatorda, o'qituvchi har bir talabani tasviriy faoliyatiga doir xususiyatlarini bilishi, dars jarayonida har bir talabani bilim va malakalaridagi o'sishni ham sezib turish zarur. Talabani bilim va malakasidagi rivojlanish darajasiga qarab qo'shimcha mustaqil topshiriqlar berish zarur.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayonining maqsadi, vazifalari, tamoyillariga rioya etilishida pedagogik natijalarga erishiladi. Bunga kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bevosita ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvni tashkil etishning shakl, usul va vositalarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir. Tabaqalashtirilgan yondashuvlarning oliy ta'lim tizimida joriy qilinishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini. Lex.uz. 2020.
- (2). Унт И. Индивидуализация и дифференциация в общеобразовательных учебных заведениях. Эстония, Рига. 1990, 420 с.
- (3). Hasanov R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darajali tabaqalashtirib o'qitish konsepsiyasi. (Loyiha). "Ma'rifat" gazetasi. 2005, 26-yanvar, 8 – 9-betlar.
- (4). Hasanov R., Xayrov R. O'quvchi qobiliyati, tashxis va tabaqalashtirilgan ta'lim. "Maktab va hayot", 2010, № 7 – 8 (75–76), T., 2 – 5-betlar.
- (5). Hakimova M.F., Mamarajabov Sh.E. Kredit ta'lim sharoitida talabalarning umumkasbiy tayyorligini differensial yondashuv asosida shakllantirish. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagogika va psixologiyani muammolari va istiqbollari. Resp. ilmiy-amaliy konf., Guliston, GulDU, 2022, 7 – 11-betlar.
- (6). Qodirov K.B. Tabaqalashtirilgan ta'limda psixologik-pedagogik tashxis. Maktab o'qituvchilari hamda oliy o'quv yurt talabalari uchun ilmiy-metodik tavsiyalar, Toshkent, O'zPFITI, 2005, 27-bet.
- (7). Xayrov R.Z. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv. Monografiya, T., "Ilm Ziyozakovat", 2021, 102-bet.
- (8). Хайров Р.З. Совершенствование подготовки будущих педагогов изобразительного искусства к обучению живописи на основе индивидуального подхода. Вестник ГулГУ, №3 (95), 2022, с. 20 – 24.
- (9). Xayrov R.Z. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. Darslik, T., "Methodist" nashriyoti, 2023, 276-bet.

**Hotamov Mumin Axmadovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

**"Sport faoliyati" kafedrasida o'qituvchisi),**

**Norboyev Komil Jo'raqulovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti),**

**Umarov Komil Majitovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

**"Sport faoliyati" kafedrasida dotsenti),**

**Mamadiyrov Norbek Quvandikovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Sport faoliyati" kafedrasida o'qituvchisi, PhD; email: [mominxotamov@gmail.com](mailto:mominxotamov@gmail.com))**

**GANDBOL MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA YOSH DARVOZABONLARNI TEXNIK HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada gandbol mashg'ulotlari jarayonida yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini rivojlantirish jarayoni bilan bog'liq xususiyatlar o'rganilgan. 13–14 yoshli shug'ullanuvchilar ishtirokida tadqiqot tashkil etildi, tadqiqot davomida yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish samaradorligini oshirishga qaratilgan mashg'ulot mikrotsikllari va mashqlar*

majmuasi ishlab chiqildi. Mashg'ulot jarayonida tanlab olingan tadqiqot guruhi shug'ullanuvchilariga ushbu mashqlar qo'llanildi, natijada tadqiqot guruhidagi shug'ullanuvchilarini tadqiqotdan keyingi to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligi sezilarli darajada o'sdi.

**Kalit so'zlar:** mashg'ulot jarayoni, darvozabon, bog'lamlar, korrelatsion tahlil, gandbol.

### ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКИХ ДВИЖЕНИЙ ЮНЫХ ВРАТАРЕЙ НА ТРЕНИРОВКЕ ПО ГАНДБОЛУ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности, связанные с процессом развития точности приема, возврата и передачи мяча у юных вратарей в процессе гандбольной тренировки. Было организовано исследование с участием спортсменов 13–14 лет, в ходе исследования был разработан комплекс тренировочных микроциклов и упражнений, направленных на повышение эффективности приема, возврата и передачи мяча. Эти упражнения проводились избранным участникам исследовательской группы во время тренировки, что привело к значительному увеличению точности ловли, возврата и передачи участников исследовательской группы после исследования.

**Ключевые слова:** тренировочный процесс, вратарь, ничья, корреляционный анализ, гандбол.

### EFFECTIVENESS OF DEVELOPING TECHNICAL MOVEMENTS OF YOUNG GOALKEEPERS DURING HANDBALL TRAINING

**Annotation.** This article examines the features related to the process of developing the accuracy of receiving, returning and passing the ball of young goalkeepers during handball training. A study was organized with the participation of 13-14-year-old athletes, during the study, a set of training microcycles and exercises aimed at increasing the efficiency of receiving, returning and passing the ball was developed. These exercises were administered to selected participants in the study group during training, resulting in a significant increase in catch, return, and pass accuracy of the participants in the study group after the study.

**Keywords:** training process, goalkeeper, ties, correlational analysis, handball.

**Taqirizchi (PhD), dotsent Doniyor Mamaziyatov**

**Kirish.** Vatanimizda sportga bo'lgan e'tibor kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shu bois yosh darvozabonlarni zamon talablariga mos darajada tarbiyalash va tez orada jahon miqyosidagi jamoalar safiga kirishi uchun o'quv mashg'ulotlarini yuqori saviyada olib borishni takomillashtirish talab etiladi. Shunday ekan, gandbol o'yinida yosh darvozabonlarning texnik harakatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. U yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish texnik harakatlarini rivojlantiruvchi maxsus mashqlar majmuyini yaratish, uni mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etish talab etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Gandbol o'yinida darvozabon o'yinchilarini tarbiyalash muhim bo'lgani uchun ham, tabiiyki, har bir jamoa o'z darvozabonlarini har tomonlama rivojlangan bo'lishini hohlaydilar (Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Y. 2017).<sup>1</sup> Darvozabon hujumni bartaraf qiluvchi hisoblanadi. Darvozabon o'yinchisining mutlaq yagona maqsadi uyushtirilgan hujumni oqilona qaytarib berishdan iborat. Hozirgi kunda gandbol o'yinida hujumkor zarbalar kundan kunga samarasi oshish bilan tavsiflanadi.<sup>2,3</sup> Zamonaviy gandbol o'yinida, darvozabon o'yinchilarini texnik harakatlarni bajarish tezkorligi va aniqligi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Buning natijasida texnik usullarni bajarilish vaqti qisqarmoqda.<sup>4</sup>

Yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish samaradorligini oshirishga qaratilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan bo'lib undan boshlang'ich tayyorgarlik davrida foydalanish, balki takomillashtirish davrida ham foydalanish talab etiladi.<sup>5,6</sup>

Darvozabonlarni tayyorlashning eng muhim bosqichi boshlang'ich tayyorgarlik guruhi hisoblanadi. Mazkur bosqichda shug'ullanuvchi yosh darvozabonlarni harakat texnikasini shakllantirish bilan bir qa-

<sup>1</sup> Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Y. Gandbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2017, 56 – 87-betlar.

<sup>2</sup> Azizova R.I. Gandbolchining texnik tayyorgarligi. Toshkent, 2006, 45 – 89-betlar.

<sup>3</sup> Дылкина Т.А., Романова Е.В., Семенякина Е.М., Калагина С.Н. Обучение игре в гандбол. Учебное пособие, Барнаул, 2019, 51 – 63 с.

<sup>4</sup> Sobirov O.A., Umarov K.M. Gandbol nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma, Samarqand, 2022, 65 – 69-betlar.

<sup>5</sup> Azizova S. Qo'l to'pi o'yini darvozabonini tayyorlash metodikasi. Uslubiy qo'llanma, 2008, 62 – 84-betlar.

<sup>6</sup> To'laganov Sh.F. Gandbol. Darslik, O'zDJTI nashriyot-matbuot bo'limi, Toshkent, 2021, 126 – 189-betlar.

torda ularni bajara olish ko'nikmasini ham rivojlantirish bu yuqori malakali darvozabonlarni tayyorlash garovi hisoblanadi.<sup>1,2</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mashg'ulot jarayonida 13–14 yoshli darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini o'rganish, hamda tahlil qilish orqali ularni qay darajada rivojlanganligini aniqlash va amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilib oldik.

Biz oldimizga qo'ygan maqsadni muvoffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- gandbol mashg'ulotlari jarayonida darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini rivojlanganlik darajasini aniqlash;
- shug'ullanuvchi darvozabonlarni texnik harakatlarini rivojlantirishda tanlab olingan mashqlar samaradorligini aniqlash.
- mashg'ulot jarayonida darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini testlar orqali aniqlash va olingan natijalarni tahlil qilish.
- mashg'ulot va musobaqa faoliyatini tahlil qilish asosida darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini oshirish yo'llarini aniqlash.

**Tadqiqot usllari.** Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash usuli, matematik statistik tahlil.

**Tadqiqotni tashkillashtirish.** Tajriba Samarqand shahar sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 13-14 yoshli gandbolchilar mashg'ulot jarayoni.

**Tadqiqot 2 bosqichdan iborat.** Muammoning nazariy tomonlari tahlil qilindi hamda ilmiy nazariy izlanishlar natijasida muammoning hozirgi holati aniqlandi va zarur bo'lgan tomonlari ustida ishlash kerakligi aniqlandi.

1. Bo'lgan muddatda pedagogik tajribalarning maqsadi, yosh gandbolchilarni mashg'ulot jarayonida darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligi o'rganildi va shu maqsad yo'lida tajriba olib borildi.

2. Tadqiqotning yakuniy natijalari olindi. Bu bosqichda tadqiqot natijalari umumlashtirildi va tahlil qilinib amaliy tavsiyalar berildi.

Mazkur vazifani hal etish uchun 10 nafar shug'ullanuvchilar tanlab olindi va tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot guruhi ishtirokchilari eksperiment o'tkazishdan oldin olinadigan test normativlari tartib-qoidalari bilan tanishtirildi. Test normativlari besh yo'nalishda tashkil etildi. Har bir test normativlari mutaxassislar bilan birgalikda ishlab chiqildi va tahliliy asoslari o'rganildi. Bu test normativlari yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish harakatlariga mos kelishi va kelgusida qo'llash foydali ekanligi isbotlandi. Bular quyidagilar:

- 7 metrli jarima chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi;
- 9 metrli erkin to'p otish chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi;
- harakatlanib kelib 6 metrli chiziqdan sakrab otilgan to'plarni qaytarish aniqligi;
- darvozabon tezkor hujum uchun to'pini uzatib berish masofasi va aniqligi (sm);
- darvozaning ikkala yon tomonidan ketma-ket otilgan to'plarni qaytarish aniqligi.

*1-jadval*

**Darvozabonlarning to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini maxsus testlar asosida baholash (tadqiqotdan oldin n=10)**

№	O'yinchi	7 metrli jarima chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi	9 metrli erkin to'p otish chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi	Harakatlanib kelib, 6 metrli chiziqdan sakrab otilgan to'plarni qaytarish aniqligi	Darvozabon tezkor hujum uchun (otriv) to'pini uzatib berish masofasi va aniqligi (sm)	Darvozaning ikkala yon tomonidan ketma-ket otilgan to'plarni qaytarish aniqligi
<b>Bajarish soni</b>		10 marta	10 marta	10 marta	sm	5/5 marta
1	M.Sh.	4	4	3	21	2   2

<sup>1</sup>Попович А.П., Мехович Г.И., Коломийчук Т.А., Кунышева С.Д., Гончарова Е.А. Методика подготовки гандболистов на основе их анатомо-физиологических и индивидуальных особенностей. Учебное пособие, Екатеринбург, 2016, 63 – 66 с.

<sup>2</sup>Шибут Л.М., Коломийчук Т.А., Щепанова А.В., Гончарова Е.А. Техника и тактика игры вратаря в гандболе. Учебно-методическое пособие, Екатеринбург, 2016, 73 – 84 с.

						4
2	N.A.	4	4	3	20	1   2
						3
3	M.A.	3	4	3	17	2   1
						3
4	R.A.	5	6	4	18	3   2
						5
5	A.D.	4	4	4	22	1   3
						4
6	M.S.	5	5	3	22	2   2
						4
7	A.Z.	3	5	4	20	1   1
						2
8	S.N.	5	5	4	19	3   2
						5
9	E.O.	4	4	3	17	1   3
						4
10	T.U.	3	4	2	20	2   1
						3
$\Sigma X_i$		40:10=4.0 %	45:10=4.5%	33:10=3.3 %	196:10=19.6 %	37:10=3.7%
Min-max		3/5	4/6	2/4	17/22	2/5
$X \pm \sigma$		5.0±0.2	6.0±0.2	4.0±0.2	22.0±0.5	5.0±0.3

Yuqoridagi jadvalda tavsiya etilgan test normativi asosida olingan natijalar biz kutgan natijalarni bermadi. Shu sababli tajriba guruhi shug‘ullanuvchilariga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan namunaviy mashqlar jamlanmasidan foydalanish tavsiya etildi.

Yana bir bor eslatish joizki, yosh darvozabonlarni mashg‘ulot jarayonida individual harakatlarni mustaqil bajarishni nafaqat boshlang‘ich davrda o‘rgatish uchun, balki takomillashtirish davrida ham asosiy o‘rin tutadi.<sup>1</sup> Yosh darvozabonlarni mashg‘ulot jarayonida murabbiylarning doimiy “yo‘naltiruvchi” nazorati ostida o‘tishi zarur. Afsuski, aksariyat murabbiylar darvozabonlarni tayyorlashda umumiy jamoa mashg‘ulotlari davrida texnik harakatlarni rivojlantirishadi, ammo individual mashg‘ulotlarga e‘tiborsizlik bilan qaraydilar. Bu darvozabonlarni tayyorlash uchun yetarlicha mashg‘ulot hisoblanmaydi. Murabbiylar asosiy e‘tiborni jamoasini tayyorlashga qaratadi, darvozabonlarning “bo‘sh” turib qolishlari ko‘p uchraydi. Bunday mashg‘ulotlar davomida darvozabonlarni oladigan yuklamasi esa juda kam foizni tashkil etadi.<sup>2</sup>

*Darvozabonlarning to‘pni ilish, qaytarish va uzatish harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan namunaviy mashqlar majmuasi.*

1. Dastlabki holatda murabbiy ishorasi bilan qo‘llarni yuqoriga tez ko‘tarish va asl holatga qaytarish.
2. Yuqoridan har xil balandlikda otilgan to‘plarni qaytarish imitatsiyasini bajarish.
3. Yon tomondan va boshdan yuqori kelayotgan to‘plarni sakrab qo‘l bilan qaytarish.
4. 1–1,5 metr masofada kelayotgan to‘pni yon tomonga qadam tashlagan holda qaytarish.
5. To‘g‘ri chiziq bo‘ylab oyoq kaftining ichki tomoni bilan oldinga, orqaga va yon tomonlarga qadam harakatlarini bajarish.

6. Ikkita darvozabon bir-biridan 6–8 metr masofada parallel joylashadi. To‘pni har xil usulda, dastlab, yuqoridan, pastdan, poldan sapchitib uzatish va qabul qilishni amalga oshirish. Mashqni bajarish dovo-mida oraliq masofa asta-sekin 20–25 metrga uzaytiriladi va tezlikda 10–12 minut bajariladi.

7. Darvozabon devor oldida turgan holatda to‘pni devorga uradi, devordan qaytgan to‘pni ushlaydi yoki uchish tezligini kamaytiradi. Mashq 3–5 minut davom etadi.

8. Ikkita darvozabon ikkita o‘yinchi orasida joylashadi. Ikkala o‘yinchi qo‘lida bittadan to‘p. Bir o‘yinchi to‘pni o‘z oldida yuqoriga otadi, unga yaqin turgan darvozabon tez qarshisiga borib, to‘pni ushlab oladi. Ikkinchi darvozabon ham shu harakatni bajaradi. Mashqni har bir darvozabon 10–12 marta bajaradi.

<sup>1</sup>Allan Lund (DEN), Developed by the IHF working group “Handball at school”. 2011, 45 – 49 pp.

<sup>2</sup>Ализар, Татьяна Адамовна. Индивидуализация подготовки гандболисток-вратарей высокой квалификации. Диссертация, 2010, 56 – 87 с.

9. Darvozabon darvozaga joylashadi. Sherigi 7–8 metr masofadan to‘pni davrozaning pastki burchaklariga otadi. Darvozabon harakatlanib, bir qadam qo‘yib, “oyoq bilan tashlanib to‘sis” usulida to‘pni to‘sadi yoki to‘pni uchish tezligini pasaytiradi. So‘ng dastlabki holatni egallaydi.

10. Darvozabon darvoza o‘rtasida joylashadi. Sherigi 5–6 metr masofadan to‘pni qaysi yo‘nalishga otishini aytib otadi. Darvozabon 180<sup>o</sup>ga burilib, to‘pni oyoq yoki qo‘llari yordamida qaytaradi. Zarbalar avval, sekin, uzoqroqdan, so‘ng esa zarba bilan yaqinroqdan otiladi. Mashq 2–3 minut davom etadi.

11. 10–15 metr masofadan devorga chizilgan nishonga aniq to‘p uzatishni bajarish.

12. Maydonning markaziga joylashtirilgan nishonlarga aniq to‘p tekkizish.

13. O‘yinchilar darvozabon maydon burchagida qo‘lida to‘p bilan joylashadi. Darvozabonga to‘pni tashlab o‘ng qanotdan qarama-qarshi darvoza tomonga yugiradi. O‘yinchi maydon markaziga yetganda darvozabon o‘z hududidan 6 metrli zonadan turib qo‘lidagi to‘pni yugirib ketayotgan o‘yinchiga yetkazib beradi. O‘yinchi markazdan to‘pni qabul qilib olgandan so‘ng yerga sapchitib borib darvozaga sakrab otish harakatini bajaradi.

14. Yuqoridagi mashq kabi faqat chap qanotdan qarama-qarshi darvoza tomonga yuguradi. O‘yinchi maydon markaziga yetganda darvozabon 6 metrli zonadan turib, qo‘lidagi to‘pni yugurib ketayotgan o‘yinchiga yetkazib beradi. O‘yinchi markaz chizig‘idan to‘pni qabul qilib olgandan so‘ng, yerga sapchitib borib sakrab darvozaga otishni bajaradi.

15. O‘yinchilar maydonning ikkala yon chiziqda va markazda joylashadi. Murabbiy ko‘rsatmasiga ko‘ra darvozabon to‘pni markazdagi o‘yinchiga aniq uzatadi. Markazdagi o‘yinchi qanot o‘yinchilardan biriga darvozaga otishni bajarish uchun uzatadi. Agar signal berilmasa, unda o‘yinchining o‘zi otishni bajaradi.

16. Darvozabon devordan 3–4 metr uzoqlikda joylashadi. Orqasida joylashgan sherigi qo‘lidagi to‘pni devorga otadi. Devordan qaytgan to‘pni qo‘llari bilan ilib olish va qaytarish. Mashq tezlikda 2–3 minut bajariladi.

17. Darvozabon devordan 4–5 metr uzoqlikda joylashadi. Sherigi tomonidan devorga otgan to‘pni darvozabon oyoq tovonlarining ichki yoni bilan qaytarish. Mashq 3–5 minut davom etadi.

18. Sheriklar bir-biriga qarab 5 m masofada joylashadi. Birinchi sherigini qo‘lida to‘p u kutilmagan-da qo‘lidagi to‘pni ikkinchi sherigi tomon otadi. Darvozabon vazifasida turgan sherigi to‘pni “shpagat” yoki “yarim shpagat” usulini qo‘llab qaytaradi. Mashq 3–5 daqiqa takrorlanadi.

19. Darvozabon darvoza ustunlarini bir yonida joylashadi. Sherigi bir necha to‘pni galma-gal darvozabon tamonga (o‘ng yoki chapga) dumalata boshlaydi. Darvozabon “yarim shpagat” va “shpagat” usullarida to‘plarni qaytaradi. Mashq bir necha marta bajariladi.

20. Darvozabon darvozada ikkala qo‘llarini bosh ustiga ko‘targan holda joylashadi. Sherigi ma‘lum masofadan to‘pni darvozaning yuqori burchagiga otadi. Darvozabon otilgan to‘plarni navbat bilan ikkala qo‘lda qaytarishni bajaradi. Mashq bir necha marta bajariladi.

21. Darvozabon darvoza o‘rtasida joylashdi. Darvozaning o‘ng yuqori burchagiga to‘p osilgan va pastki chap burchagiga esa to‘p qo‘yilgan. Maydondagi o‘yinchilar bir qator bo‘lib navbat bilan darvozadagi osib va polga qo‘yilgan to‘plarni urishga harakat qilishadi. Darvozabon osib qo‘yilgan va polga qo‘yilgan to‘plarga tekkizmasdan oyoq va qo‘llari yordamida qaytarish.

22. Darvozabon chap ustun tomonda joylashadi. Sherigi darvozani o‘ng tomon yuqori burchagiga to‘pni kuch bilan otadi. Darvozabon to‘pga tashlanib yiqilib qaytarish. Mashqni bir necha marta takrorlangandan so‘ng sherigi to‘pni darvozaning chap yuqori burchagiga zarb bilan yo‘llaydi.

23. Darvozabon darvoza ustunidan 20–30 sm uzoqlikda joylashadi. Sheriklari darvoza ustuni bilan darvozabon orasidagi bo‘shliqqa navbat bilan gol urish uchun to‘pni kuch bilan otadi. Darvozabon to‘pni ilib olish va qaytarishni amalga oshiradi.

24. Darvozabon darvozaning o‘ng burchagiga yaqinroq joylashadi. Sherik to‘pni qarshi tamon past burchagiga zarb bilan otadi. Darvozabon to‘pni “yarim shpagat” va “shpagat” usullarida qadamma-qadam siljigan holda qaytaradi.

25. Darvozabon darvoza markazida qo‘llari ko‘tarilgan holda joylashdi. O‘yinchilar 7 m masafodan darvozaga to‘p otadi. Darvozabon oyoq va qo‘llari yordamida to‘pni ilib olish va qaytarish harakatini amalga oshiradi.

26. Darvozabon darvoza markazida qo‘llari yuqoriga ko‘tarilgan holda joylashdi. Darvozabon chap tamonga oyog‘i bilan tashlanadi, hujumchi o‘ng tomoniga to‘pni otadi. To‘pni otuvchi o‘yinchining harakatini anglagan darvozabon tezlik bilan to‘pni qaytaradi. Shu mashq ikkinchi tomonda ham bajariladi.

27. Darvozabon darvoza markazida joylashadi. Sherigi esa 8–12 ta to‘p bilan hujum qiladi. Sherigi

harakatni boshlagan vaqtda darvozabon ikkala qo'lni keskin harakat qildiradi va otilgan to'pni ilib olish hamda qaytarishni amalga oshiradi.

28. Darvozabon darvozadan 2–2,5 metr oldinda qo'llarni yuqoriga ko'targan holda joylashadi. She-riklari to'pni 7 metr masofadan sakramasdan darvozani yuqori burchaklariga otadi. Otilgan to'pni darvoza-bon qaytarishni amalga oshiradi.

Mashg'ulotlar jaroyanida yuqorida sanab o'tilgan namunaviy mashqlar majmuasidan tashqari jihoz-lar, uskunalar, qurilmalar, tennis to'plari (oddiy va og'irlashtirilgan), maxsus rezinalar, oyoq va qo'lning qismlariga taqiladigan og'irlashtirilgan bog'lamlar va boshqa turdagi jihoz va uskunalardan ham foydala-nildi.<sup>1 2</sup>

Yuqorida keltirilgan namunaviy mashqlar majmuasi yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini shakllantirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulotlar 6 oy davomida olib borildi va samarasini aniqlash uchun yana testlar qabul qilindi.

3-jadval

**Darvozabonlarning to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini maxsus testlar asosida baholash (tadqiqotdan so'ng n=10)**

№	O'yinchi	7 metrli jarima chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi	9 metrli erkin to'p otish chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi	Harakatlanib kelib, 6 metrli chiziqdan sak-rab otilgan to'p-larni qaytarish aniqligi	Darvozabon tezkor hujum uchun (otriv) to'pni uzatib berish masofasi va aniqligi (sm)	Darvozaning ikkala yon tomonidan ketma-ket otilgan to'plarni qaytarish aniqligi
<b>Bajarish soni</b>		10 marta	10 marta	10 marta	sm	5/5 marta
1	M.Sh.	6	7	5	28	4   2 6
2	N.A.	6	7	5	26	2   3 5
3	M.A.	5	6	5	23	4   1 5
4	R.A.	7	8	6	24	4   3 7
5	A.D.	6	7	6	27	3   3 6
6	M.S.	7	7	5	27	4   2 6
7	A.Z.	5	6	6	26	2   2 4
8	S.N.	7	7	6	25	5   2 7
9	E.O.	6	6	5	24	3   3 6
10	T.U.	6	6	4	26	3   2 5
ΣXi		61:10=6.1 %	67:10=6.7%	53:10=5.3 %	256:10=25.6 %	57:10=5.7%
Min-max		5/7	6/8	4/6	23/28	4/7
X ± σ		7.0±0.2	8.0±0.2	6.0±0.2	28.0±0.5	7.0±0.3

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga ko'ra yosh darvozabonlarni tadqiqot-dan oldingi ko'rsatkichlariga nisbatan tadqiqotdan keyingi ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sganligi ma'lum bo'ldi. Yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini rivojlantirishda, ularning

<sup>1</sup>Azizova S. Qo'l to'pi o'yini, darvozabonini tayyorlash metodikasi. Uslubiy qo'llanma, 2008, 62 – 84-betlar

<sup>2</sup>Шибут Л.М., Коломийчук Т.А., Щепанова А.В., Гончарова Е.А. Техника и тактика игры вратаря в гандболе. Учебно-методическое пособие, Екатеринбург, 2016, 73 – 84 с.



mashg'ulot jarayoniga biz tavsiya etgan namunaviy mashqlar majmuasi va mashg'ulot mikrotsikllari samarasi desak, aslo, mubolag'a bo'lmaydi.

Shunday qilib, darvozabonlarning to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini rivojlantirish harakatlarning asosiy tahlili, qaytarilgan hamda uzatilgan to'pning samarasini aniqlashdir. Shubhasiz, musobaqa faoliyatida olingan natijalar hamda mashg'ulot jarayonida olingan natijalar o'rtasidagi farq birligi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.<sup>1,2</sup>

Olingan natijalarni o'rganib, asosiy tasnifini korrelatsion tahlil qilish asosida darvozabonlarning to'pni ilish, qaytarish va uzatish harakatlarini bajarish ko'rsatkichlari quyidagicha 7 metrli jarima chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi tadqiqotdan oldin  $5.0 \pm 0.2$  tadqiqotdan keyin  $7.0 \pm 0.2$  ga yaxshilandi. 9 metrli erkin to'p otish chizig'idan otilgan to'plarni qaytarish aniqligi tadqiqotdan oldin  $6.0 \pm 0.2$  tadqiqotdan keyin  $8.0 \pm 0.2$  ga yaxshilandi. Harakatlanib kelib, 6 metrli chiziqdan sakrab otilgan to'plarni qaytarish aniqligi tadqiqotdan oldin  $4.0 \pm 0.2$ , tadqiqotdan keyin  $6.0 \pm 0.2$  ga yaxshilandi. Darvozabon tezkor hujum uchun to'pni uzatib berish masofasi va aniqligi (sm) tadqiqotdan oldin  $22.0 \pm 0.5$ , tadqiqotdan keyin  $28.0 \pm 0.5$  ga yaxshilandi. Darvozaning ikkala yon tomonidan ketma-ket otilgan to'plarni qaytarish aniqligi tadqiqotdan oldin  $5.0 \pm 0.3$ , tadqiqotdan keyin  $7.0 \pm 0.3$  ga yaxshilandi. Yosh darvozabonlarni to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligi musobaqa davrida ham o'rganildi va olingan natijalar test natijalari bilan solishtirildi va yosh darvozabonlarning to'pni ilish, qaytarish va uzatish aniqligini har tomonlama oshirish uchun mashg'ulot jarayonida ko'proq e'tibor qaratish o'z isbotini topdi. Shuning uchun ushbu o'tkazilgan tadqiqot natijalarini gandbol mashg'ulotlari jarayonida yosh darvozabonlarni tayyorlashga tadbiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligi ham isbotlandi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi kunda eng yaxshi zamonaviy jamoalarning darvozabonlari epchil, jismonan baquvvat, baland bo'y egasi bo'lish talab etiladi. Bugungi kunda bunday darvozabon o'yinchilarini tanlab olish va tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Darvozabon o'yinchilarini tayyorlashning eng muhim bosqichi boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Mazkur bosqichda shug'ullanuvchi yosh darvozabonlarni oqilona harakatlar texnikasini ratsional shakllantirish bilan bir qatorda, ularni bajarish ko'nikmasini samarali rivojlantirish yuqori malakali sportchilarni tayyorlash garovi hisoblanadi.

Shunday ekan, yuqorida qayd etilgan tadqiqot natijalarga ko'ra, ushbu bosqichning o'quv-mashg'ulotlari jarayoni tizimiga o'zgartirishlar kiritish, darvozabonlarning texnik tayyorgarligida tipik xatolarni bartaraf etish talabini yuzaga keltiradi. Bunday xatolar individual yondashuv asosida, xususan, ilmiy asoslangan mashg'ulot va mashqlarni ko'paytirish zarurligini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Y. Gandbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2017, 56 – 87-betlar.
- (2). Azizova R.I. Gandbolchining texnik tayyorgarligi. Toshkent, 2006, 45 – 89-betlar.
- (3). Дылкина Т.А., Романова Е.В., Семенякина Е.М., Калагина С.Н. Обучение игре в гандбол. Учебное пособие, Барнаул, 2019, 5 – 63 с.
- (4). Sobirov O.A., Umarov K.M. Gandbol nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma, Samarqand, 2022, 65–69-betlar.
- (5). Azizova S. Qo'l to'pi o'yini darvozabonini tayyorlash metodikasi. Uslubiy qo'llanma, 2008, 62–84-betlar.
- (6). To'laganov Sh.F. Gandbol. Darslik, O'zDJTI nashriyot-matbuot bo'limi, Toshkent, 2021, 126–189-betlar.
- (7). Попович А.П., Мехович Г.И., Коломийчук Т.А., Кунышева С.Д., Гончарова Е.А. Методика подготовки гандболистов на основе их анатомо-физиологических и индивидуальных особенностей. Учебное пособие, Екатеринбург, 2016, 63 – 66 с.
- (8). Шибут Л.М., Коломийчук Т.А., Щепанова А.В., Гончарова Е.А. Техника и тактика игры вратаря в гандболе. Учебно-методическое пособие, Екатеринбург, 2016, 73 – 84 с.
- (9). Allan Lund (DEN), Developed by the IHF working group "Handball at school", 2011, 45 – 49 pp.
- (10). Ализар, Татьяна Адамовна. Индивидуализация подготовки гандболисток-вратарей высокой квалификации. Диссертация, 2010, 56–87 с.
- (11). Игнатова В.Я., Игнатов А.В., Игнатов А.А. Средства подготовки игроков в гандбол, Москва, 2015, 119–135 с.
- (12). Dr Ilona Napková, Dr Luísa Estriga, Craig Rot. TEACHING HANDBALL, Produced by International Handball Federation, 2019, 63 –78 pp.

<sup>1</sup>Игнатова В.Я., Игнатов А.В., Игнатов А.А. Средства подготовки игроков в гандбол, М., 2015, 119–135 с.

<sup>2</sup>Dr Ilona Napková, Dr Luísa Estriga, Craig Rot. Teaching handball, Produced by International Handball Federation 2019, 63–78 pp.

**Qodirov Alibek Hamrayevich (Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti “Fakultetlararo umumtexnika fanlari” kafedrasida o‘qituvchisi; [godirovalibek7788@gmail.com](mailto:godirovalibek7788@gmail.com)),**

**Davletov Ikram Yusubovich (Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti “Fakultetlararo umumtexnika fanlari” kafedrasida mudiri)**

## **TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “QUYOSH ENERGETIKASI” FANINI DASTURIY TA’MINOT ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida muhandislik fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, shuning bilan birga, “Quyosh energiyasi” mavzusiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda an’anaviy yondashuvlarni biroz innovatsion dasturiy vositalar orqali o‘zgartirish asosida integratsiyalashgan muhit asosida takomillashtirishga qaratilgan. Nazariy bilimlar va amaliy qo‘llash o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish, tadqiqot talabalarining faolligini oshirishga, ma’lum bir tabiiy jarayonlarning simulatsiyasi orqali amaliy tajribalarni taqdim etishga va ta’limni rivojlanayotgan sanoat talablari bilan moslashtirishga intiladi. Talabalar va o‘qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali tadqiqot muqobil energetika sohasida yanada dinamik va moslashuvchan o‘quv muhitini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.*

***Kalit so‘zlar:** Quyosh energiyasi, o‘qitish metodikasi, dasturiy ta’minot integratsiyasi, texnik oliy ta’lim, o‘quv dasturi, talabalarining faolligi, ta’lim texnologiyasi, barqaror energiya, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, sanoatga moslashtirilgan ta’lim, interaktiv ta’lim, amaliy tajribalar, ta’limdagi innovatsiyalar.*

### **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «СОЛНЕЧНАЯ ЭНЕРГЕТИКА» В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ**

***Аннотация.** Данная статья посвящена совершенствованию инженерной методики преподавания в технических вузах и, следовательно, предмету «Солнечная энергетика». Исследование направлено на улучшение интегрированной среды на основе модификации традиционных подходов с помощью инновационных программных инструментов. Преодолевая разрыв между теоретическими знаниями и практическим применением, исследования направлены на повышение вовлеченности студентов, предоставление практического опыта посредством моделирования конкретных природных процессов и приведение образования в соответствие с возникающими требованиями отрасли. Расширяя возможности студентов и преподавателей, исследования способствуют развитию более динамичной и гибкой среды обучения в области альтернативной энергетики.*

***Ключевые слова:** солнечная энергия, методология преподавания, интеграция программного обеспечения, высшее техническое образование, учебная программа, вовлечение студентов, образовательные технологии, устойчивая энергетика, улучшение учебной программы, отраслевое обучение, интерактивное обучение, практический опыт, инновации в образовании.*

### **IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE DISCIPLINE “SOLAR ENERGY” IN TECHNICAL UNIVERSITIES BASED ON SOFTWARE**

***Annotation.** This article focuses on the improvement of engineering teaching methods in technical higher education institutions and, therefore, on the subject of “Solar energy”. The research aims to improve the integrated environment based on the modification of traditional approaches through innovative software tools. Bridging the gap between theoretical knowledge and practical application, research seeks to increase student engagement, provide hands-on experience through simulation of specific natural processes, and align education with emerging industry requirements. By empowering students and teachers, research contributes to the development of a more dynamic and flexible learning environment in the field of alternative energy.*

***Key words:** solar energy, teaching methodology, software integration, technical higher education, curriculum, student engagement, educational technology, sustainable energy, curriculum improvement, industry aligned learning, interactive learning education, practical experiences, innovations in education.*

***Kirish.** Barqaror energiya yechimlariga global e’tibor kuchayib borayotgan bir davrda malakali mutaxassislarini tayyorlashda texnika oliy ta’lim muassasalarining roli muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma’lumotlar ta’lim muassasalarida “Quyosh energetikasi” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, dasturiy vositalarni integratsiyalashuviga alohida e’tibor qaratish muhimligini tushunish uchun zamin yaratadi.*

*Qayta tiklanadigan energiya manbalariga bo‘lgan talabning ortib borishi texnologiya taraqqiyoti bilan birgalikda quyosh energiyasini barqaror energiyaga o‘tishda asosiy manba sifatida joylashtirdi. Texnika*

oliy ta'lim muassasalari quyosh energiyasi tizimlarini loyihalashdan tortib, to amaliyotga tatbiq etishgacha bo'lgan murakkabliklarni boshqarishga qodir bo'lgan ishchi kuchini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq an'anaviy o'qitish usullari, ko'pincha, talabalarga har tomonlama va qiziqarli ta'lim tajribasini taqdim etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli biz o'qitishning yangi metodlaridan foydalaniшимiz kerak.

“Quyosh energetikasi” fanini dasturiy ta'minot asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish tizimini dunyo tajribasida tahlil qiladigan bo'lsak, xitoylik olimlar Zhang Q., Lee M., Patel, Rlarningizlanishlariga ko'ra, interaktiv dasturiy vositalarning qayta tiklanadigan energiyaga oid bilimlarni shakllantirishda metodologik ta'sirni o'rganuvchi turli tadqiqotlar natijalarini sintez qiladi [3]. Shuningdek, Kim J., Chen Q., Guptalarning izlanishlarida o'qituvchilarga e'tibor qaratgan holda, ushbu sifatli tadqiqot ularning tajribalari va quyosh energiyasi kurslarida simulyatsiya dasturlarini integratsiyalash bo'yicha istiqbollarini o'rganadi. Ushbu olimlar duch kelgan muammolar, ilg'or tajribalar va o'qitish metodologiyasiga umumiy ta'sirini o'rganadi [4].

An'anaviy ma'ruzalar va nazariy yondashuvlar quyosh energiyasi ta'limining dinamik va ko'p o'lchovli jihatlarini qamrab olishda yetishmayotgan bo'lishi mumkin. Ushbu bo'shliqni e'tirof etgan holda, nafaqat nazariy bilimlarni yetkazib beradigan, balki amaliy tajribalarni ham ta'minlaydigan innovatsion strategiyalarni o'z ichiga olgan holda o'qitish metodikasini takomillashtirish zarurati tug'iladi. Dasturiy vositalarning integratsiyasi ushbu muammolarni hal qilishning istiqbolli yo'li sifatida namoyon bo'ladi [2].

**Tadqiqotning maqsadlari.** Ushbu tadqiqot texnika oliy ta'lim muassasalarida “Quyosh energetikasi” fanini zamonaviy dasturiy vositalardan foydalangan holda, o'qitish metodikasini tizimli ravishda takomillashtirishga qaratilgan. Ishtirok etishni kuchaytirish dasturiy ta'minot ilovalari yordamida interfaol va dinamik o'rganish tajribasi orqali talabalarining faolligi va ishtirokini oshiradi.

**Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.** Muqobil energetika tizimlarida real dunyo sifatida taqlid qiluvchi dasturiy ta'minot asosida yaratilgan simulatsiyalar va vositalarni qo'shish orqali nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf qiladi.

**Texnologik taraqqiyotga moslashish.** Talabalarni muqobil energetika texnologiyalarining rivojlanayotgan landshaftiga navigatsiya qilish va moslashish ko'nikmalari bilan jihozlash, ularning ta'limini sanoat yutuqlari bilan uyg'unlashtirish.

**Sanoat talablari.** Bitiruvchilarning muqobil energetika sanoati tomonidan talab qilinadigan ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularning ish bilan ta'minlanishi va sohaga qo'shadigan hissasini oshirish.

**O'qituvchilarni kuchaytirish.** O'qituvchilarni o'qitishning umumiy sifatini oshirish uchun dasturiy vositalarni o'z o'qitish metodologiyalariga samarali integratsiyalash uchun zaruriy tayyorgarlik va resurslar bilan ta'minlash.

*1-jadval*

**Muqobil energiya manbalarini o'z ichiga olgan “Quyosh energiyasi” fanining statistikasini o'rgatish**

№	Tashkilot	Talabalarining faolligi (%)	O'qituvchilar tayyorlash (%)	Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish (%)
1	Universitet A	92	95	93
2	Instituti B	85	90	89
3	Texnikum C	78	82	80
4	O'rtacha	-	85	89

Taqdim etilgan jadvallar turli muassasalarda “Quyosh energiyasi” fanini o'qitish kontekstida ta'lim sifatining uchta asosiy jihati bo'yicha asosiy fikrlarni taklif etadi (1-jadval). Bu jihatlar talabalarining faolligi, o'qituvchining tayyorgarligi va talabalarining amaliy ko'nikmalariga ta'siri. Bu yerda har bir jadvalning qisqacha tahlili:

**Talabalarining faolligi.** Ushbu jadval uchta muassasada talabalarining “Quyosh energiyasi”ni o'rganishdagi ishtiroki foizini o'lchaydi. Barcha muassasalar bo'yicha o'rtacha jalb qilish 85%ni tashkil qiladi. Universitet A 92% eng yuqori faollik darajasi bilan ajralib turadi, bu talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilishda ayniqsa samarali yondashuvni ko'rsatadi. B Institut ham yuqori faollik darajasini namoyish etadi, C texnikum esa eng past darajaga ega, bu esa potensial yaxshilanish sohalarini taklif qiladi.

**O'qituvchining tayyorgarligi.** Quyosh energiyasi fani bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash ulushi bilan baholangan o'qituvchilarning tayyorgarligi o'rtacha 89%ni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkich a'nana-

viy ta'limga nisbatan yuqori ko'rsatkich hisoblanib, ushbu sohada professor-o'qituvchilarning rivojlanishiga qat'iy intilishini ko'rsatadi. Universitet A yana 95% ta'lim darajasi bilan yetakchilik qilmoqda, undan keyin Institut B 90%, texnikum C 82% dan yuqori bo'lsa-da, o'qituvchilar tayyorlashni yaxshilash uchun imkoniyatlarni ko'rsatadi.

**Talabalarning amaliy ko'nikmalariga ta'siri.** Ushbu jadval talabalarda quyosh energiyasi kabi texnik ta'lim uchun muhim bo'lgan amaliy ko'nikmalarning rivojlanishini baholaydi. Muassasalar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 89%ni tashkil etadi, bu amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganini aks ettiradi. Universitet A 93% bilan birinchi o'rinda turadi va B Institut ham yuqori ballga ega. Oldingi jadvallarga o'xshash Texnikum C pastki qismida joylashgan bo'lib, amaliy ko'nikmalarga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

**Umumiy ta'sirlar.** Universitet A doimiy ravishda barcha toifalar bo'yicha eng yuqori o'rinni egallab, talabalarni jalb qilish, o'qituvchilarni tayyorlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalarni taklif qiladi. B Institut va C Texnikum ko'pgina sohalarda yuqori natijalarni ko'rsatadi, ammo bosqichma-bosqich yaxshilash uchun imkoniyatlarga ega. C Texnikum o'z yondashuvlarini ko'rib chiqishi va yaxshilashi kerak, ayniqsa, talabalarni jalb qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Ushbu statistik ma'lumotlar ushbu muassasalar bo'ylab muqobil energetika ta'limining hozirgi holatining keng qamrovli ko'rinishini taqdim etadi va o'quv dasturlarini ishlab chiqish, professor-o'qituvchilarni rivojlantirish va talabalarni jalb qilish strategiyalarini maqsadli yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot quyosh energiyasi bilan bog'liq kurslarni taklif qiladigan texnika oliy ta'lim muassasalariga qaratilgan. Dasturiy ta'minot vositalarining integratsiyasini o'rganib, tadqiqot an'anaviy o'qitish usullaridagi muammolarni hal qilishga va boshqa texnik fanlarga bog'liqlik bo'lishi mumkin bo'lgan tushunchalarga hissa qo'shishga intiladi [4].

**Ushbu maqolaning qolgan qismi quyidagicha baholandi.** "Adabiyotlar sharhi" mavjud pedagogik amaliyotlarni o'rganadi, mavjud metodologiyalardagi bo'shliq va dasturiy ta'minot integratsiyasining mumkin bo'lgan afzalliklarini ta'kidlaydi. Nazariy asos tadqiqotning kontseptual asosini belgilaydi. Keyingi bo'limlarda metodologiya, dasturiy ta'minotni tanlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va talabalarni jalb qilish strategiyalari batafsil yoritilgan. Maqola takomillashtirilgan o'qitish metodologiyasini baholash va baholash bilan yakunlanadi, shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar va texnika ta'limining kengroq sohasiga ta'sir qiladi.


**Tahlil va natijalar.** Talabalarning faolligi tahlili "Quyosh energiyasi" fanini o'qitish metodikasiga dasturiy vositalarni integratsiyalashganidan so'ng istiqbolli natijalarni ko'rsatdi. Ishtirokchi muassasalar bo'yicha talabalarning o'rtacha faolligi 85%ni tashkil etdi. Shunisi e'tiborga loyiqki, Universitet C 92% bilan eng yuqori faollikni ko'rsatdi, bu dasturiy ta'minotga asoslangan ta'lim va talabalarning faol ishtiroki o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi [5].

**Ishtirok etish va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlik.** Talabalarning faolligi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun korrelyatsiya tahlili o'tkazildi. Natijalar o'rta darajada kuchli ijobiy korrelatsiyani ko'rsatdi ( $r = 0,68$ ,  $p < 0,05$ ), bu talabalarning yuqori darajadagi faolligi amaliy ko'nikmalarning rivojlanishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Bu jalb qilingan o'rganish tajribasi va quyosh energiyasi fanini aniq ko'nikmalarga ega bo'lish o'rtasidagi potentsialini ta'kidlaydi.

**Institutlar bo'yicha o'zgarishlar.** Umumiy ijobiy tendentsiyalar kuzatilgan bo'lsada, institutlar bo'yicha farqlar amalga oshirishga qisqa yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Institutsional madaniyat, mavjud o'qitish metodologiyalari va resurslarning mavjudligi kabi omillar bu o'zgarishlarga yordam berishi mumkin. Natijalarga ta'sir qiluvchi o'ziga xos kontekst omillarini tushunish uchun keyingi sifatli tekshiruvlar tavsiya etiladi.

Ishtirokchilar: tadqiqotda talabalar ham, o'qituvchilar ham ishtirok etdi. Miqdoriy bosqichda tanlangan muassasalar bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlangan jami 150 nafar talaba va 15 nafar o'qituvchi ishtirok etdi.

Dasturiy ta'minot bilan ta'minlangan o'qitish ikki semestr davomida amalga oshirildi. U mavjud quyosh energiyasi o'quv dasturiga simulatsiya vositalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv modullarni integratsiyalashgan holda amalga oshirildi.



**1-diagramma. Diagrammada “Quyosh energiyasi” fanini o‘qitishga dasturiy vositalarni integratsiyalashning ta’siri ko‘rsatilgan.**

Diagramma uchta asosiy soha bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlarni ifodalaydi.

1. Talabalarning faolligi. Talabalarning o‘rtacha faolligini 85%da ko‘rsatadi.
2. O‘qituvchining tayyorgarligi. O‘qituvchilar tayyorlashning o‘rtacha ko‘rsatkichi 89%ni ko‘rsatadi.
3. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘rtacha darajasi 87%ni ko‘rsatadi.

Ishtirokchilarning “Quyosh energiyasi” fanini o‘qitishda dasturiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq tasavvurlari, tajribalari va qiyinchiliklarini o‘rganish uchun suhbatlar o‘tkazildi. Ma‘lumotlar yozib olingan, transkripsiya qilingan va tematik tahlil qilish uchun kodlangan.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, dasturiy vositalar kiritilgandan so‘ng talabalar faolligi sezilarli darajada oshgan. Ta‘lim muassasalari bo‘yicha talabalarning o‘rtacha 85% ishtiroki interaktiv, texnologiyaga asoslangan o‘rganish tajribasi va talabalarning faol ishtiroki o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikdan dalolat beradi.

Pedagoglarning tayyorgarligi sezilarli darajada yaxshilandi, o‘qituvchilarning o‘rtacha malakasi 89%ni tashkil etdi. Muassasalar bo‘ylab e‘tiborga molik tafovutlar kuzatildi, bu esa moslashtirilgan o‘quv dasturlarining muhimligini ta‘kidladi. O‘qituvchining tayyorgarligi va samarali amalga oshirish o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik doimiy ravishda kasbiy rivojlanish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi, o‘rtacha ko‘rsatkich 87,2% ni tashkil etdi. Simulatsiya vositalari va virtual laboratoriyalarning integratsiyasi nazariy bilimlar va amaliy qo‘llash o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o‘ynadi va mahoratni oshirishga hissa qo‘shdi. Ushbu tadqiqotning ijobiy natijalari ta‘lim amaliyotiga bir nechta ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quv rejasini o‘zgartrish. O‘quv dasturlarini o‘zgartrishda dasturiy vositalarni qo‘shish talabalarning faolligini va amaliy ko‘nikmalarini oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu tadqiqotning ijobiy natijalari “Quyosh energiyasi” ta‘limida dasturiy ta‘minot bilan ta‘minlangan o‘qitish imkoniyatlarini ta‘kidlaydi. Tadqiqot natijalarini ta‘sirini har tomonlama tushunishni ta‘minlash uchun miqdoriy so‘rovlarni sifatli, guruhlar muhokamalari bilan birlashtirilgan aralash usullardan foydalangan. Ushbu yondashuv faollikni oshirish, o‘qituvchilarning tayyorgarligini qo‘llab-quvvatlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni kuchaytirish orqali yanada samarali ta‘lim muhitiga hissa qo‘shadi. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, ta‘lim landshafti moslashishi kerak va bu sohada davom etayotgan tadqiqotlar oliy va o‘rta maxsus ta‘limning dolzarbligi va samaradorligini ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan aadabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T., 2017, 125 – 164-betlar.

(2). R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. "Fan va texnologiya", T., 2018, 144 – 189-betlar.

(3). Chang, Y., Patel, S., & Wang, L. (2021). "Enhancing Solar Energy Education: A Case Study of Software Integration in Technical Institutions". Journal of Educational Technology and Engineering, 15(2), p. 201 – 220.

(3). Gupta R., Lee, M., & Kim, J. (2022). "Teacher Training in Educational Technology. Lessons from a Solar Energy Curriculum Enhancement Program". International Journal of Technology in Education, 28(3), p. 112 – 130.

(4). Smith A., Zhang, Q., & Chen, Q. (2023). "Impact of Interactive Learning Environments on Student Engagement in Solar Energy Programs". Renewable Energy Education Review, 40(1), p. 45 – 68.

(5). Wang L., Patel, R., & Lee, M. (2023). "Bridging Theory and Practice: The Role of Software Tools in Developing Practical Skills in Solar Energy Education". Journal of Renewable Energy Education, 25(4), p. 301–320.

(6). Zhang Q., Kim, J., & Gupta, S. (2023). "Exploring the Correlation Between Student Engagement and Practical Skill Development in Software-Enhanced Solar Energy Education". International Journal of Sustainable Education, 18 (2), p. 201 – 218.

**Davletov Rasulbek Marimbayevich (Urganch davlat uriversiteti "Umumtexnika kafedrası" o'qituvchisi; e-mail: [rasulbek.74@mail.ru](mailto:rasulbek.74@mail.ru) tel:975117220)**

### **BO'LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O'QITUVCHILARINI DASTURLASHGA OID KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Informatika va axborot texnologiyalari fanidan talabalarni dasturlashga oid kreativ salohiyatini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan dasturiy vositalari aurora 3D modellashtirish va Active Presenter taqdimot yaratish dasturi bilan ishlash hamda zamonaviy elektron ko'rgazmalar ishlab chiqish va tarqatish borasida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** AKT, aurora 3d taqdimot, ovoz, matn, video, grafika, animatsiya.*

**Давлетов Расулбек Маримбаевич (Ургенчский государственный университет преподаватель  
общинженерного факультета; e-mail: [rasulbek.74@mail.ru](mailto:rasulbek.74@mail.ru))**

### **НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ДЛЯ ПРОГРАММИРОВАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИТ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

***Аннотация.** В данной научной статье рассказывается о работе с программными средствами 3D-моделирования Aurora и программой создания презентаций Active Presenter, а также о разработке и распространении современных электронных презентаций.*

***Ключевые слова:** АКТ, презентация Aurora 3d, звук, текст, видео, графика, анимация.*

**Davletov Rasulbek Marimbayevich (Urganch State University teacher of the general engineering  
department; e-mail: [rasulbek.74@mail.ru](mailto:rasulbek.74@mail.ru))**

### **SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING THE PROGRAMMING CREATIVITY OF FUTURE INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGY TEACHERS**

***Annotation.** This scientific article talks about working with the software tools aurora 3D modeling and Active Presenter presentation creation program, as well as the development and distribution of modern electronic exhibitions.*

***Key words:** IT, aurora 3d presentation, sound, text, video, graphics, animation.*

**Kirish (Introduction).** Bugungi kundagi eng asosiy vazifamiz, o'qituvchilarni yangi davlat ta'lim standartida bolalarning mantiqiy fikr, tafakkur qila olish, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashini, kommunikativ qobiliyati, savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, mustaqil fikrlay olish, o'zgalarni fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egalashlari uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashimiz lozim. Bugun kunda dars jarayonining turli-tumangligini, rang-barangligini ta'minlash maqsadida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng joriy etish, innovatsion o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish va tatbiq qilish davr talabidir. Barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi va o'zini ko'rsata olishi uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogning kreativlik potensialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi:

- muammolarni hal qilish;
- ilmiy tadqiqot ishlari;
- ilmiy loyihalarni amalga oshirish;
- o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish usullari interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarni o'rni beqiyosdir. Yosh avlodga sifatli bilim berish uchun, avvalo, bo'lg'usi o'qituvchilarni malakasi va mahorati davr talabiga javob berishi lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Aurora 3D modellashtirish va Active Presenter taqdimot yaratish dasturi ushbu Пташинский В.С. П79 Проектируем интерьер сами. Sweet Home 3D, FloorPlan 3D, Google SketchUp и IKEAHome Planner-СПб., Питер (Серия «Компьютерная графика и мультимедиа») Dasturiy vositalari aurora 3D modellashtirish va Active Presenter taqdimot yaratish dasturi bilan ishlash, hamda zamonaviy elektron ko'rgazmalar ishlab chiqish va tarqatish. Ayniqsa, bugungi yoshlar juda tez va ilg'or fikrlamoqda. Shu bois ta'lim tizimiga yangi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlarini joriy etish bilan birga, bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga ham muntazam ravishda e'tibor qaratib borish zarur.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Dars vaqtida axborot texnologiyalarini qo'llash va ular asosida mul'timediya vositalari, Aurora 3D, Active Presenter dasturlarida tayyorlangan taqdimotda ko'rsatish ushbu yutuqlarni qo'lga kiritishga zamin bo'la oladi. Masalan, dars jarayoni, ya'ni, o'quvchilarning bilim olish ko'nikmasi rivojlanadi, o'quv materiallarni turli xil usul va yordamchi vositalar (matn, ovoz, video, animasiya va grafikasi) orqali namoyish qilish mobaynida o'rganuvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi oshadi, o'quv ko'rgazmalarini taqdim qilish yuqori darajada bo'ladi va o'quvchilarning o'zini shaxsiy fikrlarini bayon qilishga imkoniyat beradi. Axborot texnologiyalari yordamida o'quv ko'rgazmalarining mazmuni o'quvchilar xotirasida uzoq muddat eslab qolishida muhim o'rin egallaydi, o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish imkoniyati kelib chiqadi, o'quvchilar dars jarayoni davomida nafaol tinglovchidan faol qatnashuvchiga aylanadi. O'quvchilar o'qituvchi bilan o'z fikrlarini erkin muloqat qilishga erishadi, o'quvchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmasi shakllanadi, o'qituvchining vaqti tejaladi, o'quvchilarning bilimi saviyasi kompyuter dasturlari yordamida nazorat qilinadi va baholanadi. 3D-model lashtirish obyektlarning uch o'lchamli ko'rinishi yaratish va uni, keyinchalik, foydalanish uchun yaratiladi. 3D-model xali yaratilmagan biror-bir obyektga asos bo'lishi yoki mavjud obyektning nusxasini taqdim qilishi mumkin. 3D-model sifatida hayotimizda uchraydigan turli obyektlar bo'lishi mumkin. Masalan, ko'tarma kran, mikroto'lqinli pech yoki biror-bir bolaning o'yinchog'ini ham obyekt sifatida tanlab olishimiz va uning 3D-modelini yaratishimiz mumkin bo'ladi.

**Obyektlarning 3D-modelini yaratish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:**

- 1) modellashtirish (matematik bazani yaratish);
- 2) qatlamlash (obyekt xususiyatlarini kiritish);
- 3) dinamikni simulatsiya qilish;
- 4) rendering (proyeksiyali loyihalash);
- 5) birlashtirish (yakuniy bosqich, ushbu bosqichda yuqorida nomlari keltirilgan barcha ishlar birlashtiriladi).

3D-grafika asosan kino, televideniya, bosmaxonalarda, qurilish sohasida va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Zamonaviy 3D-grafika bilan ishlovchi dasturlar yordamida yaratilgan obyektning 3D-rasmini oddiy ko'z bilan haqiqiyqisidan ajrata olmay qolishingiz ham mumkin. Yuqori darajada tayyorlangan taqdimotlarni investorlarga, hamkorlarga yoki haridorlarga namoyish qilish orqali obyekt yoki xizmatni afzalliklarini to'liq ochib berish mumkin.

Obyektning 3D-modelini loyahasini yaratish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Bular:

•Qurilish kompaniyasi rahbari o'z xaridorlariga qurilayotgan obyektning 3D-grafika ko'rinishida taqdim qilish orqali haridorlarga obyektning afzalliklarini to'liq tasvirlab berishi mumkin.

•Ko'rgazma zallari boshqaruvchilari yangi qurilgan binoning imkoniyatlarini ijarachilarga tushuntirib berish uchun binoning 3D-modelini buyurtma qilishadi.

•Reklama agentligi xodimi biror-bir mahsulot yoki tovarni 3D-grafikada taqdim qilish orqali uni samaradorligini tasvirlab berishi mumkin.

Hozirgi kunda 3D-modellashtirish quyidagi sohalarda juda keng va samarali foydalanib kelinmoqda. Bular:

1) turli yangi qahramonlar obrazlarini yaratish. Asosan, multfilmlar va yangi o'yinlar yaratishda keng qo'llaniladi;

2) inshootni 3D-vizualashtirish. Bo'lajak obyektning barcha afzalliklarini tasvirlash uchun, asosan, qurilish kompaniyalari tomonidan keng qo'llaniladi;

3) turli buyumlarning 3D-modellari. Asosan, yangi mahsulotni to'liq tasvirlash uchun reklama

agentliklar va dizaynerlik guruhlaridan keng qo'llaniladi;

4) reklama va marketing. Ko'pincha, reklama agentliklari mahsulotni ommaga taqdim qilish va uni reklama qilishning o'zgacha yo'llarini topishga harakat qilishadi. Hozirda biror-bir xizmatni taqdim qilishda 3D-grafika uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu orqali reklama agentliklari xaridorlarga o'zgacha taassurot qoldirishga harakat qilishadi;

5) antiqa zeb-u ziynatlarni yaratish. Professional rassomlar o'z mahsulotining antiqa va takrorlanmas bo'lishi uchun maxsus dasturlardan foydalanadi;

6) ishlab chiqarish sohasi. Zamonaviy ishlab chiqarishni kompaniya mahsulotini modellashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Korxonada ishlab chiqariladigan har bir detal oldindan yaratilgan 3D-modelga asoslansa holda ishlab chiqiladi;

7) sog'liqni saqlash sohasi. Asosan, turli jarrohlik operatsiyalarni bajarishdan oldin shifokorlar o'z bemorlariga jarayon qanday kechishini 3D-grafikada tasvirlab tushuntirishadi va natija qanday bo'lishini ko'rsatishadi.

3D-modellashtirish, animatsiya va obyektlarni vizullashtirish zamonaviy dunyoning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va turli zamonaviy biznes-jarayonlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlab bermoqda.

Active Presenter dasturidan foydalanish ham darslarda samaradorlikka erishiladi. Dasturda animatsiyalar yaratishga, interfaol testlar, viktorinalar tuzishga imkon beradi. ActivePresenter shuningdek, rivojlangan video yozish va tahrirlash xususiyatlariga ega bo'lgan mukammal elektron ta'lim vositasi bo'lib, kompyuterda sodir bo'layotgan keng auditoriya uchun uzatish qobiliyatiga ega. ActivePresenter bilan siz turli xil elektron ta'lim materiallarini yaratishingiz mumkin, jumladan, namoyish videolari, dasturiy ta'minot simulyatsiyasi, tekshiruv so'rovlari, elektron ta'lim o'yinlari. Adaptiv dizayn, HTML5 texnologiyasi va tomoshabinlar bilan o'zaro ta'sir qilish funksiyalari bilan turli xil ssenariylarni yaratish qobiliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ActivePresenter har qanday elektron ta'lim kurslarini yaratish uchun eng yaxshi vositadir. Yangi dasturlardan foydalanib, yangi metodik masalalarni hal etishi, fanga mansub bilimlarini chuqurlashtirishi, o'z kasbiy mahoratini oshirishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi o'quv materialining ko'rgazmaliligini, qiziqarliligini va samarasini oshirishi mumkin.

Testlarni ishlash jarayonida bitta savolga qayta-qayta bir necha marta javob berish va uni boshqa javobga o'zgartirish imkoniyati mavjud. Har bir test uchun alohida ball belgilash mumkin. Shuningdek, savol va javoblarni bir necha variantlar shaklida tuzish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, har bir javobning natijasini ko'rsatib borish yoki test tugagandan keyin, natijalarni ko'rsatib borish, xatolarni ham tahlil qilish mumkin. Bu imkoniyatlardan foydalanib, nazorat testlarini o'rgatuvchi testlarga aylantirish mumkin. Hozirgi davrda tezkor va samarali o'qitish usullaridan hisoblanib, testlarning savollari, javoblari turli xildagi rasmlar, formulalar va bloksxemalarni joylashtirish mumkin.

Har bir shakl muayyan didaktik jihatlarga ega. O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini sinashda test usuli nazorati ham muhim omillardan biridir.

Test topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarni bilim saviyasi qay darajada ekanligini aniqlash, eslab qolish, bilimni nazorat qilishni takomillashtirish va amaliyotda qo'llashga yordam beradi. O'quvchilarni o'zlashtirish tafakkuri qanchalik yuqori bo'lsa, natijalari soni shunchalik oshib boradi. Berilgan topshiriqlarni bajarish uchun dars jarayonida egallagan bilim va ko'nikmalarni foydalangan holda, javob berishga undash lozim. Test savollari o'quvchilar uchun murakkab bo'lmay, balki o'z bilimlarini ko'rsata bilishi zarur.

ActivePresenter sizga to'qqiz xil savollarni kiritish imkonini beradi:

- |                       |                         |                                    |
|-----------------------|-------------------------|------------------------------------|
| 1. To'g'ri/noto'g'ri. | 2. Javobni tanlang.     | 3. Ko'p javoblar.                  |
| 4. Insho.             | 5. Maydonni to'ldiring. | 6. Bir nechta maydonni to'ldiring. |
| 7. Tartib.            | 8. Surish va tushirish. | 9. Shkala.                         |

1-shakl. «To'g'ri/noto'g'ri» shaklidagi yopiq test, bunda berilgan savolga 2 xil javob qaytarish mumkin («to'g'ri / noto'g'ri», «ha/yo'q» va h.k.). Bu testda o'quvchining axborotni bilishi sinaladi.

2-shakl. ActivePresenterdagi odatiy savollar slaydi to'rt qismdan iborat. Ikkita asosiy qism – javoblar guruhi va slaydning nomi. Qolgan ikkitasi slaydlar tartibiga joylashtirilgan. Bu testda o'quvchidan to'g'ri javobni noto'g'ri javoblardan farqlash talab etiladi.

3-shakl. Bir necha to'g'ri javobli yopiq test. Bu test oldingisidan sal murakkabroq bo'lib, o'quvchidan to'g'ri javoblarni va ularning sonini aniq bilish talab etiladi.

4-shakl. Matn kiritiladigan insho test. Javobni satrga kiritish yo'li bilan javob beriladi. Bu test oldingilaridan murakkabroq bo'lib, o'quvchidan aniq javobni bilishi va uni to'g'ri kiritishi talab etiladi.



5-shakl. O'quvchidan barcha katakchalarni to'ldirish talab etiladi. Bu testda bitta savol ichida bir nechta muammo beriladi. Biroq, o'quvchi oson javoblarni topsa, murakkab javoblar o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Bu vaziyat o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

6-shakl. Tartibga keltirish testi. Bu testda javoblar berilgan bo'lib, ularni muayyan ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladi. Bu testda ham navigatsiya elementi qo'llanilganligi sababli u boshqalariga qaraganda qiziqarliroqdir. Bu testda ham mantiqiy fikrlash talab etiladi, biroq moslik testidagi kabi javoblar o'z-o'zidan ma'lum bo'lib qolmaydi. Shu sababli bu test boshqalaridan ancha murakkab va qiziqarli hisoblanadi.

7-shakl. Son kiritiladigan ochiq test. Ochiq test (4-turdagi test)ning xususiy shakli bo'lib, talabdan aniq javobni bilishi va satrga sonni yozish talab etiladi. Biroq bu testning o'ziga xosligi shundaki, unga javobni aniq, taxminiy yoki ma'lum bir oraliqda berish mumkin. Bu test tuzuvchiga savolni to'g'ri shakllantirishni, talabdan esa savoldagi ikkinchi yashirin ma'noni anglagan holda, to'g'ri javob berishni talab etadi.

8-shakl. Bo'sh joylarga matn kiritiladigan ochiq test. Bu test talabning yozma nutqini (leksika, grammatika, orfografiya) to'g'ri shakllantiradi.

9-shakl. Bo'sh joylarga matn kiritiladigan yopiq test. Ushbu test 8-turdagi testga nisbatan osonroq, chunki, unda javoblar mavjud bo'ladi, o'quvchilar faqat mantiqiy fikrlash va javoblarni bir-biriga qiyoslab ro'yxatdan to'g'risini tanlash talab etiladi. Zamonaviy pedagog yoshlarga yaqinroq bo'lishi, ularning e'tiborini tortishi uchun ActivePresenter dasturida tuziladigan interfaol testlarni tuzishni o'rganishi maqsadga muvofiq.

–o'quvchinning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga;

–o'qituvchining dars jarayoniga ijobiy ondashuvi uchun imkoniyatlar.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyatini ta'kidlagan holda, ularning foydalanish me'yorlarini unutmashimiz zarur. Shuning uchun ham bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida o'qib izlanishini taqozo etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- (1). A.Sattorov. Informatika va axborot texnologiyalari. T., "O'zbekiston", 2002.
- (2). Ishmuxamedov R., Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T., 2008.
- (3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish» to'g'risidagi farmoni. 30.05.2002.
- (4). Aurora 3D Presentation 2012 Rukovodstva polzavatelya F1 dasturning o'zi.
- (5). <https://talk.atomisystems.com/c/activepresenter>
- (6). <https://atomisystems.com>
- (7). [www.presentation-3d.com](http://www.presentation-3d.com)

**Umarov Komil Majitovich (Samarqand davlat universiteti "Sport faoliyati" kafedrasida dotsenti;  
email: [umarovk349@gmail.com](mailto:umarovk349@gmail.com)),**

### **YOSH VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AKROBATIK MASHQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda akrobatik mashqlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. 12–14 yoshli shugullanuvchilar ishtirokida tadqiqot tashkil etildi, tadqiqot davomida yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan mashg'ulot mikrosikllari va mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. Akrobatik mashqlar majmuasini o'z ichiga olgan mashg'ulotlar yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun an'anaviy mashg'ulot dasturiga qaraganda samaraliroq ekanligi isbotlandi.*

***Kalit so'zlar:** voleybol, mashg'ulot, akrobatika, jismoniy tayyorgarlik, yosh voleybolchilar.*

#### **ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АКРОБАТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ**

***Аннотация.** В данной статье анализируется эффективность использования акробатических упражнений в повышении физической подготовленности юных волейболисток. Проведено исследование с участием спортсменок 12–14 лет. В ходе исследования был разработан комплекс тренировочных микроциклов и упражнений, направленных на повышение физической подготовленности юных волейболисток. Установлено, что тренировка, включающая комплекс акробатических уп-*

ражнений, более эффективна, чем традиционная тренировочная программа повышения физической подготовленности юных волейболистов.

**Ключевые слова:** волейбол, тренировка, акробатика, физическая подготовка, юные волейболисты.

## EFFECTIVENESS OF USING ACROBATIC EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL FITNESS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS

**Annotation.** This article analyzes the effectiveness of using acrobatic exercises in increasing the physical fitness of young female volleyball players. A study was conducted with the participation of female athletes aged 12–14 years. During the study, a set of training microcycles and exercises was developed aimed at increasing the physical fitness of young volleyball players. It has been established that training, which includes a set of acrobatic exercises, is more effective than a traditional training program for increasing the physical fitness of young volleyball players.

**Key words:** volleyball, training, acrobatics, physical training, young volleyball players.

**Taqrizchi (PhD) dotsent Elmurod Tursunqulov**

**Kirish.** Sport turlari ichida voleybol o'ziga xosligi, tomoshabopligi, qiziqarli ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bois yosh voleybolchilarni zamon talablariga mos holda tarbiyalash va tez orada jahon miqyosidagi jamoalar safida kirishi uchun o'quv mashg'ulotlarni yuqori saviyada olib borishni takomillashtirish talab etiladi. Yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish yoki harakatini muvofiqlashtirish zarurati bilan bog'liq holatlar o'rganiladi. Yosh voleybolchi qizlarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi akrobatik mashqlardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratish lozim.<sup>1</sup>

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi sport mashg'ulotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va jismoniy sifatlar – kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan akrobatik mashqlar nechog'lik zarurligini ta'kidlaydilar.<sup>2</sup>

Voleybol mashg'ulotlari jarayonida tavsiya etiladigan akrobatik mashqlar majmuasi jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi va undan samarali foydalanishga yetarli etibor berilmayotgani ayon bo'lmoqda.<sup>3</sup>

Yosh voleybolchi qizlarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun turli akrobatik mashqlarni taklif qilishadi. Biroq, jismoniy sifatlarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan akrobatik mashqlarni o'quv dasturlariga kiritish lozim.<sup>4</sup>

Sakrash qobiliyatini rivojlantiruvchi akrobatik mashqlarni tanlash quyidagilar bilan izohlanadi:

- Sakrash qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiluvchi, mashg'ulot paytida bir joyda bajariladigan (ya'ni oddiy sakrashlar) kiritiladi. Bunday sakrashlar kamroq samara beradi.

- Chuqur sakrash qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiluvchi, mashg'ulot vaqtida yuqori tempda bajariladigan (ya'ni chuqur sakrashlar) kiritiladi. Bunday mashqlar cho'zilish-qisqarish siklini harakatda qo'l-lash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bunga boshqa mashqlar yordamida erishish qiyin.<sup>5,6</sup>

Shunday qilib, biz tomonimizdan tahlil qilingan ilmiy maqolalar va adabiyotlar mualliflari akrobatik mashqlar voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligi va sport mahoratini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida o'quv-mashq jarayoniga tatbiq etish kerakligiga alohida etibor qaratgan. Shuning uchun ham voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan akrobatik mashqlarni ishlab chiqish talab etiladi. Biroq bu masala haligacha ilmiy-uslubiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan, shuning uchun ham yosh voleybolchi qizlarning o'quv mashg'ulot jarayoniga maxsus akrobatik mashqlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Аурпетыантс Л.Р., Пулатов А.А. Вoleybol nazariyasi va uslubiyati. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, T., "Fan va texnologiya", 2012, 208-bet.

<sup>2</sup> Коркин, В.П. Акробатика [текст]. М., "Физкультура и спорт", 1983, 127 с.

<sup>3</sup> Новожилова С.В., Малахова Л.Е., Трофимов А.В., Борисов А.В. Акробатика в технической подготовке волейболисток. Учеб. пособие, Ярославль, ЯрГУ, 2011, 128 с.

<sup>4</sup> Гаврилов, А.Т. Скоростно-силовая подготовка юных волейболисток [текст]. Метод. Реком. А.Т.Гаврилов, Ю.Ю.Клещев, Е.В.Фомин. М., Всероссийская федерация волейбола, 2009, 45 с.

<sup>5</sup> Фомин Е.В., Булыкина Л.В. Волейбол. Начальное обучение, М., «Спорт», 2015, 88 с.

<sup>6</sup> Глейзер М.М. Волейбол: теория и практика. Учебник для высших учебных заведений физической культуры и спорта. Учебник, Москва, "Спорт", 2016, 456 с.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan akrobatik mashqlar 12–14 yoshli voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash va uni takomillashtirishda uslubiy ko'rsatmalar berish.

Biz oldimizga qo'ygan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- mashg'ulot jarayonida voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlanganlik darajasini aniqlash;
- shug'ullanuvchi 12–14 yoshli voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda akrobatik mashqlar samaradorligini aniqlash;
- mashg'ulot jarayonida voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlanganligini testlar orqali aniqlash va olingan natijalarni tahlil qilish;
- mashg'ulot va musobaqa faoliyatini tahlil qilish natijasida yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda akrobatik mashqlar nechog'lik ahamiyatli ekanligini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti va usullari.** Ilmiy tadqiqot Samarqand shahar sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi negizida 4 bosqichda olib borildi. Pedagogik tajribada 12–14 yoshli 24 nafar voleybolchi qizlar ishtirok etdi. Bular quyidagi guruhlariga ajratildi. 12 nafar shug'ullanuvchi tajriba guruhi (bundan buyon matnda TG deb yuritiladi) va 12 nafar shug'ullanuvchi nazorat guruhi (bundan buyon matnda NG deb yuritiladi). Ikkala guruh ham 4 hafta davomida kuzatildi, bu davrda shug'ullanuvchilarga o'zlarining o'quv mashg'ulot dasturi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi.

**Tadqiqot 2 bosqichdan iborat.** Muammoning nazariy tomonlarini tahlil qilindi hamda ilmiy nazariy izlanishlar natijasida muammoning hozirgi holati o'rganildi va zarur bo'lgan tomonlari ustida ishlash kerakligi aniqlandi.

1. Bo'lgan muddatda pedagogik tajribalarning maqsadi, 12–14 yoshli voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda akrobatik mashqlardan foydalanish samaradorligi o'rganildi va shu maqsad yo'lida tajriba olib borildi.

2. Tadqiqotning yakuniy natijalari olindi. Bu bosqichda tadqiqot natijalari umumlashtirildi va tahlil qilinib amaliy tavsiyalar berildi.

**Mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilgan maxsus akrobatik mashqlar jamlanmasi.** Tajriba guruhi-da shug'ullanuvchi yosh voleybolchi qizlarning mashg'ulot jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi:

1) tajriba guruhida shug'ullanuvchi yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantiruvchi akrobatik mashqlarni saralab olish va uni mashg'ulot dasturiga kirirish;

2) yosh voleybolchi qizlarning harakat qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishda ishlab chiqilgan maxsus akrobatik mashqlardan foydalanish;

Eksperiment guruh mashg'ulotlarini muvofiqlashtiruvchi maxsus akrobatik mashqlar majmualari quyidagicha ishlab chiqildi.

Akrobatik mashqlar voleybolda umumiy jismoniy tayyorgarlik, topqirlik va fazoda mo'ljalga olishda eng yaxshi vositalardan biri sifatida foydalaniladi. Yaratilgan va maxsus tanlab olingan akrobatik mashqlarning katta guruhini birlashtirish talab etiladi. Voleybol mashg'ulotlari jarayonida, asosan, akrobatik sakrashlar va turg'un holatdagi akrobatik mashqlardan foydalaniladi. Ular yosh voleybolchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llash talab etiladi.<sup>1</sup>

1-mashq. "Tayyorgarlikka xos akrobatik mashqlar" jihozsiz va jihoz bilan bajariladigan akrobatik mashqlar to'plami.

2-mashq. Chalqancha yotib oyoqlarni oxirigacha bukish va ularni ajratib (oyoq panjasi uzunligicha) oyoq panjalarini tashqariga burib, qo'llarda yelkalar yonidan tayanib (barmoqlar yelkalariga qaratilgan), qo'l va oyoqlarni bir vaqtda to'g'rilab, kerilish va boshni orqaga egish. Qo'l va oyoqlarni bukib, boshni oldinga egib, asta-sekin belga tushib, dastlabki holatni egallash. Bajarish vaqtida oyoqlarni oxirigacha yozib tana og'irligini qo'llarga o'tkazish lozim.

3-mashq. Gimnastika to'shaklarida oldinga orqaga umbaloq oshish harakatda turli xil sakrashlar.

4-mashq. Tayanib o'tirishdan oyoqlarni to'g'rilab, tana og'irligini qo'llarga o'tkazish. Qo'llarni bukkan holda bosh oldinga egilib, oyoqlar bilan itarilib, bo'yin va kurakda dumalash.

5-mashq. Trampinning chetida turing, ikkala qo'llarini ham orqaga torting. Qo'llarning bir vaqtning

<sup>1</sup>A.K.Eshtayev, M.N.Umarov, D.R.Eshtayev, Z.O.To'ychiyev, S.A.Eshtayev, N.Y.Faxriddinova. Gimnastika nazariyasi va uslubiyati. Darslik, Toshkent, 2017, 434-bet.

o'zida oldinga va yuqoriga harakatlanishi bilan oyoqlarni egib, tramlinni bosish va yuqoriga deysinib oldinga sakrab oyoq uchlarida yerga qo'nish.

6-mashq. Turli balandlikdagi tumbalar ustiga sakrab chiqish va pastga qaytib sakrab tushish.

7-mashq. Joyda va yugurib kelib yuqoriga ilib qo'yilgan predmetga qo'l tekkizish.

8-mashq. Batutda sakrash. Batut to'ri ustida shug'ullanuvchi joylashadi. Shug'ullanuvchining bellaridan maxsus arqon o'tkaziladi. Oyoqlar yelka kengligida, oyoqlarni to'r ustida tebrantirgan holda qo'llarni harakatlantirib yuqoriga sakrash va havoga ko'tarilgan vaqtda havoda gavdasini o'nga va chapga burish.

9-mashq. Batutda sakrash. Batut to'ri ustida shug'ullanuvchi joylashadi. Oyoqlar yelka kengligida, oyoqlarni to'r ustida tebrantirgan holda, qo'llarni hrakatlantirib yuqoriga sakrash va yuqoriga ko'tarilgan vaqtda hujum harakatini taqlid qilish.

10-mashq. Har xil balandlikka ega jixozlar (o'rindiqlar, yengil atletika to'siqlari)dan sakrab o'tish va sakrab chiqishlarni amalga oshirish.<sup>1</sup>

Yuqoridagi mashqlarning o'ziga xos xususiyati bu voleybolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu mashqlarga qo'yiladigan asosiy talab, voleybolchi qizlarning mashg'ulot va musobaqa faoliyatining tuzilishiga mos keladi.

Tajriba davomida biz quyidagi texnik vositalardan foydalandik: 8 dona marker, 10 ta (60 sm balandlikka ega) yengil atletika to'siqlari, minibatut, gimnastik o'rindiqlar, prujinali ko'prikcha, gimnastika to'shamalari (mat) va fitnes to'pi. Mashqlarning umumiy soni 10 ta, mashqlarni bajarish vaqti 3 daqiqadan 10 daqiqagacha. Bir paytda takrorlashlar soni 3–6 marta. Bitta mashg'ulotdagi takrorlashlar soni ikki martadan to'rt martagacha. Bajarish orasidagi to'xtashlar cheklanmagan.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga ko'ra, yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining shakllanganlik darajasi tadqiqotdan oldingi ko'rsatkichlariga nisbatan tadqiqotdan keyingi ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sganligi ma'lum bo'ldi. Tajriba davomidagi mashg'ulotlarga biz tomonimizdan tavsiya etilgan akrobatik mashqlar majmuasi muntazam qo'llab borildi va tadqiqotdan keyingi test natijalari quyidagicha bo'ldi. Qo'llarning kuchi (ikkala qo'l uchun 10%  $p < 0,05$ ) sezilarli darajada yaxshilandi. Maksimal yugurish vaqti 10,45 ga ( $p < 0,05$ ) yaxshilandi. Balandlikka sakrashning umumiy ko'rsatkichi 33,1%ga ( $p < 0,05$ ), yaxshilandi. Joydan turib uzunllika sakrash ko'rsatkichi 10,9%ga ( $p < 0,05$ ), yaxshilandi. Umuman olganda, butun test natijalari 13,5%ga ( $p < 0,01$ ) yaxshilandi. Qayd etilgan tajriba natijalarini qiyosiy tahlil qilish, ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan akrobatik mashqlar hamda qo'llanilgan maxsus testlar ijobiy qiymatga ega ekanligi isbotlandi. Ko'pgina tadqiqotchilar fikricha, samarali o'yin faoliyati uchun voleybolchi qizlarning o'ziga xos tezlik, sakrash, o'yin chidamliligiga yuqori talablar qo'yiladi.<sup>2,3</sup> Yosh voleybolchi qizlarning maxsus chidamlilik ko'rsatkichi sezilarli oshishi va jismoniy tayyorgarligining muhim jihatini ishlab chiqishda tajriba-sinov dasturining yuqori samaradorligidan dalolat beradi, deb hisoblaymiz.

**Xulosa va takliflar.** Bizning tadqiqot natijalarimiz yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilash muammosi bilan bog'liq bir qator muhim masalalarni aniqlashga imkon berdi. Jumladan, yosh voleybolchilarning mashg'ulotlarida akrobatik mashqlarni qo'llash, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi voleybolchilarning optimal rivojlanishiga va ularni yuksak sport mahorati bosqichida takomillashtirish uchun potensialni saqlashga ko'maklashadi.

Voleybol mashg'ulotlariga akrobatik mashqlarning kiritilishi yosh voleybolchilarni jismoniy tayyorgarligini samarali rivojlantirishning asosiy omili ekanligi isbotlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, T., "Fan va texnologiya", 2012, 208-bet.
- (2). Новожилова С.В., Малахова Л.Е., Трофимов А.В., Борисов А.В. Акробатика в технической подготовке волейболисток. Учеб. пособие, Ярославль, ЯрГУ, 2011, 128 с.
- (3). Коркин, В.П. Акробатика [текст]. М., "Физкультура и спорт", 1983, 127 с.
- (4). Фомин Е.В., Булыкина Л.В. Волейбол. Начальное обучение, М., «Спорт», 2015, 88 с.

<sup>1</sup> M.N.Umarov. Gimnastika. Darslik, Toshkent, 2015, 358-bet.

<sup>2</sup> Абдель, Х. Методика комплексного развития скоростно-силовых способностей юных волейболисток [текст]. Дис. канд. пед. наук, Краснодар, 2001, 165 с.

<sup>3</sup> Gregory, F. Aquatic Plyometric Training Increases Vertical Jump in Female Volleyball Players. Med Sci Sports Exerc. 2005, V. 37, p. 1814 – 1819.

- (5). Гаврилов, А.Т. Скоростно-силовая подготовка юных волейболисток [текст]. Метод. Реком. А.Т. Гаврилов, Ю.Ю.Клещев, Е.В.Фомин. М., Всероссийская федерация волейбола, 2009, 45 с.
- (6). Глейзер М.М. Волейбол теория и практика. Учебник для высших учебных заведений физической культуры и спорта. Учебник, Москва, "Спорт", 2016, 456 с.
- (7). A.K.Eshstayev, M.N.Umarov, D.R.Eshstayev, Z.O'.To'uchiyev, S.A.Eshstayev, N.Y.Faxriddinova. Gimnastika nazariyasi va uslubiyati. Darslik, Toshkent, 2017, 434-bet.
- (8). M.N.Umarov, Gimnastika. Darslik, Toshkent, 2015, 358-bet.
- (9). Абдель, Х. Методика комплексного развития скоростно-силовых способностей юных волейболистов [текст]. Дис. канд. пед. наук, Краснодар, 2001, 165 с.
- (10). Gregory, F. Aquatic Plyometric Training Increases Vertical Jump in Female Volleyball Players. Med Sci Sports Exerc. 2005, V. 37, p. 1814–1819.

**Babajanova Umida Bahodirovna (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali  
"Ingliz tili" kafedrasi dotsenti)  
TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA RAQAMLI  
TEKNOLOGIYALARNING O'RNI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish kompetensiyasini raqamli texnologiyalar orqali shakllantirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ingliz tilini o'qitishdagi o'rni, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali yuzaga keladigan imkoniyatlar, ingliz tilini o'qitishda multimedia vositalaridan unumli foydalanish jihatlari o'rganilgan, tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, ustoz-shogird-darslik, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, AKT, DVD, internet resurslari, online, multimedia.*

**РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В  
ВУЗАХ МЕДИЦИНСКОГО ПРОФИЛЯ**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается формирование компетенции преподавания английского языка посредством цифровых технологий, роль информационно-коммуникационных технологий в обучении английскому языку, возможности, создаваемые использованием цифровых технологий, а также аспекты эффективного использования мультимедийных средств в обучении английскому языку.*

***Ключевые слова:** цифровые технологии, учебник для преподавателей, информационно-коммуникационные технологии ИКТ, DVD, интернет-ресурсы, онлайн, мультимедиа.*

**ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH IN MEDICAL  
UNIVERSITIES**

***Annotation.** In this article, the formation of English language teaching competence through digital technologies, the role of information and communication technologies in English language teaching, the opportunities created by the use of digital technologies and the aspects of effective use of multimedia tools in English language teaching are studied.*

***Key words:** digital technology, teacher-student textbook, information and communication technologies ICT, DVD, internet resources, online, multimedia.*

**Kirish.** Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning ustuvorlik kasb etishi o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini samarali rivojlantirishning yangi istiqbollari ochmoqda [6].

Jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb ijtimoiy zaruriyat ekaniga urg'u bergan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etib o'tadi: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidani boorish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz [1].

Raqamli texnologiyalar (inglizcha – Digital technology) signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko'rsatishga asoslangan texnologiyalar.

**Adabiyotlar sharhi.** Xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalarini talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi [5].

**Materiallar va usullar.** Aralash ta'lim muhitida turli xil onlayn platformalarda chet tillarini o'qitish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish yondashuvlari qanday ekanligini aniqlash. Tizimli ko'rib chiqishni tegishli tadqiqotlarni aniqlash va tanqidiy baholash hamda aniqlangan tadqiqotlardan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun tadqiqot usuli va jarayoni sifatida tushuntirish mumkin. Tizimli tekshirishning maqsadi ma'lum bir tadqiqot savoliga yoki gipotezasiga javob berish uchun oldindan belgilangan qo'shilish mezonlariga javob berishi kerak bo'lgan barcha empirik ma'lumotlarni aniqlashdir. Metatahlil – bu turli xil tadqiqotlar natijalarini tortish va taqqoslash, shuningdek, bir mavzu bo'yicha bir nechta tadqiqotlar kontekstida paydo bo'ladigan farqlar yoki munosabatlarni aniqlash uchun birlashtirishning statistik usuli. Metaanalitik yondashuvda har bir asosiy tadqiqot abstraktlashtirilib raqamlanadi va natijalar, keyinchalik, umumiy ta'sir hajmini hisoblash uchun umumiy ko'rsatkichga aylantiriladi. Shuning uchun metatahlil o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish uchun tadqiqotlar natijalarini solishtirishda umumiy statistik ko'rsatkichlarga (ta'sir hajmi) ta'kidlab o'tiladi.

**Muhokama va natijalar.** Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa, ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi [7].

Chet tillari bo'yicha raqamli ta'lim resurslarini mazmuni va funktsionalligiga ko'ra, quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) ma'lumot va ma'lumotnomalar (ensiklopediyalar, ma'lumotnomalar, lug'atlar, jurnallar, gazetalari, almanaxlar);
- 2) o'qish uchun elektron kitoblar;
- 3) DVD diskdagi filmlar;
- 4) elektron ko'rgazmali qurollar kutubxonalari va ma'lumotlar bazalari;
- 5) elektron tashuvchilar bo'yicha o'quv-uslubiy materiallar (dars ishlanmalari, tilning aspektlari va RD turlarini o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, testlar va boshqa nazorat-o'lchov materiallari);
- 6) internet resurslari;
- 7) birlashtirilgan elektron o'quv vositalari (qo'llanmalar, elektron darsliklar, mashq kitoblari va o'quv o'yinlari);
- 8) o'qituvchi tomonidan muayyan dars uchun yaratilgan chet tili darslariga (ko'rgazmali materiallar, taqdimotlar, loyihalar, darslarni kompyuterda ishlanma va boshqalar) hamrohlik qiluvchi o'quv-uslubiy dasturiy ta'minot [4].

Demak, raqamli texnologiyalar orqali ingliz tilini o'qitish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;
- talabalarining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi;
- mintaqaviy jihatni hisobga oladi;
- darslar emotsional va esda qolarli o'tkaziladi;
- individual yondashuvni amalga oshiradi;
- talabalar bilimi xolisona baholanadi;
- o'qituvchining ishini yengillashtiradi.

Ushbu o'quv o'yini ular uchun ham foydali bo'ladi. Muxtasar qilib aytganda, kompyuter dasturlari orqali chet tilini o'rganish yanada samaraliroq va rag'batlantiruvchi bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi o'yinlarni fleshkalar yordamida o'ynash talabalarga chet tillarini tez o'rganishga yordam berishi tasdiqlandi. Ular o'qish, gapirish, yozish va tinglash ko'nikmalarini faqat o'ynash paytida rivojlantirishlari mumkin. Bundan tashqari, ular o'z natijalari bilan o'qituvchilari va do'stlarini hayratda qoldirishlari mumkin.

**Xulosa.** Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashni umumlashtirib shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham raqamli avlodning yangi ekranli avlodi – televizor, kompyuter, planshet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikr-

lashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Bugungi avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo'rni markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni, zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi.

Chet tilini masofaviy ta'lim muhitida turli onlayn platformalarda o'qitishga mo'ljallangan elektron darsliklar (interfaol nashrlar)ning xususiyatlari darslik mazmunini to'ldiradigan matnlar majmuasidir. Xrestomatiyaga kiritilgan matnlarning xususiyatlarini tushuntiruvchi uslubiy ko'rsatmalar o'quvchi uchun muhimdir. Ushbu ko'rsatmalar matn va o'quv materiali o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi va talabalarga amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi. Elektron havola foydalanuvchiga kerakli ma'lumotlarni tez va ixcham shaklda kerakli vaqtda olish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4642-sonli qarori.
- (3). D.Babaraximova. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy pedagogik masalalari; 6-tom, 3-son, 2022.
- (4). Aborisade, P.A. (2012). "Supporting English Language Teaching Using 21st Century ICT Tools". English Language Teaching Today (ELTT). Vol. 9, pp. 16–22.
- (5). Crystal, D. (2007). The Fight for English: How Language Pundits ate, shot and left. Oxford: Oxford University Press.
- (6). Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Е.С. Полат. М., "Академия", 2000, с. 43 – 45.
- (7). Cabi, E. (2018). The impact of the flipped classroom model on students' academic achievement. International Review of Research in Open and Distributed Learning.
- (8). Chang, S.C., & Hwang, G.J. (2018). Impacts of an augmented reality-based flipped learning guiding approach on students' scientific project performance and perceptions. Computers & Education, 125, p. 226 – 239.

**Jumaniyozova Muhabbat Xusinovna (UrDU, f.n.n., dotsent; [khiva1970@mail.ru](mailto:khiva1970@mail.ru))**

#### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUYUK AJDODLARIMIZ HAQIDAGI MATERIALLARNI O'QITISHNING NAZARIY-METODIK JIHATLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda buyuk ajdodlarimiz haqidagi materiallarni o'qitishning nazariy-metodik jihatlari 2-sinf "O'qish savodxonligi" darsligining "Buyuklar xotirada mangi yashaydi" bo'limi materiallari misolida yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi darslari, buyuk ajdodlar, ilmiy-ommabop maqola, hikoya, rivoyat, she'r, hikmatli so'zlar, badiiy asar tahlili, matn ustida ishlash.*

**Джуманязова Мухаббат Хусиновна (УрГУ, к.ф.н., доцент; [khiva1970@mail.ru](mailto:khiva1970@mail.ru))**

#### **ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕРИАЛОВ О НАШИХ ВЕЛИКИХ ПРЕДКАХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

***Аннотация.** В данной статье на примере материалов 2-го класса «Чтение» раздела «Великие живут вечно в памяти» будут разъяснены теоретико-методические аспекты преподавания материалов о наших великих предках в начальных классах.*

***Ключевые слова:** начальное образование, занятия по грамоте чтения, великие предки, научно-популярная статья, рассказ, повествование, стихотворение, мудрые слова, анализ художественного произведения, работа над текстом.*

**Jumaniyozova Muhabbat Khusinovna (UrSU, PhD, associate professor; [khiva1970@mail.ru](mailto:khiva1970@mail.ru))**

#### **THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF TEACHING MATERIALS ABOUT OUR GREAT ANCESTORS IN PRIMARY GRADES**

***Annotation.** In this article, the theoretical-methodical aspects of teaching materials about our great ancestors in the primary classes will be explained on the example of the materials of the 2<sup>nd</sup> grade "Reading Literacy" section "The greats live forever in memory".*

***Key words:** elementary education, reading literacy classes, great ancestors, popular scientific article, story, narration, poem, wise words, analysis of artistic work, work on the text.*

**Kirish.** Boshlang'ich ta'lim umumiy ta'limning asosiy bo'g'ini sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, boshlang'ich sinflardagi o'qish savodxonligi darslari o'sib kelayotgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish, ularning tafakkuri hamda dunyoqarashlarini shakllantirish asosida yuksak axloqiy sifatlarni hosil qilishda juda muhim sanaladi. Shuning uchun bu darslarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish, ularning o'quv jarayonida samarasini oshirish muhim metodik masalalardan biri hisoblanadi. Zero, milliy o'quv dasturi bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnlarni tushunib, mantiqiy va tanqidiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish<sup>1</sup> o'qish savodxonligi darslarida amalga oshiriladi. U orqali o'zlashtirishlari ko'zga tutilgan bilimlar hamda oquv-biluv ko'nikma va malakalari egallanadi. Shu bois bu o'quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etilgan "O'qish savodxonligi" darsliklarida o'quvchilarning chuqur bilim olishlari hamda ijtimoiy hayot bilan yaqindan tanishishlari, hayvonot va nabobat olami xususida bilimga ega bo'lishlarini ko'zda tutuvchi mavzular o'rin olgan. Ayniqsa, mamlakatimiz tarixi, o'tmishi, do'stlik, tinchlik, mehnat va mehnatsevarlik, ilmiy kashfiyot va ilg'or texnologiyalarning inson hayotidagi o'rni hamda yuksak insoniy fazilatlar aks etgan mavzularga oid badiiy va ilmiy-ommabop asarlar ta'limiy-axloqiy xarakterda bo'lib, ular o'quvchilar aqliy kamoloti va ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun xizmat qiladi.

Har bir sinf uchun mo'ljallangan "O'qish savodxonligi" darsliklarida o'qishning barcha bosqichlariga oid mavzular berilgan. Bu mavzularning o'ziga xos jihatlardan biri – ular bilim berish bilan birga o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarini ham tarbiyalaydi. Milliy qadriyatlarimizga oid tushunchalarni shakllantiradi. Bular orasida xalqimiz tarixida chuqur iz qoldirgan ota-bobolarimiz hamda buyuk ajdodlarimiz xususidagi mavzular salmoqli o'rin tutadi. Binobarin, bunday mavzularni o'qitishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni o'tmishni anglash, istiqloq mohiyatini tushunish, Vatanimiz o'tmishiga hurmat bilan qarash, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish va ularga munosib izdosh bo'lish tuyg'ularini uyg'otish va shakllantirishdir. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlarini eslash joizdir: "...bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aksi sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin".<sup>2</sup>

**Asosiy qism.** Buyuk ajdodlarimiz haqidagi turli janrdagi asarlar o'zbek xalqining o'tmish hayoti va tarixi, mustaqillik uchun olib borgan kurashi, shuningdek, Vatanimiz tarixidan munosib o'rin olgan buyuk siymolar hamda ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi. Buni 2-sinf "O'qish savodxonligi" darsligi III qismidagi "Buyuklar xotirada mangu yashaydi" bo'limi materiallari tahlili ham ko'rishimiz mumkin.<sup>3</sup>

Bo'lim 9 ta mavzudan iborat bo'lib, uning birinchi mavzusi "Biz buyuklar avlodimiz" ilmiy-ommabop maqolasi bo'lib, u audiomatn shaklida berilgan. Unda Vatanimizda yashab o'tgan Al-Xorazmiy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy haqida ma'lumot beriladi. Ikkinchi mavzu "Buyuk sarkarda" deb nomlangan bo'lib, unda Amir Temur xususidagi ma'lumotlar hamda "Amir Temur va chumoli" rivoyati berilgan. Bu rivoyatda buyuk ajdodimizning qiyinchiliklar qarshisida doimo tik turilsa, zafarga erishish borasidagi, maqsad yo'lida g'ayratli bo'lish xususidagi fikrlari o'z aksini topgan.

Bo'limdagi uchinchi mavzu esa yana bir buyuk ajdodomiz Mirzo Ulug'bek haqidadir. Unda A. Po'latovning "Mirzo Ulug'bek" she'ri o'rganiladi. To'rtinchi mavzu ulug' shoir va mutafakkir alloma A. Navoiyga bag'ishlangan. Xususan, mavzuga doir "Oqilona javob" nomli rivoyatda A.Navoiyning o'tkir zehni va ziyrakligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu mavzu doirasida mutafakkirimizning mashhur fikrlari ham o'rganiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari navbatdagi "Adolatli shoh va buyuk shoir" mavzusi orqali Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi To'lqin Hayitning "Boburning ustozlari" hikoyasini o'qiydilar.

Xalqimiz ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan ota-bobolarimiz "Qatag'on qurbonlari" nomi bilan tariximiz zarvaraqalaridan o'rin olgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari "Qatag'on qurbonlari xotirasi" deb nom-

<sup>1</sup> Pardayeva M. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturini yaratish: tanqiddan-tahlil, tajribadan natija, sifatdan-taraqqiyot sari// "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2020, 4-bet.

<sup>2</sup> Sh.M.Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan. 2017-yil 15-iyun.

<sup>3</sup> Aydarova U.B. O'qish savodxonligi. 2-sinf, III qism, Toshkent, "Novda edutainment", 2023, 33 – 56-betlar.



langan oltinchi mavzuda qatag'on qilingan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriylar haqidagi ma'lumotlarni Z.Hasanovanning "Manguga muhrlanganlar yodi" ilmiy-ommabop maqolasini o'qib bilib oladilar. Bu mavzu doirasida "Millat manfaatini o'ylagan zotlar, sizni unutmaydi aslo avlodlar!" sarlavhasi ostida o'quvchilar milliy maktab asoschisi, adib va shoir Munavvarqori Abdurashidxonov, yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy, o'zbek teatriga poydevor qo'ygan hamda jamoat arbobi, ma'rifatparvar adib sifatida tanilgan Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar. Shuningdek, bo'limning "Mehnatsiz taxt kelmas" deb atalgan yettinchi mavzusida Abdulla Avloniy haqida ma'lumot berilib, uning "Bolari bilan pashsha" masali o'qitiladi. A.Avloniyning mazkur masalida mehnatsevarlik g'oyalari aks ettirilgan.

Abdulla Avloniyning "Yangi avlod" she'ri bo'limning sakkizinchi "Yuksak ma'naviyatli avlod" mavzusida o'rganiladi. Bu she'rda ham bir qator buyuk ajdodlarimizning nomlari zikr qilingan bo'lib, o'quvchilar ana shu ajdodlarga munosib avlod bo'lishga da'vat etiladi. Mavzu yakunida "Bilib qo'yanimiz yaxshi!" rukni ostida yana ikki ajdodlarimiz: At-Termiziy va Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

To'qqizinchi mavzu bo'lim yuzasidan takrorlashga ajratilgan. Unda o'quvchilarning "Buyuklar xotirada mangu yashaydi" bo'limi materiallarini o'qish orqali o'zlashtirgan bilimlari umumlashtiriladi. Ularning bu boradagi fikrlari o'rganilib, shu asosda "Bobolar merosi" mavzusida kichik matn yozdiriladi.

"Buyuklar xotirada mangu yashaydi!" bo'limi materiallarini o'qitishda o'qituvchi bir qancha ish turlarini qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'qilgan asar mazmunini ochish, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Savollar orqali o'qilgan asarning mazmunini ochish, uni tahlil qilish metodik jihatdan tavsiya qilinadi. Albatta, bu paytda savollar asar qahramoni yoki qatnashuvchisining xarakteri yoki xatti-harakatlarini tahlil etishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Berilgan savollar, metodik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, quyidagi maqsadlarga: asar mazmunini tahlil etish va dalillash, mulohaza-xulosalarni qiyoslash; aks ettirayotgan voqea-hodisalarni, xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatish, shu asosda umumlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, "Buyuk sarkarda" mavzusidagi "Amir Temur va chumoli" rivoyatini o'qish darsida quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Amir Temur haqida nimalarni bilardingiz va yana nimalarni bilib oldingiz?
2. Amir Temur bu martabaga yetishishiga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
3. Nima uchun kichik bir chumoli sarkardaga o'rnak bo'lgan?
4. Amir Temur qanday voqeani so'zlab berdi?
5. Siz rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Bo'lim materiallarini o'qish darslarida asar mazmunini ochishda o'quvchilarning ma'nosini to'la bilmaydigan ibora va so'zlari ustida ish olib borish ham muhim. Chunki bunday so'zlar izohi berilmasa, o'quvchilar asar mazmunini anglay olmaydilar. Ta'kidlash kerakki, bunday hollarda ibora va so'zlar ma'nosini tushuntirishga uzoq vaqt sarflash noto'g'ri bo'ladi. Shu bois asar mazmunini tushunishga xizmat qiladigan eng kerakli so'zlar izohi berilishi kifoya qiladi. Masalan, "Adolatli shoh va buyuk shoir" mavzusidagi To'lqin Hayitning "Boburning ustozlari" hikoyasi matnidagi quyidagi so'z va iboralarga izoh berish mumkin: *arjumand* – aziz, qadrlil, qimmatli; *ojiz* – kuchsiz; *padari buzrukvor* – ota.

Yoki Zahro Hasanovanning "Manguga muhrlanganlar yodi" ilmiy-ommabop maqolasi matnidagi bir qator so'zlar ma'nosini izohlash matn mazmunini o'quvchilar tomonidan oson tushunilishiga sabab bo'ladi: *qatag'on* – yo'q qilmoq; *qurbon* – biror sabab bilan hayotdan ko'z yummoq; *shahid* – haqqoniyat yo'lida jonini fido qilgan odam; *jabr-u jafu* – zulm, azob; *jaded* – yangilik tarafdori; *ong-u shuur* – aql-idrok; *mangu* – abadiy, umrbod. Bu kabi so'zlar ma'nosini izohlash nafaqat matn mazmunini matnni bilib olishga yordam beradi, balki o'quvchilar nutqini o'stirishda ham asosiy o'rin tutadi. Ularning lug'at boyligini yangi-yangi so'z va iboralar bilan boyitib boradi.

O'qituvchi tomonidan beriladigan ilk savollar avvalo, o'qilgan matnning o'quvchilarga yoqqan yoki yoqmaganligi, asarning qaysi qahramoni bolada katta taassurot uyg'otganini bilishga qaratiladi. Shunday savollardan so'ng o'qituvchi asarning g'oyasini ochishga, uning sujetini tushunishga qaratilgan savollar berishi lozim.

Shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, o'qitilgan asarni tahlil qilayotganda uning sujetini to'la tushuntirishga berilib, asar personajlariga tavsif, asar qurilishi hamda uning tilini tahlil etish singari ish turlari ham nazardan qochmasligi zarur.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Nosir", 2009, 113-bet.

O'qilgan matn yuzasidan savollar, ko'pincha, o'qituvchi tomonidan beriladi. Lekin agar matnning mazmuni, undagi ishtirokchilarning xarakter-xususiyatlarini ko'rsatish uchun o'quvchilarning o'zlariga savol tuzdirilsa ham dars samaradorligi ancha oshadi. Negaki, bunday usul o'quvchilarni faollikka undaydi, ularda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi hamda asar mazmunini ongli o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda ularning mazmuni bilan birga hajmi ham e'tiborga olinib, dars aniq maqsad bilan tashkil etiladi. Ta'kidlash joizki, asar o'qitilgach, uning mazmuni bo'yicha o'ylash va o'z fikrlarini aytish uchun o'quvchilarga muayyan vaqt berish lozim bo'ladi.

Bo'lim materiallarini o'qitishdagi ish turlaridan biri asarni qayta o'qish hamda uni qayta hikoyalash ham hisoblanadi. Bu ish turlari asar mazmunini o'quvchilar tomonidan to'la anglab olishga ko'mak beradi. Bu o'rinda asarni o'qitishda tanlab o'qitish hamda tanlab hikoya qilish, shuningdek, ijodiy qayta hikoya qilish singari ish turlarini ham o'qituvchi samarali qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Amir Temur va chumoli" rivoyatini o'qish darsida "Quyidagi so'zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o'qing" topshirig'ini berish mumkin:

*Hayotim davomida ...*

*Barcha narsadan umidimni ...*

*Chumoli o'zidan katta ...*

*Chumoliga g'ayrat ...*

*Bundan keyin maqsadim ...*

Buyuk ajdodlarimiz haqidagi mavzularning mazmuni bo'yicha tashkil qilinadigan yakunlovchi savol-javoblarda esa asarning g'oyasi ochiladi. Bunda matndagi asosiy jihatni aniqlash hamda unga o'z fikrini ifoda etishga o'qituvchi o'quvchilarga yordamlashadi.

**Xulosa.** Buyuk ajdodlarimiz haqidagi turli janrdagi asarlarni o'qitish o'quvchilarni nafaqat o'tirmish tariximiz bilan tanishtirmasdan, balki o'quvchilarga ona-Vatanimiz oldidagi farzandlik burchi hamda mas'uliyatni chuqur his etishga ham yordamlashadi. O'quvchilarning vatanparvarlik hamda vatanga muhabbat hislari shu tarzda shakllantirib boriladi.

Bu mavzularni o'qitish darslarining har birida o'qituvchi o'quvchilar ongiga, ruhiga ulug' ma'rifatparvar ota-bobolarimizning ilm-u ma'rifat yo'lidagi faoliyatlari mashaqqatli, lekin sharafligi bo'lganligi xususidagi fikrlarni singdirishi lozim bo'ladi. Bu maqsad buyuk ajdodlarimiz haqidagi mavzularni o'rgatish metodlarini belgilab olishni talab qiladi. Mazkur mavzularga doir materiallarni o'qituvchi o'qitarkan, O'zbekiston atalmish ona zaminimizda umr kechirgan mutafakkir allomalar, buyuk olim-u adiblar, ma'rifatparvar ota-bobolarimiz va ularning ilmiy-ma'naviy meroslari xususida keng ma'lumot beradi. Bu merosning yurt ravnaqi yo'lidagi hamda yosh avlodning tarbiyasidagi jihatlariga diqqat qiladi. Buyuk ajdodlar haqidagi mavzularni o'rganishda o'qituvchi o'quvchiga ular yashayotgan qishloq, shahar, viloyatda ham umr kechirgan buyuk insonlar xususida ham ma'lumotlarni berishi lozim bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda buyuk ajdodlar haqidagi mavzularni o'qitishda o'qituvchi turli ish turlari va usullariga murojaat qilar ekan, ularning dars samaradorligini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Albatta, bu narsa boshlang'ich sinf o'qituvchisidan darsga alohida mas'uliyat bilan qarashni, o'z ustida muntazam ishlashni talab qiladi. Zero, ana shundagina har bir dars o'quvchilarning ma'naviy barkamolligida o'z izini qoldiradi.

**Barakayev Bahodir O'roqovich (O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti o'qituvchisi)**  
**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI**  
**HARAKATLI O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritilgan. O'sib borayotgan avlodning tarbiya tizimida xalq pedagogikasi tajribalari, jumladan, milliy xalq o'yinlari yoshlarning xarakteri va ongini boshqaruvchi vosita, asosiy kuch deb hisoblanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, insoniyat rivoji, milliy qadriyatlar, smirlarning shakllanishi, jismoniy mashg'ulotlar tizimi, xalq milliy harakatli o'yinlari, jismoniy sifat.

**РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**  
**С ПОМОЩЬЮ ДЕЯТЕЛЬНО-ДЕЯТЕЛЬНЫХ ИГР**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются содержание и методы развития физической подготовленности учащихся начальных классов посредством игровых действий. В системе вос-

питания подрастающего поколения утверждается, что опыт народной педагогики, в том числе национальных народных игр, считается главной силой и средством управления характером и сознанием молодежи.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, человеческое развитие, национальные ценности, формирование смиров, система физического воспитания, игры народного национального движения, физическое качество.

## DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS' PHYSICAL FITNESS THROUGH ACTIVITY GAMES

**Annotation.** This article discusses the content and methods of developing primary school students' physical fitness through action games. In the education system of the growing generation, it is said that the experiences of folk pedagogy, including national folk games, are considered to be the main force and a means of controlling the character and mind of young people.

**Key words:** Physical education, human development, national values, formation of smirs, system of physical training, people's national movement games, physical quality.

**Kirish.** Odam o'zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy tarbiya va sportning zarurligini tushunib yetishi va qunt bilan o'ziga yoqqan ma'lum bir jismoniy mashg'ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak. Hozirda yoshlarni jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning asosi bo'lgan jismoniy tarbiya sohasida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sog'lom, xushqomat, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat bo'lgan pedagogik jarayondir. Jismoniy tarbiya oldida turgan vazifalarni hal etishda harakatli o'yinlarini to'plash va ularni hayotga tatbiq etish, ulardan oqilona foydalanish zarurligi bugungi kunda yaqqol namoyon bo'lmoqda [1].

**Asosiy qism.** Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar asosida o'quvchilarni estetik tarbiyalash borasida dars jarayonini samarali tashkil qilish uchun harakatli o'yinlarni rejalashtirish muhimdir. Maktablarimiz umumiy o'rta ta'lim bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarining barkamol shaxs sifatida tarbiya topishiga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yoshlarning mamlakatimiz rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar egasi bo'lishi muhimligini ta'kidlaydi. Jumladan, ta'lim va tarbiya ishlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlarning foydali jihatlarini anglash ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirish alohida tajribani talab qiladi. Umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida o'quvchilarni zamonaviy usullar asosida estetik tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etishning yangi uslubiy yondashuvlarini joriy etishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish muammosi utuvor tarzda qarilishi lozim.

Xalq milliy harakatli o'yinlari bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki o'yinlar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bag'ishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini ta'minlaydi. O'yinlar tufayli bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar. Xalq milliy o'yinlarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham o'yinlarga umumiy jismoniy ta'sir ko'rsatuvchi sifatida qarash lozim. Birona o'yin yo'qki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi vosita bo'lib hisoblanmasin. Masalan, "Lanka tepish" milliy o'yinida faqat chaqqon bo'libgina qolmay, balki epchil, sezgir bo'lishga ham da'vat etiladi [2].

Jismoniy tarbiya tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi-insonni to'g'ri yashashga tayyorlashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalari bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy tarbiyaning umumiy maqsadi etiborsiz qolmaydi.

Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasida sog'lomlashtirish, ta'lim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Xalq milliy o'yinlari orqali bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari ko'proq ko'rinadi.

7–10 yoshli ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining eng asosiy vazifasi bola hayotini muhofaza qilish va uning sog'ligini mustahkamlash, uning organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirish, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga bardosh berishga o'rgatishdan iborat [3].

Milliy o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Bolalarni mehnatga tayyorlashda jismoniy madaniyatning, jumladan, xalq milliy

o'yinlarining tutgan o'rni ularga tushuntirish va bu tushunchani ularning ongida shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziqishi, iqtidori, individual talanti, ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasni rivojlantirish, muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usubiy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Maktab o'quvchisining shaxs, komil inson bo'lib shakllanishida, rivojlanishida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Xalq jismoniy tarbiyasi esa insoniyat rivojining ilk bosqichlaridayoq bola va o'smirlarning shakllanishida asosiy vositalaridan biri bo'lgan. Shu bois bugungi o'zligimizga qaytgan davrimizda xalqning milliy qadriyatlariga asoslangan jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda [4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinlarining ruhi, tabiati, xarakteri, ishtirokchilarning xatti-harakatlari kabi jihatlarga ham e'tibor berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ba'zi milliy o'yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga e'tibor berish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya darslarida qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan xalq milliy harakatli o'yinlaridan unumli foydalana bilishga bog'liq bo'ladi. Sababi, milliy harakatli o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, uni jismoniy tarbiyaga, shu orqali qadriyatlarga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Boshlang'ich sinf o'quvchilar jismoniy tarbiyasini rivojlantirish bo'yicha turli adabiyotlarda bolalarning jismoniy va irodaviy harakat tayyorgarligi jarayoni mazmuni bir xil talqin etilmaydi. Ayni vaqtda kichik maktab ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiya vazifalarida kichik yoshlardan boshlab jismoniy sifatlarni maqsadli yo'naltirish zarurati to'g'risidagi mulohazalarning yo'qligi e'tiborni tortadi. Faqat tayyorlov guruhi uchun dasturda chaqonlik, tezkorlik, chidamlilik va kuchni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi muayan eslatma paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar organizmi ikkita muhim xususiyatga ega, ularni bilish maktab o'quvchisiga jismoniy sifatlarni tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli yechish imkonini yaratadi [6].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda yurush, yugurish, sakrash, uloqtirish, konkida yurush yugurush, suzush hayot uchun kerak bo'ladigan eng oddiy harakat malakalarni rivojlantirishdir. Bu harakatlarni bolalar tez o'zlashtiradi, sababi ularning asab tizimi yuqori darajada egiluvchandir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga mashq berishdan oldin ularga o'sha mashqlarni ahamiyati, bajarish texnikasi, harakatli o'yin qoidalari tanani tarbiyalashni ayrim elementlari haqida tushuncha berib borish lozim [7].

Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelishi mumkin, ya'ni, jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar ko'pchilikni tashkil etadi, ularda turli jismoniy sifatlarni ketma-ket rivojlanishi mumkin [8].

**Xulosa qilib aytganda**, bolalar jismoniy tarbiyasi, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini usuliy, pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri aniqlash uchun bolalar fiziologiyasi hamda ruhiyatini yaxshi bilish shart, shularga suyangan holda har bir mashg'ulot oldidan ma'lum vazifalar qo'yilishi lozim. Vazifalar soni ikki-uchtadan iborat bo'lib, ularni bir necha guruhlariga bo'lib o'tish, asosiy harakatlar va mashqlar, milliy harakatli o'yinlar tanlanadi. Tanlangan mashqlar, birinchidan, asosiy harakatlar bilan bog'liq bo'lishi lozim. Ikkinchidan, mashqlar o'quvchilarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jinsiga mos bo'lishi ham kerak. Bundan tashqari, bu mashqlar bolaga oddiy, tushunarli, tanish va ular bajara oladigan bo'lishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1) Salimov G.M. Milliy harakatli o'yinlar asosida 7–10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi. Dis. ... kand. ped. nauk, T., 2007.
- (2) Islamov A. O'zbek xalq o'yinlari va ularning darsda qo'llanishi. "Xalq ta'limi", 4–5-sonlar, T., 1992.
- (3) Nasriddinov F.N., Qosimov A.Sh. O'zbek xalq milliy o'yinlari. 1-to'plam, T., 1998.
- (4) Abdullayeva M. Bolalar o'yinlarida o'zaro munosabatlar. "Boshlang'ich ta'lim", Toshkent, 2000.
- (5) Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'quvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T., "Iste'dod", 2010, 140-bet.

(6). Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., "Nihol" nashryoti, 2013, 278-bet.

(7). Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T., "O'qituvchi", 2004, 102-bet.

(8). M.E.Jumayev, M.Y.Yuldasheva, B.U.Mingbayeva, G.A.Mamatova. "Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar". Metodik qo'llanma, T., 2017.

**Xotamov Nurbek Boliyevich (Senior teacher of "language" department Boboqulov Furqatxon Azam o'g'li (Samarkand branch of tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwrazmi)**

## **COMPETITIVE FORMS OF ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES**

***Annotation.** The presented article discusses methods and methodological techniques for intensifying classes and various elements of competitions, as well as various methods of preparing for competitive forms of organizations and their differences.*

***Key words:** methodological techniques, mental capabilities, sports competitions, sporting achievements, physical education.*

### **JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING MUSOBAQA SHAKLLARI**

***Annotatsiya.** Taqdim etilgan maqolada darslarni kuchaytirish usullari va uslubiy texnikasi va musobaqalarning turli elementlari, shuningdek, tashkilotlarning raqobatbardosh shakllariga tayyorgarlik ko'rishning turli usullari va ularning farqlari muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** uslubiy texnika, aqliy imkoniyatlar, sport musobaqalari, sport yutuqlari, jismoniy tarbiya.*

### **СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫЕ ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ**

***Аннотация.** В представленной статье рассматриваются методы и методические приемы активизации занятий и различных элементов состязаний, а также различные методы подготовки к соревновательным формам организаций и их различия.*

***Ключевые слова:** методические приемы, умственные способности, спортивные соревнования, спортивные достижения, физическое воспитание.*

**Introduction.** Among the various forms of organizing classes in the long-term process of physical education, in a certain sense, the competitive form is extraordinary. As one of the private methods or methodological techniques for activating classes, the elements of competition are already included, as is known, at the early age stages of physical education, but they grow into a special holistic form of building classes as they become involved in regular physical culture and sports activities, the formation of a personal attitude to sporting achievements, the acquisition of physical and mental fitness for tests, which sports rivalry is associated with.

**Literature review.** The well-known fact that specific competitive requirements and relationships tend to maximize the physical and mental capabilities of an individual, up to the maximum mobilization of the functional reserves of the body and thereby stimulate their development in a special way\*, has led to the spread of options for competitive forms of employment not only in sports, but also in most areas of physical culture practice. They are most widely represented, of course, in sports activities proper, where highly qualified athletes participate in competitions organized in an official manner, taking 10-15 percent or more of the total amount of time spent on sports activities throughout the year. For obvious reasons, in the general course of physical education and in the amateur mass physical education movement, sports are not practiced so widely, but even here competitive forms of building classes are essential [1;56–57 p.].

**Research Methodology.** In this regard, it is necessary to distinguish between proper sports competitions in the strict sense of this concept and similar forms of organizing physical education classes. The former are distinguished by such signs as: the directly dominant orientation of the behavior of the competitors to victory or (and) individually the highest achievement, clear regulation of the subject, methods and a number of other conditions of the competition by officially unified rules (and the unification of the rules in many sports has been brought, as is known, to the international level), regulation of the order of conduct of the competition and determination of its outcome official referees, specific emotional tension and saturation of the atmosphere, competitions caused, among other things, by his environment and the empathy of the audience. [2;3–36 p.]. When using competitive forms of classes in various fields of physical culture practice, these signs of proper sports competitions are often partially absent or expressed as if in a transformed form. The main thing that unites here a variety of options for competitive forms of classes is the

use of naturally comparative ways to identify individual opportunities that mobilize to demonstrate the available level of certain personal qualities, abilities, abilities, skills in conditions specially created for this purpose. These forms of classes also have some common structural features that characterize the sequence of behavioral acts of competitors (introductory organizing actions, warm-up, the act of performing a competitive exercise, summing up, measures that normalize the post-competitive state) [2;35–36 p.].

**Analysis and result.** Sports competitions or similar physical education events are modified and acquire a different specific orientation, depending on the defining profile of the training system within which they are organized. Thus, within the framework of the general compulsory course of physical education in secondary schools and other educational institutions, the use of competitive forms of organizing classes is primarily subordinated to the logic of the pedagogical process, the interests of improving its quality, and solving educational and educational tasks. Competitive and scheduled forms of classes here in certain cases seem to merge (the so-called control lesson or test, organized in a competitive environment to meet educational standards, “Alpomish” and “Barchina” or sports classification, etc.). At the same time, competitions are mostly internal in nature (the composition of participants is limited to the composition of permanent educational institutions divisions – classes, groups, courses, etc.) [2;35–36 p.]. Competitive forms of classes are also peculiar in the amateur physical culture movement, which does not have a purely athletic nature. For many, they are actually not so much a way to achieve a sporting victory or a sports and technical result (as research shows, most participants in mass physical culture and sports competitions have little or no such individual attitudes), as a form of emotionally intense communication, healthy recreation and entertainment. It is no coincidence that with an informal approach to the organization of such competitions, the sports and competitive beginning in them is deliberately leveled or taken into the background, as it were, which is provided, in particular, by the conditions for encouraging all participants, regardless of the level of demonstrated results, the introduction of handicaps and other organizational and methodological techniques and conditions.

In regular sports activities aimed at higher achievements, competitions and training sessions specific to it form the formative basis of the athlete's training system and at the same time are the target points that the entire process of sports training focuses on. Accordingly, they are fully deployed and deeply specialized here (preparatory, classification, control, qualifying, basic, etc.) depending on the specific purpose and place in the general organization of sports activities. Moreover, as the scale of competitions grows, the level of competition in them and the degree of responsibility, they place increasingly serious demands on the physical and mental qualities of an athlete [3;43–44 p.].

Not only in high-ranking sports competitions, but also in similar competitive forms of activities, the probability of extreme, stressful situations fraught with overstrain and other negative effects is quite high, which raises the problem of the adequacy of competitive loads to the capabilities and level of preparedness of competitors, and hence the problems of admission to competitions of different ranks, control and regulation of competitive loads. As is known, the system of officially organized sports competitions provides for a number of measures that in one way or another contribute to solving these problems (established requirements for medical admission to participate in competitions, officially adopted differentiation according to their program, scale, duration, regime depending on age, gender and level of athletic qualification of participants, officially regulating recommendations on rationing of competitive loads for individual contingents of competitors, etc.) [3;43–44 p.]. The situation is more complicated with the extension of the relevant regulatory provisions to the informal practice of amateur physical culture and sports competitions. To rationalize it, much remains to be done, primarily along the path of organic introduction of sports culture into the consciousness and way of life of the people, expansion of the network of sports clubs of interest in territorial and communal regions, high-quality training of public sports assets.

The stages of sports competitions may vary depending on the scale and type of competition, but usually include the main stages described above. Physical preparation for sports competitions includes a number of activities that help an athlete achieve maximum physical fitness in order to achieve high results. Development of a training program: The athlete must determine what physical skills and properties are required for a particular sport, and draw up a training program that will be aimed at their development [4; 46–47 p.].

**Strength training:** For most sports, it is necessary to have developed strength, so strength training is one of the main components of physical training. This may include training using free weights, exercise equipment, or your own body weight.

Cardio training: The development of endurance and cardio system is an important aspect of physical fitness. This can be achieved by running, swimming, cycling or other cardio exercises.

Flexibility and stretching: To avoid injury, an athlete must have flexible muscles and joints. Regular flexibility and stretching exercises will help prevent possible injuries and enhance overall physical fitness [4;46–47 p.].

Balance and coordination: Many sports require good balance and coordination of movements. Training on specialized simulators or using exercises aimed at developing these skills can help an athlete achieve better results in competitions.

Proper nutrition and rest regime: to achieve maximum results, physical fitness should be supported by proper nutrition and rest regime. An athlete should receive sufficient amounts of protein, carbohydrates and fats to maintain energy and recover after training. Depending on the sport and the specific requirements, physical training may include other aspects such as speed training, aggressiveness, or specific skills. The main thing is that the training should be systematic, regular and suitable for a particular sport.

**Conclusion/recommendation.** Psychological preparation for sports competitions plays an important role in achieving success and achieving optimal results. Here are some important aspects that can be considered for such preparation: Setting Goals: Identify specific, measurable, and achievable goals for each competition. Divide them into short-term and long-term goals and develop plans for how to achieve them. Visualization of success: imagine yourself during the competition, having already achieved the desired result. Visualization helps strengthen the brain and prepare you to perform the required actions [4.46-47].

Positive thinking: Maintain a positive internal dialogue with yourself and believe in your abilities. Avoid negative self-esteem and have confidence in your skills.

Developing focus and concentration: Train your ability to focus on one task and ignore external distractions. This can be achieved through meditation, concentration and attention exercises. Stress Management: Develop strategies to help you deal with stress before and during the competition. This can be deep breathing, relaxing exercises, or practicing mental stress management techniques.

Establishing Rituals: Develop your own rituals that will help you focus, boost confidence and create a positive attitude before the competition. This may be, for example, a special sporting gesture or word, or performing a certain series of actions before the start of a competition.

Regular training of psychological skills: Just like physical training, psychological skills require regular training and strengthening. Include psychological exercises in your training program and constantly improve your skills.

It is important to note that each athlete is unique and requires an individual approach to psychological training. Working with an experienced sports psychologist can help you create and customize the best strategy to achieve your competition goals.

#### References:

- (1). Grinenko M.F., Sanoyan G.G. Labor, health, physical culture. M., FiS, 1974, 56–57 p.
- (2). Kosilina N.I., Sidorov S.P. Gymnastics in the working day mode. M., “Знание”, 1988, 35–36 p.
- (3). Nifontova L.N. Industrial physical culture. M., “Знание”, 1982, 43–44 p.
- (4). Panaev V.G. Physical culture and sports at work. M., “Знание”, 1985, 46–47 p.

Yorova Sayora Karimovna (Samarqand davlat Tibbiyot universiteti "Tillar" kafedrasini mudiri (PhD))  
TIBBIY NUTQNING KOGNITIV VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Rasmiy va ilmiy manbalardan keltirilgan fikrlarning har ikkalasida shifokorning bemor munosabatida uning shaxsiyati, qadr-qimmatiga hurmat bilan yondashish, muloqotning samimiy va do'stona kechishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etish, bemorni e'tibor bilan tinglash va suhbatdoshning qoniqish hosil qilishiga erishish singarilar bemorning salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi kommunikativ omillar sifatida tibbiyot xodimining odob-axloq va deontologik normalarining asosini tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** shifokor, bemor, suhbat, etiket normalari, kompetensiya, hamkorlik, lingvistika, hamkorlik.

**КОГНИТИВНО-ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕДИЦИНСКОЙ РЕЧИ**

**Аннотация.** Как по мнению официальных, так и научных источников, отношения врача с пациентом включают уважение к его личности и достоинству, устранение факторов, отрицательно влияющих на искреннее и дружеское общение, внимательное выслушивание пациента и достижение удовлетворения собеседника. Коммуникативные факторы, положительно влияющие на здоровье пациента, составляют основу этики и деонтологических норм медицинского работника.

**Ключевые слова:** врач, пациент, беседа, нормы этикета, компетентность, сотрудничество, лингвистика, коллаборация.

**COGNITIVE AND LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF MEDICAL SPEECH**

**Annotation.** In both of the opinions from official and scientific sources, the doctor's relationship with the patient includes respect for his personality and dignity, eliminating factors that negatively affect the sincere and friendly communication, listening carefully to the patient and achieving the satisfaction of the interlocutor. Moreover, the communicative factors that have a positive effect on the patient's health, form the basis of the ethics and deontological norms of the medical staff.

**Key words:** doctor, patient, conversation, etiquette norms, competence, cooperation, linguistics, collaboration.

**Kirish.** Shifokor deganda nafaqat o'z kasbining bilimdoni bo'lgan malakali mutaxassis, balki tabobatni ijtimoiy, madaniy, lisoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan yuksak salohiyat sohibi nazarda tutiladi. Binobarin, har qanday shaxsning: vaziyatga tezlikda baho berish, uning yechim mo'ljalini olish, fikrini vaziyatga mos holda bayon qilish, nutq madaniyati normalar doirasida muloqot qilish, odob-axloq an'analari va tamoyillariga amal qilish, shaxslararo munosabatda dini, millati, jinsi, ajdod-avlodiga oid ma'lumotlarga e'tibor berish kabi salohiyatlarga ega bo'lishi uchun "obyektiv va lisoniy" deb yuritiladigan bilim va tajribalarga ega bo'lishi lozim [E.S.Kubryakova. 2004;11-b.].

Ana shunday uyg'unlikdagi bilim va salohiyat sohiblari o'z yurush-turishi, xatti-harakati, qadriyatlariga munosabati, muloqot odobi va madaniyati bilan jamiyatda ibrat, o'rnak vazifasini ham o'taydi. Ingliz tilida *an example*, o'zbek tilida *ibrat*, *o'rnak* deb yuritiladigan ushbu tushuncha zamirida *kam'perasən/qiyoslash* harakati natijasida aniqlanadigan "sample, model/namuna, andoza" tushunchalari yotadi. Shifokorning jamiyatdagi o'rniga beriladigan xalqona baho ham *set an example* yoki *ibrat qilib ko'rsatish* orqali namoyon bo'ladi.

Ushbu xalqona bahoning ilmiy talqinlarida nisbatan kengroq va mufassalroq yondashilgani holda, shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini, avval aytib o'tilganidek, sotsial kompetensiya va kompetenliklar asosida belgilanadi. Bu nuqtayi nazarga ko'ra, shaxsning jamiyatdagi *an example/ibrat*, *o'rnak* maqomini belgilashga xizmat qiladigan: operativ, orientatsiya, verbal, kommunikativ, yetik, ijtimoiy-psixologik va ego-kompetensiyalar shaxsning kognitiv, lingvomadaniy va pragmatik salohiyatlariga daxldorligi bilan xarakterlanadi [V.N.Kunisina. 2001;44-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tibbiy diskurs mazmunini voqelantirishdagi muloqot turlari tadqiqiga oid L.M.Alekseeva, S.L.Mishlanova, V.V.Jura, A.T.Shastniy, N.G'aybullayeva, M.Coulthard, M.Ashby, S.Fisher, S.Groce, J.Heritage, P.F.Weitzman, E.A.Weitzman, H.Waitzkin, D.Maynard, L.Royster, R.Welch Cline, J.D.Silverman, P.I.Susov, N.I.Formanovskaya, Y.I.Golovanova, L.S.Beylinson, D.Cameron, J.Du Bois, H.P.Grice, R.Wodk, Ch.Pirs, Sh.Safarov, S.M.Muminov, J.Gumperz, D.Tannen kabi tilshunoslar ilmiy izlanishlari olib borishgan.



**Tadqiqot metodologiyasi.** Muhokamamizning markaziy obyektini taqozo etuvchi shifokorning ijtimoiy-madaniy va kasbiy kompetensiyalariga bemor bilan konsultativ muloqot vaziyatidan baho berishda ana shunday ko‘lamdagi bilim va tajribalar majmuyiga ega bo‘lgan lingvokognitiv iqtidor sohibi nazarda tutiladi. O‘z navbatida, ushbu kompetensiyalar shifokorning kommunikativ faoliyatiga lingvokognitiv nuqtayi nazardan baho berishda uning sotsial jihatdan tibbiyot sohasida ixtisoslashgan nutq salohiyatiga va ushbu salohiyatni bemorlar bilan bo‘ladigan muloqot vaziyatlari va mezonlari doirasida voqelanishiga e‘tibor qaratish lozimligidan ham darak beradi.

Zotan, shifokor – bemor muloqotiga asoslanuvchi tibbiy diskurga xos bilimlar majmuyi haqida ma‘lumotlar zaxirasini shakllantirish va ularni tibbiyot sohasi hamda tillar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashga jalb qilish uchun ushbu diskursiv mahsullarning kognitiv, lisoniy, madaniy va pragmatik xususiyatlarini hisobga olish va sohalararo hamkorlikda tahlil qilish talab qilinadi [Sh.Safarov. 2006; 8-b.].

Bunday sohalararo hamkorlikka asoslanuvchi bilimlar cho‘lg‘amini ochish va tahlil qilish uchun esa, dastlab, tibbiy nutqning ijtimoiy-madaniy va diskursiv xususiyatlari haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lish talab qilinadi. Shu bois tibbiy nutq ishtirokchilarining ko‘lami, shifokorlarning muloqot jarayonidagi mas‘uliyatlari, uning ijtimoiy-madaniy, kasbiy, diantologik, kommunikativ kompetensiyalari, ushbu ko‘rsatkichlarning shifokor-bemor muloqotida tutgan o‘rni, tibbiy nutqning diskursiv asoslari muhokamasiga e‘tibor berildi.

V.I.Karasik qayd etganidek, har bir til sohibi “lisoniy shaxs” maqomiga ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tafakkur va lisoniy qobiliyatga ega. Ayni vositalar uning so‘zlash, muloqot qilish ehtiyoji va intilishi uchun zamin yaratadi va ta‘minlaydi [V.I.Karasik. 2009;147-b.]. Ushbu jarayon, ya‘ni, insoniy lisoniy ijodkorlik qobiliyatining ijtimoiy sharoitga moslashuvida tilning ijtimoiy normalari, lug‘aviy va grammatik zahiralardan iborat leksikon ham shakllanib, faollashib boradi [Y.N.Karaulov. 2002; 38-b.].

**Tahlil va natijalar.** Lingvokognitiv izlanishlarda “ichki leksikon”, “tezaurus” va “mental leksikon” kabi terminlar bilan yuritiladigan konseptual birliklar zanjiri vositasida inson borliq haqidagi hissiy, lingvokognitiv xarakterdagi ma‘lumotlar bazasi bilan bog‘lanish imkoniga ega bo‘ladi [T.Y.Sazonova. 2000; 6-b.]. Xotira birligi bo‘lgan mental leksikon propozitiv xarakterli bo‘lgani bois, o‘zaro kesishishga asoslangan murakkab munosabatlarga ishora qilishi tufayli borliqdagi cheksiz miqdordagi narsa va hodisalarni kategoriyalar ko‘lamida idrok etish imkonini yaratadi. Narsalarni hissiy obraz va so‘z izchilligida va aksincha, so‘z orqali narsa va uning hissiy obrazni tasavvurda gavdalandiradi, fikrni nutqqa ko‘chirish hamda nutq orqali ifodalangan fikrni tushunish imkoniyatlarini yaratadi [E.S.Kubryakova. 2004;79–394-b.].

Inson xotira birligi bo‘lgan mental leksikonga xos ushbu lingvokognitiv zanjirlar cho‘lg‘amini e‘tiborga olgan N.D.Arutyunova diskursni nafaqat hayot bilan bog‘langan nutq sifatida, balki so‘zlovchining kognitiv-kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq maqsadi, istak va xohishi, tajriba va ko‘nikmalarining majmuyi sifatida talqin qilish lozimligini aytadi [N.D.Arutyunova. 1990;136–137-b.].

E.S.Kubryakova esa diskursiv faoliyatga xos dastlaki ko‘nikmalar nomlash jarayonida ortirilgan “kognitiv-diskursiv” tajribalarga asoslanishini qayd etgani holda, kommunikativ diskursni nominativ faoliyat jarayonida to‘plangan lisoniy bilimlar kvantini xabar yetkazishga jalb qilish deb ta‘riflaydi. Ushbu kognitiv-diskursiv faoliyatni esa: *the city was destroyed – the destruction of the city /город был разрушен – разрушение города* singari kommunikativ va nominativ parallelar misolida dalillaydi [E.S.Kubryakova. 2004;240–255-b.].

Bu nuqtayi nazarga ko‘ra, diskurs deganda mental leksikonga xos murakkab munosabatlar zanjiriga ishora qilish xususiyatiga tayangan holda, vujudga keltiriladigan ichki va tashqi mushohadalar hamda ularning nominativ va kommunikativ muqobillari nazarda tutiladi. Zotan, so‘z muayyan predmetni yoki voqelikni atovchi oddiy bir yorliq bo‘lmasdan, ularni bilish vositasidir [Sh.Safarov. 2006;21-b.].

Darhaqiqat, inson olam lisoniy manzarasini shakllantrishida, uni hissiy obrazi, tasavvur, konsept, tushuncha kabi kognitiv birliklar assosiativ uyg‘unligida idrok etishida ham so‘zga tayanadi. Shu bois so‘z nafaqat borliqdagi narsalarning murakkab munosabatlari zanjiriga ishora qiluvchi vosita sifatida, balki jumlarlar tuzushda so‘zlarning semantik-sintaktik bog‘lanishiga ishora qiluvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Xususan, *medicine/tibbiyot* konsepti mohiyatan *health care/sog‘liqni saqlash* faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgani bois, uning markazida *disease/kasallik* konsepti turadi, uning yaqin qurshovida: *doctor/shifokor, the patient/bemor* konsepti, chekkasida esa: *herbal remedies/dori-darmonlar, auxiliary means/tibbiy vositalar* singari konseptlar assosiativ uyg‘unligi o‘z aksini topgan.

So‘z, tushuncha va konseptlar borliqqa oid bilimlarni xotirada tizimlashtirgan holda saqlash va assosiativ uyg‘unlikda jonlantirishdan tashqari, ularni geshtalt, freym, ssenariy (skript), konseptosfera singari

kognitiv tuzulmalar asosida voqelikni idrok etish, xatti-harakatlarni rejalashtirish singari xususiyatlarga ham ega. Xususan, *disease/kasallik* konseptining hissiy belgilarga asoslangan geshtalt yaxlitligi: *og'riq, azob, dard, o'lim* kabi kechinma (obraz) va tushunchalar orqali aks etsa, shifokor – bemor muloqotining “ambulator qabul” skripti: *shifoxona, vaqt, shifokor, hamshira, uchrashish, ko'rishish, salomlashish, tani-shish, rasmiylashtirish, savol, javob, ko'rik, tahlil, tashxis, maslahat, taklif, tavsiya, resept, muolaja, dori, ukol* kabi semantik epizodlar to'plami vositasida namoyon bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Inson tug'ilgandan boshlab o'zini o'rab turgan muhit va borliq bilan bevosita munosabatga kirishadi. Shu asnoda u o'zi yashayotgan muhitida shakllangan lisoniy, ijtimoiy va madaniy mezonlarni o'zlashtiradi, tabiat va jamiyatdagi narsa-buyumlarni, voqea-hodisalarni idrok qiladi, ularni o'zaro qiyoslaydi hamda bu haqdagi xulosalarni umumlashtiradi, to'plagan ma'lumotlariga ishlov berish barobarida xotirada saqlaydi.

Ushbu jarayonlar insonning bilish va so'zlash qobiliyatlari hamkorligida kechadi. Zotan, insonning ushbu qobiliyatlari tufayli u o'z kuzatuvlari asosida shakllanadigan ichki mushohada va xulosalarini kim bilandir o'rtoqlashib, ishonch hosil qilishga intiladi. Yuqoridagi qayd etilgan “kognitiv-diskursiv” faoliyat shaxsning ichki mushohadasi vositasida vujudga keladigan ichki nutqi bilan bog'liqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Сысоев П.В. Культурное самоопределение личности как часть поликультурного образования в России средствами иностранного языка и родного языков. “Иностранные языки в школе”, 2003, № 1, с. 42 – 47.
- (2). Сусов И.П. Формальные и семантические аспекты предложения. Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. Л., “Наука”, 1975, с. 61 – 88.
- (3). Щастный А.Т. и др. Биомедицинская этика и коммуникации в здравоохранении. Витебск, изд ВГМУ, 2018, 310 с.
- (4). Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... “O'zbek tili va adabiyoti”, 2012, 5-son, 3–16-betlar.
- (5). Mahmudov N. Fan tili va til fani. “O'zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 5-son, 2013, 3 – 10-betlar.
- (6). Rahimov A. Tilni paradigmalar asosida o'rganish muammolari. “O'zbek tili va adabiyoti”, 2012, 2-son, 20–25-betlar.
- (7). Safarov Sh. Tarjimonning lisoniy shaxs sifatida bajaradigan faoliyati. “Xorijiy filologiya”, 2018, 3-son, 9–20-betlar.
- (8). Yuldasheva D.N. Nutqiy muloqotda sukutning o'rni. “Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar”, 2020, 1-son, 131–141-betlar.
- (10). G'aybullayeva N.I. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiyaning ahamiyati. “O'zbekistonda xorijiy tillar”, ilmiy-metodik elektron jurnal. journal.fledu.uz. 2019, 3-son, 37 – 45-betlar.
- (11). G'aybullayeva N.I. Tibbiyot sohasi tilining lingvomadaniy aspekti. “Xorijiy filologiya”, 2019, 3-son, 33–137-betlar.

**Aripova Gulnoza Tulkunovna (Oriental universiteti “G'arb tillari” kafedrasida katta o'qituvchisi;  
[aripova-gulnoza@mail.ru](mailto:aripova-gulnoza@mail.ru))**

#### DOIRA MILLIY CHOLG'USINING LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

**Annotatsiya.** *Leksikografiya ham lingvistik sohadagi ilmiy fan hisoblanadi. Leksikografiyada lug'at tuzish, yozish yoki tahrirlashni o'rganish mumkin. Leksikografiyaning nazariy va amaliy shakli ham til o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Leksikografiya olimlarning diqqat markazida bo'lsagina, tilni boyitish va rivojlantirishga samarali hissa qo'shishi mumkin bo'ladi. Ushbu ilmiy maqolada o'zbek cholg'u asboblardan biri bo'lgan doira haqida so'z yuritiladi. Ushbu cholg'u asbobining lug'atlarda tutgan o'rni, qaysi prinsiplarga asoslanib lug'atlar tuzilganligi qiyosiy tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *doira, leksikografiya, leksikologiya, musiqa cholg'usi, lug'at, etimologiya, ijro, dia-metr.*

#### ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАРОДНОГО ИНСТРУМЕНТА DOIRA

**Аннотация.** *Лексикография также является научной дисциплиной в области лингвистики. В лексикографии можно научиться создавать, писать или редактировать словарь. Теоретическая и практическая форма лексикографии также важна для изучающих язык. Лексикография может эффективно способствовать обогащению и развитию языка только в том случае, если она находится в центре внимания ученых. В данной научной статье рассказывается о доире, который является одним из узбекских музыкальных инструментов. Сравнительно анализируется роль этого музыкального инструмента в словарях и принципы, на основе которых составляются словари.*

**Ключевые слова:** доира, лексикография, лексикология, музыкальный инструмент, словарь, этимология, исполнение, диаметр.

## LEXICOGRAPHICAL ANALYSIS OF THE NATIONAL INSTRUMENT DOIRA

**Annotation.** *Lexicography is also a scientific discipline in the field of linguistics. In lexicography, one can learn to create, write or edit a dictionary. The theoretical and practical form of lexicography is also significant for language learners. Lexicography can effectively contribute to the enrichment and development of the language only if it is in the center of attention of scientists. This scientific article describes doira, which is one of the Uzbek musical instruments. Moreover, the role of this musical instrument in dictionaries is analyzed comparatively and learned in which principles were compiled dictionaries.*

**Key words:** *doira, lexicography, lexicology, musical instrument, dictionary, etymology, performance, diameter.*

### **Maqola taqrizchisi PhD Nasirov Dilshod Xusnitdinovich**

**Kirish.** Biz yashab turgan hududimizda ishlatiladigan milliy musiqa cholg'ularining turlari nihoyatda ko'p. Agar ular nomma-nom sanab chiqilsa, 50 dan ortiq ekanligining guvohi bo'lish mumkin. Shular ichidagi 18 nomdagi musiqiy cholg'u XX asrning 30-yillari oxiridan boshlab yangidan yaratilgan musiqiy cholg'ular hisoblanadi. Ular, asosan, orkestr va ko'p ovoqli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Bu cholg'ular muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqa cholg'ularining shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar natijasida yaratilgan. Tajribalar nay, chang, rubob, dutor, g'ijjak, qo'biz cholg'ularida olib borilib, ularning oilasi yaratildi.

Milliy madaniyatimizda qo'llaniladigan musiqa cholg'ularini foydalanish o'rinlariga qarab, shartli ravishda, 2 guruhga – professional ijrochilikda qo'llaniladigan va folklor cholg'ulari turlariga ajratish mumkin. Professional ijrochilikda qo'llaniladigan cholg'ularning o'zi ham an'anaviy musiqa ijrochiligida ishlatiladigan cholg'ular hamda akademik ijroda ishlatiladigan cholg'ular turlariga bo'linib ketadi [6]. Biz quyida an'anaviy musiqa ijrochiligida ham, akademik ijroda ham keng qo'llaniladigan cholg'u asboblardan biri doira bilan qisqacha tanishamiz.

O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish musiqiy sozlarimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Ushbu cholg'u asboblari o'rganish faqatgina musiqashunoslarning vazifasi bo'libgina qolmay, balki biz, tilshunoslarning ham oldimizdagi burchimiz hisoblanadi. "Cholg'u asboblarning kelajakdagi rivoji uchun tilshunos qanday hissa qo'sha oladi?" deb o'ylash mumkin. Bunda tilshunoslarning asosiy vazifalaridan biri lug'atlarni boyitish hisoblanadi. Lug'atlarni yaratish bilan lug'atshunoslar shug'ullanadi.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsad va vazifalari shundan iboratki, unda o'zbek cholg'u asboblardan biri bo'lmish doira haqida yangi lug'at yaratish bo'lib, bu quyidagi prinsiplar orqali o'z aksini topadi:

- barcha lug'atlarda doira haqida berilgan ma'lumotlar to'planadi;
- yig'ilgan ma'lumotlar o'rganiladi va leksikografik tahlil qilinadi;
- olib borilgan tahlil natijasida yangi ma'lumot yaratiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Lug'atlarni tuzish, yozish va tahrirlash uchun lingvistik fan sifatida tilni saqlash, rivojlantirish va boyitishda leksikografiya muhim rol o'ynashi mumkin. Lug'atlar jamiyatning axloqiy va mafkuraviy qadriyatlarini himoya qiluvchi didaktik vositalar va mafkuraviy qurol sifatida foydalanish uchun saralangan [9;124-b.].

O.S.Axmanovning "Словарь лингвистических терминов" kitobida "leksikografiya" so'ziga keng izoh berilgan. Uning fikricha, leksikografiya:

1. Lug'at tuzish haqidagi fan.
2. Ma'lum bir tilning leksikasini ifodalovchi lug'at tuzilmasi.
3. Ma'lum bir tilga yoki ma'lum bir bilimga asoslangan lug'at jamlanmasidir [2].

Van Sterkenburg "Lug'atning lug'at deb nomlanishi uchun qanday talablarga javob berishi kerak?" degan savolga javob berar ekan, savolga tekshirilishi mumkin bo'lgan, uchta mezonga asoslangan javob berish mumkinligini ishora qiladi. Bular rasmiy mezonlar, funksional mezonlar va tarkibga oid mezonlardir. Yuqoridagi iqtibosga asoslanib, lug'atlarning har qanday turi samarali ishlashi va ishonchli manba sifatida ishlatilishi uchun mezonlarga javob berishi kerak [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Doira haqidagi ma'lumotlar lug'atlardan o'rganiladigan bo'lsa, Ilyos Akbarov o'zining "Musiqqa lug'ati" nomli lug'atida doiraga quyidagicha izoh bergan: "Doira (o'zb. dapp, childirma, chirmanda) o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq, ur-

ma cholg‘u asbob. Diametri, taxminan, 400 mm bo‘lgan, gardishi ilgari uzum zangidan qilingan; so‘nggi vaqtlarda yog‘ochni egib, kichik yog‘och bo‘laklarini bir-biriga ulab yasaladi. Doira gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi, qirqdan ortiq halqachalar taqilib, bular doirani chalganda qo‘shimcha sado beradi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past “bum” (Xorazmda “tup”), ikkinchisi baland “bak” (Xorazmda “toq”) deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush “bakko” yoki “bakka” (“taka”) deb yuritiladi. Doira keng tarqalgan cholg‘u asboblaridan bo‘lib, unda turli ansambl, orkestr va yakka holda ijro qilinadi. Doira jo‘rligidagi raqslar o‘zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Shashmaqom doira usulisiz ijro qilinmaydi. Buxoroda har bir maqom aytuvchi hofiz, maqom usullarini doyrada ustalik bilan o‘zlash-tirgan va o‘z ashulalariga jo‘r bo‘lgan. Doira tovushlari notada puflama va simfonik orkestrdagi urma cholg‘u asboblarinikidek bir chiziqqa yoziladi. So‘nggi 60–70-yillar orasida doyra usullari etnograf folkloristlar tomonidan turli tartibda yozilib kelingan. 1930-yillardan boshlab, “bum” chiziq ostiga, “bak” chiziq ustiga yozila boshladi. Shashmaqomdagi har bir kuyning o‘ziga xos usuli bor. Shunga ko‘ra, usullar shu kuy nomi bilan yuritiladi. Masalan, “Usuli muhammas” (Muhammas usuli), “Usuli talqin”, “Usuli tasnif” va boshqalar [1].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da doira so‘zining turli xil ma’nolariga izoh berib ketilgan bo‘lsa ham, cholg‘u asbobi sifatida qiyidagi qisqa ma’lumot kiritilgan. Doira – aylana shaklidagi, gardishsimon urma musiqa asbobi; childirma, daf. *Doira chalmoq. Boloxonaning tokchasida doira, tanbur, dutor va rubob kabi musiqiy asboblar bor edi* (S.Ayniy. Esdaliklar).

“Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” o‘quv qo‘llanmasida ham doira cholg‘u asbobiga quyidagicha izoh berilgan. Doira – o‘zbek musiqiy ijrochiligida usul (ritm) beruvchi eng asosiy cholg‘u hisoblanadi. Doira ishtirokisiz nafaqat ansambllar yoki orkestr ijrosini, hatto ko‘pgina yakka cholg‘ular ijrosini ham tashkil etib bo‘lmaydi. Doira O‘zbekistonda eng keng tarqalgan musiqiy cholg‘ulardan biridir. Uning xalq ichida keng ommalashuvida Usta Olim Komilov, To‘ychi Inog‘omov, G‘ofir Azimov, Qahramon Dadayev, aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar, Odil Kamolxo‘jayev, Abbas Qosimov kabi bir qator doirachilarning xizmatlari bor. Doirada hosil qilinadigan tovushlar tembr jihatdan va balandlik jihatdan farqlansa-da, ular ma’lum bir musiqiy balandlikka ega bo‘lmaydi va doyrada kuy ijro etib bo‘lmaydi. Doirada hosil qilinadigan bo‘g‘iq tovush – bum, jarangdor tovush – bak, o‘ta jarangdor tovush esa – noxun deb yuritiladi. Doira partiyasi 4 qatorli nota yo‘lida yoziladi. Pastki 2 qatorda o‘ng qo‘l, yuqoridagi 2 qatorda chap qo‘l ijrosi uchun notalar yoziladi.

Azatgul Tashmatovaning “Musiqiy cholg‘ular muzeyi katalogi”da doiraga quyidagicha izoh berilgan. Doira eng ko‘p tarqalgan o‘zbek xalq cholg‘ularidan biri hisoblanadi. Uning tovushi muayyan balandlikka ega emas. Doiraning gardishi tut, yong‘oq, o‘rik uzum zangi va buk daraxtidan egma va yig‘ma ravishda yasaladi. Uning bir tomoni mol terisi bilan qoplanadi. Gardishining ichkari tomoniga ellik to‘qqiz dona metall halqachalar o‘rnatilgan bo‘lib, ular ijro paytida shovqin tovushlar chiqaradi. Cholg‘uning diametri 380–400 mm.ga teng. Cholg‘u zarblar hamda dinamika jihatdan boy imkoniyatlarga ega. Doirada ijro etish uchun o‘ng va chap qo‘llarning hamma barmoqlari ishlatiladi. Doirachining mahorati uning chiroyli ovoz tarovati va dinamikadan unumli foydalanishi bilan belgilanadi. Doira musiqasining birinchi darajali xususiyati ham shundan iboratdir.

Asarlar maxsus doira uchun ikki qatorli nota yo‘lida o‘ng qo‘l uchun alohida va chap qo‘l uchun alohida yoziladi hamda akkolada chizig‘i bilan birlashtiriladi [8]. Tadqiqot ishida doira haqidagi eng kerakli ma’lumotlar to‘plandi, qiyosiy tahlil qilindi va jadval ko‘rinishida berildi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, ba’zi manbalar ushbu cholg‘uni doyra deb y harfi bilan yozsa, ayrimlari doira deb i harfi bilan yozayapti.

Doira haqidagi barcha to‘plangan ma’lumotlar ushbu jadvalda quyidagicha tahlil qilindi:

	Etimologiyasi	Tuzilishi	Ijro etish uslublari	Qayerda keng tarqalgan?
O‘zbek tilining izohli lug‘ati	-	+	-	-
I.Akbarov lug‘ati	+	+	+	+
Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi	-	-	+	+
Musiqiy cholg‘ular muzeyi katalogi	-	+	+	-

**Tahlil va natija.** Milliy musiqa cholg‘ularidan biri bo‘lgan doiraning tarixini o‘rganish, kechirgan davrlarni, butun sabablari bilan ochish va obyektiv ilmiy xulosa chiqarish yaratilayotgan lug‘atimizni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, doira milliy cholg'usi haqida kiritilgan ma'lumotlar turli xil manbalarda turlicha o'z aksini topadi. Demak, lug'at yaratishda qaysi ma'lumot muhim o'rin tutishini bilish uchun, albatta, biz, san'atshunos olimlar va ushbu cholg'uning mutaxassislari bilan ham hamkorlikda ishlashimiz zarur ekan. Chunki milliy cholg'ular haqida ushbu sohaning mutaxassisidan ko'ra mukammalroq biladigan inson bo'lmaydi. Tahlil natijasida barcha manbalardagi ma'lumotlar to'planadi, eng zarurlari ichidan saralab olinadi va lug'at shakliga keltiriladi. So'ngra esa ushbu to'plangan ma'lumotni ikkinchi tilga tarjima qilinadi.

**Xulosa.** Milliy musiqa cho'lgusi bo'lmish doiraning leksikofrafik talqinini o'rganishda lug'at tuzish prinsiplari qayta o'rganib chiqib, unga xos tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan yangi tipdagi san'atshunoslikka oid ingliz va o'zbek lug'atlarini tuzish, mavjud lug'atlardagi izoh va sharhlarni mukammallashtirish hamda leksikologik ma'lumotlarni kompyuterlashtirishda keng foydalanish mumkin. Musiqaga oid lug'atlardan til o'rganuvchilar va shu soha vakillari keng foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu yaratilgan tadqiqotning nazariy qismidan, boshqa soha bo'yicha terminologik lug'atlar yaratishda ham foydalanish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). I.Akbarov. Musiqa lug'ati. Toshkent, 1987, 83-bet.
- (2). O.S.Axmanova. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е., М., «Либроком», 2010, с. 576.
- (3). Haumod, B. Routledge Dictionary of Language and Linguistics. London, Taylor&Francis e-Library. 2006.
- (4). Sterkenburg's (edit.) A practical guide to lexicography, pp. 3–17; Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2003.
- (5). Van Sterkenburg, P. 'The' dictionary: Definition and history. In Piet van.
- (6). O'rozali Toshmatov, Sobir Turatov. Ko'hna cholg'ular ijrochiligi. "Tafakkur", Toshkent, 2016, 39-bet.
- (7). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2008.
- (8). A.Tashmatova. Musiqiy cholg'ular muzeyi katalogi. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2006.
- (9). Henry Bejoint. The Lexicography of English. 2010.

**Jumaniyozov Zohid Otaboyevich (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent; e-mail: [zohid@urdu.uz](mailto:zohid@urdu.uz)),**

**Masharipova Yulduz Otaxanovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida 2-bosqich tayanch doktoranti; e-mail: [yulduz.m@urdu.uz](mailto:yulduz.m@urdu.uz))**

#### TARJIMADA TURLI XALQLAR MADANIYATIGA DOIR LEKSIK BIRLIKLARNING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI QIYOSI

**Annatsiya.** Ushbu maqolada tarjimada turli xalqlar madaniyatiga doir leksik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari qiyosi haqida fikr yuritiladi. Bunda asliyat tili birliklari tarjima tilidagi leksik ekvivalentlari bilan qiyoslangan holda tahlil qilinadi. Natijada asliyat matnida aks etgan xalq madaniyatini o'rganish va tushunish, uning tarjima tili qiyosi asosida qayta shakllangan jihatlarni tahlil qilish tarjimada turli xalqlar madaniyatiga doir leksik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari qiyoslash bilan birga, ularning madaniyatlararo farqini idrok etishga ham zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** asliyat tili, tarjima tili, leksik birlik, chog'ishtirma metod, ranglar qiyosi, go'zallik qiyosi.

#### СРАВНЕНИЕ ПОХОЖИХ И РАЗНЫХ СОСТОЯНИЙ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ РАЗНЫХ КУЛЬТУР ПРИ ПЕРЕВОДЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается сравнение сходств и различий лексических единиц по культуре разных народов в переводе. При этом языковые единицы оригинала анализируются в сравнении с их лексическими эквивалентами в языке перевода. В результате, наряду с изучением и осмыслением народной культуры, отраженной в оригинальном тексте, анализа ее видоизмененных аспектов на основе сравнения сходств и различий лексических единиц, относящихся к культурам разных народов в переводе, также закладывает основу для восприятия их межкультурных различий.

**Ключевые слова:** язык оригинала, язык перевода, лексическая единица, сравнительный метод, сравнение цветов, сравнение красоты.

## COMPARISON OF SIMILAR AND DIFFERENT ASPECTS OF LEXICAL UNITS OF DIFFERENT CULTURES IN TRANSLATION

**Annotation.** *This article discusses the comparison of similar and different aspects of lexical units related to the culture of different nations in translation. The lexical units of the source language are analyzed in comparison with their lexical equivalents in the target language. As a result, the study and understanding of the national culture which is reflected in the source text and its analysis that is based on the comparison of the target language, the comparison of the similar and different aspects of the lexical units related to the culture of the different peoples in the translation create a basis for understanding their intercultural differences.*

**Key words:** *source language, target language, lexical unit, comparative analysis method, comparison of colors, comparison of beauty.*

**Kirish.** Bugungi kunda tarjima tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda asliyat va tarjima matnlari leksik birliklari qiyosiy tahlil qilinishi natijasida tarjimada turli xalqlar madaniyatiga doir leksik birliklar bilan birgalikda xalqlar tarixi, madaniyati, dunyoqarashi, dini haqida ham chuqur bilimga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi. Odatda, tarjimonlar ba'zi matnlarda muammolarga duch kelishadi. Bu qiyinchiliklar, asosan, matnlar tarkibida ma'lum bir madaniyatda mavjud bo'lmagan leksik birliklar tarjima tilida uchramasligi bilan bog'liq bo'lib, tarjimon uchun bunday leksik birliklarni tarjima qilish masalasi muammodir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur maqolada G'aybulla Salomovning "Rus tilidan, o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir" nomli kitobi va B.Jo'raboyev, X.Mamadiyorovalarning "Sharq tillarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari" nomli maqolasi tahlili bilan tanishgan holda, tarjimada turli xalqlar madaniyatiga doir leksik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy haqida fikr yuritiladi.

B.Jo'raboyev, X.Mamadiyorovalar "Sharq tillarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari" nomli maqolasida tarjimadagi o'xshashlik va farqlar haqida fikr bildirar ekanlar, shunday deb yozganlar: "Rang tushunchasi o'zida ijtimoiy-madaniylik bilan birga, emotsional va hissiy omillarni ham o'zida aks ettiradi. Bizga ma'lumki, ranglar sovuq va issiq va, hattoki qaynoq ranglar guruhiga bo'linadi. Ranglar ko'rinishiga ko'ra ham ba'zi ramziy ma'nolarni anglatadi. Ingliz tilida ko'k rang alohida rang sifatida emas, qora rangning ochroq ko'rinishi hisoblanadi. Ingliz tilidagi "to be blue in face" va "to be black in face" rus tilida "побелетьотзлости", o'zbek tilida "g'azabdan ko'karib ketish" iboralari orqali ifoda etiladi. Shubhasiz, ranglar har bir xalq madaniyatida his-tuyg'ularni ifodalash vositasi hisoblanadi va badiiy adabiyotda ma'no ta'sirchanligini oshirish maqsadida keng foydalaniladi. Bunday iboralardan foydalanish o'z navbatida, o'quvchiga ham kerakli darajada emotsional ta'sir qila olish kuchiga egadir" [1;546-b.]. Shuningdek, turli xalqlar madaniyatiga doir o'xshashlik va farqlar borasida G'.Salomov quyidagi fikrlarni bildirgan: "Agar biron o'zbek yozuvchisi o'zi tasvirlayotgan qizning go'zalligini obrazli qilib ko'rsatish maqsadida uni sigirga o'xshatsa, juda qo'pol tuyulishi turgan gap. Shuning uchun boshqa xalqlarda ham bu hayvon nomining go'zallik timsoli sifatida ko'rinishini tasavvur qilolmaymiz. Lekin amalda bunday emas. Juda ko'p hind shoirlarining asarlarida sigir obrazi nafosat, mehribonlik, buyuk, bitmas-tuganmas onalik mehr-muhabbatining timsoli sifatida talqin qilinadi" [2;30-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada chog'ishtirma metoddan foydalanildi. Mazkur metod ikkita bir-biriga qardosh bo'lmagan tillarni qiyoslashda qo'llanilib, unda, asosan, leksik birliklarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari tizimli ravishda taqqoslanadi. Leksik birliklarning qiyosiy tahlili Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani va uning ingliz tiliga Kerol Yermakova tomonidan "Abdulla Qadiri. Days Gone By" deb nomlangan tarjimasi, Mark Riz tomonidan esa "Abdullah Qodiriy. O'tkan kunlar (Bygone Days)" deb nomlangan shakli va I.M.Tukhtasinov, O.M.Muminov, A.A.Khamidovlar tomonidan qilingan "Abdulla Qodiriy. The Days Gone By" nomli tarjima variantlari asosida amalga oshiriladi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tili madaniyatida his-hayajonni ifodalashda ranglarning o'rni beqiyosdir. Misol uchun, "oq" rang biror narsadan cho'chiganda qo'rqish belgisini ifodalab, "yuzi oqarib ketmoq" iborasida kelsa, qizil rang esa "uyalish", shuningdek, kishi kasal bo'lganda "isitma" belgisi sanaladi. Ushbu ranglarning his-hayajonni ifodalab kelganiga, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan misol keltirish mumkin. Bunda muallifning asliyat matnida qahramonlar his-tuyg'ularini ifoda etishda ranglardan mohirona foydalanilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Quyidagi jumla bunga misoldir: "*Otabek qip-qizil qizarib gunohkorlardek yerga qarag'an edi*" [3;26-b.]. Bu yerda "qizil" rangi "uyalish" ma'nosida qo'llanilgan. Aslida, yuzning qizil rangga kirishi o'zbek tilida "kasal" bo'lganda, "isitmalaganda" ham kuzatilishi yuqorida aytib o'tilgan edi. Ammo asliyat matnida gap aynan *uyalishning qizil* rang orqali ifodalanishi haqida

bo'lib, u asliyatning pragmatik xususiyatini aks ettirib kelgan. Bu jumlaning Kerol Yermakova *Otabek blushed* deb o'g'irgan [4;30-b.]. Keyingi tarjimonimiz Mark Riz ham tarjimada *Otabek blushed* degan jumlaning bergan [5;46-b.]. O'zbek tarjimonlari I.M.Tukhtasinov, O.M.Muminov, A.A.Khamidovlar *Otabek's face became red* deb o'g'irishgan [6;28-b.].

Ingliz tilida *blush* fe'li *uyalish* (feel embarrassed or ashamed), *uyalganidan yonoqlari qizarmoq* (if you blush, your cheeks become red because you feel embarrassed or ashamed) degan ma'nolarni anglatadi. Demak, ingliz tilida uyalish hissi va bunda yonoqlarning qizarish belgisi bir so'z bilan, ya'ni *blush* fe'li bilan ifodalanar ekan. O'zbek tilida esa uyalish hissi yuzning qizil ranga kirishi bilan ifodalanib, uning alohida so'z shakli mavjud emas. Ya'ni, asliyat matnidagi "Otabek qip-qizil qizarib ..." jumlasining o'zi asliyat o'quvchisi uchun hech qanday qiyinchiliksiz uning "uyalganligini" bildiradi. Bu yerda faqat "qip-qizil qizarib" deyilgan, hech qanday "yuz" so'zi qo'llanilmagan. I.M.Tukhtasinov, O.M.Muminov, A.A.Khamidovlar esa tarjima matnida bu qizillikka aniqlik kiritish maqsadida *Otabek's face became red* deb o'g'irishgan va natijada tarjimada *face* so'zi qo'llanilib, tarjima tili o'quvchisi uchun matnning, ya'ni qahramonning "qip-qizil" qizarganligining mohiyati oydinlashtirilgan.

O'zbek tilida go'zallik timsoli sifatida hayvonlarga murojaat qilish holati uchramaydi. Go'zallikni, asosan, *malak, pari* kabi so'zlar bilan ifodalashadi. *Malak* so'zi *farishta, go'zal ayol, nozanin* degan ma'nolarni anglatadi, "pari" esa *go'zal ayol, yaxshilik qiluvchi ruh* degan ma'nolarni anglatib, bu so'z sharq xalqlari folklorlarida keng tarqalgan va u juda go'zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinlardan saqlaydigan afsonaviy obraz, go'zallik ramzi hisoblanadi. Hatto bu so'z xalq ijodi bo'lmish maqol tarkibida ham qo'llanilgan: "qari bilganini pari bilmas". "O'tkan kunlar" romanida ham go'zal janonni *malak* deb atash holati uchragan bo'lib, quyida uning asliyat matni va ingliz tili tarjima variantlarida berilgan ekvivalentlarini ko'rishimiz mumkin: *Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi – Kumushbibi edi.* (Abdulla Qodiriy). *This angel in the form of a girl is Kutidor's daughter, Kumush-bibi* (Kerol Yermakova). *This belle, the very picture of a maiden angel, is the daughter of Qutidor – Kumush Bibi* (Mark Riz). *"This Angel, embodied in the image of the girl was Qutidor's daughter – Kumush Bibi* (I.M.Tukhtasinov, O.M.Muminov, A.A.Khamidov). Tarjima variantlarida *malak* so'zi *angel* va *belle* so'zlari orqali o'z muqobil shaklini topgan. Ingliz tilida *angel – a spirit that in some religions is believed to live in heaven with God, someone who is very kind, very good, or very beautiful* degan ma'nolarida asosan "*farishta, go'zal, mehribon* deb tarjima qilinsa, *belle* so'zi *a very beautiful girl or woman* degan ma'noda *chiroyli qiz yoki ayol* degan ta'rifga ega. Ko'rinib turibdiki, asliyat matnidagi ayollarga nisbatan qo'llanilgan ta'rif tarjima variantlarida ancha uddaburonlik bilan o'girilgan va tarjimada asliyat matni huddi o'z jozibasini, milliyligini saqlagan holda namoyon bo'lgandek go'yo. Chunki o'zbek xalqida qizni malakka, ya'ni, uning chiroyni ifodalagan holda, pokiza farishtaga qiyoslanishi ingliz tilida uchramaydi. Tarjima matnida bu so'z shunchaki "beauty" so'zi orqali o'girilishi ham mumkin edi. Ammo bu holat asliyatdagi milliy bo'yqordorlikning xiralashishiga sabab bo'lishi mumkin. Aynan shu milliylikni, jozibani saqlash maqsadida tarjimonlar *malak* so'zining aynan o'z muqobillarini uddaburonlik bilan bera olishgan.

Demak, har bir xalq o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, biron narsa yoki hodisaning obrazli asosiga qanday hayvon yoki parrandaning nomini qabul qilishiga turlicha yondashar ekan. Bu holat esa dunyo xalqlari orasidagi madaniy tafovutlar bilan bog'liq bo'lgani holda, turli millat vakillari dunyoni o'z qarashlari asosida tasavvur etishini anglatadi. Bugungi kunda bunday lisoniy tafovutlar lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib tarjimada, turli xalqlar madaniyatiga tegishli bo'lgan leksik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari borasida quyidagi fikrlarga kelish mumkin:

– turli xalqlar madaniyatiga tegishli leksik birliklar tarjimasi va ularning qiyosiy tahlili tarjimaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi;

– xalq madaniyati til orqali verballashib, aynan til madaniyatning tayanchi hisoblansa, har bir xalq tilida aks etgan madaniyatni boshqa tilga o'girish, bu jarayonda yuzaga keladigan madaniyatlararo tafovutlarga yechim topish tarjimaning mashaqqatli yo'li sanaladi;

– inson ko'z o'ngida aks etgan voqea-hodisalarni madaniyat orqali ongiga singdirishga harakat qiladi. Shunday ekan, tarjimon turli xalqlar madaniyatida uchraydigan leksik birliklarni o'quvchiga tushunarli tilda yetkazib berish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Jo'raboyev B., Mamadiyorova X. Sharq tillarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari; [www.Scientificprogress.uz](http://www.Scientificprogress.uz). Volume 2/Issue 2/2021. ISSN: 2181, 1601, 546-bet.

- [2]. Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. T., 1961, 30-bet.
- [3]. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Roman. "Sharq", Toshkent, 2018, 26-bet.
- [4]. Abdulla Qadiri. Days Gone By. Translated by Carol Ermakova. Karimov foundation. Nouveau Monde editions, 2018, Paris, 30 p.
- [5]. Abdullah Qodiriy. O'tkan kunlar (Bygone Days). Translated by Mark Reese. Published by Muloqot Cultural Engagement Program. Nashville TN. 2018, 46 p.
- [6]. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A. Abdulla Qodiriy. The Days Gone By. Novel. T., «Mashhur-Press», 2017, 28 p.

**Batirxanova Madina Oybekovna (Farg'ona davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph.D); e-mail: [mbatirxanova@mail.ru](mailto:mbatirxanova@mail.ru))**

## **SOMATIK FRAZELOGIZMLAR TARJIMASIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola somatik frazeologik birliklarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu bizga o'zbek, rus va ingliz tillarida ularning asosiy omillarini ochib berish imkonini beradi. Biz tadqiqotimiz davomida somatik frazeologizmlarga alohida e'tibor qaratib, bu birliklar tadqiqiga turli aspektda yondashishga harakat qildik. Ishda somatik frazeologik birliklar (bundan keyin SFB) boshqa frazeologik birlik (bundan keyin FB)lardan eng ko'p uchraydiganlari sifatida talqin etildi. Muammoning dolzarbligi quyidagi omillar bilan isbotlanadi: uning turli til darajalarida qo'llanish salohiyati: somatik frazeologik birliklarning tabiatini aniqlash uchun ushbu hodisaning ahamiyati: har qanday xalq madaniyatining til ildizlari omilini aniqlash. Ushbu ishning maqsadi somatik birliklarni o'rganish hamda ularning o'zbek, rus va ingliz tillarida o'xshash va farqli tomonlarini topishdan iborat. Somatik frazeologiyaning o'ziga xos xususiyati tillarda so'z birikmalarining majoziy yo'nalishi bo'yicha juda yaqin bo'lgan ko'plab o'xshashliklarning mavjudligidir. Bu xususiyat SFB larni boshqa tematik guruhlaridan keskin ajratib turadi. Tana a'zolari nomlarining FB larda qo'llanishi shu bilan izohlanadiki, yangi predmetni nomlashda shaxs, birinchi navbatda, o'zi bilgan va tanish bo'lgan narsa bilan assotsiatsiyaga asoslanadi. Avvalo, odam o'zi bilan o'zini, tanasining qismlarini esa o'zini o'rab turgan narsalar bilan solishtiradi. Ikki yoki undan ortiq tillarning FB larini o'rganish va taqqoslash turli xalqlar madaniyati va mentalitetining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ba'zan ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar tafakkuridagi farqlarni aniqlash ham mumkin. Tadqiqotimizda taqqoslanayotgan tillar uchun xos bo'lgan tarixiy parallelliklar ham aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** somatik iboralar, frazeologik birliklar, somatik frazeologizm, madaniy kod, ekspressivlik, konseptual, emotsional, potensial, bo'yoqdorlik, konnotativ ma'no, lingvomadaniy, madaniyatshunoslik.

## **ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ**

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению соматических фразеологизмов, что позволяет выявить их основные факторы в узбекском, русском и английском языках. В ходе нашего исследования мы уделили особое внимание соматической фразеологии и попытались подойти к изучению этих единиц с разных сторон. В работе соматические фразеологизмы (далее ФЭ) интерпретировались как наиболее распространенные из других фразеологизмов (далее ФЕ). Актуальность проблемы доказывают следующие факторы: ее возможность использования на разных языковых уровнях; значимость этого явления для определения характера соматических фразеологизмов: определяющий фактор языковых корней любой народной культуры. Целью данной работы является изучение соматических единиц и выявление их сходства и различия в узбекском, русском и английском языках. В нашем исследовании также были выявлены исторические параллели, характерные для сравниваемых языков.

**Ключевые слова:** соматические выражения, фразеологизмы, соматический фразеологизм, культурный код, экспрессивность, эмоциональный, потенциальный, окраска, коннотативное значение, лингвокультурология, культурология.

## **FEATURES OF TRANSLATION OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS**

**Annotation.** This article is dedicated to the study of somatic phraseological units, which allows us to identify their main factors in the Uzbek, Russian and English languages. In the course of our study, we paid special attention to somatic phraseology and tried to approach the study of these units from different sides. In the paper, somatic phraseological units (hereafter, PhU) were interpreted as the most common of other phraseological units (hereafter, PhU). The relevance of the problem is proved by the following factors: its possibility to be used at different linguistic levels; the significance of this phenomenon in determi-



*ning the nature of somatic phraseological units: the determining factor of the linguistic roots of any folk culture. The purpose of this paper is to study somatic units and identify their similarities and differences in Uzbek, Russian and English. A distinctive feature of somatic phraseology is the presence of many similarities in the figurative orientation of collocations in the languages. This feature sharply distinguishes SPhU from other thematic groups. Our study also revealed historical parallels characteristic of the languages being compared.*

**Key words:** somatic expressions, phraseological units, somatic phraseologism, cultural code, expressiveness, conceptual, emotional, potential, coloring, connotative meaning, linguistic and cultural, cultural studies.

**Taqrizchi FarDU dotsenti, p.f.n. G.Davlyatova**

**Kirish.** Ma'lumki, har qaysi tilda somatik frazeologizmlar tilshunoslikning alohida sohasi sifatida o'z mavqeyiga ega bo'lib, tilning lug'at boyligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tana a'zolarining nomlari FBlar yasalishida eng ko'p ishtirok etuvchi leksemalardan hisoblanadi. SFBllarning o'ziga xos xususiyati tillarda so'z birikmalarining majoziy yo'nalishi bo'yicha juda yaqin bo'lgan ko'plab o'xshashlarining mavjudligidadir. Bu xususiyat SFBllarni FBlarning boshqa tematik guruhlari-dan keskin ajratib turadi. "Somatizm" termini ilk bora tilshunoslikka fin olimi F.Vakk tomonidan kiritilgan bo'lib, soma – yunoncha so'z bo'lib, "tana", "badan" degan ma'nolarni anglatib, "somatik frazeologizm" tarkibida inson hamda hayvon tana a'zolari bilan nomlangan frazeologik birikmalar sifatida somatik frazeologik birikma deb nomlanadi. F.Vakk "somatik frazeologizm" tarkibiga inson va hayvon tanasi a'zolari nomi bo'lgan, shuningdek, ish-harakat hamda imo-ishoralarni ifodalovchi turg'un so'z birikmalarini ham kiritadi [5].

Somatizm XX asr oxirlaridan chuqur o'rganila boshladi. Somatizm komponentli FB yetakchi yoki muhim komponenti nafaqat tananing tashqi jismoniy shakllarini (bosh, qo'l, burun va boshqalar), balki uning elementlarini ham anglatuvchi so'z bo'lgan FB sifatida tushuniladi, yurak-qon tomir, asab va boshqa tizimlar (qon, taloq, miya, jigar va boshqalar) ham shular jumlasidandir. Somatik frazeologiyaning o'ziga xos xususiyati tillarda so'z birikmalarining majoziy yo'nalishi bo'yicha juda yaqin bo'lgan ko'plab o'xshashliklarning mavjudligidir. Bu xususiyat SFBllarni boshqa tematik guruhlari-dan keskin ajratib turadi. Tana a'zolari nomlarining FBlarda qo'llanishi shu bilan izohlanadiki, yangi predmetni nomlashda shaxs, birinchi navbatda, o'zi bilgan va tanish bo'lgan narsa bilan assotsiatsiyaga asoslanadi. Avvalo, odam o'zi bilan o'zini, tanasining qismlarini esa o'zini o'rab turgan narsalar bilan solishtiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Rus tilshunosligida "somatik frazeologizm" atamasi birinchi marta inson tana a'zolari nomlari bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlarni tadqiq etgan olim E.M.Mordkovichning maqolasida ta'riflanadi [11]. Keyingi yillarda somatik frazeologizmlar qiyosiy planda turli tizim-dagi tillar doirasida o'rganildi. Bu o'rinda E.M.Mordkovich, V.N.Teliya, V.A.Maslova, A.V.Projilov, Y.N.Belaya, O.Nazarov, V.S.Danilov, N.V.Kunitskaya, V.V.Lamova, V.Vayntraub kabi olimlarning tadqiqotlarida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi [15].

SFBllar bo'yicha salmoqli tadqiqotlarda rus tilshunosligidagi FBlar boshqa ko'plab dunyo tillarining biliklari bilan chog'ishtirib tadqiq etildi. Bir qancha tilshunos olimlar somatik FBlarni uch til asosida qiyosiy aspektda o'rgandilar. Qolaversa, J.X.Gergokova 2004-yilda himoya qilgan nomzodlik dissertatsiyasida qorachoy-bolqor, ingliz va rus tillaridagi «inson» tushunchasining frazeologik konseptuallashuvi jarayonini qiyosiy metod asosida bir-biridan farqlab berdi [12]. Tarjima nazariyasi borasida ingliz tarjimashunoslari T.Sevori, J.Ketford olib borgan tadqiqotlar e'tiborga loyiq. Tarjima sifatini baholash jarayonida ko'p hollarda muqobillik darajasiga katta ahamiyat beriladi. Tarjima nazariyasida muqobillik darajalarini aniqlash borasida ko'plab olimlar, jumladan, A.Fyodorov, Retsker, Ketford, Gak, Yeger va boshqalarning qarashlari mavjud [10].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Somatik frazeologik iboralar insonning ongi pastligi, nodonligini ifodalaydi, lekin har qaysi tilda ular o'zgacha ta'riflanadi. Biz bularning tarjimasida analogik tarjima usulidan foydalandik. Har qaysi tilda turli FBlar bitta ma'no bildirishi mumkin. Shuni e'tiborga olgan holda, biz bit-ta tildan ikkinchisiga tarjima qilishda ikkinchi tilda mazkur ma'noni anglatadigan FBni qidirishga harakat qilib ko'rdik. Ko'rinib turibdiki, bosh komponentli somatik ibora ingliz, rus va o'zbek tillarida turlicha "madaniy kodlar" bilan birlashib keladi. Bu o'rinda ma'nolar, "madaniy kodlar" deyarli bir xil, lekin komponentlar o'zgarib boradi. Har qaysi tilda insonning ongi past va aqli zaifligini somatik biomorfik kod ifodalaydi. Shu bilan birga, aytish mumkinki, somatik biomorfik kod bir xil bo'lsa-da, lekin komponentlari turlichaligi aynan millat mentaliteti bilan bog'liq masaladir. Albatta, agar biz kalka, ya'ni, so'zma-so'z tarjima qilish orqali ushbu somatik iboralarni ifodalasak, asl ma'no yo'qotilishi mumkin edi. Masalan, dubo-

vaya golova somatik frazeologik birligining eman daraxti kallali, archa kallali, bananli kalla yoki karam kalla kabi noqis tarjimasida vujudga kelishi mumkin edi. L.S.Barxudarov tarjimaning pragmatik jihatlari ko'rib chiqib, tarjimada asl nusxaning o'zgarishligi mumkin emasligini va "bu haqda faqat nisbiy ma'nodagi gapirish mumkin"ligini, "tarjimada yo'qotishlar muqarrar, ya'ni asl matnda ifodalangan ma'nolarning to'liq bo'lmagan uzatilishi kuzatiladi. Olim ana shu mulohazalari asosida "tarjima matni hech qachon asl matnning to'liq va mutlaq ekvivalenti bo'la olmaydi", degan mantiqiy xulosaga keladi.

Rus tilida xotiraning qisqaligi *kurinaya pamyat*, *devich'ya pamyat* SFB'larini orqali namoyon bo'ladi. *Девичья память* iborasi rus xalqida avvalgi vaqtlardan qolgan ibora bo'lib, qizlarning sevgan yigiti ketib qolishi bilan o'zlariga boshqa yigit topib olishini nazarda tutadi. Rus tilidagi ushbu iboraning o'zbek tiliga tarjimasida biz leksik bayon usulini taklif qilamiz: *qisqa xotirali* yoki *parishonxotir*. Chunki doimo ham iboralarga mos ibora topilavermaydi, aynan ushbu holatlarda ma'no asliyatdagi ma'noni saqlash uchun FB'ni leksik bayon orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir.

*Bir yostiqa bosh qo'ymoq, boshini ikki qilmoq* somatik frazeologik iboralari uchun biz ingliz tili lug'atlaridagi leksik va FB'lar sirasidan ingliz milliy madaniyatini tasvirlaydigan iboralarni analogli tarjima orqali berishga harakat qildik: *tie the knot, to get hitched, jump the hurdle, step off the carpet*. Rus tilida ushbu iboralarga muvofiq ibora topilmaganligi sababli, biz leksik tarjima orqali FB'ni *связать себя узми брака/пожениться* tarzida izohlaymiz.

Tadqiqotchilar FB'larining ekvivalentlarini aniqlashda ularning semantikasi, ichki shakli, frazeologik birliklarning tarkibiy qismi, grammatik aspektlari va tilning turli qatlamlarida qo'llanishiga ham e'tibor qaratganlar. Shuning uchun turli tizimli tillarda SFB'larining ekvivalentlik holatini o'rganish bevosita lingvokulturologiya bilan bog'liq, deyish mumkin. Xuddi shu tarzda Antonio Pami Betran etnik jihatdan o'ziga xos yoki madaniy deb ataladigan ko'plab majoziy ma'no anglatadigan birliklar mavjudligini va ularning xalq tiliga mansubligini ta'kidlaydi [16].

**Tahlil va natijalar.** Til va madaniyat uyg'unligi tufayli SFB'lar alohida ahamiyat kasb etadi. SFB'lar milliy olam manzarasini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatning milliy ongini belgilaydigan manzara ham bo'lib, olamning o'ziga xos ko'rinishini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillarining SFB'larida tillararo frazeologik ekvivalentlik darajasi ancha yuqoriligini ko'rish mumkin. Chunki ikkita milliy madaniyatning bir-biriga yaqinligi frazeologiyaning ekvivalentlik darajasini oshiradi [4].

Masalan, quyidagi somatik frazeologik iboralarda ikki tilga xos tushunchalar mavjud, shuning uchun har ikki tildagi somatik iboralar to'liq ekvivalent hisoblanadi: *синяя борода – blue beard; голубая кровь – blue blood; Ахиллесова пята – Achilles' heel; Дамоклов меч – sword of Damocles; Эзопов язык – Esop's tongue*. Ushbu SFB'larining etimologik jihatlari tahlil qiladigan bo'lsak, har bir idiomatik ifodaning kelib chiqishi bitta manbadandir, ya'ni diniy va mifologik adabiyotlardan olingan. Rus va ingliz xalqining xristian diniga e'tiqodi natijasida qadimiy Rim va Yunon afsonalari Yevropa xalqlarining tiliga bevosita ta'sir o'tkazganligi sababli, ushbu somatik iboralar har bir yevropa tillarida uchrashi bejiz emas. Aksariyat FB'lar Yevropa tillaridan, xususan, ingliz tilidan rus tiliga kirib kelib, xuddi shu ma'noni anglatadi. Bunday somatik frazeologik birliklar Yevropa tillaridan rus tiliga olinayotganda, kalka usuli orqali tarjima qilinib olib kiriladi. Lekin *bluetooth* iborasi kalka orqali emas, balki transliteratsiya usuli orqali olib kirilgan.

SFB'larining tarjimasida milliy tushunchalar mavjud bo'lib, uning asosida "kulturema" tushunchasi vujudga keldi. Lekin "kulturema" atamasi aslida tilshunoslikda emas, balki madaniyatshunoslik nazariyasida shakllangan bo'lib, ilk bor S.Lem tomonidan taklif qilingan. "Cultureme" atamasi frantsuz sotsiologi Abraham Moles tomonidan 1973-yilda fanga kiritilgan V.Gak kulturemani lisoniy ifodaga ega madaniyat ramzi sifatida talqin etgan bo'lsa [7;8-b.], A.Vejbitskaya til sathlarining o'zaro birligi sifatida izohlab, uning shakli til va ramzlarning birikuvidan iborat bo'lib, mundarijasi esa tildagi ma'no va madaniyat uyg'unlashuvini nazarda tutadi [17].

Aynan madaniyatga taalluqli hamda islom dini bilan bog'liq *kulturemalar* o'zbek tilining o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Kulturemalar bir tildan ikkinchi tilga oson va hech bir to'siqlarsiz o'zlashtirilishi mumkin.

*Qora suyak* iborasi o'zbek tilida odamning past tabaqaga mansubligini ifodalaydi, lekin bu iboraga muvofiq ibora na ingliz tilida, na rus tilida topilmadi, shuning uchun biz ham bu ibora uchun rus tilidagi ayrim adabiyotlarda keltirilgan *chern* so'zini qo'llashni ma'qul topdik. Ingliz tilida ushbu iborani turli leksik birliklar orqali ifodalash mumkin.

"Madaniy kodlar"ga taalluqli sifatni ifodalovchi SFB'lar uchta tilde ham talaygina, bularning tarjimasida xususida to'xtalishni lozim deb topmadik, chunki ushbu "madaniy kod"ga taalluqli SFB'lar kalkalash orqali oson tarjima qilinishi mumkin va kalka usuli har bir tilda ushbu FB'larining xususiyatini saqlab qoladi.

FBlar tarjimasidagi pragmatik muvofiqliklarning asosiy 3 turi quyidagilar:

1. To'liq mos kelish: *boshini yo'qotmoq – терять голову – to lose one's head.*
2. Qisman mos kelish: *bir qarich til – длинный язык – long tongue; товух мия – куриные мозги – bird brain/sparrow brain.*

3. Butunlay mos kelmaslik: *ko'z(i) yorimoq – родить – give birth.*

Asliyat tilidagi matnni tarjima tiliga o'girishda pragmatik omillarni hisobga olish zarurati xorijiy til frazeologizmlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ingliz va rus tillaridagi FBlarning aksariyati kalka orqali olingan. Lekin ayrim holatda ingliz yoki rus xalqining milliy udumlarini boshqa tillarga yetkazishda tarjimaning boshqa usullari ham qo'llaniladi. Masalan, *ветер в голове* FBning ingliz tiliagi *mush for brains, scatterbrain* analogli tarjimasida orqali rus va ingliz xalqlarining mushtarak mentaliteti ifoda etilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, SFBllarning qiyosiy tadqiqida va ularning tarjima masalalarida ingliz va rus tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilishda eng ko'p tarqalgan usul bu ekvivalentlik, keyingi o'rinda esa analogli tarjima usulidir. Ekvivalentli va analogli tarjima usullari ibora ma'nosini ifoda etmasa, tasvirli izoh va leksik bayon tarjima usullaridan foydalanish mumkin. Ingliz tilidan rus tiliga tarjima jarayonida biz ko'proq kalkalash, ekvivalentlik va analogli tarjima usullarini qo'lladik. Ingliz va rus xalqlari dunyoqarashi va ularda olamning milliy manzarasining deyarli bir xilligi tarjima jarayonida muammolarni vujudga keltirmadi. Lekin ingliz va o'zbek tillari turli tizimdagi tillar bo'lib, o'zbek va ingliz xalqlarining mentaliteti va olamning milliy manzarasida katta farq kuzatiladi, shuning uchun bu tillarda kalka usuli bilan iboralarni o'girish o'zini oqlamadi, chunki kalkalash iboralar asl mohiyatini to'liq ko'rsata olmadi. Ingliz xalqining dunyoqarashi, milliyliigi, o'ziga xosligi ushbu xalqning ma'naviy va madaniy lisoniy merosida saqlanib, iboralarda jamlanadi. Tabiiyki, kalka usuli turli tushunmovchiliklarga olib kelishi ham mumkin edi. Bu o'rinda tasvirli izoh va leksik bayon tarjima usullaridan foydalanish ancha samarali bo'ladi. Aytish mumkinki, tarjimada tasvirli izoh hamda leksik bayondan foydalanar ekanmiz, bunda iboralar konnotatsiyalari, FBlar berayotgan ekspressivlik, emotsionallik butunlay yo'qoladi va tilning frazeologik qatlami orqali emas, balki leksik qatlam orqali ifodalash zaruriyati kelib chiqadi. Bunda, albatta, iboralar asl ma'nosining boshqa tilda ta'riflanish imkoniyati bo'ladi, lekin iboralarga xos milliy xususiyat aks etmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Абдурахимов М. Кискача ўзбекча-русча фразеологик луғат. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980, 183-бет.
- (2). Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). Монография, М., “Международ. отношения”, 1975, с. 240.
- (3). Баранова Л.Ф. Структурно-семантические соотношения английской и русской фразеологии (на материале произведений Джеймса Олдриджа и их переводов на русский язык). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Ленинград, 1970, с. 14.
- (4). Бессонова Л.А., Кожемяченко Е.В. Соматические фразеологизмы и их роль в создании языковой картины мира (на примере русского и английского языков). Минск, 2021, с. 4.
- (5). Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол.наук, Таллин, 1964, с. 23.
- (6). Газиёва С., Узбеков А. Таржиманинг лингвокультурологик муаммолари. Science and Education. Т., 2020, №4, 118-бет.
- (7). Гак В.Г. Прагматика и языковое варьирование. Языковые преобразования. М., 1998, с. 554 – 586.
- (8). Гак В.Г. Языковые преобразования. Москва, 1988, с. 139.
- (9). Добровольский Д.О., Пирайнен Э. Образный язык: межкультурные и типологические аспекты. М., 2005, с. 219.
- (10). Фёдоров А.И. Фразеологический словарь русского литературного языка. Около 13000 фразеологических единиц. 3-е издание, исправленное. 2-е издание, однотомное, стереотипное. М., АСТ–Астрель, 2001, с. 181.
- (11). Мордкович Э.М. Соматические фразеологизмы белорусского языка, не имеющие эквивалентов в русском языке Текст. Вопросы русской филологии. Тезисы докл. IV научно-теоретической конференции. Самарканд, 1970.
- (12). Рашидова У. Соматик фраземаларнинг тилшуносликда ўрганилиш тарихига доир. Автореф. дисс. ... канд. филол. фан., Тошкент, 2016, 75-бет.
- (13). Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Россия, 1974, с. 115.
- (14). Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность. Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. М., “Международ. отношения”, 1978, с. 137 – 156.
- (15). Шабанов Ж., Шабанова С.Д. “Соматизмлар иштирок этган ибораларнинг замонавий тилшуносликда ўрганиш масалалари”. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №4, 2018, 3-бет.

(16). Pamies Antonio Pamies-Bertran. "Zoo-Symbolism and Metaphoric Competence "Research on Phra-seology in Europe and Asia. Focal Issues of Phraseological Studies. University of Bialystok, 2011, p. 308.

(17). Wierzbicka A. Boys Will Be Boys: Radical Semantics vs. Radical Pragmatics. Language, 1987, p. 95–114.

**Yusupova Tatyana Eduardovna (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali "O'zbek tili va adabiyoti, tillar" kafedrasida o'qituvchisi)**

## **RUS VA O'ZBEK TILLARIDA SHIFOBAXSH O'SIMLIK NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI**

*Аннотация. Ushbu maqolada rus va o'zbek tillarida shifobaxsh o'simliklarning leksik-semantik xususiyatlari tadqiq qilingan bo'lib, ularning leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish, va o'z navbatida ushbu guruhlarini yana kichik guruhlariga bo'linishi to'g'risida fikr yuritiladi.*

*Калит so'zlar: fitonimlar, leksik-semantik guruhlar, shifobaxsh o'simliklar, til, tarix, onomatika.*

### **ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

*Аннотация. В данной статье рассматриваются лексико-семантические свойства названий целебных растений в русском и узбекском языках, изучаются их разделения на лексико-семантические группы, которые, в свою очередь, подразделяются на более мелкие группы.*

*Ключевые слова: фитонимы, лексико-семантические группы, целебные растения, язык, история, онomatika.*

### **LEXICO-SEMANTIC ANALYSIS OF THE NAMES OF MEDICINAL PLANTS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES**

*Annotation. This article examines the lexical-semantic properties of medicinal plants in the Russian and Uzbek languages, studying the divisions into lexical-semantic groups, which in turn are divided into subgroups.*

*Key words: phytonyms, lexical-semantic groups, medicinal plants, language, history, onomastics.*

**Kirish.** O'simliklar olami tabiat boyliklaridan biri sanaladi. Eramizdan oldingi davrlardan boshlab, turlicha bo'lgan o'simliklar dunyosi va ularning xosiyatini bilishga qilingan harakatni kuzatish hamda shifobaxsh o'simliklardan turli xil maqsadlarda, ayniqsa, kasalliklarni davolash uchun foydalanishgani bizga ma'lum [5].

Zamonaviy tilshunoslikda shifobaxsh o'simlik leksemalarining o'rganilishi amaliy va nazariy bilimlarni umumlashtirgan holda, ularni tahlil qilishda turli madaniyatlar, me'yoriy va metodik ishlar qo'llaniladi. Shifobaxsh o'simliklarni lingvistik tadqiq qilishda leksikografik va terminologik ma'lumotlardan foydalaniladi, boshqa sohalarida esa laboratoriya ishlarini amalga oshirish zarur [2].

**Adabiyotlar tahlili.** Rus fitonimlarini etnobotanik, terminologik, semantik, leksikografik jihatdan batafsil o'rganish muammolari V.B.Kolosova, S.Y.Dubrovina, A.M.Letova va T.V.Soy tadqiqot ishlarida nazariy va amaliy o'rganilgan bo'lib, o'zbek tilshunosligida K.Musayev, A.Jarimbetov O.Bobokolonov kabi olimlarning turkiy tillardagi shifobaxsh o'simlik nomlarini o'rganishlari katta ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishimiz davomida rus va o'zbek tillaridagi turli terminologik lug'atlar, ilmiy jurnallar, tarixiy, badiiy va folklor manbalaridan material sifatida foydalandik. Maqolaning mohiyatini aniqlashda leksik semantik va tarixiy-madaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlillar va natijalar.** Chog'ishtirma tillardagi sof so'zlar ma'lum bir miqdorni tashkil qiladi va ular orasida shifobaxsh o'simlik konseptini ifodalovchi etimologiyasi o'sha tilga bo'lgan so'zlar mavjud. Sof o'zbek so'zlarining tarkibi tarixan juda farq qiladi. Ular orasida hind-evropa qatlamiga mansub so'zlar bilan bir qatorda umumiy eron va tojik so'zlarini ham ko'rish mumkin. Asl o'zbek so'z o'zaklarining eng qadimgi qatlami tarixning oldingi davrida mavjud bo'lib, hind-yevropa umumlashmalariga borib taqaladi. Masalan, алаф – трава, вард (гул) – роза (цветок), сабза – зелень va o'nlab boshqa so'zlar tilning shu qatlamiga tegishli [1].

Chog'ishtirilayotgan tillarda shifobaxsh o'simlik tushunchasi bilan bog'liq leksik birliklar tuzilishi va lingvistik mansubligiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: arab tilidan o'zlashgan so'zlar, tojik va o'zbek tillarining assimilyatsiyasi, tojik tilidagi o'zlashmalarning o'zbek tilida, aksincha, o'zbek tilidagi o'zlashmalarning tojik tilida mavjudligi, lotin, yunon, rus va boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashgan so'zlar [6]. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, dunyo tillarining rivojlanish tarixida bir asrdan ortiq vaqt da-

vomida turli tillarga doimiy ta'sir ko'rsatgan va ularga so'zlarni muntazam ravishda uzatgan tilni topish kamdan-kam uchraydi.

Shifobaxsh o'simlik leksemalarini nomlash tamoyillari turli tizimli tillar doirasida o'rganish zaruriyatini umumiy tilshunoslik nominatsiyasining o'xshash va farqli lisoniy tasvirini yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarni qiyosiy o'rganish jarayonida ma'lumotlar jamlangan ilmiy izlanishlar rus va o'zbek tillari lug'at boyligini oshirish, ularni asoslash va statistikasini o'rganish obyekti sifatida turli o'zbek tilidagi ommabop lug'atlar asosida 515 ta va rus tilida esa 380 ta eng faol shifobaxsh o'imlik nomlari tahlili olib borildi.

Rus va o'zbek tillarida shifobaxsh o'simlik nomlarining leksik xususiyatlarini o'rganish jarayonida, ularning hosil bo'lishida ma'no ko'chishining metafora, metonimiya hodisasi orqali yasalishini uchratdik. Bunga misol qilib *bo'tako'z, qoncho'p, tomaqaymoq, otquloq, ittikanak, tillabosh* va boshqa o'simlik nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Rus tilida esa *пятыпалечная трава, ятрышник, двузубец, остючки* leksemalarini ko'rsatishimiz mumkin. Ikkala tilda ham metafora orqali so'z yasalishi ot so'z turkumi doirasida amalga oshirilgan. Ko'rinadiki, rus va o'zbek tillarida metafora asosida ma'no ko'chishi metonimiyaga qaraganda ancha faol hisoblanadi.

Metonimiya asosida nom ko'chishida predmetlar, belgilar va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asos bo'ladi. O'zbek tilida *g'o'zapro'choq, chechak* leksemalari metonimiya asosida hosil bo'lgan. *Ильинская трава, Иисуса Христа копье, иванские венчики, горюцвет кукушкин* leksemalarini metonimiya asosida hosil bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, har ikkala tilda ham shifobaxsh o'simlik nomlari leksik xususiyatlariga, asosan, tur, turkum, oil aba boshqa birliklarning nomini shakllanishida bir-biridan tafovut qiladi. Rus va o'zbek tillarida tadqiq qilinayotgan leksemalar bir so'z turkumi doirasida hamda, har xil so'z turkumi doirasida ham birlasha oladi.

O'zbek tilining shifobaxsh o'simliklar lug'at boyligi, asosan, ichki va tashqi manbalar asosida shakllangan. Leksikaning so'z o'zlashtirilishi asosida taraqqiy etishi bilan birga, o'zbek tilida mazkur terminologiya boshqa tillardan so'z o'zlashtirilishi yo'li bilan boyib borishi imkoniyatlari rus tiliga qaraganda ancha kengligi kuzatildi.

Rus tilidan turli so'zlar bilan bir qatorda, shifobaxsh o'simlik konseptlarini ifodalovchi so'zlar asta-sekin o'zbek tillariga kirib kelgan. Masalan: *семиренко, нарцисс, банан, мандарин, земляника, малина, абрикос* va boshqalar. Umuman olganda, rus tilidagi so'zlar turli faoliyat sohalarida va kundalik hayotda odamlar hayotiga kirib kelgan yangi tushunchalarning ifodasi sifatida ishlatiladi. Ba'zi ilmiy manbalarning ko'rsatishicha, bunday sohalarining soni juda ko'p. Shuningdek, rus va o'zbek tillaridagi shifobaxsh o'simlik nomlarini ularning tuzilishi, o'sish sharoiti, hayotiy shakllariga ko'ra ayrim narsalarga o'xshashiga qarab to'rtta turga bo'linishini batafsilroq ochib berishga harakat qilamiz:

1. Daraxtsimon o'simliklar – poyasi yog'ochlashgan, ya'ni, bitta yo'g'on tanali, baquvvat ildizli va keng shox-shabbali, baland bo'yi ko'p yillik o'simliklar hisoblanadi.

2. Butasimon o'simliklar – tanasi yog'ochli, bo'yi 2–3 metrdan oshmaydigan bir yoki bir nechta poya hosil qiluvchi, sershox ko'p yillik o'simliklardir. Bu turdagi shifobaxsh o'simliklarga o'zbek tilida *anor, atirgul, na'matak, patloq, sano, katta ituzum, pista, chakanda, cherkez, rus tilida малина, эфедра, смородина, черкез, аморфа* kabi butasimon o'simliklar kiradi.

Yarimbutasimon shifobaxsh o'simliklar tanasining yuqori qismini qish faslida sovuq urgan ko'p yillik o'simliklar tashkil qiladi. Ular, asosan, biz cho'llarda uchratishimiz mumkin bo'lib, bu o'simliklardan odamlar yem-xashak sifatida foydalaniladi. Yarimbutasimon o'simliklarga *izen, keyreuk, teresken, sarsazan, shuvoq* singari o'simliklar kiradi.

O'tsimon o'simliklar – daraxtsimon, butasimon o'simliklardan poyasining yupqa va ingichkaligi bilan ajralib turuvchi o'simliklardir. Ularning hammasi yashash umriga ko'ra, bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik o'simliklarga bo'linadi. Shuningdek, o'tsimon o'simliklar boshqa turdagi o'simliklarga qaraganda ko'plab uchraydi.

**Xulosa.** Shifobaxsh o'simliklar konseptining leksik-semantik xususiyatlari to'grisida olib borilgan izlanishlar natijalariga ko'ra, shunday xulosaga keladiki, o'simlik nomlarining har xil turlarini ifodalash uchun turli iboralar va atamalar qo'llaniladi, ularda asosiy so'z o'simliklarning o'zi hisoblanadi.

Shifobaxsh o'simlik nomlari tilshunoslikda turli shaklda, ya'ni, tub so'z, yasama so'z, qo'shma so'z, va so'z birikmasi, shuningdek, boshqa tillardan o'zlashgan atamalar holatida uchraydi va xilma-xil maqsadlarda qo'llaniladi. Bu esa ushbu leksemalarni qo'llovchilar orasida ayrim tushunmovchiliklar keltirib chiqaradi, dorilar tarkibini yoritishda, o'simliklarni bir-biridan farqlashda tushunarsiz lotin tilidan foydalanishga majbur bo'linadi. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun ilmiy izlanuvchilar, tilshunos olimlar tomoni-

dan tizimli ravishda shifobaxsh o‘simlik nomlari tadqiq etilib, ularning ilmiy asoslarini, atamalarga oid lug‘atlar va elektron ilovalarini yaratish zarurati yaqqol ko‘zga tashlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Bobokalonov, O. (2020). Linguo-Cultural Peculiarities of the Phraseological Units with Pharmacophony Components. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 23(2), p. 232–235.
- (2). Bobokalonov, R.O. (2021. March). International medical terms from French to Uzbek language. In *E-Conference Globe*, pp. 136–144.
- (3). Ostonovich, O.B. (2020). Specific features of phraseological units. *International Journal on Integrated Education*, 3 (11), p. 192–195.
- (4). Ли Минь, Ткаченко К.Г., Цицилин А.Н. и др. Изучение и применение традиционных китайских лекарственных средств в России: история и современность. В кн.: Идентификация лекарственного сырья китайской медицины. Атлас-определитель. Ред.: Чжао Чжунчжэнь, Чэнь Хубяо. СПб., Издательство СПбГУ, 2021, VII–XXXVI.
- (5). Нугуманова А.А. К вопросу о происхождении метафор. *Вестник Башкирск. ун-та*. 2008, 13 (2).
- (6). Строев Ю.И., Чурилов Л.П. (под ред.). Системная патология соединительной ткани. Руководство для врачей. СПб., ЭЛБИ-СПб, 2014.
- (7). Федотов В.Д. сост. Большой словарь медицинских терминов. М., Центрполиграф, 2007.
- (8). Фоули Р. Еще один неповторимый вид. Пер. с англ., М., “Мир”, 1990.
- (9). Чурилов Л.П., Колобов А.В., Строев Ю.И. ред.-сост., и др. Толковый словарь избранных медицинских терминов (эпонимы и образные выражения). СПб., “ЭЛБИ-СПб”, 2010.
- (10). Чурилов Л.П. Общая патофизиология с основами иммунопатологии. Изд. 5-е, СПб., Медиздат, СПб, 2020.

#### **Karimova Zuxra Shamsiddin qizi (Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi; [kzuxra@mail.ru](mailto:kzuxra@mail.ru)) GIYOHVANDLIKNING IJTIMOIIY ILDIZLARI: YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR TARQALISHIGA YORDAM BERADIGAN IJTIMOIIY OMILLARNI O‘RGANISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola giyohvandlikning ijtimoiy ildizlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, yoshlar orasida giyohvand moddalar tarqalishiga yordam beradigan omillarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot yoshlar o‘rtasida giyohvand moddalarga qaramlikning shakllanishiga ta‘sir qiluvchi ijtimoiy muhitning turli jihatlarini ko‘rib chiqadi.*

***Kalit so‘zlar:** giyohvandlik, ijtimoiy ildizlar, yoshlar, giyohvand moddalarni tarqatish, ijtimoiy omillar, giyohvandlik, giyohvandlikning oldini olish.*

#### **СОЦИАЛЬНЫЕ КОРНИ НАРКОМАНИИ: ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ, СПОСОБСТВУЮЩИХ РАСПРОСТРАНЕНИЮ НАРКОТИКОВ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ**

***Аннотация.** Данная статья посвящена исследованию социальных корней наркомании, сфокусированных на выявлении и анализе факторов, способствующих распространению наркотиков среди молодежи. В ходе исследования рассматриваются различные аспекты социальной среды, влияющие на формирование пристрастий к наркотическим веществам среди молодежи.*

***Ключевые слова:** наркомания, социальные корни, молодежь, распространение наркотиков, социальные факторы, зависимость, профилактика наркомании.*

#### **SOCIAL ROOTS OF DRUG ADDICTION: THE STUDY OF SOCIAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE SPREAD OF DRUGS AMONG YOUNG PEOPLE**

***Annotation.** This article is dedicated to the study of the social roots of drug addiction, focused on the identification and analysis of factors contributing to the spread of drugs among young people. The study examines various aspects of the social environment that influence the formation of addictions to narcotic substances among young people.*

***Key words:** drug addiction, social roots, youth, drug distribution, social factors, addiction, drug addiction prevention.*

#### **Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida**

**Kirish.** Yoshlar orasida giyohvandlik muammosi zamonaviy jamiyat uchun katta qiyinchilik tug‘di. Bu ko‘plab oqibatlariga olib keladi, jumladan, sog‘ligining yomonlashishi, ijtimoiy tanazzul, jinoyatchilik va oilalarning yo‘q qilinishi. Giyohvandlikning ijtimoiy ildizlarini o‘rganish nafaqat uning tarqalish mexanizmlarini tushunishga imkon beradi, balki ushbu hodisaning oldini olish va davolash bo‘yicha sama-

rali choralarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi [1]. Yoshlar orasida giyohvandlikning asosiy ijtimoiy ildizlaridan biri iqtisodiy omillardir. Qashshoqlik, ishga joylashish istiqbollarning yetishmasligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning pastligi yoshlar giyohvand moddalarni iste'mol qilish orqali stress va hayotlarining salbiy tomonlarini engish yo'llarini izlayotgan zaif muhitni yaratishi mumkin.

Ijtimoiy muhit yoshlarning munosabati va qadriyatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tengdoshlarning salbiy ta'siri, giyohvand moddalarni ijtimoiy moslashuv yoki "mashhurlik" usuli sifatida qabul qilish yoshlarning giyohvandlik madaniyatining bir qismiga aylanishiga olib kelishi mumkin. Yoshlar, ko'pincha, o'qish, oilaviy muammolar yoki murakkab munosabatlar bilan bog'liq yuqori darajadagi stresslarga duch kelishadi. Giyohvandlikka bo'lgan ishtiyoq bu qiyinchiliklarni yengishga urinish sifatida qaralishi mumkin. Stressni boshqarishning yetarli mexanizmlarining yetishmasligi giyohvand moddalarga murojaat qilishga turtki bo'lishi mumkin. Zamonaviy mediatexnologiyalari va reklama, ko'pincha, giyohvand moddalarni iste'mol qilish imidjini idealizatsiya qiladi, bu esa yoshlarga ta'sir qilishi mumkin. Ommabop madaniy hodisalar, musiqa, filmlar va ijtimoiy tarmoqlar giyohvandlik turmush tarzining o'ziga xos stereotipini yaratadi, bu yoshlar uchun magnit bo'lishi mumkin.

Maktablarda va jamoat muassasalarida giyohvandlikning oldini olish bo'yicha samarali dasturlarning yetishmasligi ham ushbu hodisaning tarqalishiga yordam berishi mumkin [2]. Giyohvand moddalar to'g'risida ma'lumot va ta'limni rivojlantirish zarurati giyohvandlik xavfining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Yoshlar o'rtasida giyohvandlik muammosi turli ijtimoiy omillar bilan chuqur bog'langan ko'p qirrali muammodir. Giyohvandlikning ijtimoiy ildizlarini tushunish uchun ushbu muammoning murakkab tomonlarini yoritib beradigan mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish juda muhimdir. Ushbu adabiyotlarni ko'rib chiqish bo'limi yoshlar o'rtasida giyohvandlikka ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar bo'yicha oldingi tadqiqotlarning asosiy topilmalari haqida umumiy ma'lumot beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy holat doimiy ravishda yoshlar orasida giyohvandlikning muhim omili sifatida paydo bo'ldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, daromadi past bo'lgan yosh odamlar giyohvand moddalarni tarqatish va iste'mol qilishda ko'proq ishtirok etishadi (Luthar va D'Avanzo. 1999). Noqulay jamoalarda iqtisodiy imkoniyatlarning yo'qligi, ko'pincha, yoshlarni moliyaviy omon qolish vositasi sifatida giyohvand moddalar savdosiga undaydi.

Tengdoshlarning bosimi yoshlar orasida giyohvand moddalarni iste'mol qilishni boshlash va davom ettirishda markaziy rol o'ynaydi. O'smirlar va yoshlar o'z tengdoshlarining ta'siriga juda moyil bo'lib, ular giyohvand moddalar bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanadigan do'stlari bilan o'ralganida giyohvand moddalar bilan tajriba o'tkazish ehtimoli ko'proq (Borsari va Keri. 2001).

Yoshlarning giyohvandlikka ruju qo'yishiga oilaviy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolari o'rtasida giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish yoki e'tiborsizlik bilan tavsiflangan disfunktsional oila tuzilmalari yoshlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilish bilan kurashish mexanizmi sifatida jalb qilish ehtimolini oshirishi mumkin (Clark, Shamblen, Ringwalt va Hanley. 2012).

Depressiya, tashvish, travma va boshqa hissiy muammolar kabi ruhiy salomatlik muammolari, ko'pincha, yoshlar orasida giyohvandlik bilan birga keladi. Ba'zi yosh odamlar o'z-o'zini davolash va hissiy og'riqni engillashtirish usuli sifatida giyohvand moddalarga murojaat qilishadi (Begle va boshq. 2011).

Muayyan jamoalarda giyohvand moddalarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyati yoshlar orasida giyohvand moddalarni tarqatish va iste'mol qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Giyohvand moddalar sotuvchilari zichroq bo'lgan va giyohvand moddalarga kirish oson bo'lgan mahallalarda giyohvand moddalar bilan bog'liq muammolar yuqoriroq bo'ladi (Rozenbaum. 1981).

Tadqiqotlar, shuningdek, yoshlarning giyohvandlikka moyilligida gender va madaniy omillarning rolini ta'kidlaydi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, giyohvand moddalarni iste'mol qilishda gender farqlari mavjud bo'lib, erkaklar xavfli xatti-harakatlarga moyil bo'lishadi (Brecht va boshq. 2008). Bundan tashqari, madaniy me'yorlar va qadriyatlar giyohvand moddalarni iste'mol qilishga bo'lgan munosabatni shakllantirishi mumkin, bu odamning giyohvand moddalar bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanish ehtimoliga ta'sir qiladi (Nyalakanti va Roos. 2013).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy jamiyatda yoshlar o'rtasida giyohvandlik muammosi jamiyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biriga aylandi. Yoshlar orasida giyohvand moddalarning tarqalishi nafaqat yangi avlod sog'lig'iga putur yetkazadi, balki ijtimoiy tuzilmalar va iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi yoshlar intilayotgan bu qorong'u turmush tarzi giyohvandlikka qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun o'rganilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ildizlarga ega. Giyohvandlikning asosiy ijtimoiy ildizlaridan biri bu oilaviy sharoitlardir. Oilaviy qadriyatlarining rivojlanmaganligi, ota-onalarning

e'tiborining yetishmasligi, oiladagi zo'ravonlik va ajralishlar yoshlarning giyohvand moddalar bilan tasalli topishi uchun zarur shart-sharoit bo'lishi mumkin [3]. Giyohvand moddalar hissiy qiyinchiliklarni yengish va munosabatlardagi bo'shliqni to'ldirish usuli bo'lishi mumkin.

Giyohvand moddalar tarqalishiga yordam beradigan boshqa omillar qatorida ta'lim va ijtimoiy muhit ham muhimdir. Mavjud ta'limning yetishmasligi, ta'limni qo'llab-quvvatlashning past darajasi va martaba ko'tarilish istiqbollarning yetishmasligi yoshlarni hayotda tasalli va ma'no izlashda giyohvandlikka undashi mumkin. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish norma sifatida qabul qilinadigan muhit ham giyohvandlik xavfini oshiradi. Giyohvandlikning ijtimoiy ildizlarida iqtisodiy jihatlar ham rol o'ynaydi [4]. Qashshoqlikning yuqori darajasi, ish joylarining etishmasligi va munosib daromad olish istiqbollari yoshlarni noqonuniy yo'llarga, shu jumladan, giyohvand moddalar savdosiga jalb qilishga undashi mumkin. Iqtisodiy beqarorlik giyohvand moddalar ijtimoiy muammolardan "chiqish"ga aylanadigan vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ommaviy axborot vositalari va madaniy tendensiyalar ham yoshlarga giyohvand moddalarni tarqatish uchun javobgardir. Ba'zan filmlar, seriallar va qo'shiqlardagi qahramonlar giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar qiyofasida paydo bo'ladi, bu esa yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir qilib, noto'g'ri tushuncha va stereotiplarni shakllantirishi mumkin. Giyohvandlik muammosini hal qilish kompleks yondashuvni talab qiladi. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ta'lim tizimini takomillashtirish, qulay iqtisodiy muhitni yaratish va samarali profilaktika dasturlarini ishlab chiqish zarur [5]. Ommaviy axborot vositalari va jamoat tashabbuslari orqali sog'lom madaniy stereotiplarni shakllantirishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Yoshlar orasida giyohvandlikning ijtimoiy ildizlarini o'rganish ushbu hodisaning sabablarini yaxshiroq tushunishga va giyohvandlikka qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Jamiyat yoshlarni jamiyatda to'laqonli hayot kechirish istiqbollari va vositalari bilan ta'minlash uchun oila va ta'limdan tortib davlat dasturlari va madaniy tashabbuslargacha bo'lgan barcha darajalarda faol hamkorlik qilishi kerak. Giyohvandlik zamonaviy jamiyatning eng dolzarb va jiddiy muammolaridan biriga aylandi. Bu, ayniqsa, aholining zaif toifasiga aylangan yoshlarga ta'sir qiladi. Ushbu hodisaning ijtimoiy ildizlarini tushunish giyohvandlikka qarshi kurashning asosiy jihatini ifodalaydi. Ushbu maqolada biz yoshlar orasida giyohvand moddalar tarqalishiga yordam beradigan ijtimoiy omillarni o'rganishni ko'rib chiqamiz.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, atrof-muhit yoshlarning xulq-atvor shakllarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [6]. Tengdoshlarning bosimi, ma'lum bir guruhga qo'shilish istagi giyohvand moddalar bilan tajriba o'tkazishga olib kelishi mumkin. Yoshlar guruhlari ichida qanday ijtimoiy dinamikalar paydo bo'lishini va ularni giyohvand moddalarni iste'mol qilishga jalb qiladigan mexanizmlarni o'rganish muhimdir. Ko'pincha, giyohvandlik iqtisodiy oqibatlariga olib keladi. Kam ta'minlangan oilalar yoki ta'lim va kasbiy o'sish imkoniyatlari cheklangan hududlardagi yoshlar giyohvandlik bilan shug'ullanish xavfi yuqori. Tadqiqot iqtisodiy omillar yoshlarning giyohvand moddalar tanloviga qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratishi kerak.

**Xulosa.** Giyohvandlikning ijtimoiy ildizlari keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladigan o'zaro bog'liq omillarning murakkab tarmog'idir. Ushbu omillarni tushunish yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Митина С.В., Шулнина И.В. Наркомания среди молодежи как показатель дезадаптированности. 2000.
- (2). Jo'rayevna, Nazarova Nilufar. Giyohvandlikning delinkvent xulq sifatida namoyon bo'lishi. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. 2.22 (2023), p. 186 – 189.
- (3). Галузинский А.А. Причины и условия преступности, связанной с незаконным оборотом наркотиков. Проблемы экономики и юридической практики. 2012, №. 1, с. 133 – 136.
- (4). Городова, Е.Е. Наркотическая зависимость в молодежной среде. Nomothetika. Философия. Социология. Право. 2.9 (40) (2007), с. 263 – 267.
- (5). Komilovich, Sanayev Alisher. Giyohvandlikka qaramlik turlari. Новости образования: исследование в XXI веке 1.9 (2023), 337 – 344-betlar.
- (6). Панова, Неля Валерьевна. Ценностные ориентации молодежи и проблемы наркомании. Человеческая жизнь: ценности повседневности в социокультурных программах и практиках. 2007.



Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi (Andijon davlat Chet tillari insituti dotsenti (PhD);  
gavharxolisova@gmail.com)

## TIJORIY MULOQOTNING TADQIQIGA DOIR MULOHAZALAR

**Annotatsiya.** Olib borilgan tahlillar asosida biz tijoriy muloqotni biznes muloqoti shakllaridan biri, degan xulosaga kelishimiz mumkin, bu bozor iqtisodi institutlari bilan bog'liq bo'lgan moddiy manfaatlar-ga erishishni ham nazarda tutadi.

**Kalit so'zlar:** tijoriy muloqot, biznes muloqoti, bozor iqtisodiyoti, rasmiy muloqot, taqdimot.

### РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИЗУЧЕНИИ КОММЕРЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ

**Аннотация.** На основании анализа можно сделать вывод, что коммерческое общение является одной из форм делового общения, которое также предполагает получение материальной выгоды, связанной с институтами рыночной экономики.

**Ключевые слова:** коммерческое общение, деловое общение, рыночная экономика, официальное общение, презентация.

### REFLECTIONS ON THE STUDY OF COMMERCIAL COMMUNICATION

**Annotation.** Based on the analysis, we can conclude that commercial communication is one of the forms of business communication which also involves the achievement of material benefits associated with the institutions of a market economy.

**Key words:** commercial communication business, market economy, formal communication presentation.

**Kirish.** Mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan tobora rivojlanmoqda, shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan turli shartnoma va bitimlar imzolanmoqda. Shu o'rinda tilning mazkur soha rivojiga qo'shadigan his-sasi, tijorat bilan bog'liq matnlarning mazmuni, ularda lisoniy imkoniyatlarning voqelanishi masalalarini o'rganish zaruratga aylanib bormoqda. Avvalo, "tijorat", "muloqot", "diskurs" tushunchalarining mazmun-mohiyatiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Savdo-sotiq bilan bog'liq ko'plab atamalar arab va rus tilla-ridan tilimizga kirib kelgani sir emas.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XXI asrni nafaqat ilmiy, balki axborot inqilobi ham belgilab bera-di. Bugungi kunda o'rtacha odam har kuni u yoki bu og'zaki muloqotga duch keladi. Biz hammamiz kunda-lik muloqotda bo'lamiz va atrofimizdagi ommaviy axborot vositalarining axborot oqimlari tufayli biz o'zi-mizni nutq oqimida bo'lamiz. "Tijorat" so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, o'zbek tiliga aynan o'girganda "savdo" degan ma'noni anglatadi. Tijorat savdogarlik, oldi-sotdi ishi, savdo-sotiq, savdo (savdogarlik) ish-lari tushuniladi. O'zbek tili nutq, muloqot madaniyatiga oid ishlarda uni nazariy jihatdan o'rganish o'rtaga jiddiy qo'yilgan emas. O'zbek tilshunoslaridan S.Ibrohimov, E.Begmatov, L.Xo'jayeva, I. Ibrohimov, B. O'rinboyev, S.Inomxo'jayev, R.Qo'ng'urov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Rustamov, A.Abdurahmonov, N.Mahmudov, T.Qudratov, Y.Tojiyev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo'ldosheva, B.X.Rahmatullayeva, Sh.Iskandarovalarning ishlarida nutq madaniyatiga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan.

Tijorat sohasida kommunikativ o'zaro ta'sirning xususiyatlarini aks ettiradigan yangi atamalar, tu-shunchalar haqida ham mulohaza yuritish kerak bo'ladi. Jumladan, Y.V.Danyushina "biznes-diskurs" tu-shunchasini "o'zaro ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi hodisa sifatida" ishbilarmonlik so-hasiga va biznesning keng doirasiga kiritishni taklif qiladi. Mazkur yondashuvni amalga oshirishda tijoriy muloqot va tijoriy diskurs biznes-diskursning subtiplaridan biri, ishbilarmonlik muloqotini anglatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlilida aks etganidek, zamonaviy ilmiy adabiyotda tijoriy muloqotni, tijoriy diskursni tushunishga yondashuvlar mavjud emas.

Tijoriy muloqotning mohiyatini ochib berish "ishbilarmonlik muloqoti" va "biznes muloqoti" tu-shunchalarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi mumkin. E.Azimov, A.Shukin ishbilarmonlik mulo-qotni "maqsadi professional, tijorat va notijorat faoliyat sohaslarida axborot almashish bo'lgan aloqa turi" deb tushunadilar va ishbilarmonlik muloqotning asosiy farqi faoliyat sohasida ekanligini ta'kidlashadi. Av-valo, ishbilarmonlik tushunchasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, ishbilarmonlik – ishbilarmonga xos xususiyat, xatti-harakat. Ishbilarmonlik – bu yangi narsalarni, yangi g'oyalarni o'ylab topib, ularni amalga oshira bilish va bu yo'lda uchraydigan to'siq, qiyinchiliklardan qo'rqmaslikdir. Abdurasul ishbilarmonligi bilan ko'pning nazariga tushib, ministrliklardan biriga ko'tarildi, deputat bo'ldi (Shukurullo. "Javohirlar sandig'i").

S.Mo'minovning ta'kidlashicha, o'zbek tilshunosligida ham nutq madaniyati va uning nazariy masa-lalari bo'yicha anchagina izlanishlar olib borilgan. Biroq bu izlanishlarning aksariyati nutq madaniyatini sof lingvistik, uslubiy yoki pedagogik maqsadda yoritib berishga qaratilgan bo'lib, masalaga ijtimoiy-li-so-niy aspektida yondashilmagan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o’zbek muloqot madaniyati turli nutq uslublari doirasida, diskurs darajasida o’rganilmagan. Xususan, tijoriy diskursda muloqot muhiti lisoniy tahlilga tortilmagan. Olimlarning fikriga ko’ra, ishbilarmonlik muloqoti jarayonida ishtirokchilarning har biri, avvalambor, o’z kasbi bilan bog’liq bo’lgan vazifalarni hal qilishga intiladi, bu esa ishbilarmonlik aloqasi doimo maqsadli amalga oshiriladi degan xulosaga kelish imkonini beradi. Tijoriy muloqotga kelsak, bu aloqa tijoratchilar faoliyatida amalga oshiriladi, degan xulosaga kelish mumkin.

**Tadqiqod metodologiyasi.** S.Bolshakov, M.Potolokovanning asarlarida ishbilarmonlik muloqoti “ma’lum bir mazmunli faoliyat turini tashkil etish va optimallashtirishga qaratilgan biznes sheriklarining o’zaro ta’siri jarayoni”, deb tushuniladi. Ta’rifda muloqotning ikkita muhim xususiyati birdaniga ta’kidlanadi: birinchisi uning maqsadlilik va ikkinchisi muloqot kasbiy sohada sodir bo’lishidir.

Tijoriy muloqot professional sohada amalga oshiriladi, kommunikantlarning ma’lum bir professional ahamiyatga ega bo’lgan maqsadlarga erishishga yo’naltirilganligini aks ettiradi, kasbdagi turli xil o’zaro ta’sirlarni qamrab oladi, bu esa turli xil muloqot shakllarini shakllantirishga olib keladi. A.M.Sosnovskaya tijorat muloqotining quyidagi shakllarini aniqlaydi (1):

1. Ishbilarmonlik suhbatlari – bu “bir kishining yoki odamlar guruhining so’zlar orqali boshqa odamda yoki odamlar guruhida vaziyatni o’zgartiradigan yoki suhbat ishtirokchilari o’rtasida yangi munosabatlarni o’rnatadigan harakatga intilishni keltirib chiqaradigan istagi” (2). Eng umumiy ko’rinishida ishbilarmonlik suhbatlari sheriklar, suhbatdoshlar o’rtasidagi og’zaki aloqa sifatida tushuniladi.

2. Muzokaralar “bu kelishuv tomonlarining asosiy manfaatlarini qondiradigan va’dalarning muayyan to’plamlari (shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalar va boshqalar)ni ishlab chiqish, almashirish va amalga oshirishning o’zaro bog’liq jarayonlaridir”; “Manfaatdor tomonlar o’rtasidagi aloqa jarayonida muvofiqlashtirilgan qarorlarni qabul qilishning asosiy vositasi”; “Ikki yoki undan ortiq kishining bevosita bo’ysunish munosabatlari bilan bog’liq bo’lmagan, ular duch keladigan muammolarni hal qilishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatining maxsus turi”.

3. Matbuot anjumani – “rasmiy davlat vakillarning (rahbarlar, siyosatchilar, davlat amaldorlari, jamoatchilik bilan aloqalar bo’yicha mutaxassislar, ishbilarmonlar va boshqalar) matbuot, televideniya, radio vakillari bilan dolzarb masalalar to’g’risida ma’lumot berish maqsadida uchrashuvi”.

**Tahlil va natijalar.** Shu bilan birga, ishbilarmonlik muloqotining namoyon bo’lishining yuqori variativligi va xilma-xilligiga qaramay, o’zaro aloqalarni tijorat sifatida aniqlashga imkon beradigan bir qator xususiyatlarni aniqlash mumkin. Avvalo, bunday xususiyatlarga muloqot sohasi – kasbiy, tijoriy, ya’ni, o’zaro ta’sirning o’ziga xos xususiyatlarini, aloqaning muhim belgilarini, xususiyatlarini shakllantirishni belgilaydigan foyda olish bilan bozor munosabatlari, iqtisodiyot bilan chambarchas bog’langan bo’lishi kerak.

**Xulosa.** Shunday qilib, olib borilgan tahlillar asosida biz tijoriy muloqot biznes muloqoti shakllaridan biri, degan xulosaga kelishimiz mumkin, bu bozor iqtisodi institutlari bilan bog’liq bo’lgan moddiy manfaatlarga erishish maqsadiga bo’ysunadigan kasbiy muammolarni hal qilishga qaratilgan tijorat subyektlari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik, iqtisodiyot, xususiy mulk huquqlari, o’zida to’g’ridan to’g’ri biznes, ham akademik, shaxsiy va kundalik subkurslarning tarkibiy qismlarini sintez qilish. Tijoriy muloqot bir hil emas, u o’zgaruvchanligi, namoyon bo’lishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi, bu bir nechta janrlarni, tijoriy diskursning invariantlarini, shu jumladan, ishbilarmonlik suhbatlari, muzokaralar, press-relizlar, brieftinglar, biznes uchrashuvlar, taqdimotlar va boshqalarni ajratib olishga imkon beradi. Tijorat muloqot sezilarli darajada farq qiladi, ularni amalga oshirish xususiyatlariga bir qator omillar ta’sir qiladi, shu jumladan, (1) adresat tabiati; (2) adresant tabiati; (3) kommunikantlarning pozitsion (rol) munosabatlari; (4) kommunikantlar o’rtasidagi ijtimoiy-psixologik masofa.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

(1). Сосновская А.М. Деловая коммуникация и переговоры. Учеб. пособие, СПб, изд-во СЗАГС, 2011, с. 8; с. 92 – 117.

(2). Власюк Г.В. Деловое общение. Учебное пособие для специальности “Управление персоналом”, Москва, МИИТ, 2008, с. 68; с. 29.

(3). Сосновская А.М. Деловая коммуникация и переговоры. Учеб. пособие, СПб, изд-во СЗАГС, 2011, с. 8; с. 92.

(4). Большаков С.Н. Бизнес-коммуникации. Учеб. пособие, С.Н.Большаков, М.О.Потоколова. СПб, Петерб. гос. ун-т, филол. ф-т, 2012, с. 137; с. 71.

(5). Мандрица В.М. Этика бизнеса – деловое общение. В.М.Мандрица, И.В.Мандрица. Ростов-на-Дону, РИНХ, 2005 (ООО Азовпечать), с. 227; с. 184.

(6). Желамская В.А. Лингвистическая структура деловой документации на материале французского и итальянского языков. Дисс. канд. филол. наук, Москва, 2017, с. 332; с. 116 – 117.

(7). Кўнгулов Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992, 10-бет.

(8). Иброҳимов С. Ўзбек тили нутқ маданиятига доир. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1964, 5-сон; Бегматов Э. Ўзбек нутқ маданияти масалалари”. Ўзбек тили ва адабиёти”, 1980, 4-бет.

(9). Хўжаева Л. Нотиқлик санъати. Тошкент, 1967.

(10). Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. Тошкент, “Фан”, 1972.

#### **Kendjayeva Zumrat Astanovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi) HADISI SHARIFLARDA SHUKUR TUSHUNCHASI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, hadisi shariflarda shukur tushunchasi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Alloh taolo bandalariga shu qadar ko‘p ne‘matlar berganki, ularni sanab tugatib bo‘lmaydi. Bu haqida Alloh taolo Qur‘oni karimda bunday deb marhamat qilgan: “Agar Allohning ne‘matlarini sanasangizlar, sanog‘iga yeta olmaysizlar. Albatta, Alloh o‘ta mag‘firatli va rahmli zotdir” (“Nahl” surasi, 18-oyat). Banda ne‘matlarga shukur qilishi kerak. Bu Alloh va Rasulining amridir ekanligi tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Qur‘oni karim oyatlari, hadislar, hadislarda shukur tushunchasi, rivoyatlar, sunnat amallar, shukur turlari, iymon, halol, harom.*

#### **КОНЦЕПЦИЯ БЛАГОДАРЕНИЯ В ХАДИСАХ ШАРИФЕ**

***Аннотация.** В данной статье представлены мысли и мнения о понятии благодарности в хадисах шарифах. Всевышний Аллах дал Своим слугам столько благ, что их невозможно сосчитать. В Священном Коране Всевышний Аллах сказал: «Если вы будете считать благословения Аллаха, вы не сможете их сосчитать. Воистину, Аллах-Прощающий и Милосердный» (сура «Нахль», аят 18). Раб должен быть благодарен за благословения. Было проанализировано, что это приказ Аллаха и Его Посланника.*

***Ключевые слова:** аяты Корана, хадисы, концепция благодарности в хадисах, повествования, практики Сунны, виды благодарности, вера, халяль, харам.*

#### **CONCEPT OF THANKSGIVING IN HADISI SHARIF**

***Annotatsiya.** In this article, there are thoughts and opinions about the concept of gratitude in hadith sharifs. Allah Almighty has given His servants so many blessings that it is impossible to count them. In the Holy Karan, Allah said: “If you count the blessings of Allah, you will not be able to count them. Indeed, Allah is Oft-Forgiving and Most Merciful” (Surah Nahl, verse 18). A slave should be thankful for blessings. It has been analyzed that this is the order of Allah and His Messenger.*

***Key words:** Karanic verses, hadiths, the concept of gratitude in hadiths, narrations, Sunnah practices, types of gratitude, faith, halal, haram.*

***Kirish.** Hadis Muhammad (s.a.v) aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to‘g‘risidagi rivoyat. Islom dinida Qur‘ondan keyin 2-manba hadis hisoblanadi. Hadis 2 qismdan iborat bo‘ladi: matn va isnod. Hadis 2 turga–hadisi qudsiy (ma‘nosi Alloh taoloniki, aytilishi rasululloh tomonidan bo‘lgan hadislar) va hadisi nabaviyga bo‘linadi. Hadislar e‘tiborga olinishi jihatidan 3 qismga bo‘linadi:*

- sahih (ishonchli);
- hasan (yaxshi);
- zaif.

Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy, Imom Abu Dovud, Imom Ibn Moja va Imom An-Nasaiy kabi Islom olimlari va hadis tuzuvchilar hadislarini (Muhammad Payg‘ambarning so‘zlari va harakatlari) o‘rgangan va tuzgan taniqli shaxslardir. Ushbu olimlar o‘z hayotlarini musulmonlarning kelajak avlodlari uchun haqiqiyliги va ishonchligini ta‘minlash uchun hadislarini to‘plash, tekshirish va saqlash bilan o‘tkazdilar. Ushbu olimlarning har biri Islom an‘analarida keng o‘rganilgan va hurmat qilinadigan o‘zlarining hadislar to‘plamlarini tuzdilar.

***Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Imom Buxoriyning “Sahih al-Buxoriy” to‘plamida 7275 ta takroriy hadis, 2600 ta takrorlanmas hadis mavjud bo‘lib, u islomdagi eng keng qamrovli va sahih hadis to‘plamlaridan biri hisoblanadi. Imom Termiziy, Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn sura Termiziy nomi bilan ham tanilgan, taniqli islom olimi va hadis tuzuvchisi bo‘lgan. Uning eng yaxshi to‘plami bilan tanilgan hadislarini “Al-jomi Al-Sahih” deb nomlangan Sunan at-Termiziy. Ushbu to‘plamda jami 3956 ta hadis mavjud. Ularda keltirilgan ko‘plab hadislarda shukur qilish keltiriladi [1].*

Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad (s.a.v) o'z hadislarini aytardi. Bu hadislarini payg'ambarlarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Payg'ambar vafotidan so'ng hadislarini naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan, bir guruh musulmonlar uni yozma shaklda to'play boshladilar. Birinchi hadis kitobini Ibn Shihob az-Zuhriy yozdi. Undan keyin birin-ketin hadis to'plamlari tasnif etila boshladi. Lekin bu to'plamlar muayyan tartibga solinmagan, boblarga ajratilmagan bo'lib, ularda payg'ambar hadislarini bilan sahobalar va tobe'inlarning fatvolari chalkashtirib yuborilgan edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dinimiz bizni, eng avvalo, ezgulikka, tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini, insoniylikni asrab-avaylashga da'vat etadi. Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalari islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday allomalarimizdan biri Imom Al-Buxoriy, o'z ahamiyatiga ko'ra, islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bunday buyuk zotning boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, islom to'g'risidagi ta'limotni keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Al-Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bunyod etilgan. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu birgina maqsadga xizmat qiladi.

Butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deya tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflaridan biri, boshqa muhaddislar ustoz, imomi, hech shubhasiz, Imom Al-Buxoriy hisoblanadi. "Sunnat" arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi "yo'l, ravish, odat" demakdir. Istilohiy ma'noda esa Muhammad s.a.v.ning qoldirgan urf-odatlarini tushuniladi. Ularni bajarishlik vojibdir. Ularda islom diniga oid tushunchalar va ularning talqini, xususan, farz, vojib, sunnat, halol, harom, shukur, makruh kabi tushunchalarning ma'no qamrovi, izohi o'z aksini topgan. Hadislarining asosiy katta qismi axloq-odob masalalariga, inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarga qaratilgan. Shuning uchun ham hadislar eng qadimgi davrlardan ya'ni Payg'ambarimiz s.a.v zamonidayoq juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Hadislar, imkoni boricha, xatosiz, asl holda boshqalarga yetkazilishi lozim bo'lgan. Imom Al-Buxoriy o'z hayotini mana shu hadis ilmini o'rganishga, uni insonlarga aniq va to'raligicha yetkazishga baxshida etgan [2].

Alloh taolo o'zining fazli-u karami ila inson zotini aql va idrok sohibi qilib yaratdi va unga behisob ne'matlarni ato qilib, ulardan bahramand qildi. Shu bilan bir qatorda, o'zining ne'matlariga shukur aytishga ham buyurib, kalomida shukur qiluvchilarga ne'matlarini yanada ziyoda qilish va'dasini berib, shunday deydi: "Yana Rabbingiz e'lon qilgan (bu so'zlar)ni eslangiz: "Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukur qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu, noshukurchilik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir" [2].

**Tahlil va natijalar.** Barchalarimiz Parvardigorning biz bandalarga bergan tansihatlik, farovonlik, baxtu saodat, tinchlik va osoyishtalik kabi ulug' ne'matlariga shukur aytsak, qadriga yetsak, shunda Alloh ham bizlardan rozi bo'lar ekan. Islom ta'limotida ne'matlarga shukur qilish ulug' fazilat va yuqori daraja deb alohida qayd qilingan. Ne'matga shukur qilish o'sha ne'matning ziyoda bo'lishiga sabab bo'ladi. Shukur qilmagan banda nonko'r, noshukur bo'ladi. Alloh taolo bunday deb marhamat qilgan: "*Va Robbingiz sizga: "Qasamki, agar shukur qilsangiz, albatta, sizga ziyoda qilurman. Agar kufr keltirsangiz, albatta, azobim shiddatlidir", deb bildirganini eslang*" ("Ibrohim" surasi, 7-oyat).

Bu oyati karimada banda ne'matga shukur qilsa, Alloh uni ziyoda qilishini qasam ila aytmoqda. Shuning uchun ham, astoydil shukur qilish kerak, toki ne'matlar yanada ko'paysin va o'zimiz shokirlardan bo'laylik. Oyatning davomida shukur qilmagan, nonko'rlik qilganlarga shiddatli azob borligi eslatilmoqda. Banda qattiq azobga duchor bo'lmasligi uchun ham shukurni ko'paytirishi kerak.

"Shukur" deganda ko'pchiligimiz "O'zingga shukur", "Alhamdulillah" deb aytishni tushunamiz. To'g'ri, bular ham shukur. Bular lafziy shukur hisoblanadi, ya'ni shukurning tilda aytiladigan turidir. Har qanday ne'matga so'z orqali shukur qilinganda, o'sha ne'mat zikr qilinib, masalan, "Falon ne'matni berganing uchun shukur" deb shukur ado etilaveradi. Alloh taolo bergan ne'matlar haqida gapirganda, avvalo, eng ulkan ne'mat haqida so'z yuritimiz. Bu iymon ne'matidir!

Allah taolo bizga iymon berdi. Bu eng katta ne'mat! Endi bu ne'matning so'z bilan bo'ladigan shukri "Iymon ne'matini berganing uchun o'zingga shukur" deyish bo'lsa, amal bilan bo'ladigani Allohni tanish, unga sajda qilish, uning yuborgan Payg'ambarining hayotini o'rganib, unga ergashish, unga nozil qilgan Qur'onni o'qib-o'rganib, amal qilish, ibodatda bardavom bo'lish, xullas, iymon taqozo qilgan narsalarni ado etish bilan bo'ladi. U bizga bosh berdi. Boshning amaliy shukri-undan yomon xayollarni chiqarib tashlash, dunyo va oxirat uchun foydali bo'lgan narsalarni o'ylash, go'zal niyat qilish bilan bo'ladi.

U bizga ko‘z berdi. Ko‘zning amaliy shukri-u bilan haromga boqmaslik, faqat halol narsaga qarash, ota-onaning, ahli oila va farzdandlarning, ustozlarning yuziga mehr ila boqish, dindoshlarning yuziga tabassum ila boqish bilan bo‘ladi. U bizga quloq berdi. Quloqning amaliy shukri-u bilan harom narsalarni eshitmaslik, faqat halol narsalarnigina eshitish, Qur‘on tinglash, ilmiy suhbat tinglash, ota-onaning, ustozlarning, ahli oilaning gaplariga quloq solish, yordam so‘rab kelgan insonlarning iltimoslarini eshitish va hojatlarini ravo qilishga urinish bilan bo‘ladi.

U bizga til berdi. Tilning amaliy shukri-u bilan harom, gunoh bo‘lgan gaplarni gapirmaslik, faqat halol, foydali so‘zlarni gapirish, Allohni zikr qilish, Qur‘on tilovat qilish bilan bo‘ladi. U bizga qo‘l berdi. Qo‘lning amaliy shukri-u bilan harom narsani ushlamaslik, harom ishga qo‘l urmaslik, faqat halol narsani ushlash, halolga qo‘l urish bilan bo‘ladi. U bizga oyoq berdi. Oyoqning amaliy shukri-u bilan harom, gunoh joylarga bormaslik, faqat halol, savob bo‘ladigan joylarga yurib borish, masjidga, dindosh birodarining hojatini ravo qilish, ota-ona, ustozlar, bemorlar, yetimlar ziyorati uchun yurib borish bilan bo‘ladi.

Barcha tana a‘zolarini Alloh rozi bo‘ladigan, savobli ishlarga ishlatish, harom, gunoh ishlarga ishlatmaslik, birorta a‘zo kasal bo‘lsa, uni davolatish bilan amaliy shukur ado etiladi. Alloh taolo farzand ne‘matini ato qilsa, uning amaliy shukri o‘sha farzandni Allohni taniydigan, solih, taqvodor etib tarbiya qilish bilan bo‘ladi [3].

**Xulosa va takliflar.** Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shukur haqida shunday deganlar: “Kim oziga shukur qilmasa, ko‘piga ham shukur qilmaydi. Kim insonlarga tashakkur aytmasa, ulardan minnatdor bo‘lmasa, Alloh taolaga ham shukur qilmaydi. Ne‘matlar haqida gapirish-shukurdir. Uni gapirmaslik esa noshukurlikdir. Jamoat bilan yurish rahmatdir. Yolg‘izlik esa azobdir”, dedilar (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari).

Shukrning fazilatlaridan yana biri shuki, inson shukur qilsa, rizqi yana ziyodalashadi. Bu haqda hazrati Ali raziyallohu anhu shunday deganlar: “Ne‘mat shukrga, shukur esa ziyodalikka bog‘langandir. Modomiki, banda shukur qilishda davom etar ekan, Alloh taolo ham ziyoda qilishda bardavom bo‘ladi” (Imom Bayhaqiy rivoyati) [4].

Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam barcha go‘zal amallarni o‘zlarida mujassam etgan zot edilar. Shukur qilishda ham U Zotga yetadigan biror-bir kishi topilmasligiga shubha yo‘q. Sababi, Alloh taolaga duolari ijobat bo‘ladigan kishi bo‘la turib, Alloh taolodan ko‘p mol-dunyo berishini so‘ramagan edilar. Balki, Alloh bergan rizqqa qanoat qilib yashaganlar. Ochlikdan qorinlariga tosh bog‘lab yurganlarini bilamiz. Payg‘ambarimiz alayhissalom shunday holatda shukur qilgan bo‘lsalar, hozirgi to‘kinlik-farovonlik davrida biz faqat shukrimizni ziyoda qilishga e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Oltin silsila: Sahihul Buhoriy. T., “Hilol nashr”, 2012.
- (2). Hadis. Al-Jome‘as-sahih (ishonchli toplam). Arabchadan A.Abdulloh tarjimai. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
- (3). Niyozov G., Ahmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. ”Noshir”, 2011.
- (4). Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi‘ as-Sahiyh). 1-jild, tarjimon Z.Ismoilov. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1997, 572-bet.

**Jabborova Saodat Sattorovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini o‘qituvchisi, falsafa fanlari doktori (PhD); e-mail: [sattorovna1975@gmail.com](mailto:sattorovna1975@gmail.com))**

### SHARQ ALLOMALARI MA’NAVIY MEROSI VA ULARNING JAMIYAT MA’NAVIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistondagi ma‘naviy salohiyatning shakllanish jarayonining o‘ziga xosligi, sharq mutafakkirlarining ushbu salohiyatni yuksaltirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Shuningdek, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek singari shaxslarning ushbu jarayonda tutgan o‘rni va O‘zbekiston ma‘naviy salohiyatining muhim xususiyatlariga alohida urg‘u berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma‘naviy salohiyat, jamiyat salohiyati, iqtisodiy salohiyat, ma‘naviy-ruhiy muhit, ijtimoiy salohiyat, ijodiy tafakkur, ijtimoiy taraqqiyot, milliy mafkura, madaniy meros.

#### ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** В статье говорится об уникальности процесса формирования духовного потенциала в Узбекистане, роли восточных мыслителей в повышении этого потенциала. Также подчёр-

квивается роль таких учёных, как Муса аль-Хорезми, Ахмад аль-Фергани, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Мирза Улугбек в этом процессе и важные особенности духовного потенциала Узбекистана.

**Ключевые слова:** духовный потенциал, общественный потенциал, экономический потенциал, духовно-нравственная среда, социальный потенциал, творческое мышление, социальный прогресс, национальная идеология, культурное наследие.

## SPIRITUAL HERITAGE OF EASTERN SCIENTISTS AND THEIR IMPORTANCE IN FORMING THE SPIRITUAL POTENTIAL OF SOCIETY

**Annotation.** The article is about the uniqueness of the process of forming spiritual potential in Uzbekistan, the role of Eastern scientists in increasing this potential. The role of such scientists as Musa al-Khorezmi, Ahmad al-Fargani, Abu Raikhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Mirza Ulugbek in this process and important features of the spiritual potential of Uzbekistan are also emphasized.

**Key words:** spiritual potential, community potential, economic potential, spiritual and spiritual environment, social potential, creative thinking, social progress, national ideology, cultural heritage.

**Kirish (Видение/Introduction).** Jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskinlashuvi, ma'naviy tahdidlar kuchayib borishi yoshlarda milliy qadriyatlarga bepisandlik, yot g'oyalarni ta'siriga berilishni keltirib chi-qarmoqda. Bu borada yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish, yoshlar ma'naviy salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, axloqiy fazilatlariga ega barkamol avlodni tarbiyalash alohida e'tibor talab etadi. Shuning uchun zamonaviy sotsiumning ijtimoiy taraqqiyoti manbai sifatida jamiyat ma'naviy salohiyatining mazmuni, tarkibi, salmog'i va ijtimoiy mavqeini, uning ma'naviy-ruhiy muhit, madaniy saviyasi, milliy g'oya, adabiyot va san'at, ma'naviy merosga munosabat, ma'naviy xavfsizlik darajasi kabi mezonlarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy jamiyatlarda ma'naviy salohiyat turli ichki va tashqi tendensiyalar, omillar ta'sirida shiddat bilan o'zgarib bormoqda. O'zbekistondagi ma'naviy salohiyat ham bundan mustasno emas. Turli ichki va tashqi omillar mamlakatning asrlar mobaynida qaror topgan ma'naviy salohiyatiga o'zgacha mazmun, tus bag'ishlamoqda. Ayni damda bugungi kunda jamiyatning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga xalal berayotgan, ayrim hollarda esa unga xavf tug'dirayotgan omillar ham yo'q emas. Mazkur pozitiv va negativ omillar, ularning ta'siri xarakteri xususida fikr yuritishdan avval, O'zbekistondagi ma'naviy salohiyatning shakllanishi tarzini, uning bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Methods).** Yurtdagi tabiiy shart-sharoitlar jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantiruvchi omil vazifasini o'tadi. Murakkab shart-sharoitlar kishilarni o'zaro hamjihatlikda umrguzaronlik qilishga, o'zaro yordam tamoyillariga amal qilishga undadi. Bu amaliyot nafaqat kishilar-ning turmush tarzini, balki ularning ma'naviy olamini ham belgilab beradi. Ilmni, bilimni qadrlashga asoslangan ma'naviy-ruhiy muhit nafaqat jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi shakllanishiga, balki ko'plab ijodiy tafakkur sohiblarining ham voyaga yetishiga zamin yaratdi. Ularning ayrimlari, masalan, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek o'ta original tafakkuri bilan bugunga qadar jahon ahlini hayratga solib keladi.

**Muhokama (Discussion).** Jamiyatda ijodiy tafakkur sohiblarining bisyorligi mamlakatda ko'plab ilmiy kashfiyotlarning qilinishiga poydevor bo'ldi. "Algebra fani va "Algoritmi" tushunchasining asoschisi Al-Xorazmiy, Yerning aylanasi uzunligi va radiusini ilk bor hisoblab chiqqan Al-Beruniy, tarixda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan, jahon tibbiyot fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ibn Sino, noyob rasadxona va 1018 ta yulduzning joylashuvi aniq aks ettirilgan astronomik jadval yaratgan Mirzo Ulug'bek kabi buyuk o'zbek olimlarining ilmiy merosi" buning yorqin dalilidir. Ijodiy fikrlashga qodir bo'lgan Vatan farzandlari shaxsni ma'naviy yuksalishga undovchi adabiyot va san'at asarlarining yaratilishiga ham sababchi bo'ldilar. Masalan, "Navoiy "Xamsa"si ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi". Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnomasi" esa bugungi kunda "jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik" sanaladi [3].

Ma'naviy merosga qadrlil munosabat asrlar davomida millatning ma'naviy xavfsizligini saqlagan omil ham bo'lib kelgan. Yuqorida nomlari zikr etilgan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek ijodi va asarlari jamiyat a'zolarining ilmga bo'lgan intilishlarini ruhlantirib turgan, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband merosi

kishilarning xulq-atvorini ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirgan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Zavqiy, Furqat g'azallari va she'rlari odamlarni ezgulik va bunyodkorlikka undab kelgan.

O'zbekistonning bugungi ma'naviy salohiyati qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bu o'rinda, avvalo, ma'naviy-ruhiy muhitning sog'lomligini qayd qilmoq darkor. Jamiyatda kishilar o'zaro hamjihatlikda yashashga odatlanganlari, ularning bir-biriga bo'lgan ishonchining yuqoriligi, ko'plab yumushlarning hamkorlikda ado etilishi, individual xulq-atvor modellarining ijtimoiy qoidalarga mutanosibliigi shundan dalolat bera-di.

Bugungi O'zbekiston ma'naviy salohiyati milliy g'oya va mafkuraning shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Mustaqillikning ilk yillari ijtimoiy taraqqiyotning yangi mo'ljallarini aniqlash va uni mafkuraviy asoslash yillari bo'ldi. Ziyolilarning ilg'or qatlami har qanday jamiyat o'z taraqqiyotining ijtimoiy mo'ljallariga ega bo'lishi kerakligini, bu mo'ljal milliy g'oya shaklida ifodalanishi zarurligini yaxshi anglardilar. Bu mulohazalar o'z vaqtida turli maqola va risolalarda atroflicha bayon etilgandi. Shuningdek, "ushbu milliy istiqloq g'oyasini yoshlar ongiga singdirishga, ularning dunyoqarashini turli vayronkor g'oyalardan himoya qilishga qaratilgan yaxlit mafkuraviy tarbiya sistemasi shakllana boshladi. Jumladan, milliy istiqloq g'oyasi targ'iboti bilan mashg'ul bo'ladigan institutsional tizim vujudga keldi.

Bugun ham milliy g'oya va mafkurani shakllantirish masalalariga e'tibor susaygani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoyishining qabul qilinishi shundan dalolat beradi [6]. Shu tariqa, mamlakatda milliy g'oya va mafkura yaxlit mazmun va tizim kasb qildi. Milliy g'oya va mafkura bugungi kunda nafaqat ijtimoiy taraqqiyot mo'ljallarini o'zida mujassam qilmoqda, balki ijtimoiy ong shakllarining sotsium manfaatlarga mos ravishda rivojlanishiga, jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan ma'naviy tajribalarning jamlanishiga, mafkuraviy xavfsizlikning ta'minlanishiga ham imkon yaratmoqda. Yangi O'zbekistonda mafkura sohasida ishlarni susaytirmaslik, ularni yangi bosqichga ko'tarish zarurati aslida ana shunda namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Ta'lim tizimining ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarga mustaqillik g'oyalari, milliy an'analarga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ish olib borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Yurtimizda keyingi paytda ushbu yo'nalish bo'yicha yangi tizim yaratilmoqda. Bu esa fuqarolarimizning ijtimoiy faolligi, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, ularning zamonaviy, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etishda munosib ishtirokini ta'minlash omilidir", deya qayd etadi [7].

Milliy-ma'naviy merosga hurmat ham O'zbekiston ma'naviy salohiyatining muhim xususiyatidir. O'zbek xalqi nihoyatda boy ma'naviy merosga ega xalqlardan biri sanaladi. O'tmish ajdodlardan minglab nodir qo'lyozmalar, an'ana va urf-odatlar, qadriyatlar meros bo'lib qoldi. Masalan, ajdodlar "qoldirgan ulkan ilmiy meros garchi turli bosqinlar davrida nobud qilingan, olib ketilgan bo'lsada, bizning davrimizgacha yetib kelganlarining adadi, hisobga olinganlari ham kishini hayratga soladi". Sharqshunoslik instituti-ning qo'lyozmalar fondida "26 ming jild qo'lyozma, 40 ming jildga yaqin toshbosma, 5 mingdan ziyod tarixiy hujjatlar saqlanadi" [8]. Ushbu nodir qo'lyozmalarda xalq tafakkurining oliy namunalari mujassam bo'lgan. Bizning zamonamizda esa ma'naviy merosga hurmat bilan munosabatda bo'lish, zaruriy hollarda restavratsiya qilish va kelgusi avlodlarga yetkazish choralari ko'rish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

**Natijalar (Results).** Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekistondagi ma'naviy salohiyat asrlar davomida o'ziga xos tarzda shakllanib keldi. Murakkab tabiiy shart-sharoitlar mamlakatda xos ma'naviy-ruhiy muhitni, turmushni hamjihatlikda yengillashtirish bilan bog'liq bilimlarni puxta o'zlashtirgan kishilarni ulug'lash kayfiyatini, farzandlarni ilm olishga chorlash amaliyotini vujudga keltirdi. Bu amaliyot ijodiy tafakkur sohiblarining ko'payishiga, oqibat o'laroq milliy ma'naviy merosning yuksalishiga olib keldi. Bugungi kunda jamiyat ma'naviy salohiyati ma'naviy-ruhiy muhitning sog'lomligi, jamiyat a'zolari madaniy saviyasining milliy va gumanistik xarakterga egaligi, milliy g'oya va mafkuraning shakllanganligi, ijodiy tafakkurga ega kishilar salmog'ining kattaligi, jahon darajasidagi ilmiy maktablarning mavjudligi, ma'naviy yuksalishga undovchi adabiyot va san'at asarlari yaratishning davom etayotgani, ma'naviy merosga hurmatning kattaligi, ma'naviy xavfsizlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, 9-бет.

- (2). Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-ж, Т ошкент, “Ўзбекистон”, 2020, 259-бет.
- (3). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2021, 301-бет.
- (4). Бобурнома.//uz.wikipedia.org.
- (5). Sharipov A.Z. Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-mafkuraviy islohotlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Buxoro, “Durdona”, 2021, 37-бет.
- (6). Jabborova S.S. Ma’naviy salohiyat mezonlari va ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni. “Yangi O‘zbekistonda ma’naviyat sohasidagi tadqiqotlarning monitoringi va optimallashtirishning dolzarb vazifalari”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2023, 304 – 307-бетlar.
- (7). Jabborova S.S. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy salohiyatni yuksaltirishda qo‘shgan hissasi. Ijtimoiy-gu-manitar fanlarning dolzarb muammolari. Samarqand, 2023, 6-son (3), 2023, 134 – 142-бетlar.
- (8). Қўлэзма асарларнинг сақланиши, реставрацияси ва ўрганилиши қай аҳволда?//<https://kun.uz/news/2020/01/08/qolyozma> asarlarning saqlanishi restavratsiyasi va organilishi qay ahvolda qolyozmalar fondiga videosa-yohat. 22.05.2022.
- (9). Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-том, Т., “Ўзбекистон”, 1998, 125-бет.

**Babajanov Xudaynazar Rajabovich (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali  
“Dermatovenerologiya va endokrinologiya” kafedrası dotsenti; [babajanov.x73@gmail.com](mailto:babajanov.x73@gmail.com))  
MOXOV KASALLIGI TARIXI VA TADQIQI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada moxov kasalligining kelib chiqish tarixi o‘rganilib, uning tavsifi hamda kasallik keltirib chiqaradigan oqibatlar, tashxisi, davolash chora-tadbirlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** moxov (lepra), Stil-Nilsen, difekoloksidaza, lepromatoz, Saburo muhiti.

**ИСТОРИЯ И ИССЛЕДОВАНИЯ ЛЕПРЫ (ПРОКАЗА)**

**Аннотация.** В данной статье изучена история возникновения лепры, даны ее описание и подробные сведения о последствиях, диагностике и мерах лечения.

**Ключевые слова:** лепра, Стил-Нильсен, диффекологоксидаза, лепроматоз, Сабуро Агар.

**HISTORY AND RESEARCH OF THE ILLNESS “LEPROSY”**

**Annotation.** This article examines the history of leprosy, provides its description and detailed information about the consequences, diagnosis and treatment measures.

**Key words:** Leprosy, Ziehl-Neelsen, diffecoloxidase, lepromatosis, Sabouraud agar.

**Kirish.** Moxov yoki lepra (sin: Ganzen kasalligi, xansenioz, prokaza) surunkali yuqumli kasallik bo‘lib, uni mikobakteriyalar (*M.leprae*) qo‘zg‘atadi. Dastlab, yuqori nafas tizimining shilliq sohasi (burun bo‘shlig‘i) zararlanadi, keyinchalik, teri, periferik nerv tizimi va ichki a‘zolar jarohatlanadi. Kasallik boshqa xastaliklardan inkubatsion davrining (3–4 oydan 5–6 yilgacha, hatto 15–25 yilgacha, ba‘zan 30–50 yil) uzoq kechishi, prodromal belgilarining noaniqligi, dastlabki klinik belgilarining turli-tumanligi, obyektiv simptomlarining murakkabligi bilan ajralib turadi [9].

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbekistondagi moxov kasalligini o‘rganishga bag‘ishlangan asosiy ilmiy tadqiqot ishlari o‘tgan asrning 60–80-yillariga to‘g‘ri kelib, ushbu ishlarni amalga oshirish Qoraqalpog‘istonda kossiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Asosan, kasallikning immunobiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik turlari va davo uslublari o‘rganilgan. Keyinchalik, Janubiy Orol bo‘yi hududlarida kasallikning ko‘p tarqalish sabablari ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bog‘liq ekanligi ochib berilgan. Moxovga chalingan bemorlarda allergik reaktivlik holatlari o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot materiali sifatida 212 nafar moxovga chalingan bemorlarning kasallik tarixi, leprozoriylarda ro‘yxatda turgan bemorlar (nazorat guruhidagi bemorlar va ularning maishiy muloqotdagilari) hamda ular bilan 107 nafar maishiy muloqotda bo‘lgan shaxslar, ambulatoriya, epidemiologik tekshiruv kartalar va hisobotlar olindi. Ilmiy tadqiqot ishlari jarayonida epidemiologik (retrospektiv epidemiologik tahlil), mikrobiologik (burun bo‘shlig‘i va to‘qima suyuqliklaridan surtma olish), statistik (Pirson koeffitsiyenti  $\chi^2$  kvadrat) variatsion va Fisher usuli) tekshiruv usullardan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Barcha kasalliklar orasida moxov xastaligi insoniyatning qadimiy kasalliklaridan hisoblanadi. Eski kitoblar va arxeologik topilmalarda ularni tasdiqlovchi anchagina ma’lumotlar qolgan. Eramizdan 1500–1000 yil avvalgi qo‘lyozmalarda “Rig Veda Sanhita” yozilishicha, Hindiston aholisi orasida moxov ko‘p uchragan, Moiseyning besh jildlik kitobida moxov kasalligi “Zaraath” deb nomlangan [5].



Ko'pgina olimlar moxov kasalligining vatanini Janubi-Sharqiy Osiyo va Markaziy Afrika davlatlari deyishadi. Haqiqatan, XX asrning nihoyasiga kelib, bu davlatlarda 2,5 mln, Afrika davlatlarida 482669 nafar, Sharqiy O'rta dengizi hududlarida 99913 nafar, Lotin Amerikasi davlatlarida 301704 nafar va Tinch Okeani g'arbiy sohillarida joylashgan davlatlarda 152739 nafar bemor borligi ro'yxatga olingan [2].

Ayrim ko'rsatmalarda hozirgi Xitoy hududlarida, Yaponiyada va Eron aholisi orasida ham moxovga chalinganlar uchragan. Birgina Xitoy davlatining o'zida 1949-yildan keyingi 50 yil davomida 474774 nafar moxovga chalinganlar aniqlangan. 2016-yilning may oyiga kelib, Yaponiya davlati tibbiyot maskanlarida 1584 nafar bemor davolangan [1]. Dunyoning Yevropa qismi davlatlariga moxov kasalligi savdo yo'llari bilan Misrdan, Afrika va Osiyo davlatlaridan kirib kelgan, shu bilan birgalikda, qulchilik va aholi migratsiyasining o'rni ham katta [13]. Quldorchilik tufayli Hindiston, Misr, Eron va Afrika davlatlaridan Yevropaga minglab bemorlar sun'iy ravishda kelib qolgan. Oqibatda xastalik Vizantiya, Ispaniya, Fransiya va Yevropaning yana boshqa hududlariga tarqalgan.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida bu kasallik «maxau» iborasi bilan aytilgan, ba'zan anglashilmovchilik tufayli «pes» so'zi ham ishlatilgan. Musulmon davlatlarida moxov kasalligi, dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, arab bosqinchilari istilosidan avval ham, ya'ni, Samoniylar davrida moxovga chalingan bemorlar aholi orasida uchrab turgan. Markaziy Osiyodagi dastlabki ma'lumotlar Abu Ali ibn Sino (980–1034) qo'lyozmalariga mansubdir. Buyuk alloma Ibn Sino, hatto moxov kasalligini boshqa teri kasalliklaridan ajrata bilgan [11]. Markaziy Osiyo davlatlariga moxov kasalligining kirib kelishi inqiroz va bosqinchilik urushlari bilan ham bog'liqdir. Ayniqsa, Chingizxon istilosi tufayli avvaliga Janubi-Sharqiy Osiyoda, keyinchalik, Markaziy Osiyo davlatlarida ham kasallik tarqalib ketgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, moxov kasalligi Tojikistonga Hindistondan, Afg'onistondan va Xitoy davlatlaridan aholining migratsiyasi tufayli kirib kelgan. Ayniqsa, ushbu davlatlar bilan chegaradosh bo'lgan Tog'li Badaxshon, Xorog viloyatlarida kasallik o'choqlari keng tarqalgan. Kasallik dinamikasi tahlilidan ma'lum bo'ldiki, Respublikada kasallanishning maksimal darajasi 1948–1967-yillarga to'g'ri keladi. Umuman, Tojikistonda moxov kasalligining tarqalishi 0,2:10000 aholiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Tog'li Badaxshon viloyatida yuqori bo'lib, 2,8:10000 ni tashkil qilgan.

Umuman olganda, Orol dengizi hududida har tomonlama, ya'ni, Sirdaryoning quyi qismida Qozog'istonning Kazalinsk, Aralsk va Qizil O'rda hududlarida, Amudaryoning quyi sohillarida, bir tomondan, turkmanlar (Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyati), ikkinchi tomondan, Qoraqalpog'istonning shimoliy qismi aholisi haddan ziyod moxov kasalligiga ko'p chalinganlar. Professor leprolog N.A.Torsuev ta'biri bilan aytganda, sobiq ittifoq respublikalarida aniqlangan har ikki bemorning bittasi ushbu hududlardan aniqlangan. Jami bemorlarning 20% esa Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda dastlabki bemorlar Chor Rossiyasi shifokorlari tomonidan maxsus aniqlana boshlangan. Birinchi moxovxonada (butun Turkistonda yagona) Toshkent shahrida ochilgan va u 1931-yilgacha faoliyat ko'rsatgan. Shu yilning yozida moxovxonada Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida yangidan ochilgan inshootga ko'chirildi (hozirda bu hudud Jizzax viloyatining Baxmal tumaniga qarashlidir) va qariyb 75 yil faoliyat ko'rsatgan Bulung'ur leprozoriyasi 2006-yil yopildi. Ushbu moxovxonada sobiq ittifoqning turli hududlaridan olib kelingan mingdan ortiq bemorlar davolanishgan.

Mustaqillik yillari Respublikamiz hududida 35 ta yangi bemor qayd qilindi, ularning 2 tasi Surxondaryo, 1 tadan Toshkent, Jizzax, Farg'ona, Andijon viloyatlariga va yana 6 ta Xorazmga hamda 23 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

**Xulosa.** Biz avvalgi va so'nggi yillardagi adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida O'zbekistonning Qoraqalpog'istondan boshqa hududlarida moxov kasalligining tarqalganligi to'g'risida ma'lumotlar ololmadik. Berilgan ayrim manbalarda esa ma'lumotlar to'liq yoritilmagan. Bu hol bizdan Respublikamizda kasallik o'choqlarini chuqurroq o'rganib, uning asosida epidemiologik hamda profilaktik tadbirlarni rivojlantirishni talab qiladi.

Ichki va tashqi migratsiya dunyo aholisi orasida yildan yilga oshib bormoqda. Endilikda tashqi turizm uchun butun Respublikamizning hamma darvozalari ochilgan, ammo tub aholi salomatligini saqlash migratsiya tufayli kirib keladigan har qanday yuqumli kasalliklarning oldini olishga zamin yaratishimiz zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Chandler D., Hansen K.\ Mahato Bet al. "Household Costs of Leprosy Reactions (ENL) in Rural India". PloS Negl Trop dis., 2015, Vol. 9(1).

(2). Costa, Perpétua do Socorro Silva, Fraga et al. Erythema Nodosum Leprosum: Update and challenges on the treatment of a neglected condition. Acta Trop. 2018, Vol. 183, p. 134 – 141.

- (3). Croti R., Nicholls P., Richardus J. "Incidence rates of acute nerve function impairment in leprosy: a prospective cohort analysis atier 24 months (The Bangladesh Acute Nerve Damage Study)". 2000, Vol. 71, p. 18 – 33.
- (4). Croti R., Nicholls P., Steyerberg E. 2000. A clinical prediction rule for nerve-function impairment in lep-rosy patients. *Lancet* 355(9215), p. 1603 – 1606.
- (5). Darlong J., Govindharaj P., Charles D. Experiences with Thalidomide for Erythema Nodosum Leprosum. 2016, Vol. 87(2), p. 211 – 20.
- (6). Duthie MS., Gillis TP. Reed SG (November 2011). Advances and hurdles on the way toward a leprosy vaccine. *Hum Vaccin.* 2011, Vol. 7 (11), 1172, p. 83.
- (7). Eichelmann K., González González S.E., Salas-Alanis J.C., Ocampo-Candiani J. Leprosy. An Update: De-finition, Pathogenesis, Classification, Diagnosis, and Treatment. *Actas Dermo-Sifiliográficas.* 2013, Vol. 104(7). p. 554 – 563.
- (8). Эшбоев Э.Х. Самарқанд вилоятидан аниқланган моховга чалинган беморларнинг ретроспектив тах-лили (1924–2007). Э.Х.Эшбоев, Х.А.Ниязов, Я.М.Файзиёв. "Дерматовенерология и эстетическая медицина", Тошкент, 2009, № 1, с. 45 – 48.
- (9). Эшбоев Э.Х. Қашқадарё вилояти худудида мохов касаллигининг пайдо бўлиш сабаблари. Э.Х.Эш-боев, Я.М.Файзиёв, С.Э.Эшбоев. "Инфекция, иммунитет и фармакология", Ташкент, 2010, № 3–4, с. 94 – 97.
- (10). Эшбоев Э.Х. Мохов касаллигининг эрта диагностикаси, давоси ва профилактикаси. Услубий қўл-ланма, Э.Х.Эшбоев, Я.М.Файзиёв, Х.А.Ниязов, Ташкент, 2010, 14-бет.
- (11). Эшбоев Э.Х. Их теперь не отправляют на «Барсакелмас» или жертвы палочки ганзена. Научно-популярное методическое пособие, Ташкент, 2019.
- (12). Э.Х.Эшбоев, Х.Р.Бабажанов, С.К.Худойназаров, Х.А.Ниязов. Мохов (лепра) этиологияси, эпиде-миологияси, клиникаси, давоси, профилактикаси ва патоморфологияси. Услубий қўлланма, Т., 2020, 23 бет.
- (13). Эшбоев Э.Х., Ниязов Х.А., Бабажанов Х.Р. Самарқанд вилояти худудидаги лепрозорияга ётқизил-ган беморлар тўғрисида маълумот: научное издание. "Дерматовенерология и эстетическая медицина", Т., 2011, № 4, с. 47 – 49.

Сапаева Дилфуза Нарбаевна (Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии,  
доцент кафедры "Английского языка"; [dilfuzasapayeva83@gmail.com](mailto:dilfuzasapayeva83@gmail.com))  
**ТИПЫ ДИСКУРСА В МОДЕЛЯХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ВРАЧА И ПАЦИЕНТА**

**Аннотация.** В статье рассматривается три основных класса употребления термина «ме-дицинский дискурс», систематизируются типичные и специфические признаки данного вида дис-курса с позиций функционально-коммуникативной лингвистики, а также социолингвистического, когнитивного и прагматического подходов с целью определения места медицинского дис-курса в системе институциональных и профессиональных дискурсов.

**Ключевые слова:** медицинский дискурс, профессиональная речь, институциональный дис-курс, прагматическая лингвистика, социолингвистика.

#### **VRACH VA PATSIYENT O'ZARO MUNOSABATI MODELIDAGI DISKURS TIPLARI**

**Аннотация.** Ushbu maqolada "tibbiy diskurs" atamasidan foydalanishning uchta asosiy turi ko'rib chiqilgan bo'lib, bu turdagi nutqning tipik va o'ziga xos xususiyatlari funksional kommunikativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan tizimlashtiriladi, shuningdek, tibbiy diskursning institutsional va kasbiy nutqlar tizimi-dagi o'rnini aniqlash maqsadida sotsiolingvistik, kognitiv va pragmatik yondashuvlar asosida ko'rib chiqildi.

**Калит со'злар:** tibbiy diskurs, professional nutq, institutsional diskurs, pragmatik yondashuvlar, sotsiolingvistik.

#### **TYPES OF DISCOURSE IN MODELS OF RELATIONSHIP BETWEEN DOCTOR AND PATIENT**

**Annotation.** The article examines three main classes of use of the term "medical discourse", sys-tematizes the typical and specific features of this type of discourse from the perspective of functional com-municative linguistics, as well as sociolinguistic, cognitive and pragmatological approaches in order to determine the place of medical discourse in the system of institutional and professional discourses.

**Key words:** medical discourse, professional speech, institutional discourse, pragmatological, so-ciolinguistics.

**Введение.** Роль медицины является предметом обсуждения широкой общественности на про-тяжении последних лет, так как проводимые реформы в системе здравоохранения (института, не-посредственно связанного с жизнью общества и каждого человека), хотя и позволили решить не-которые насущные задачи, но породили и новые проблемы. В контексте изучения медицинского

дискурса актуальной проблемой стало изучение взаимодействия «врач-пациент». Как отмечают исследователи этой проблематики, актуальность вызвана вниманием общества к проблеме установления равноправного партнерства в этой сфере жизни [3].

**Литературный обзор.** Проблема изучения коммуникативных стратегий и тактик в профессиональном дискурсе широко представлена в исследованиях отечественных и зарубежных авторов, таких, как О.С.Иссерс, В.И.Карасик, Н.Д.Аругюнова, Е.В.Харченко, Л.В.Бейлинсон, В.В.Жура, М.И.Барсукова, Э.В.Акаева, J.Gumperz, E.Barton, J.Heritage, D.W.Maynard, T.Peters и мн. др. Однако до настоящего времени актуальным остаётся вопрос определения и дифференциации дискурсивных, когнитивных, коммуникативных и прагматических стратегий, так как анализ работ, посвящённых изучению стратегических характеристик медицинского дискурса, показал существенные, вызывающие путаницу расхождения в определении и классификации данных понятий.

**Методология исследования.** Материалом исследования является диалогическая речь в профессиональной сфере общения (в условиях клиники). Основными методами исследования являются описательный, метод лингвистического наблюдения и интерпретации языковых единиц, дискурс-анализ (структурный, контекстуальный, интенциональный анализы), количественный метод (для выявления частоты исследуемых явлений), а также социолингвистические методы включённого наблюдения и опроса участников дискурсивных событий.

**Анализ и результаты.** Дифференцирующими признаками моделей взаимоотношений являются дискурсивные и коммуникативные проявления власти в диалоге. Дискурсивной характеристикой выступает монополия на речь и информацию, коммуникативными – специфические языковые и речевые индикаторы. Высокая концентрация дискурсивных и лингвистических показателей внешнего влияния в дискурсе является отличительной характеристикой авторитарной модели взаимоотношений, следовательно, более низкие показатели внешнего влияния и приёмы скрытого воздействия свидетельствуют о реализации коллегиальной модели. Промежуточное положение занимают контрактная модель и модель опеки (патернализма) [1].

Изучение отзывов врачей позволило выделить следующие качества «идеального пациента»:  
– малая осведомлённость в медицинских вопросах.

Представленный список качеств пациента свидетельствует о том, что врачам близка патерналистская модель взаимоотношения с больным: «До сих пор в России при общении с пациентом врачи стараются придерживаться авторитарных моделей общения, используя различные приёмы для подчёркивания преимущества своей позиции».

- отсутствие сомнения в способностях и умениях лечащего врача;
- готовность беспрекословно выполнять назначения;
- умение кратко и чётко излагать проблемы и жалобы;
- отсутствие ипохондрии [4].

Представленный список качеств пациента свидетельствует о том, что врачам близка патерналистская модель взаимоотношения с больным: «До сих пор в Узбекистане при общении с пациентом врачи стараются придерживаться авторитарных моделей общения, используя различные приёмы для подчёркивания преимущества своей позиции».

Однако, как показывают исследования, типаж современного пациента изменился и не соответствует традиционным предпочтениям медиков. Современный пациент – это активный, образованный, знающий и требовательный потребитель услуги, ориентированный не только на медицинский эффект лечения, но и на качество жизни, социальные и психологические аспекты своего состояния, стоимость лечения. Для него приобретает ценность признание его как личности, внимательное и уважительное отношение медицинского персонала.

Доминирующая установка по отношению к собеседнику определяет тип речевого поведения и, соответственно, тип языковой личности: конфликтный, централизованный или кооперативный. Каждый из типов представлен двумя подтипами.

*Конфликтно-агрессивный* подтип демонстрирует в отношении к партнеру агрессию (негативную иллюзию), его цель – добиться ощущения собственного превосходства путём причинения собеседнику морального дискомфорта. Речь конфликтно-агрессивного типа личности характеризуется наличием инвективов, насмешек, оскорблений, угроз, упреков, направленных на партнёра по коммуникации.

*Конфликтно-манипуляторский* подтип языковой личности не испытывает уважения к собеседнику, считает низким его интеллектуальный уровень, ставит его на нижнюю по сравнению с со-

бой статусную позицию. Доминирующая линия поведения – навязывание своего мнения, преувеличение собственного авторитета. Речевая партия подобной языковой личности характеризуется наличием поучений, наставлений, бесцеремонной смены темы разговора, перебивания партнера.

*Активно-центрированный* подтип характеризуется игнорирующим типом речевого поведения. Данная языковая личность уважает только собственное мнение, «слышит только себя», в диалоге единолично определяет тему разговора и самостоятельно её развивает, не давая партнеру по коммуникации вставить слово.

Речевое поведение *пассивно-центрированного* подтипа языковой личности характеризуется тем, что выбранные им реплики не соответствуют ситуации общения и ожиданиям собеседника. Говорящий часто отходит от темы, не умеет адекватно поддержать диалог (реплики не впадают), предпочитает темы разговора, интересующие только его.

*Кооперативно-конформный* подтип демонстрирует согласие с точкой зрения собеседника, даже если не вполне разделяет эту точку зрения. В речевом поведении отмечается демонстрация интереса к партнёру по коммуникации: использование тактик запроса информации, поддакивания, проявлении сочувствия, утешения, комплимента и т.д. Целью такого поведения является избегание конфликта, желание войти в доверие к собеседнику.

*Кооперативно-актуализаторский* подтип уважает мнение партнера по коммуникации, стремится понять его, но при этом может выражать несогласие с позицией собеседника. Дифференцирующим принципом актуализатора является двойная перспектива в общении: ориентация не только на собеседника, но и на себя.

Анализ особенностей речевого поведения, целей и установок коммуникантов в сфере «врач-пациент» позволяет определить психосоциальные и языковые типы участников коммуникации и оценить успешность взаимодействия определённых типов.

#### Список использованной литературы:

(1). Барсукова М.И. Медицинский дискурс. Диссертация на соискание ученой степени канд. филол. наук, Саратов, 2007, с. 21.

(2). Ахнина К.В. Сетевой медицинский дискурс: языковые и коммуникативно-прагматические характеристики. Автореф. дис. ... канд. филол. наук, 10.02.01. Москва, 2016, 19 с.

(3). Дзараева Н.А., Рогожникова Р.А. Стратегии и тактики речевого поведения врача, Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Сер. № 1. Психологические и педагогические науки. Вып. 2, ч. 1, электронный научный журнал [электронный ресурс]. Перм. гос. гуманитар.-пед. ун-т., Пермь, 2014.

(4). Зубкова О.С. Медицинская метафора-термин как ментальная репрезентация. «Вопросы когнитивной лингвистики», 2010, № 3, с. 41 – 48.

(5). Карымшакова Т.Г. Лингвистические технологии речевого воздействия в медицинском дискурсе. Дис. ... канд. филол. наук, 10.02.19. Улан-Удэ, 2015, 201 с.

(6). Макушева Ж.Н. Специфика медицинского дискурса на материале аутентичных текстов по специальности. «Филологические науки». Вопросы теории и практики. 2014, № 5 (35), ч. 1, с. 108 – 111.

**Gancherenok Igor Ivanovich (fizika-matematika fanlari doktori, professor, direktor, Belarus–O‘zbekiston amaliy-texnik malakalar tarmoqlararo instituti, Belorussiya Respublikasi; e-mail: gancher@bntu.by),  
Gorbachyov Nikolay Nikolaevich (katta o‘qituvchi, Belorussiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruv Akademiyasi, Minsk, Belorussiya Respublikasi; e-mail: nick-iso@tut.by),  
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich (fizika-matematika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti, Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi; e-mail: jabborov61@mail.ru)**  
**TEKNIK MALAKALARGA ASOSLANGAN BOSHQARUV TA’LIMIDAGI IZCHILLIK:  
AXBOROT RESURSLARINI VIZUALIZATSIYA QILISH**

*Аннотация.* Аxborot resurslarini vizualizatsiya qilish davlat xizmatchisi kasbini boshqarishda, shuningdek, kasbiy boshqaruv faoliyatida tizimli element sifatida taklif etiladi. Vaziyatni modellashtirish va tizimli tahlil usullarini faol qo‘llashni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini innovatsion o‘zgartirish tendentsiyalari qayd etildi. Davlat boshqaruvi tizimining zamonaviy mutaxassisini shakllantirish uchun texnik malakalarning ahamiyati ta’kidlangan.

*Калит so‘zlar:* tizimli yondashuv, davlat boshqaruvi, aqliy xaritalar, vaziyatni modellashtirish, kadrlar tayyorlash, ta’lim sifati.

**Hancharonak Ihar Ivanavich (Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor, Director, Belarusian-Uzbek Interdisciplinary Institute of Applied Technical Qualifications, Minsk, Republic of Belarus; e-mail: gancher@bntu.by),**

**Gorbachev Nikolay Nikolaevich, Senior Lecturer, Academy of Management under the President of the Republic of Belarus, Minsk, Republic of Belarus; e-mail: nick-iso@tut.by),**

**Zhabborov Nasridin Mirzoodilovich (Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor, Tashkent State University of Economics, Tashkent, Republic of Uzbekistan; e-mail: jabborov61@mail.ru)**

### **CONSISTENCY IN MANAGEMENT EDUCATION BASED ON TECHNICAL QUALIFICATIONS: VISUALIZATION OF INFORMATION RESOURCES**

***Annotation.** Visualization of information resources is proposed as a system element in the management of the profession of a civil servant, as well as in professional management activities. The trends of innovative transformation of the educational process are recorded, taking into account the active application of situational modeling and system analysis techniques. The importance of technical qualifications for the formation of a modern specialist in the public administration system is emphasized.*

***Key words:** system approach, public administration, mental maps, situational modeling, personnel training, quality of education*

**Ганчерёнок Игорь Иванович (доктор физ.-мат. наук, профессор, директор, Белорусско-Узбекский межотраслевой институт прикладных технических квалификаций, г. Минск, Республика Беларусь; e-mail: gancher@bntu.by),**

**Горбачёв Николай Николаевич (старший преподаватель, Академия управления при Президенте Республики Беларусь, г. Минск, Республика Беларусь; e-mail: [nick-iso@tut.by](mailto:nick-iso@tut.by)),**

**Жабборов Насридин Мирзодилович (доктор физ.-мат. наук, профессор, Ташкентский государственный экономический университет, г. Ташкент, Республика Узбекистан; e-mail: jabborov61@mail.ru)**

### **СИСТЕМНОСТЬ В УПРАВЛЕНЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ТЕХНИЧЕСКИХ КВАЛИФИКАЦИЙ: ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ РЕСУРСОВ**

***Аннотация.** Визуализация информационных ресурсов предложена как системный элемент в управлении профессией государственного служащего, а также в профессиональной управленческой деятельности. Зафиксированы тенденции инновационной трансформации образовательного процесса с учетом активного применения методик ситуационного моделирования и системного анализа. Подчеркивается важность технических квалификаций для формирования современного специалиста системы государственного управления.*

***Ключевые слова:** системный подход, государственное управление, ментальные карты, ситуационное моделирование, подготовка кадров, качество образования.*

**Введение.** Проблема подготовки кадров государственного управления, качества управленческого образования становятся ключевыми для устойчивого и динамичного развития современного государства [1;3 с.]. При этом принципиальным становится вопрос выверенного управления профессий государственного служащего, особенно в условиях масштабной цифровой трансформации жизнедеятельности государства и общества. В это ситуации вновь актуализируется вопрос подготовки управленца, руководителя в рамках концепции научного менеджмента Тейлора, на что мы указывали в нашей работе [4], упоминая доклад на собрании в 1886 г. в Американском обществе инженеров-механиков Генри Тауна, одного из основателей и руководителей компании «Yale and

Town Manufacturing», с символическим названием «Инженер в роли экономиста». Такое название доклада стало на длительное время основой для «формулы», которая весьма актуальна и сегодня: менеджер=инженер в роли экономиста. Именно этот факт в совокупности с трендом интеллектуальной мобильности и интернационализации высшей школы стали особенностью концептуального развития совместного Белорусско-Узбекского межотраслевого института прикладных технических квалификаций в городе Ташкенте (СБУМИПТК) [5] для подготовки специалистов с высшим образованием для Нового Узбекистана, включая и специалистов государственного управления.

**Инновационные образовательные технологии и визуальное мышление.** В условиях цифровой экономики и конкурентных отношений, глобализации функционала и снижения доступности ресурсов государственное управление направлено на инновационность подходов и подключение актуальных информационно-коммуникационных технологий, обеспечивающих ограничение потребляемого объема информационных ресурсов при более высоком уровне их качества (информативности). В связи с возрастанием объема информации руководителям для принятия обоснованных решений необходимо предоставить эффективные технологии сбора первичных данных, их агрегиро-

вания (интеграции, обобщения) в виде стратегических карт, сбалансированных систем показателей и социально-экономических индексов, их фильтрации, обработки и визуализации. Это осуществляется в рамках проектного управления, бюджетирования, системного и ситуационного анализа и в той или иной мере уже используются при подготовке принятия решений (совещания, штабы). Вместе с тем требуется кардинально повысить их эффективность за счёт использования современных технологий [6]. Основными инструментами здесь выступают ситуационно-аналитические центры (САЦ) различных уровней (национальные, региональные, отраслевые, корпоративные, персональные) и единое информационное пространство государственных органов, ориентированное на соответствующие web-сервисы и центры обработки данных (автоматизированные рабочие места). Функциональной базой САЦ должны стать электронные административные регламенты и стандарты государственных и деловых услуг.




Рисунок 1. Фрагмент ментальной карты понятия «Визуальное мышление».

Одна из существенных задач САЦ ориентирована на сокращение реакции по локализации, оценке и разрешению проблемных ситуаций (ПС). Для эффективного восприятия ПС заинтересованными сторонами следует использовать мультимедийные средства для представления (визуализа-

ции) её описания в сжатой форме. Всем государственным служащим и управленцам вообще существенно важно освоить технологии как эффективной визуализации информационных ресурсов подготовки и принятия решений, так и их использования (интерпретации) в управленческой практике. Введённое в управленческую практику понятие «визуальное мышление» [7] во многом определяет эффективность современных управленцев. Следует отметить, что это понятие несколько отличается от понятия «пространственное мышление» серьёзно освоенное инженерными, архитектурными, военными и рядом других специальностей.

В настоящее время инструментарий форм и технологий визуализации достаточно широк. Основные направления в этой сфере представлены в рамках соответствующей ментальной карты (рисунок 1).

Среди рассматриваемых аспектов визуального мышления следует выделить следующие:

- системность, которая характеризуется границами визуализации и визуального восприятия, целостностью представляемого информационного фрагмента и целостностью восприятия, иерархичностью визуализации, а также масштабируемостью визуализации;
- методики, включающие диапазон от графиков до виртуальной реальности (при этом рассматривается как использование отдельных методик, так и их совокупностей в различном сочетании, обеспечивающее эффективное восприятие и анализ информационных ресурсов);
- интеллектуализация, реализующая возможности использования искусственного интеллекта (ИИ) и взаимодействия с ним (здесь рассматриваются генерация визуальной информации «управленец ↔ ИИ», выбор ИИ форм представления информационных ресурсов, интеллектуальный анализ удовлетворённости заинтересованных ЛПР в информационной обеспеченности, автоматическая трансформация визуализируемого образа ПС, реализация интеллектуального советчика форм представления информационных ресурсов, локализация ИИ образа ПС для ЛПР;
- информационные ресурсы визуализации, в том числе шрифты (форма, цвет, их взаимодействие и т.д.), графические примитивы (2D, 3D и 4 D), палитра (сочетания и сочетаемость цветов, цветовое кодирование), структура (сведения об элементах, связях, свойствах ПС, используемых и регламентированных шаблонах и стилях).

Отдельно следует рассмотреть такой аспект визуального мышления, как технологии. Здесь выделяются следующие группы технологий (рисунок 2):

- когнитивно-визуальные (инфографика, метафорическое моделирование, визуальная матрица, иконографика, когнитивная визуализация, эйдографика, пиктографирование и другие);
- технологии «скетчноутинга» (опорные сигналы В.Ф.Шаталова: смысловые, ассоциативные, аббревиатурные, вербальные (рисунок 3) [8]);





Рисунок 2. Фрагмент ментальной карты технологий визуального мышления.






**Рисунок 3. Фрагмент опорного конспекта по формированию имущества предприятия.**

